# O’zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi
# A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti

**“Tarix” fakulteti**

**“Tasdiqlayman»**
**O’quv ishlari prorektori**
**____prof. N. Alimov__________**
**«______»_____________2010yil**

***"O’RTA ASRLAR TARIXI”***
**fani buyicha zamonaviy pedagogik texnologiya asosida yezilgan**

**MA’RUZALAR MATNI**

Bilim sohasi: 100 000 - Ta’lim
ta’lim sohasi: 140 000 - O’qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani

Bakalavriat yo’nalishlari: 514 06 00 - Tarix

Jizzax-2010

## ANNOTASIYA

Yevropa va Osiyoda V-XVII asrlarda feodal munosabatlarning qaror topishi.V-asr oxiridagi va XVII asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy davrning uchta bosqichlari. Uyg'onish davri arboblarining faoliyati va g'oyalari bilan tanishish. Quldorlik tuzumining inqirozi. Xalqlarning buyuk ko'chishi Feodal jamiyatining qaror topishi. Yevropada xristianliknng hukumronligi. O'rta asr shaxarlari va davlatlarining tashkil topishi. Islom dinining paydo bo'lishi va yoyilishi Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi. O'rta asr madaniyati.

**Tuzuvchi:** dos A.Boltayev

**Taqrizchilar:** dos.Mirkomilov B
"O'zbekiston tarixi"
kafedrasi mudiri
dos.Nurqulova R

**«Urta asrlar tarixi» fanidan I yarim yillik uchun dars soatlarining taksimlanishi**

| № | Mavzular | Ma'ruza soatlari | Amaliy mashgulot | Mustakil ta'lim soatlari |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Kirish. Urta asrlar tarixi kursining predmeti, manbalari va urganish axamiyati. | 2 | | |
| 2. | Ilk urta asrlarda Xindiston | 2 | 2 | |
| 3. | Ilk urta asrlarda Xitoy | 2 | 2 | |
| 4. | Fransiya davlatida feodal munosabatlarning rivojlanishi. Fransiya kirolligini tashkil topshi. | 4 | 2 | 2 |
| 5. | III – IV asrlarda Eron. | 2 | | 2 |
| 6. | IV – V asrlarda Rim imperiyasi kuldorlik tuzumini inkirozi | 4 | | 2 |
| 7. | Salib yurishlari. | 4 | 2 | 2 |
| 8. | VI – XI asrlarda Vizantiya imperiyasi | 2 | 2 | |
| 9. | VII – XI asrlarda Garbiy Yevropada Slavyan davlatlarining vujudga kelishi. | 2 | 2 | 2 |
| 10. | VI – XI asrlada Arablar | 2 | 2 | |
| 11. | Rim imperiyasi xududida vujudga kelgan kirol-liklar. Rim imperiyasining varvarlar tomonidan istilo kilinishi. | 4 | 2 | 2 |
| 12. | IX – XI asr urtalarigacha Angliya. | 2 | | 2 |
| 13. | XI – XV asrlarda Germaniya. | 2 | 2 | 2 |
| 14. | XI – XV asrlarda Angliya | 2 | 2 | |
| 15. | XI- - XV asrlarda Vengriya | 2 | | 2 |
| | | | | |
| | Jami: | 38 | 20 | 18 |

**«Urta asrlar tarixi» fanidan 2 yarim yillik uchun dars soatlarining taksimlanishi.**

| № | Mavzular | Ma'ruza soatlari | Amaliy mashgulot | Mustakil ta'lim soatlari |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **1-2 - mavzu: Uygonish (renessans) davrini urganishning muxim urni.** | | | |
| 2. | **3-mavzu: XVI-XVII asrlarda Turkiya.** | | | |
| 3. | **4-mavzu: XII-XV asrlarda Rus davlati** | | | |
| 4. | **5-6. Mavzu: XI-XV asrlarda Fransiya** | | | |
| 5. | **7-8. Mavzu: Buyuk geografik kashfiyotlar.** | | | |
| 6. | **9-10. Mavzu: 1618-1648 yillardagi Uttiz yillik urush.** | | | |
| 7. | **11 - mavzu: XIII asrda mugul davlati va uning istilolari.** | | | |
| 8. | **12 - 13. Mavzu: XVI-XVII asrlarda Shvesiya** | | | |
| 9. | **14 - mavzu: XVI-XVII asrlarda Italiya** | | | |

## 1-mavzu: O'rta asrlar tarixi kursining predmeti, manbalari va o'rganish axamiyati

*Ajratilgan soat: 2*
*Mashgulot turi: ma'ruza*

**Asosiy savollar:**

1. O'rta asrlar tarixi kursining predmeti, maksadi va vazifasi.
2. O'rta asrlar tarixini davrlanish muammollari
3. O'rta asrlar kursining manbalari

**Tayanch iboralar:**
O'rta asrlar tarixi, tarixshunoslik, kuldorlik, feodalizm, davrlanish, ashyoviy manbalar, yozma manbalar, o'rta asrlar tarixini o'rganish axamiyati.

**1-asosiy savol**:
O'rta asrlar tarixi kursining predmeti, maksadi va vazifasi

**O'kituvchining maksadi:**
O'rta asrlar tarixi kursi nimalarni o'rgatishini tushuntirish, kurs maksad va vazifalarini ochib berish, o'rta asrlar tarixi tarixshunosligini sharxlab berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
1.1. Urta asrlar tarixi predmeti nima ekanligini tushunadi.
1.2. «Urta asrlar» atamasini izoxlaydi
1.3. Urta asrlar tarixi kursining maksad va vazifalarini ochib beradi

**1-asosiy savol bayoni:**
Tarix fani bugungi kunda xar kachongidan xam e'tiborga molikdir. Mamlakatimiz takdirida nixoyatda muxim bulgan ushbu davrda, xar bir sof vijdonli, vatanparvar shaxs, unda faol ishtirok etishi, mavjud muammolarning kalitini, yechimini axtarishi lozim. Bu kalit – jaxon xalklarining kup asrlik tarixidir. Tarix saxnasida inson uzining fazilatlari va nuksonlari bilan xamisha asosiy omil bulib kelgandi. Shu sababdan utmishni jonli, doimiy rivojlanishda bulgan mujassam birlik – ya'ni insoniyat tarixini bilmay turib, biz bugungi kunni tushunishimiz, bulayetgan jarayenlarni anglab yetishimiz kiyin buladi.

Jaxon xalklarining utmish tarixini urganganimizda, bizga uzok vakt singdirib kelingan goya tarixni sinfiy kurashlar nuktai nazaridan baxolash yoki nourin burttirib kursatishlardan saklanmogimiz zarur. Sababi, kadimgi dune va urta asrlar davrida siyosiy vaziyat, mafkura doirasi uzgacha bulganligi xammamizga ma'lum. Kolaversa, davr maxsuli: tarixiy shaxslar, oddiy fukarolardan tortib kirollargacha xamma-xammalarning uz goyalari, tushunchalari, maksad va intilishlari bulganligi tabiiy. Utmishdagi xar bir jamiyat uzidan avvalgisiga nisbatan ilgarirok bulib, unda yashagan barcha insonlar xamisha yaxshilikka, ezgu niyatlar sari intilganlar. Tarixiy tarakkiyet insoniyatning asrlar osha tuplagan bilimlarini, ongi, maksadlari, talablari kupayib borishi bilan uzviy boglikdir. Biz urta asrlar tarixini chukur urganish borasida uzimiz uchun ushbu konuniyatlarni yana bir bor kashf etamiz. «Urta asrlar» degan termin deyarli yangi termindir. Bu terminni XVI-XVII asrlarda utgan gumanist-tarixchilar kiritgan bulib, ular xam buni uz navbatida gumanist-filologlardan olganlar. Gumanist-filologlar lotin tilini kadimgi, urta va yangi (Renessans yeki Uygonish davri – yangi davr deb atalgan) til deb, uchga bulganlar. Bu terminologiya XVIII asrda uzil kesil karor topdi.

Tarixshunoslik ilmida urta asrlar tarixi uzok davrni, milodning V-XVII asrlarini uz ichiga olib, uni dune xalklarining deyarli xammasi uz boshidan kechirganlar. Ma'lumki, kadimgi dune kuldorlik jamiyati Shark dunesida vujudga kelib, Misr, Bobil, Xindiston, Xitoy mamlakatlarida uzining yuksak tarakkiyetiga erishgan. Uning sunggi davrida yuksak rivojlanish markazi asta-sekin Garb dunesiga kuchdi. Feodalizm jamiyati esa xuddi shu, insoniyat tarixida muxim urin tutgan Yevropa mamlakatlarida ayniksa tez rivojlanib, katta muvaffakiyatlarga erishdi. Kuldorlik jamiyati goyalarining yuksalishini, unda paydo bulgan karama-karshiliklarni, uning tanazzulini milodning V asridan boshlab biz asosan Rim kuldorlik imperiyasi misolida urganishimiz mumkin. Urta asrlar tarixidagi eng muxim vokealar katorida xristian va

islom dinlarining paydo bulishi va keng tarkalishini aloxida ta'kidlash lozim. Garb mamlakatlari feodal jamiyati, davlatchiligi xamda madaniyatida xristian dinining xukmron dinga aylanishi kanchalik axamiyat kasb etsa, islom dinining yaratilishi va tarkalishi xam Shark dunesidagi yuksak madaniyatni vujudga kelishida shunchalik xissa kushdi. Urta asrlar Renessansi, Uygonish davrining jaxon xalklari madaniyatiga kushgan xissasi benixoya kattadir. Shark va Garb dunesining buyuk allomalari madaniyat tarixida uchmas iz koldirdilar.

Tabiiy, feodalizm tarakkiyeti davri fakat ijobiy vokealardan tashkil topmagan. Insoniyat tarixidagi xech kanday jamiyatda xukmron sinf vakillarining shaxsiy erkinliklari va xukuklari feodal jamiyatidagi kabi cheksiz xudbinlik darajasiga kutarilmagan. Uz navbatida, oddiy fukarolarning axvoli esa feodalizmdagi kabi ogir va taxkirli emas. Urta asrlarda jaxon xalklari uz boshlaridan kuplab kulfatlarni: ocharchiliklar, ulatlar, urushlar va talonchiliklarni kechirganlar. Ular uzlarining taxkirli, ogir xayetlarini uzgartirish uchun kuzgolonlar kilganlar.

Shunday kilib, Urta asrlar tarixining predmeti jaxon xalklari tarixidagi kuldorlik tuzumini xamda feodalizm davrini urganishdir. Urta asr Yevropasi tarixi Rim kuldorlik imperiyasining kulashidan boshlanadi. Bu imperiya ichki karama-karshiliklar natijasida, ya'ni kuldorlik xujaligining krizisi, sinfiy kurashning goyat keskinlashib ketganligi, Italiyaning zaiflashib ketganligi xamda iktisodiy va siyesiy alokalarning uzilib ketganligi natijasida, shuningdek tashki sharoitlar natijasida – varvarlarning ommaviy xujum kilishi natijasida kuladi. Varvarlar imperiyani bosib olib uning xududida bir necha kirolliklar tuzadi. Bu kirolliklar Yevropada keyinchalik vujudga kelgan milliy davlatlarning kurtagi buladi.

Urta asrlar tarixini urganishdan maksad shuki, urta asrlar tarixi kuldorlik tuzumining yemirilish sababalari va feodal ishlab chikarish usuli xukmron bulgan davr ekanligini kursatishdir. Bu maksadga erishmok uchun kuyidagi vazifani xal etmok lozim. Urta asrlar tarixi ming yildan ortikrok davr tarixi ekanligini anglamok, bu davrda Garbiy va Sharkiy Yevropa, xamda Osiyo va shimoliy Afrika xalklari xam ularning ijtimoiy tarakkiyetlarida aloxida bir boskichni – feodalizmni boshlaridan kechirganliklarini kursatmok lozim. Feodalizm tuzumining karor topishi, uning gullashi va nixoyat chirib, tushkunlikka yuz tutishi urta asrlar tarixining ijtitmoiy-siyosiy mazmunini tashkil etganligini, urta asrlardagi jamiyatning butun xayoti feodal ishlab chikarish usuliga asoslanganligini kursatmokdir.

**Nazorat topshiriklari:**

1. «O'rta asrlar» atamasi tushunchasini ochib bering.
2. O'rta asrlar tarixi qaysi asrlar tarixini urganadi.
3. O'rta asrlarda ijtimoiy siyesiy munosabatlar tuzumini kursating

A. Ibtidoiy jamoa va kuldorlik
V. Kapitalizmdan sosializmga utish davri
S. Kuldorlikning gullab yashnagan davri
D.Feodalizm inkirozi va kapitalizmning vujudga kelish davri
Ye. Kuldorlik tuzumining tanazzulga uchrashidan butun feodalizm davri

1. O'rta asrlar Garb va Shark feodalizmini kiyoslang.

**2-asosiy savol:**

O'rta asrlar tarixini davrlanish muammolari.

**Ukituvchining maksadi:**

O'rta asrlardagi jamiyat va davlat tarakkiyotidagi asosiy boskichlarning xronologik ramkalarini kursatish, nega aynan shunday xronologik chegara utkazilishini tushuntirish, jamiyatdagi ijtimoiy–siyosiy va iktisodiy vaziyatdan kelib chikib, davrlashtirish malakasini tarkib toptirish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

2.1. Urta asrlar tarixi boskichlarini ajratadi.
2.2. Urta asrlar tarixi davrlari xronologik chegaralarini biladi.
2.3. Mazkur xronologik davrlarni tavsiflaydi.

**2-asosiy savol bayoni:**

Urta asrlar tarixi odatda uchta katta bulimga bulinadi:

1) **Ilk urta asrlar** – V asrdan boshlab taxminan XI asr oxirlarigacha bulgan davrni uz ichiga oladi. Bu davr feodal tuzumining tashkil topishi, feodal jamiyatining asosiy iktisodiy xujayrasi bulgan feodal pomestyesining vujudga kelishi, feodallar tabakalarining va feodal iyerarxiyasi deb atalgan iyerarxiyaning tashkil topishi, urta asr feodal Yevropasida asosiy mafkuraviy kuch bulgan katolik cherkovi ta’sirining butun Garbiy Yevropaga yoyilishi davridir.

2) **Urta asrlarning ravnaki** – XI-XV asr urtalarini uz ichiga oladi. Bu davrda feodal ishlab chikarish usuli kishlokda tula rivojlanibgina kolmay, balki sex xunarmandchiligiga va uziga xos shaxar ijtimoiy tuzumiga ega bulgan urta asr shaxarlari xam rivojlanib, muvaffakiyatlarga erishdi. Bu tuzumning xususiyati shaxarlarning feodallar xukmronligidan ilk xalos bulishi, erkin shaxar deb atalgan shaxarlarning yoki respublika-shaxarlarning vujudga kelishidir. Urta asrlarning birinchi davridagi siyosiy tarkoklikka karama-karshi ularok, ikkinchi davrda markazlashgan yirik davlatlar tashkil topdi, shu bilan birga kirol xokimiyatining obru-e’tibori oshdi, tabakalar vakilligi muassasalari vujudga keldi, tabakali monarxiya deb atalgan monarxiyalar tashkil topdi. Dexkonlarning feodalizm chiriy boshlaganligi okibatida kutarilayotgan kuchli kuzgolonlari XIV va XV asrlardagi Garbiy Yevropa jamiyatini larzaga keltirdi, bu kuzgolonlar kupincha shaxarlardagi pastki tabaka elementlar – plebeylar xarakati bilan kushilib ketgan edi.

*3)* **Keyingi urta asrlar** – XVI asrni va XVII asr birinchi yarmini uz ichiga olib, bu davr feodalizmning chirishi va feodalizm ichida kapitalizm elementlarining yetilishi davridir. Asosan mustakil ishlab chikaruvchilarni ishlab chikarish vositalaridan maxrum kilishdan, ya’ni mexnatkashlarning ishlab chikarish vositalarini ekspropriasiya kilishdan iborat bulgan dastlabki jamgarish davri deb atalgan davrdir. Yevropa reformasiyasi deb atalgan davrdir, dexkonlarning XIV va XV asrlardagiga karaganda yanada kuchlirok kuzgolonlari (dexkon urushlari) va ilk burjua inkiloblari davridir. Bu davrda Yevropada davlatning asosiy siyosiy formasi absolyutizm bulib, bu absolyutizm xalk ommasining kurashini bostirish uchun markazlashgan xokimiyatning kuchayishidan manfaatdor bulgan dvoryanlarga tayanar edi xamda xokimiyatni tugridan – tugri uz kuliga olish uchun xalk yetarli darajada kuchli bulmagan burjuaziya bilan xam ittifokda edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Urta asrlar tarixi nechta bulimga bulinishini toping
   A. turtta
   V. ikkita
   S. uchta
   D. oltita
   Ye. Javoblarning barchasi notugri
2. Urta asrlar ravnaki kaysi asrlarga tugri kelishini kursating.

A. V asrdan boshlab XI asrgacha
V. XI – XV asr urtalarida
S. XVI asrdan XVII asr birinchi yarmigacha
D. XVII asrdan XIX asr urtalarigacha
Ye. IV asrdan XII asrgacha

3. Keyingi urta asrlarda Yevropada davlatning asosiy siyosiy formasi ____________________________ bulgan.
4. Urta asrlar boskichlarini tavsiflang.
5. Urta asrlarda kuchli kuzgolonlar sababini ayting.

**3-asosiy savol:**
Urta asrlar tarixi kursining manbalari

**Ukituvchining maksadi:**
Urta asrlar tarixi manbalarini turkumlash xakida tushuncha berish, urta asrlar manbalarini umumiy tavsiflab berish, manbalar bilan ishlash va ularni urganish uslublari bilan talabalarni tanishtirish, manbalar bilan ishlash malakasini xosil kilish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

3.1. Urta asrlar tarixi manbalarini turkumlarga ajrata oladi.
3.2. Asheviy va yozma manbalar turlarini biladi.
3.3. Urta asrlar tarixi manbalarini tavsiflaydi.
3.4. Manbalar bilan ishlashni urganadi.

**3-asosiy savol bayoni:**

Tarixiy manbalar deganda biz inson faoliyati yoki uning ta'siri natijasida yaratilgan barcha ashyolarni tushunamiz. Jaxondagi kupgina tarix muzeylarida urta asrlar davriga oid yodgorliklar, mexnat kurollari, kurol-yaroglar, tanga-chakalar, kiyim–kechaklar, uy jixozlari va idishlar saklanmokda. Xozirgi kunga kadar Yevropa, Osiye, Afrika va Amerikaning kuxna shaxarlarida feodalizm davriga oid kuplab uy – joylarni, butun-butun maxallalarni, kal'a devorlari va minoralarni, ajoiyb ibodatxonalaru, me'morchilik san'atining boshka durdonalarini kurishimiz mumkin.

Asheviy manbalarning nakadar muxim axamiyatga ega ekanligini albatta inkor etib bulmaydi. Lekin shu bilan birgalikda biz feodal jamiyat tarixini, madaniyatini, xalkning axvoli va turmushini urganishni yozma tarixiy manbalarsiz tasavvur kila olmaymiz. Bu xildagi manbalar dunyodagi barcha mamlakatlar xujjatxonalarida – arxivlarda saklanmokda.

Urta asrlar tarixiga oid yozma manbalarni uch turga bulishimiz mumkin:

1. Tarixiy yilnoma va kissalar. Ularda kupincha siyosiy vokealar uz aksini topgan bulib, xalkning kundalik xayoti nisbatan kam tasvirlangan.
2. Xujjatlar Ijtimoiy-iktisodiy, xukukiy va siyosiy xayotni yurituvchi xujjatlar, shuningdek jarimalar, soliklar, boshkaruv va sud faoliyatlari bilan boglik bulgan yozma manbalardan tashkil topgan.
3. Konunchilik bilan boglik manbalar. Ular tuzilishi jixatidan xukukshunoslikka oiddir. Feodalizm davridagi mavjud konunlarga imperator, podsho yoki kirollar tomonidan kuplab uzgartirishlar kiritilgan, ularning xukmronligi faoliyatiga oid yozma manbalar xam shular jumlasiga kiradi.

Rivojlangan feodal jamiyati davrida (XIII-XV asrlar) yozma manbalarning yangi turi, badiiy adabiyot shakllandi. Urta asrlarda Guttenberg tomonidan kitob bosish kashf etilgunga kadar (1445 y) yezilgan xamma xujjat va kitoblar kulyozma sifatida, xattotlar tomonidan yaratilgan. Va nixoyat san'at asarlari manbalarining uziga xos turi bulib, ular ustida aloxida tuxtalib utish lozim. Badiiy san'at asarlari, me'morchilik, rassomchilik, xaykaltaroshlik va amaliy san'at soxalaridagi ashyoviy manbalar iloxiy va oddiy insonlarning jonli siymolarini kuz oldimizda gavdalantiradi. Bizga davr ruxini, gam-tashvishlariyu kuvonchlarini yetkazib beradi.

Tarixchi olimlar yukorida kursatilgan xilma-xil manbalardan foydalanib, ularni kiyoslab, usha zamon kishilarining xayotini, kizikarli vokealar va butun bir tarixiy davrlarni izoxlab beradilar.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Urta asrlar tarixi kanday manbalarga asoslanib urganilishini kursating.

A. Moddiy va yozma.
V. Tarixiy va madaniy
S. Xujjatlar va kitoblar
D. Me'morchilik va san'at durdonalari
Ye. Ashyoviy va arxeologik

1. Yozma manbalar ________________________________ turga bulinadi, bular________________________________________________dir.
2. San'at asarlarini manba sifatida ta'riflang.

**Adabiyotlar:**

1. Semenov V.F. Urta asrlar tarixi. – T.:Ukituvchi, 1973
2. Lyublinskaya A. D. Istochnikovedeniye istorii srednix vekov.- L.:Gosizdat, 1955.
3. Yevropa v sredniye veka: ekonomika, politika, kultura. Sb.statey. – M.:Nauka, 1972.

**Mustakil ta'lim va mustakil ishlash uchun savol va topshiriklar:**

1. Insoniyat tarixida urta asrlarning tutgan urnini ochib bering.
2. Urta asrlar tarixini yerituvchi tarixiy yilnomalar va kissalar xakida ma'lumot toping va gapirib bering.

## 2-mavzu: Ilk urta asrlarda Xindiston.

*( 2 soat maruza )*

**Asosiy savollar :**

1. Gupta davlatining vujudga kelishida Xindistonning ijtimoiy tuzumi.
2. Xindistonda madaniyatning ravnak topishi. Xind dinining evalyusiyasi.
3. Gupta davlatining tugashi natijasida Xarsha davlatining vujudga kelishi va Xindistonga arab va turklarning kirib kelishi. Dexli sultonligining tuzilishi.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**
Gupta davlati, braxman, roja, kshatriy, zodagon, gang, vaymiya, shudra, buddizm, eftalit, feodal, «shox farzandlari», rajput, ibodatxona, Dexli sultonligi imperiya, Alkishlangan Shakuntala, mifologik, genial, koxin.

**1-asosiy savol:**
Gupta davlatining vujudga kelishida Xindistonning ijtimoiy tuzumi.

**Ukituvchining maksadi**: Gupta davlatining vujudga kelishida Xindistonning ijtimoiy, tuzumini tushuntirib berish Gupta davrida Xindistonda kuldorlik sistemasining yemirilish shart-sharoitlarini ochib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

1.1. Gupta davlatining ijtimoiy tuzumini biladi.
1.2. Gupta davrinida Xindistonning ijtimoiy axvolini tushuntirib beradi.
1.3. Xindistondagi kuldorlik tuzumiga baxo beradi.

**1-savolning bayoni:**
IV asrning boshlarida Xindiston bir necha unlab mayda va yirikrok davlatlardan iborat bulib, bu davlatlar tepasida kichik-kichik podsholar- rojalar turar edi, ular xukmron tabakalarga–braxmanlar tabakasiga (koxinlarga) va kshatriylar tabakasiga (xarbiy zadogonlarga) suyanar edi. 320 yilda shimoliy Xindistonning shunday rojalaridan biri Chandragupta I (320 – 340 ) tevarak – atrofidagi podsholarni uziga buysindirib, Gang daryosi xavzasida xiyla katta bir davlat tuzdi, bu davlat Gupta davlati deb atalib, VI asrning boshlarigacha yashadi. Chandragupta I ning vorislari zamonida, ulardan ayniksa Samudragupta (340 – 380) va Chandragupta II (380 – 414) uzlarining istilolari bilan mashxur edilar. Gupta davlati Gang daryosining kuyi okimini xam, to uning dengizga kuyiladigan joyigacha, shuningdek, Dekan yassi toglarining bir kismidan to Narbad daryosigacha bulgan yerlarni uz ichiga olar edi. Gupta davlatining poytaxti Pataliputra shaxri edi.
Gupta podsholari Sosoniylar Eroni bilan kizgin savdo-sotik olib bordi va madaniy aloka kildi. Ular Xindistonning shimoliy chegaralarini Urta Osiyolik kabilalarning xujum xavfidan uzok vaktgacha sakladi. Gupta davrida Xindiston iktisodiy va madaniy jixatdan juda yuksaldi. Xozirgi Xindistonda eng keng tarkalgan xinduizm dinining vujudga kelishi xam usha davr bilan boglangandir. Gupta davrida Xindistonning ijtimoiy tuzumi asosan xali kuldorlik xarakterini saklab kolgan edi. Kullar turli irrigasiya va kurilish ishlarida, kishlok xujaligida xamda kupdan-kup xizmatkor va malay sifatida uy-ruzgor ishlarida keng foydalanilar edi. Kullar bozori keng yulga kuyilganicha davom etmokda edi. Kullar Osiyodangina emas, xattoki Afrikadan xam keltirilar edi. Xind jamiyatida kuldorlikka xos alomatlarning mavjudligi axolining kastalarga (tabakalarga) karab bulinishida xam namoyon bulgan edi, bu bulinish Gupta davrida xam saklanib, yanada rivojlanmokda edi. Kadimiy kastalarning turtta asosiy turi – braxmanlar (koxinlar), kshatriylar (jangchilar), vayshiyalar (dexkonlar, xunarmandlar, savdogarlar) va shudralar (sobik kulllarning va xar toifadagi karam kishilarning eng past tabakasi bulib, bular «kishi xazar kiladigan» ishlarni bajaruvchi kishilar edi) –xali juda kadim zamonlarda tarkib topgan xind jamiyati sosial strukturasining turli boskichlarini ifoda etadi. Urta asrning boshlarida xind kastalari ancha evolyusionlashdi. Braxmanlar va kshatriyalar koxin va xarbiy tabakalarga aylanib ketdilar, davlat xokimiyati ularning kulida edi, shu bilan birga ular juda kup kullari bulgan eng yirik yer egalari edilar. Ikkinchi bir urtacha va past darajadagi kastalar vakt utishi bilan maydalashib bordilar. Gupta davrida kastalarning mikdori bir necha un turdan

oshdi. Jamiyatning shudraga oid eng tuban kastasi «xazarli kishilar» deb atalar edi, chunki ular oliy kasta vakillariga yakinlashsa, bu oliy zotlarni guyo xarom kiladi deb xisoblanardi.
Eng past kastalarning xak-xukuksizligi, xurlanishi kuldorlik tuzumining ideologiyasini eng yorkin ifodasi edi, kuldorlik tuzumi davrida kishilar bir tomondan, tula xukukli, erkin kuldor-xukmdorlarga, ikkinchi tomondan, butunlay xak xukuksiz, xurlangan, zadalangan kullarga yoki shularga uxshab ketadigan kishilarga bulingan edi.
Ammo Xindistondagi kuldorlik tuzumining yana bir xarakterli xususiyati shu ediki, rivojlangan kuldorchilik va ekspluatasiyaning kuldorlik sistemasi bilan bir katorda goyat katta iktisodiy axamiyatga ega bulgan jamoa dexkonchiligi xam doim mavjud bulib, yashab kelmokda edi. Kishlok jamoasi kuldorlik tuzumi davrida xam, keyinchalik borib feodalizm davrida xam xind jamiyatining kuyi sosial-iktisodiy yacheykasi bulib xizmat kildi, bu jamiyat shu yacheyka ustiga kurilgan edi.
Birok gupta davri kuldorlik sistemasining tushkunlikka yuz tuta boshlaganligi bilan tavsiflanadi. Kuldorlik tuzumi zamirida feodal tuzum elementlari tashkil topayotgan edi. Garbiy Yevropa va arab xalifaligi mamlakatlarida kurganimizdek, feodal jamiyatning negizi bulgan juda kup sonli jamoa dexkonchiligining mavjudligi xind jamiyatiga kuldorlik tuzumidan feodal tuzumga utishni yengillashtirdi. Gupta davrida kulchilik tugatilib, feodalizm tugila boshlaganligi bir kancha faktlardan kurishimiz mumkin. Kullar tez-tez erkin kuyib yuboriladigan va muayyan xizmatlarni utash sharti bilan ularga uncha katta bulmagan yer uchastkalari ajratib beriladigan buldi. Poshdo xujaligidagi yerlarning xammasida xam kullar ishlamas edi. Bu yerlarning talay kismi xosilning bir kismini podsho xujaligiga topshirish sharti bilan ijaraga berilar edi. Mayda ijarachilikka utilishiga sabab, manbalarning kursatilishicha, kullarning yetishmasligi edi. Shu bilan bir vaktda kishlok jamoasining uz ichida muxim jarayonlar yuz bermokda edi. Ishlab chikaruvchi kuchlarning usishi va ishlab chikarish kurollarining takomillashishi natijasida kichikrok oilaning kuchi bilan xam xujallik yuritish mumkin bulib koldi. Katta oilalar mayda - mayda oilalarga bulinib ketdi. Oddiy jamoachilarning bir kismi xonavayron bulib, jamoaning ancha boyrok a’zolariga karam xoliga tushib kolar edi. Jamoaning ichida ekspluatatorlar katlami bunyodga kelar edi, bularning juda kup mol-xayvonlari va mexnat kurollari bulib, xonavayron bulgan jamoachilarni ekspluatasiya kilar edilar. Bularning xammasi okibat-natijada feodal karamligi munosabatlarining urnatilishiga olib kelar edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Gupta davlatining poytaxtini kursating?

A) Pataliputra
V) Xarshi
S) Braxmagupta
D) Shikarpur
Ye) Bonarax

2. Gupta davrida Xindistonning ijtimoiy tuzumi asosan kaysi tuzumni saklab kolgan edi?

A) Yer egaligi
V) Kuldorlik
S) Feodallik
D) Varvarlik

3. Gupta davrida Xindistonda kuldorlik sistemasining tushukunlikka yuz tutishi okibatlarini gapiring?
4. Gupta davlatining ijtimoiy tuzumi kanday edi?
5. Gupta davlatining Xindistonda tutgan urnini aytib bering?

**2-asosiy savol:**

Xindistonda madaniyatning ravnak topishi. Xind dinining evolyusiyasi.

**Ukituvchining maksadi:** Gupta davrida Xindistondagi madaniyat xakida aytib berish, V-VI asrlarda tashkil topgan xinduizm dini va buddizm urtasidagi farkga baxo berish va ularning faoliyatini tushuntirish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

2.1. Xindistonda madaniyatning ravnak topishidagi asosiy omillarni aytib beradi.
2.2. Xind fanining kay darajada ekanligini angalab yetadi.

2.3. Xind dinining evolyusiyasiga baxo beradi.

**2 – asosiy savolning bayoni:**

Gupta davlati davridagi madaniyat avvalo, klassik monemental arxitekturaning rivojlanishi bilan tavsiflanadi., bu davrda juda kup ibodatxona va saroylar kurilgan edi. Gupta davrida kurilgan binolarning kupi keyinchalik xorijiy istilochilarning Xindistonga kilgan xujumlari natijasida vayron kilib tashlangan edi. Lekin xar xolda usha davrdan saklanib kolgan ba’zi bir binolarga karab, ularning juda moxirlik bilan kurilganligi tugrisida tasavvur xosil kilish mumkin. Masalan, baxaybat yaxlit toshlarning ichini gor kilib uyib ishlangan Ellara va Ajanta ibodatxonalari ushanday kurilishlar jumlasidandir. Ibodatxonalar ichida kadimiy xind va budda afsonalaridan olib ishlangan xaykallar benixoya kup bulib, bularda kishilarning figuralari ifoda etilgan. Bu figuralar uzining guzalligi va ulugvorligi bilan kishini xayratda koldiradi. Ibodatxona devorlari xilma-xil suratlar bilan bezatilgan. Gupta davridagi rassomlar va ustalar metallga pardoz berishda yuksak san’at chukkilarini egallaganlar. Eramizdan avvalgi IV asrning oxiri V asrning boshlarida kuyma temirdan ishlangan ustun xozirga kadar Dexlida saklanib kelmokda., u kariyib bir yarim ming yil davomida ochiklikda jazirama kuyosh va yomgir ostida kolib, ketishiga karamay, uni xatto zang xam bosmagan.

Gupta davrida xind fani katta muvaffakiyatlarga erishdi. Bir kancha munnajimlari (astronom) ning nomi Xindostondagina emas, V-VI asrlarda yashagan, grek fani va astronomissi bilan tanish bulgan Aryabxata, Varaxamixira va Braxma Gupta ayniksa ajralib turadi. Xindistonda bu davrda tibbiyot ayniksa ut-giyoxlar bilan davolash juda rivoj topgan.

Adabiyot, poeziya va dramma soxasida Gupta davri uzidan keyingi kupgina avlodlar uchun taklid bulib xizmat kiladigan juda yuksak namunalarni koldirdi. IV asrning oxiri va V asrning birinchi yarmida utgan genial xind shoiri Kalidasan6ing asarlari ayniksa katta axamiyatga ega buldi. Kalidasa kaxramonlik temalarida bir necha doston mifologik va tarixiy temalarda kup drammalar yozdi. “Alkishlangan Shakuntala” dramasi ayniksa katta dong kozondi, bu asrda nixoyatda nazokatli va shu bilan bir vaktning uzida uchragan juda ogir mashakkatli tusiklarni yenga olgshan jushkin jasoratli oddiy xind ayolining ajoyib obrazi berilgan. Bu asar Garbiy Yevropaga 1789 yilda ma’lum bulishi bilanok kadimiy xind adabiyotiga juda katta kizikish uygotdi. Kalidasa uz kaxramonlarini kisman klassik kitob tilida- sanskritda, kisman turli maxalliy laxjalarda gapirtirardi. Bu esa usha davrdagi Xindiston axolisining etnik jixatdan xilma-xil bulganligini kursatadi. Kalidasaning asarlari xozirgi vaktdagi dunyodagi asosiy tillarning xammasiga tarjima kilingan. Gupta zamonida xindlarning xukmron dini braxmanizm bulib, bu din uchta asosiy xudo- braxma, vishnu va shiva bor deb ta’lim berish bilan birga, juda kup boshka xudolar xam bor, der edi; bu xudolar tabiat kuchlarining barcha turli – tuman forma va kurinishlarning ifodasi edi, odamlar, xayvonlar, usimliklar, xar xil jonsiz narsalar – sanamlar va xokazo iloxiylashtirilar edi. Birok braxmanizm bilan bir katorda uning uz ichida boshka bir din – buddizm xam paydo bulib, kup tarafdor orttirdi (bu din er.avv. V asrdayok paydo bulgan edi). Bir vaktlar buddizm eng kadimgi din bulmish braxmanlar dinini xatto yengayotgandek xam bulib kuringan edi. Gupta podsholarining kupi buddizmga xomiylik kildi. Birok, pirovardida, braxmanizm yengib chikdi, lekin shu bilan birga u yangi tus – xinduizm tusini oldi. VI – VII asrlarda uzil – kesil tashkil topgan xinduizm uzining kupdan – kup eski majusiy xudolarini batamom saklab koldi. Lekin shu bilan birga u, buddizmdaga diniy falsafaning ba’zi elnmentlarini, uning yomonlikka karshilik kilmaslik, tarki- dunyo kilish, kishi ulgandan keyin jonini boshka kishi yoki boshka narsaga utishiga ishonish va xokazolar tugrisidagi ta’limotini xam uziga singdirib oladi. Buddizm va Xindiston tashkarisida – Xitoyda, Xindixitoyda, Indoneziyada shuningdek Mugulistonda, Tibetda va kisman Urta Osiyoda (Turkistonda) keng tarkaldi. Xindistonning uzida buddistlar xiyla oz koldi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Xindistonda V-VI asrlarda yashagan astronomik kanday olimlarni bilasiz?
2. Gupta zamonida Xindistonda kanday din xukmron edi?

A) Islom
B) Braxmanizm
S) Buddizm
D) Xinduizm
Ye) Xristian

3. Xinduizm dini kachon vujudga kelgan?
A) V-VI asrlarda.
V) VI-VII asrlarda.
S) VII-VIII asrlarda.
D) V-VII asrlarda.
Ye) VI-VIII asrlarda.

4. “Xindistondagi madaniyati va fanining kay darajada ekanligi xakida gapirib bering”.
5. Xozirda Xindistonda kanday dinlar mavjud?

**Asosiy savol:**
3. Gupta davlatining tugashi natijasida Xarsha davlatining vujudga kelishi va Xindistonga arab va turklarining kirib kelishi Dexli sultonligining tuzilishi.

**Ukituvchining maksadi:** Gupta davlatining tugashi sabablarini aytib berish, natijada Xarsha davlatining vujudga kelish shart-sharoitlarini izoxlab berish va Xindistonga arab va turklar kirib kelishi, Dexli sultonligining tuzilishini ochib berish.

**Identiv o’kuv maksadlari:**
3.1. Gupta davlatining tugashi sabablarini tushunib yetadi.
3.2. Xarsha davlatining vujudga kelish shart-sharoitlarini ochib beradi.
3.3. Xindistonda feodal munosabatlarning yanada keskinlashishini asosiy omillarini aniklaydi.
3.4. Arab va turklarning kirib kelishi va Dexli sultonligining tuzilishiga baxoberadi.

**3 – asosiy savolning bayoni:**
Gupta davlati VI asrning boshlariga kelib tugadi. U V asrdayok tushkunlikka uchray boshlagan bulib, buning asosiy sababi mexnatkash omma axvolining ogirligi edi. xukmron sinflar xaddan tashkari zeb-ziynat ichida yashadi
Dexkonlarga ogir soliklar solindi, ular uzlari yetishtirgan xosilining kup kismini solikka tulashga majbur edi. axoli davlat foydasiga uzluksiz ravishda turli- xil ishlarni bajarishga majbur kilindi—mana shularning xammasi xind dexkonlarini xoldan ketkazdi va kishlok jamoalari ekonomikasini vayron kildi. Mexnatkashlar urtasida norozilik tugilganligi alomatlari Gupta zamonidan kolgan adabiy yodgorliklar kup uchraydi. Gupta podsholigiga uzil kesil zarba bergan narsa kuchmanchi eftalitlar, ya’ni ok gunlarning bostirib kirishi buldi, ular V asrning oxiri - VI asrning boshlarida Shimoliy chegarani yorib utib, Shimoliy Xindistonning kupgina shaxar va kishloklarini nixoyatda vayron va xarob kilib tashladi. 530 yilda ok gunlar podsho Gupta ning vassali roja Yasodraxma tomonidan tor-mor kilindi. Gunnlarni yengandan keyin, Yasodraxma Gupta dinastiyasiga itoat kilishdan bosh tortib, uzi maxajora unvonini oldi. lekin unga Gupta davlati teritoriyasining fakat bir kismigina buysundi. VII asrning boщlarida Xarsha ( 606 ) davlati birmuncha vaktgacha yuksalib bordi. Xarsha Kanauja knyazligining rojasi edi, sungra u butun Shimoliy Xindistonni uziga buysundirdi. Xarsha davlati Gang daryosi vodiysi buylab Sharkiy Panjobdan to bengaliya kultigigacha bulgan territoriyani uz ichiga oldi. Markaziy Xindistonning knyazlari xam Xarshaga vassal karamlikda edi. Xammasi bulib 40 tacha knyaz unga karam edi. Xarsha imperiyasi uzok umr kurmadi. Uning xokimyati feodallashuv prosessining kuchayishi, uz vassalari – rojalar kudratining tobora ortib borishi natijasida zaiflashdi. Bu rojalar pirovardida butunlay mustakil bulib olib, markazga itoat kilmay kuydilar. Xarsha vafotidan keyin uning davlati parchalanib ketdi. Uzok vaktgacha Xindiston chet el boskinchilariga karshilik kursatolmaydigan tarkok bir mamlakat bulib keldi. Kanauj shaxri xali VIII-X asrlarda xam Shimoliy Xindistonning poytaxtlik axamiyatini saklab kolgan edi, ammo uning maxarajlari mana shu yuz yilliklar davomida Xindistonga doimiy ravishda xujum kilib kelayotgan tashki dushmanlarning shimolda yashovchi turli xildagi kabilalarning boskinini kaytarish urniga, kuprok Xindistonning ichidagi uz rakobatchilariga karshi kurash olib borish bilan ovora buldilar VI-VII asrlarda Xindistonda feodal munosabatlar yanada rivojlandi. Feodallashuv prosessining tezlashuvida Shimoliy Xindistonning (Gupta podsholari davlati kullagandan keyin va ikkinchi marta Xarsha davlati tugagandan

keyin) siyosiy jixatdan parchalanib ketishi katta rol uynadi. O'nlab mayda knyazliklar vujudga keldi, bu knyazliklarning knyazlari yirik yer egalari edi, ular kishlok jamoalarini uzlariga buysundirib olib, kattik ekspluatasiya kildilar. Buyuk knyazlar – maxarajalar va vassal knyazlar, ularga karam knyazlar – rojalar bular edi. Unisida xam, bunisida xam ularga karam profesional jangchilar bulib, ularga xarbiy xizmat utaganliklari uchun yer uchastkalari in'om kilinar edi. Jamna bilan gang daryolari urtasida bu xildagi Xind risarlari ayniksa kup edi, shimoldan xujum kilib bostirib kirish xavfi bu yerda ancha kuchli edi. Bu yerlarda vujudga kelgan juda kup sonli risarlar tabakasi rajputlar ( aynan tarjimasi shox farzandlari ) degan nom oldilar. Borib – borib rajputlar kadimiy xarbiy tabaka bulgan kshatriylar bilan aralashib ketdi. Feodal yer egaligining rivojlanishida xind ibodat xonalari ancha katta rol uynadi. Xind koxinlari juda katta yerlarga ega edilar, ularningkullab kuvatlashiga muxtoj bulgan knyazlar juda kuplab yer ulashib berganligi uchun bu yerlar keyingi yuz yilliklarda yanada kupayib bordi. Bazi ibodatxonalarning 1000, xatto 1500 kishlogi bular edi. Jamoachi dexkonlar xosilining katta kismini ibodatxonalarga tular edilar va ibodatxona ularni sud kilish xukukiga ega edi. VII asrning oxirida Eron va Afgonistonni bosib olganlaridan keyin, arablar Xindistonga bevosita kushni bulib koldi. Bundan tashkari, Xindistonga arablar dengiz bilan, ya'ni Fors kultigi bilan borib xind okeanidan xam xujum kila olar edi. 712 yilda Umaviylarning sarkardalaridan biri Muxammad Ibn Kosim, Basradan suzib borib Xindistondagi Sind mamlakatini bosib oldi. Lekin oradan bir necha un yil utgach, Arablar Xindistondan butunlay xaydab yuborildi. Islom dinining targib kilinishiga Xindlar dushmanlik nazari bilan karadi, chunki islom dinini ular chet ellik boskinchi va tolonchilar dini deb xisoblanadi, xinduizm esa islom diniga karshi (milliy) din edi. Musulmonlar xujumi fakat XI asrning ikkinchi yarmidagina kaytadan boshlandi, bu safargi xujum ilgarigi xujumdan kattik buldi. Bu xujum uchun eng asosiy zamin tugdirib bergan narsa shu buldiki, kuchli va urushkok Turk Eron davlati – Gaznaviylar davlati vujudga kelgan edi (bu davlatning nomi poytaxt bulmish Gazna shaxrining nomidan olingan edi). Sulton Maxmud Gaznaviy (998-1030) sharkiy Eron va Afgoniston yerlarini, 1017 yildan e'tiboran esa Amudaryoning berigi tomonidagi yerlarni, ya'ni Buxoroni xam uz kul ostiga kiritib oldi. Podsholik davri mobaynida u, shimoliy Xindistonga 17 marta yurish kildi. Xindiston shaxarlari musulmonlar tomonidan nixoyat darajada kattik talandi. Maxmud Gaznaviy bu yurishlardan shimolga 10 minglab erkak va ayollarni asir kilib xaydab ketdi, mamlakatni, ayniksa ibodatxonalarni, talab, karvon-karvon oltin, kumush va kimmatbaxo toshlar olib ketdi. Gazna shaxri muxtasham binolar bilan bezaldi, bu binolarning kupini Xindiston ustalari solgan edi. 1030 yilda Maxmud Gaznaviy ulgan vaktda uning imperiyasi amudaryo kirgoklaridan tortib to Gang daryosigacha borgan, butun Xind daryosi xavzasini xam uz ichiga olgan edi. Lekin uning poytaxti Xindistondan tashkarida edi. Lekin uning poytaxti Xindistondan tashkarida edi. Xindiston Maxmud Gaznaviy uchun buysundirilgan bir viloyatgina edi. Shunday bulsada, Xindistonning shimoliga juda kup musulmonlar-xurosonliklar, turk va afgonlar borib urnashdi. Shimoliy-sharkiy Xindiston (xozirgi Pokiston) axolining bir kismi islom dinini kabul kilib, bora-bora istilochilar bilan aralashib ketdi.

XII asr oxirlarida Xindistonga Gazna istilochilari ikkinchi marta xujum kildi. 1175 yilda Gazna xokimi Muxammad Guriy Panjobga bostirib kirib, uni egallagach, sharkka karab siljishni davom ettirdi. 90 yillarda u Jamna bilan Gang daryolari urtasidagi butun yerlarni, sungra esa Bengaliyani bosib oldi, Guriy vafotidan keyin uning noibi Kutbiddin Oybek Gazndan ajralib chikib, Xindistonning shimolida (xozirgi Xindiston respublikasining poytaxti Dexlini markaz kilib) mustakil davlat tuzdi. Yangi davlat poytaxti shaxarning nomi bilan Dexli sultonligi deb yuritiladigan buldi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Xindistonda VI asrning boshlarida kanday vokea sodir buldi?

A) Xinduizm dini vujudga keldi.
V) Fan va madaniyat yuksaldi.
S) Gupta davlati tugadi.
D) Xarsha davlati tugadi.
Ye) Kuldorlik tuzumi avj oldi.

2. Xindistondagi feodal munosabatlarning rivojlanishi kaysi asrlarga tugri keladi?

A) V-VII asrlarga.
V) VI-VII asrlarga.
S) V-VIII asrlarga.

D) V-IX asrlarga.
Ye) V-VI asrlarga.
3. Dexli sultonligi kachon vujudga keldi?
4. Xindistonga arab va turklarning kirib kelishining asosiy omillarini aytib bering?

**Talabalar uchun mustakil topshiriklar:**
1. Xindistonda Gupta davlatining vujudga kelishi shart-shroitlarini aytib bering.
2. Gupta davrida Xindistondagi ichki ziddiyatlarning sabablarini ochib bering?
3. Madaniyat va fanning ravnak topishidagi asosiy omillarni tushuntirib bering?
4. Gupta davlatining tugashi natijasida Xarsha davlatining vujudga kelishi.
5. Dexli sultonligining vujudga kelishiga baxo bering?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**
1. Urta asrlar tarixi. V.F.Semyonov. T., 1973 (150-157 betlar).
2. A. D. Lyubinskaya. Istognikovedeniye istorii srednix vekov. L., Gosizdat,1955.
3. Xrestomatiya po istorii srednix vekov Pod.red. N.P. Gradsidinskogo i S. D. Skazkina. 3-ye izd. M. Nauka 1996.
4. K. Z. Ashrafyan. Feodalizm v Indii. M., 1977.
5. Panikor Ocherki po istorii Indii. M., 1961.

## 3-mavzu: Ilk urta asrlarda Xitoy.

*(2 soat ma'ruza)*

**Asosiy savollar:**

1. V-VI asrlarda Xitoyning siyosiy tarkokligi va siyosiy jixatdan birlashtirish yulidagi birinchi urinishlari.
2. VIII va IX asrdagi Tan imperiyasining tashkil topishi va uning inkirozi.
3. Tan dinastiyasining tugashi, Sun dinastiyaisning imperiyaga kelishi va uning natijalari.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iborlar:** Mungul, varvar, turk, dinastiya, renta, pomestye, chjouanyun, «kuchli xonadonlar», zodagon, Vendi, palata, uyedlar, bulislar, «Ipak yuli», gubernator, «kora kuzgunlar», kayfin, tangut, kidanlar, Annam, antogonizm, ромещchik, radikal, barshchin, «xavfli», «Poytaxt axboroti», «konfusichilik» ibodtxona, epos, ekspluatasiya, monastir, natura, antogonizm.

**1-asosiy savol:**

V-VI asrlarda Xitoyning siyosiy tarkokligi va siyosiy jixatdan birlashtirish yulidagi birinchi urinishlari.

**Ukituvchining maksadi:** Ilk urta asrlarda Xitoyning ijtimoiy xayotini yoritib berish, V-VI asrlarda siyosiy tarkoklikning vujudga kelishi sabablarini aytib berish, uni siyosiy jixatdan birlashtirish uchun kilgan xrakatlarining okibatlarni ochib berish va usha urinishlar natijasida xalkka yetkazilgan zararning natijalariga baxo berish. Unimng tarbiyaviy axamiyatini tushuntirish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

1.1. V-VI asrlarda Xitoyning ijtimoiy axvolini biladi.
1.2. Xitoydagi siyosiy tarkoklikning asosiy omillarini tushuntiradi.
1.3. Xitoyning siyosiy jixatdan birlashtirish yulidagi xarakatlarning natijalarini tushunib yetadi.
1.4. Xitoyni birlashtirishda Suy dinastyasining urnini aniklaydi.

**1-asosiy savolning bayoni:**

V-VI asrlardagi tarixi Garbiy Yevropaniki singari varvarlar xujumi bilan boglangan edi. Xitoyda shimolda va garbda yashagan kuchmanchi ilk mugul va ilk kabilalari mamlakatning juda ichkarisiga kirib bordi. Shimoliy Xitoyga ayniksa kup xujum kilindi. Bu xujumlar Xitoyning xujaligiga juda katta zarar yetkazdi. Kupdan-kup sugorish inshootlari vayron buldi, butun boshli kishloklar talanib, yer bilan yakson kilindi, shaxarlar xuvillab koldi. Varvarlarning xujumi natijasida Xitoy juda kup mayda-mayda davlatlarga bulinib, siyosiy jixatdan tarkok bir mamlakaktga aylanib koldi; bu davrlarning ba'zilarining tepasida drujinalari bilan birga varvarlik boshliklari va ba'zilarining tepasida esa (janubda) maxalliy xitoy zodagonlari turdi. Bularning ichida eng kattasi Shimoliy Vey davlati bulib, uning poytaxti Loyan shaxri edi. Bu davlat 386 yildan 584 yilgacha yashadi. 420-589 yillar urtasidagi davr Xitoy tarixiga «shimoliy va janubiy dinastiyalar davri» bulib kirdi. V-VI asrlarda Xitoy boshidan kechirgan siyosiy tarkoklikni shu nomdan xam bilib olish mumkin. Varvarlar xujumi Xitoyda kuldorlikni batamom yuk kila olmagan bulsada, lekin unga kattikkina zarba berdi. Xitoyda utroklashgan varvarlar orsida xam, xitoyliklar orasida xam erkin dexkonlar negizida Xitoyda davlat feodal yer egaligining uziga xos formasi rivojlanib bordi. Jumladan, Shimoliy Veylar davlatida urta asrlar Xitoyi uchun xarakterli bulgan davlat chek yer sistemasi tarkib topa boshladi; bu sistemaga kura davlat boshligi eng oliy darajadagi yer egasi bular edi: xakikatda esa yerlar cheklarga bulinib dexkonlarga ularga oila a'zolaridagiga mexnatga layokatli kishilar soniga karab taksimlanar, chek yer olish uchun esa dexkon kuprok natura bilan (don, chorva mollari, xunarmandchilik buyumlari va xokazolar bilan) solik tulash kerak edi. Markazlashtirilgan davlat rentasi shunday kilib xukmron sinf asrashning asosiy manbai bulib koldi. Shu bilan birga xuddi shu davrda Xitoyda xususiy pomestyelarni (chjuanyuan) xam axyon-axyonda uchratish mumkin edi, bu pomestyelarni feodal krepostnoylik xarakteriga ega edi. V-VI asrlar mobaynida «kuchli xonadonlar», ya'ni eng badavlat va zodagon oilalar

tilga olinadi, ular jamoaning oddiy a'zolaridan yukori darajaga kutarilib, uzining kambagallashgan urug – aymoklarini karam dexkonlardek ekspluatasiya kiluvchi katta yer egalariga aylanib borganlar.
Xitoyda urugchilik munosabatlarining koldiklari uzok vaktgacha sklanib keldi. Xali X-XI asrlarda xam krepostnoy dexkonlar uzlarini rasmiy ravishda uz xujayinlari deb pomeshchiklarning «bolalari va ulardan kichik karindoshlari» deb atar edilar. Xitoyda feodal yer egaigining ilk turi budda monastir yer egaligi bulib, yerga egalik kilishning bu turi bu yerda V-VI asrlardayok ancha keng tarkalgan edi. Ilk urta asr zamonida Xitoyni birlashtirishga birinchi bulib Suy dinastiyasi urindi. Bu dinastiyaining asoschisi Yanszyan (yoki Vendi) xarbiy drujina boshligi bulib Shimoliy dinastiyalardan birida xizmat kilar edi. 589 yilda Yanszyan butun Shimoliy va janubiy Xitoyni uziga buysundirdi. Suy dinastiyasi davrida sugorish sistemasi tiklandi va kengaytirildi. Jumladan, VII asr boshlarida shu dinastiyaning ikkinchi imperatori Yan Guan (yoki Yan Di) davrida Xuanxe daryosini yanszi daryosi bilan boglaydigan umumiy uzunligi ming kilometr keladigan buyuk kanal kazildi. Kanal kurilishida Xitoyning turli kismidan yigib olib kelingan 1 mln.ga yakin kishi ishladi. Ammo suy dinastiyasining idora kilishi uzokka bormadi.
Shimolning janub bilan birlashuvi juda zaif edi. Markaziy xukumat viloyatlarni yetarli darajada nazorat kilib turmadi. Juda katta xokimiyat maxalliy zodagonlar kulida edi. Garbda turkiy kabilalar xujumining kuchayishi imperiyadan juda katta kuch talab kildi. Shu bilan bir katorda bu dinastiya imperatorlari istilochilik siyosatini yuritishga urindi. Bu esa imperiyani yanada battarok xoldan ketgazdi. Suy xukumatining Koreyani uziga buysundirishi yulidagi urinishlari tamomila barbod buldi. Bu xol dinastiyaning uzil-kesil kullashiga sabab buldi.
618 yilda Shimoliy-garbiy Xitoyning knyazlaridan biri Li Yuan yoki Gaoszu (ukelib chikishi jixatidan chala turk edi) imperiyada xokimiyatni bosib olib, yangi dinastiyaga – Tan dinastiyasiga asos soldi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Xitoydagi siyosiy tarkoklik kaysi asrlarga kelib avj oldi?

A) IV-V asrlar
V) IV-VI asrlar
S) V-VI asrlar
D) V-VII asrlar
Ye) IV-VII asrlar

2. Suy dinastiyasining asoschisi?

A) Li Yuan
V) Gaoszi.
S) Sze-Yeyan.
D) Yanszyan.
Ye) Xuan Chao.

3. Tan dinastiyasining asochisi?

A) Yanszyan.
V) Gaoszi.
S) Li Yuan
D) Tayszun.
Ye) Yan Yan

4. Dou Szyan-de boshchiligida kuzgolon kutarilgan rayonni aniklang?

A) Nanchjao.
V) Yanszi.
S) Chanan.
D) Nankin.
Ye) Tuanchjau.

**2-asosiy savol:**

VIII va IX asrlarda Tan imperiyasining tashkil topishi va uning inkirozi.

**Ukituvchining maksadi:** Tan imperiyasining yuzaga kelishi sabab va okibatlarini yoritib berish, Tan imperiyasi xukmronligi davrida Xitoyning ijtimoiy xayotiga baxo berish va kuzgolonlar natijasida VIII-IX asrlarda Tan imperiyasining inkirozga yuz tutishining asl moxiyatini ochib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
2.1. Tan imperiyasining yuzaga kelish shart-sharoitlarini biladi.
2.2. Tan imperiyasi xukmronlik vaktlarida Xitoyning ijtimoiy xayoti bilan tanish buladi.
2.4. VIII-IX asrlarda Tan imperiyasining inkirozga yuz tutish sabablarini ochib beradi.
2.5. Xuan Chao kuzgolonining asl moxiyati va natijalarini tushuntirib beradi.

**2-asosiy savolning bayoni:**
Tan imperiyasi Xitoyda 300 yilga yakin , ya'ni 618 yildan 907 yilgacha yashadi. Uning poytaxti Chanan (xozirgi Sian) shaxri edi. Bu juda katta shxar edi. VIII asrda chanan axolisi 1 mln.dan kup edi. Imperiyaning ikkinchi poytaxti Loyan shaxri bulib, u xam juda katta savdo markazi edi. Bu dinastiyaning eng kuchli imperatori Li Yuanning vorsi Li Shi-min yoki Tayszun (626-649) edi. Bir necha urushlar natijasida Li Shi–min imperiya chegaralarini ancha kengaytirib oldi. Imperatorga karam, vassal yerlarni kushib xisoblaganda, Xitoyning territoriyasi shimolda Amur va Xingangacha, janubda Xindiston va Siyomgacha, sharkda Koreyagacha (Tayszun Koreyani xam bosib olishga uringan edi), garbda Urta Osiyoning sharkiy chegaralarigacha borardi. Li Shi-min zamonidagi bu juda katta imperiya imperatorning markazdagi va joylardagi juda kup amaldorlari tomonidan idora kilinadigan murakkab bir byurokratik monarxiya tusini oldi.
Li Shi-min davrida amaldorlar uchun maxsus unvonlar joriy kilindi. Amaldorlarning xammasi tukkiz darajaga bulindi, xar bir darajaga ma'lum xajmda pomestyelar belgilandi, bu pomestyelar maosh urniga berilar edi. Markaziy idora oltita maxkama platasidan yoki ministrlikdan (amaldorlar ministirligi, solik ministirligi, xarbiy ministirlik, jinoiy ishlarni kuradigan sud ministrligi, jamoat ishlari ministrligi, marosim ishlari minstirligidan ) iborat bulib, uzil-kesil rasmiylashdi. Joylarga ayrim katta-katta oblastlar tepasida turuvchi gubernatorlar tayinlandi.. Oblastlar-okruglarga, okruglar-uyezdlarga, uyezdlar-bulislarga, bulislar-kishloklarga bklingan edi.
Tan dinastiyasi davrida feodal chek yer sistemasi uzil-kesil karor topdi. Xukumat tomonidan yerga egalik kilish xukuklari tekshirishdan utkazildi, shu bilan davlatga karashli yerlar fondi ancha oshirildi, bu yerlarga davlat dexkonlari ekin ekar edi, ularga kupdan-kup soliklar solinar va majburiyatlar yuklnar edi. Uziga berilgan chek yer uchun dexkonlar don tarzida solik tulashi va buyumlari tarzida solik tulashi va undan tashkari, yiliga 20-50 kun davlat foydasiga ogir barshchina ado etishi kerak edi. Yerlarning ancha kup kismi sekin-asta yirik amaldor zodagonlar kuliga utdi: ayrim eng katta amaldorlar kulidagi yer bir dexkon oilasi kulidagi yerdan kup barvar ortik bular edi. VIII asrning 20-30 yillarida Tan imperiyasi konunlarining yagona majmuasi tuzildi, u ijtimoiy xayot va davlat xayotining xilma-xil tomonlarini uz ichiga olgan oltita aloxida kodeksdan iborat edi.
4. Sosoniylar dinastiyasiga asos solgan shaxsni aniklang?

A) Anushurvon
V) Soson
S) Ardashir
D) Xisrav
Ye) Moni

5. Mazdakiylar ta'limotining asosiy goyasi?

A) Zodagonlarning boyliklarini tortib olib. Boylikka ega bulish.
V) Zodagonlar ustidan xukmronlikni urnatish
S) Boylarning mol-mulkini dexkonlarga olib berish va yomonlikka karshi kurash
D) Soliklarni yuk kilish
Ye) U ijtimoiy muxitni uzgartirmokchi buldi.

**2-asosiy savol:**
Xisrav I Anushurvonning taxtga kelishi va uning yurgizgan tashki siyosatii.

**Ukituvchining maksadi:** Xisrav I ning mazdakiylar xarakatini bostirishini esga tushirish, Xisrav I ning xukmronligi davrida mazdakiylar xarakatining okibatlarini ochib berish va Xisrav I ning yurgizgan tashki siyosatiga baxo berish. Eron bilan Vizantiya urtasidagi nizolarning kelib chikish sabablarini kursatib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

1.1. Xisrav I ning taxtga kelishini biladi.
1.2. Xisrav 1ning xukmronlik davrida mazdakiylarning ijtimoiy-siyosiy axvolini tushunadi.
1.3. Xisrav 1 ning yurgizgan siyosatining rolini ochib beradi.
1.4. Xisravning Yustinian bilan tuzgan axdnomasiga baxo beradi.

**2-asosiy savolning bayoni:**
Mazdakiylar xarakatini bostirgan Xisrav, otasi ulgandan keyin podsho buldi.Uning uzok vakt davom etgan podsholik davri (531-579) Sosoniylar tarixida eng muxim davrlardan bimri buldi.Anushirvon – «Ulmas» lakabini uzi xam mazdakiylarni tor–mor keltirgani uchun undan minnatdor bulgan Eron xukmron sinflari urtasida uning shuxrati baland bulganligini bildiradi.Xisravning uzi xam mazdakiylar xarakatidan birmuncha sabok oldi. U yer – solik sistemasidagi utaketgan adolatsizliklarni yukotish maksadida bu

sistemani kayta kurib chikish zarurligini tushundi.Uning buyrugi bilan xamma yerlar yangidan ruyxatga olindi – kadastrlar tuzildi   bunda tuprokning sifati, sugorilishi, kanday ekinlar ekilishi , daraxtlar va ish kuchining mikdori anik xisobga olindi. Moliya amaldorlari – «mirzalar»- yerlardan olinadigan xosilni tubdan tekshirib chikib, xar yili solik mikdorini xosilga karab belgilaydigan buldi. Solik ilgarigidek kisman natura shaklida,kisman pul shaklida olinardi.Jon soligi olish xam tartibga solindi, bu soliklar yiliga bir marta katiy belgilangan muddatda va muayyan mikdorda olinadigan buldi. Ruxoniylar, askarlar va amaldorlar jon soligidan butunlay ozod kilindi, lekin ular xam malum mikdorda yer soligi tulab turadigan buldi.

Xisrav I savdoning rivojlanishiga xomiylik kildi. U,savdogar va sudxurlarni davlat moliya organlariga bajonu dil xizmatga olib,ularning pul muomulasi soxasidagi amaliy tajribasidan foydalandi. Xisrav 1 zamonida kanal, damba tugonlar va boshka xil irrigasiya inshootlari kurilishi juda avj oldi. Ktesifonda u muxtasham bir saroy kurdirdi. U,xar turli olimlarga, jumladan, xatto Yustinian tomonidan Vizantiyadan xaydalgan neoplatonchi filosoflarga xam xomiylik kildi.

Xisravning buyrugi bilan eng muxim siyosiy vokealar saroyda rasmiy suratda yilma–yil yozib borildi, grek, Suriya va xind tillaridagi adabiy asarlar tarjima kilindi. «Ming ertak» nomli forscha tuplam xam Xisrav zamonida paydo bulgan deb faraz kilinadi * bu tuplam keyincha «Ming bir kecha» nomli mashxur arabcha ertaklar tuplamiga asos buldi. Xisrav 1 podsholik kilgan butun davr kushni xalklarga karshi urish olib borish bilan utdi, desa buladi. U ayniksa Vizantiyaga karshi kattik urushlar olib bordi.Xisrav uz podsholik davrining boshlarida Yustinian I bilan «abadiy tinchlik» tugrisida axdnoma tuzgan edi (532).Lekin Vizantiyaning kuchayib ketishidan kurkib, u oradan kup vakt utmay, bu axdnomani buzdi.540 yilda u, Suriyaga kattik xujum kildi va Antioxiyani bosib olib, uni uni batamom yondirib yubordi va talanga soldi. Antioxiyaning  axolisini asir kilib olib ketib, Ktesifon atrofiga joylashtirdi. Bular grek-suriyaliklardagi xar turli xunarlarning Eronga kirishiga kup yordam berdi. Sungra urush Mesopatamiya bilan Zakavkazyeda davom etdi. U tuxtuab-tuxtab 562 yilgacha chuzildi. Nixoyat, ikkala tomon xoldan ketib, 50 yillik sulx tuzildi. Birok 570 yilda Xisrav Yamanni (janubiy Arabiston) bosib oldi. Bu narsa Eron bilan Vizantiya urtasida yana urush chikishiga sabab buldi ; bu urush  20 yil davom etib, Xisrav ulgandan keyin uning ugli zamonida tugadi. Sharkda Xisrav I turk-kuchmanchi kabillari bilan urush olib bordi, bu kabilalar Urta Osiyo territoriyaisda, Amudaryo bilan Sirdaryo urtasidagi rayonda yashar edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Xisrav I ning xukmronligi davrida mazdakiylar?
2. Xisrav I ning yurgizgan tashki siyosati?
3. Xisravning Yustinian bilan kanday axdnoma tuzgan?
4. Xisrav I nechanchi yilda taxtga utirdi?

A) 529 yilda  
V) 534 yilda  
S) 524 yilda  
D) 528 yilda  
Ye) 526 yilda

5. Xisrav «Ulmas» lakabini  nima uchun oldi?

A)  Mazdakiylarni tor-mor keltirgani uchun oldi.  
V) Podsho bulgandan keyin.  
S) Eron xukmronlari urtasida shuxrati baland bulganligi uchun  
D) Juda kuchli bulganligi uchun.  
Ye) Zodagonlarni yerlarini tortib olib, dexkonlarga ulashgani uchun

**3-asosiy savol:**. VI asrning oxiri VII asr boshlarida Sosoniylar davlatining tushukunlikka uchrashi va Eronning arablar tomonidan istilo kilinishi.

**Ukituvchining maksadi**: Xisrav I ning ulimidan keyingi Sosoniylar davlatining ijtimoiy axvolini tushuntirish, Sosoniylar davlatining tushukunlikka uchrashi sabablarini ochib berish  va  uning okibatlarini

aniklash. Eronning arablar tomonidan istilo kilinishi sabablari va usha paytdagi Eronning ijtimoiy xayotiga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
3.1. VI-VII asrning boshida Sosoniylar davlatining ijtimoiy axvolini tushuntiradi.
3.2. Sosoniylar davlatining tushkunlikka uchrashi sabablarini ochib beradi.
3.3. VII asrlarda Erondagi ijtimoiy va iktisodiy axvolini aytadi.
3.4. Eronning arablar tomonidan istilo kilinishga baxo beradi.

**3 –asosiy savolning bayoni:**
Xisrav I ulgandan keyin Sosoniylar xokimiyati tushkunlikka yuz tuta boshladi. Feodallashayotgan zzodagonlar markazga yaxshi itoat etmadi. Viloyatlarning katta –katta xokimlari Sosonilarga karshi uzluksiz kuzgolon kutarib turdi. Feodallarning shaxan-shoxga karshi karatilgan eng katta kuzgolonlaridan biri 590 yilda kutarilgan Baxro Chubin kuzgoloni buldi. Bu kuzgolon Sosoniylarni agdarishga sal koldi. Shox Xisrav II (510-628) Vizantiya imperatoridan yordam surashga majbur buldi va Vizantiya kushinining yordami bilangina taxtni tiklab oldi. 591 yilda Eron bilan Vizantiya urtasidagi sulx tuzildi, bu sulxga binoan Zakavkazyedagi chegara palosasi Vizantiyaga utdi. VI asrning oxiri VII asrning boshlarida Eron xalklari ommasining axvoli juda yomonlashib ketdi. Feodalar zulmi va ogir soliklar eron dexkonlarini butunlay xonavayron kildi, ular endi xarbiy xizmatni xam tuzikrok ado etolmaydigan bulib koldi. Sosoniylar va ularni kurashib turgan feodalar ichki ziddiyatlarni tashki urushlar yuli bilan xal kilishga urindi. 60 yilda Vizantiya bilan yana urush boshladi. Vizantiyaning uz ichidagi inkirozdan foydalanib turib, Xisrav II dastlabki vaktda jiddiy muvaffakiyatlarga erishdi. U Kichik Osiyoga bostirib kirdi va Marmar dengizining Osiyo kirgogida , Konstantinopolni ruparasidagi Xalkidon shaxriga yakinlashib bordi, lekin keyin chekinishga majbur buldi. 613-620 yilarda Xisrav II Suriyani, Falastin va Misrni zabt etdi. Birok 623 yildan boshlab Vizantiya imperatori Iraklining uzi xujumga utdi. 628 yilda Vizantiyaliklar Ktesifonga yakinlashib kelib, Sosoniylar poytaxtini bosib olish xavfini tugdirdi. Mamlakatda shoxdan norozilik kuchaya boshladi.
Bundan foydalanib, zodagonlar Xisrav II ga karshi fitna uyushtirdilar. Zodagonlar tomonidan shox kilib kutarilgan Kavod II (Xisrav II ning ugli) otasiga karshi urush ochib, otasini asir oldi va uni katl kilishni buyurdi. Vizantiya bilan sulx tuzildi. Bu sulxga muvofik Vizantiyaliklar kuldan ketgan xamma yerlarni kaytarib oldi. VII asr urtalarida Eronning yerlari xali juda keng edi (uning sostaviga Eronning uzi, Arabiston, Mesopatamiya, Amudaryodagi turli vassal turk kabilalari va boshkalar kirar edi), lekin shunga karamasdan, u kuchsiz bir davlat bulib kolgan edi, chunki u Vizantiya bilan olib borilgan urushlar natijasida juda xoldan ketgan edi, uz ichida esa feodallarning juda kuchli bosh-boshdokligini boshidan kechirmokda edi. Oxirgi Sosoniy YozdagirIII ning (632-652) mamlakatda xech kanday obrusi yuk edi. Bu vaktda kuchli xarbiy davlat bulib birlashib olgan arablar Eron ustiga xujum boshladi va eronliklarni xech kanday jiddiy karshiligiga uchramay, tez galaba kozondi. Ular Eronning xakikatda 642 yildayok bosib olgan edi. Yozdagir Sharkiy chekka ulkalarga kochib ketdi va turk kabilalarining kichikkina bir knyazidan yordam olishga bexuda urindi. 652 yilda Marvga yakin bir joyga usha knyaz tomonidan uldirildi. Eron uzok vaktgacha kup millatli juda katta arab davlati sostavida koldi.

**Talabalar uchun mustakil ish topshiriklari:**
1. Sosoniylar xukmronligi davrida Eronning ijtimoiy va iktisodiy xolatini gapiring?
2. Xalk xarakatlari. Moni va mazdakiylarning ta’limotidagi asosiy goyalar?
3. Xisrav I Anushurvonning tashki siyosati.
4. Sosoniylar davlatining tushukunlikka uchrashi sabablari?
5. Eronning arablar tomonidan istilo kilinishi okibatlari?
6. Yozdagir nechanchi yilda vafot etdi?

A) 653 yilda.
V) 654 yilda
S) 656 yilda
D) 657 yilda
Ye) 652 yilda

7. Xisrav isloxatining moxiyati nimadan iborat edi?
A) Savdoni rivojlantirish.
V) Kurilish ishlariga e'tibor berish.
S) Yustinian tomonidan Platonchilarni ximoya kilish
D) Agrar isloxat utkazildi.
Ye) Barchasi tugri.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Urta asrlar tarixi V.F. Semenov T.,-1973. 127-133 betlar.
2. Agafiy. O sarstvovanii Yustiniana. (Pod.statya i primech. M.V. Levchenko) M.,-L., Gosizdat, 1953.
3. Istoriya Vizantii. V z t. M., Nauka. 1967. T.I.

**7-8-mavzu: IV – V asrlarda Rim imperiyasi. Kuldorlik tuzumining inkirozi**.
*(4 soat ma'ruza)*

**Asosiy savollar:**
1. Rim imperiyasida kolonlik.
2. Shaxarlarning tushkunlikka uchrashi va yer egalari xokimiyatining kuchayishi.
3. Rim imperiyasida xristian cherkovi va uning roli.

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:**
Kuldorlik, kolonlik, kuriallar, kollegiatlar, kastellumlar, magnat, prinsipat, dominat, konsistoriya, tetrarxiya, xristian cherkovi, cherkov kullari, papalik, rim-katolik cherkovi.

**1-asosiy savol:**
Rim imperiyasida kolonlik.

**Ukituvchining maksadi:**
Rim imeriyasidagi kuldorlik tuzumining tushkunlikka uchrashi sabablarini kursatish, kolonlar xakida tushuncha berish, kolonlik moxiyatini kursatish. Rim imperiyasidek davlat tarixiga kizikishni uygotish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
1.1.Rim imperiyasida kuldorlik krizisining sabablarini biladi.
1.2.Kolonlik xakida tushunchaga ega buladi.
1.3.Kolonlarning jamiyatdagi urnini va axvolini kursatib beradi.

**1-savolning bayoni:**
Rim imperiyasidagi kuldorlik tuzumi III asrdayok tamomila tushkunlikka uchragan edi. Kul mexnati unumdorligining pastligi, kul kuchining uchini tuldirib turishning tobora kiyinlashib borishi (Rim olib borgan golibona urushlarning tamom bulganligi tufayli), Rimga karshi tuxtovsiz xujumlar bulib turishi, fitnalar va kullarning kuzgolonlari bularning xammasi kuldorlik xujaligini norentabel kilib kuymokda edi, ishlab chikaruvchi kuchlarning turgunlikka va kullarning uzlarini xonavayron bulishga olib kelmokda edi.Rim kuldorlar kulchilikni bir kadar yumshatish yeki kullarni ekspluatasiya kilib turib, ekspluatasiya kilishning boshka formalarini joriy kilish yuli bilan ijtimoiy-iktisodiy inkirozdan kutulishga urindilar. Bu urinishlar orasida asosiy urinlardan birini **Kolonlik** oladi.

Dastlab kolonlar deb, Rim respublikasidagi kuldorlarning latifundiyalaridan (yirik pomestyelaridan) yer uchastkalarini ijraga olib ishlovchi ijarachi erkin mayda dexkonlarga aytilgan.
Davlatning bir kadar kullab-kultiklashiga karamasdan, rimlik mustakil dexkonlar kuldorlik tuzumi xukmronlik kilgan sharoitlarda doimiy ravishda xonavayron va xalok bula bordi. Dexkonlarning yerlari esa kuldorlar kuliga uta bordi. Lekin kuldorlik ishlab chikarish usulining uzi inkirozga uchraganligi sababli latifundliyalar egalari fakat kullarni ekspluatasiya kilish yuli bilangina uz yerlaridan foydalanishlari amri maxol bulib koldi. Yerlarni maydalab ijaraga berish ( ijaraga oluvchilar esa yerdan maxrum etilgan dexkonlarning uzi edi) bu yerlardan foydalanish uchun eng kulay usul bulib koldi.
Shunday kilib, kuldorlik sistemasi bilan bir katorda ma'lum darajada kelgusi feodal tuzumdan darak beradigan yangi munosabatlar (katta yer egaligining yerlardan maydalab foydalanish usuli bilan birga kushilishi, mayda mustakil , lekin shaxsan karam bulgan ishlab chikaruvchi dexkonning ekspluatasiya kilinishi) xam rivojlana bordi. Kolonlik rivojlanib, krepostnoylikka tobora yakinlashib bordi. Kuldorning ijarachisi bulgan, kullar orasida yashagan, kerakli asbob, uruglik, turar joy va xokazolarni xam kupincha kuldordan oladigan kolonlar tobora kuldorga karam bulib kolib, pomestye-villani tashlab, boshka joyga ketib kutulish imkoniyatidan butunlay maxrum buldi.
332 yilda imperator Konstantin Buyuk katta yer egalarining manfaatlarini kuzda tutib, kolonlarning ishlab turgan pomestyesini tashlab ketishini takiklaydigan va kochib ketgan kolonlarning majburiy yul bilan kaytarib olib kelinishini talab kiladigan farmon chikardi. Imperator va senatorlarga karashli pomestyelarda (bu pomestyelar saltuslar deb atala boshladi) kolonlar kudratli imperator ma'muriyati yoki xukmi zur

senatorlar tomonidan ancha ilgariyok tutkinlikka solingan edi. Shunday kilib, kolon yuridik jixatdan kul deb xisoblanmas edi ( kulga nisbatan «erkin kishi» deb xisoblanar edi, Davlat undan fukorolik soliklari olar edi), lekin xakikatda esa erkin xam emas edi, chunki pomestye xududidan chikib ketolmas va yer egasiga doimiy suratda obrok tulab turishga yeki uning uchun biron formada kullik majburiyati – barshchina utashga majbur edi.. Shu bilan bir vaktda kuldorlar uz kuldorlarning bir kismini kazarma xolatidan yakka xujalik («kulbali kullar»-servi casati bilan uz xujayinlariga obrok tulashga majbur edilar) xolatiga kuchirdilar. Kolonlar xali krepostnoy emas edi, lekin Engels iborasi bilan aytganda, ular «urta asrlardagi krepostnoylarning utmishdoshlari» edi. IV va V asrlarda kolonlarning soni kisman yersiz dexkonlar xisobga kupaya bordi.
Nixoyat, tashkaridan kelib urnashib, rim yer egalaridan biror bir shartlar bilan myayyan yer uchastkalari olgan kelgindi varvarlar xam kolonlarga uxshash axvolda edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1.Rim imperiyasining tuzumi kurinishini toping:

A. Feodal
V. krepostnoylik
S. kuldorlik
D. Kapitalistik
Ye. Kolonial

2. Kolonlar bu …

A. Yirik pomestyelardan yer uchastkalarini ijaraga olib ishlovchi ijarachi erkin mayda dexkonlar
V. yerdan maxrum etilgan va yerni magnatlardan ijaraga olib kun kuruvchi dexkonlar
S. erkin kishrlar
D. Yirik yer egalari
Ye. Kullarning bir kurinishi

3.Kolonlarning itimoiy-iktisodiy axvolini yeritib bering?.

4.Rim imperiyasidagi yirik pomestyelar nima deb atalgan?

A. Koloniya
V. Latifundiya
S. Villa
D. Imperiya
Ye. Ijara yeri

**2-asosiy savol:**

Shaxarlarning tushkunlikka uchrashi va yer egalari xokimiyatining kuchayishi.

**Ukituvchining maksadi:**

Kuriallar va kollegiatlarning moxiyatini ochib berish, magnatlar xususiy xokimiyatining kuchayish sabablarini tushuntirish, imperiya ma’muriy-moliyaviy apparatidagi reformalarni ochib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

2.1.Shaxarlarning tushkunlikka uchrashi sabablarini biladi.
2.2.Kuriallar va kollegiatlar xakida tushunchaga ega buladi.
2.3.Yer egalari xususiy xokimiyatining kuchayishi sabablarini kursatadi.
2.4. Xukumat siyosatidagi ma’muriy-moliyaviy reformalar moxiyatini tushunadi.

**2-savolning bayoni:**

Kolonlarning rivojlanishi Rim jamiyatining feodallashuv formalaridan biri edi. Lekin bu feodallashuvning yana boshka alomatlari xam bor edi. Garbiy Rimning Italiya, Galiya, Ispaniyadagi shaxarlari imperiyaning keyingi davrida kattik inkirozni boshidan kechirmokda edi. Kul mexnatiga asoslangan

xunarmandchilikning unumdorligi past edi. Erkin xunarmandlar uzlari ishlab chikargan buyumlarni yetarli darajada sotolmas edilar, chunki kuldorlarning pomestyelari tobora bikiklashib borayotgan natural xujalik tusiga kirmokda edi. Xam maxalliy yer egasi, xam kuldorlik davlati tomonidan kattik ekspluatasiya kilingan kolonning xarid kuvvati yuk darajada edi. Urta dengizdagi savdo balansi imperiyaning sharkiy kismiga karaganda ancha kolok bulgan garbiy kismi uchun mutlako nokulay edi, imperiyaning sharkiy kismi esa, iktisodiy jixatdan ancha rivojlangan va kulay sharoitda edi.

Rim imperiyasida karamlikning yana yangi formalari vujudga keldi, bu formalar xam ba'zi jixatdan bulgusi feodal tartiblarga uxshab ketar edi. Chunonchi, shaxarlarda yashovchi urta xol yer egalari, shaxar kuriyalarining a'zolari (kuriallar), ya'ni axolining soliklarini tulashi va xakazolar uchun javobgarlik yuklatilgan, uz vazifasidan endi mashakkat chekayotgan kuriallar majburiy suratda kuriyalarga biriktirib kuyila boshladi. Xukumat kuriallik unvonini nasldan-naslga meros bulib utadigan kilib kuydi.

Shu bilan bir vaktda shaxar xunarmandlari kulga tushirilsa, ularning badaniga temir kizdirib bosilar edi. Xukumat xujjatlarida kollegiyalarga biriktirilgan xunarmandlarni ochikdan-ochik «davlat kullari» deb atalgan. Shaxarlar tushkunlikka uchrab, xujalik kaytadan natural xujalikka aylanib borgan sari kishlok pomestyesi – villa xujalik va ijtimoiy xayotning asosiy yacheykasiga aylana bordi. Kudratli senatorlarning kupi xatto Rimda yashamas xam edi, ular uz pomestyelarida yashar edilar.Yer egasi – magnatning odatda uz kasrida turmasi (carcer) va uz kushini bular edi. Uning yeridagi mayda pomestyeli yer egalari (possessores) xamda xususiy mulkka ega bulgan erkin dexkonlarning (rustici) omon kolganlari bu kuchli kushinlardan xomiylik surar edilar. Davlat esa, bu katta yer egalariga villadagi axoli ustidan polisiya nazorati olib borishni topshirar edi, soliklarni yigish xukukini berardi, maydarok ishlar yuzasidan sud kilishga ruxsat etar edi. Shunday kilib, katta yer egalarining xususiy xokimiyati davlat xokimiyati tusiga, ya'ni xalk ustidan yurgiziladigan xokimiyat tusiga kira boshladi. Imperiyaning oxirgi davrida Rimda kuldor-yer egasi ma'lum darajada xukmdor, uz pomestyesining va uz atrofidagi butun okrugning xokimi, egasi edi.

IV asrda Rim xukumati uzining III asrdagi ogir inkirozi xolatidan birmuncha kutildi. Imperatorlardan Diokletian (284-305) va Konstantin (306-337) imperiyaning ma'muriy-moliyaviy apparatini mustaxkamlashga karatilgan bir kancha isloxatlar utkazdi. Soliklarning natura shaklida olinishi, solik solishni tartibga solish maksadida gox-gox yerlarning va axolining xisobga olib turilishi (Konstantin davrida) dexkonlar-kolonlarning, xunarmand-kollegiantlarning amalda tutkinlikka solinishini yuridik yul bilan rasmiylashtirilishi kuldorlik sinfining tushkunlikka yuz tutgan davlat tizimini va ijtimoiy tuzumni mustaxkamlashga zur berib uringanini kursatadi.

Shu narsa xarakterliki, imperiyani markazlashtirish sari bunday intilish bilan bir katorda Rimning keyingi asrlaridan imperator xokimiyati uz okibati jixatidan markazlashtirishga butunlay zid bulgan tadbirlarni amalga oshirdi. Diakletian imperiyasi turt kismga (ikki Avgust bilan ikki Sezar urtasida) taksim kilib, t ye t r a r x i ya deb atalgan narsani joriy kildi, xar bir xokimga muayyan viloyatlar va maxsus poytaxt ajratib berdi. Konstantin yana ikki xokimlikni tikladi. U ulgandan keyin imperiya yana ikki yoki uch kismga bulinib ketdi. 395 yilda imperator Feodosiy I imperiyasi butunlay mustakil bir-biriga dushman bulgan ikki kismga – Garbiy va Sharkiy kismlarga bulinib ketdi. III asr oxiri –IV asrning boshlarida imperiyaning siyosiy markazi Sharkka kuchdi. Yangi Rim Konstantinol imperiyasining siyosiy markazi bulib koldi.

**Nazorat topgshiriklari:**

1.Kurial bu ________________________________

2.Kollegiat bu ______________________________

3.Yer egasi nima deb ataladi?

A. Kastellum
V. Villa
S. Magnat
D. Kuriya
Ye. Feodal

4.Rim imperiyasidagi ma'muriy bulinish tushunchalarining tugrilarini aniklang:

A.Monarxiya podsholari xokimiyatiga uxshash despotik xokimiyat tashkiloti

V. Senatlar urnini olgan byurokrat kengash

S. Imperiyani turt kismga taksim kilib, aloxida bir kism viloyat
D. Tetrarxiya
Ye. Dominat

**3-asosiy savol:**
Rim imperiyasida xristian cherkovi va uning roli.

**Ukituvchining maksadi:**
Xristian cherkovining davlat dini deb tanilishini izoxlash, Xristian cherkovi muxlislari xakida gapirib berish, cheorkovning ijtimoiy rolini ochib berish, cherkov mansabdorlari xakida tushuncha berish.

**Identiv ukuv maksadalari:**

| | |
|---|---|
| 3.1. | Xristian cherkovining ijtimoiy tarkibi xakida tushunchaga ega buladi. |
| 3.2. | Muxim patriarx shaxarlarni biladi. |
| 3.3. | Cherkov mansabdorlarini biladi. |
| 3.4. | Rim cherkoviningtutgan urnini tushunadi. |

**3-savolning bayoni:**

Konstantinning kuldorlik tuzumini mustaxkamlashga karatilgan reformalaridan biri xristian cherkovining davlat dini deb tanilishi buldi. Bu vokea sunggi Rim imperiyasi tarixida juda katta axamiyatga ega buldi, shuningdek, kelgusidagi urta asrlar tarixi uchun xam tayyorgarlik dakikalaridan biri bulib, juda katta rol uynadi. Dastavval imperiya sostavida maxsus iyerarxiyaga («ma'murlar darajasiga»), katta yer egalariga, kishilar karamligining yangi formalariga –cherkov korovullari deb atalgan kullarga (servi ecclesiatici) – bularning axvoli kolonlarning axvolidan uzga emas edi – molik bulgan kuchli yangi bir ijtimoiy tashkilot vujudga keldi. Bu vaktda (IV asr boshlarida) xristian cherkovi uzining sosial sostavining juda xam uzgartirib yubordi.. ilgari, I-II asrlarda, xristian cherkovi muxlislarining asosiy ommasi kullardan, shaxarlardagi proletarlashgan elementlardan, kiskasi, sosial jixatdan ezilgan va xak-xukukdan maxrum kilingan kishilardan iborat bulgan bulsa, endi xristianlikka urta sinf va xatto aristokratiya vakillari xam utdilar. Cherkov endi mavjud kuldorlik tuzumiga karshi chikmay kuydi, balki uz tashkilotini bu tuzum sharoitlariga moslashtirishga intilib, uzi katta yer egasiga aylana bordi. Xristianlik, davlat diniga aylantirilgandan keyin, xakikatda mexnatkashlarni ekspluatasiya kilishga fatvo berdi. Cherkovda e'tiborli yepiskoplar vujudga kelib, bular tez vakt ichida boyib ketdi va joylarda siyosiy ta'sir orttirdi. Chunonchi, shaxarlarning yepiskoplari guyo ximoyachilar (defensorlar) bulib, shaxarlarning ximoyachi-xomiylari va shaxarlar bilan imperator ma'muriyati urtasida vositachidek edi. Cherkov imperiya viloyatlaridagi «varvarlar» urtasida «missionerlik» faoliyatini keng suratda kizitib yubordi. Eng muxim shaxarlar – Rim, Aleksandriya, Konstantinopol, Antioxiya, Kuddus V asrda uzil-kesil patriarx unvonini oldilar ( Rim va Aleksandriya patriarxlari papa deb atalar edi). Patriarxlarga mitropolitlar va arxiyepiskoplar buysunar edi. Butun imperiya territoriyasidagi davlat dini tashkiloti ustida turgan cherkov, endi uzini katolik yoki butun jaxon cherkovi deb xisobladi. Unga itoat kilmagan okimlar yoki guruxlarni (sektalarni) yeretik deb, ularning ta'limotini yeres deb e'lon kilinadi. Xukmron cherkov manfaatlarini ximoya kilib turgan davlat IV-V asrlardayok yeretiklarni sistematik ravishda ta'kib kilib, ularga nisbatan kattik jazo choralarini ishga soldi. Xristian cherkovining rivojlanishi va rasmiylashuvi, unga karashli yerlarning kupayib borishi, kullikning cherkov pomestyelaridagi bir muncha yumshatilgan yangi formasi, cherkovning varvarlar olami bilan aloka kilishi va ularning asta-sekin xristianlashtirilishi – bularning xammasi xam urta asrldardagi yangi tuzumning ma'lum darajada tayyorlanishi edi.

Imperiyaning inkirozi IV asr oxirida – V asr boshlarida yumshash u yokda tursin, yana battarrok keskinlashdi, Kupgina sosial-siyosiy isloxatlar utkazilishiga karamay, dinning uzgarishiga karamay, kullarni ekspluatasi kilish formasini (plantatorlarning kazarma sharoitidagi kullarini obrok tulaydigan kullarga va kolonlarga aylantirish yuli bilan) yumshatishga xarakat kilinishiga karamay, Rim jamiyati kuldorlikka asoslangan jamiyat xolicha kolganda, tiklanolmas edi. Bu juda katta sosial uzgarishlaring xarakatlantiruvchi kuchlari Rim jamiyatining uzidagi ezilgan sinflar xamd varvarlar buldi. Kullar, kolonlar, shaxar xunarmandlari III-V asrlar davomida uz zolimlariga, ayrim kuldorlarga va rim kuldorlik imperiyasining uziga karshi kattik kurash olib bordilar. Galiya va Ispaniyada bagaudlarning III-V asrdagi

kuzgoloni, Shimoliy Afrika sirkumsellionlar yoki agonistiklarning IV asrdagi – V asrning boshlaridagi xarakati, Resiya, Pannomiya va Norikada sumkamarlarning V asr urtalaridagi galayonlari bunga yakkol dalildir. Lekin Rimdagi ezilgan ommaning sosial kuchlari tarkok, sochilgan, mutlako uyushmagan edi. Ularning chikishlari, odatda, maglubiyat bilan tugar edi. Birok kuldorlik Rimiga karshi imperiya axolisining pastki tabakalaridan tashkari yana bir kushni varvarlar xam bosh kutardilar. Rim imperiyasining kiyin axvolga tushib kolganligidan foydlanib, bush yer va boshka xil ulkalar payida bulgan varvarlar (IV-V asrlarda bular asosan turli german kabilalari edi), keyinchalik slavyanlar va shuningdek, boshka xalklar viloyat ketidan viloyatni kulga ola boshladilarki, nixoyat, 476 yilda Garbiy Rim impertorlari xokimiyatini butunlay yuk kildilar, bu vaktda Garbiy Rim imperiyasi territoriyasida mayda va ancha yirik varvar kirolliklari vujudga keldi, bu korolliklarda yangi ijtimoiy tuzumning yaratilishi uchun (Rimdagiga karaganda) kulayrok sharoitlar tugildi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Xristian cherkovi muxlislari kimdan iborat bulganligini kursating:

A. Katta yer egalari, kolonlar, cherkov kullari
V. Kullar, proletarlashgan elementlar,urta sinflar va aristokratiya vakillari
S. urta sinflar va aristokratiya
D. Kolonlar va urta sinf vakillari
Ye. Aristokratiya va cherkov kullari

2. Rim imperiyasidagi muxim patriarx unvonini olgan shaxarlar katorini toping:

A. Rim, Aleksandriya, Konstantinopol, Antioxiya, Kuddus
V. Aleksandriya, Konstantinopol, Koxira
S. Rim, Antioxiya, Aleksandriya
D. Antioxiya, Rim, Afina, Konstantinopol
Ye. Rim, Kuddus, Aleksandriya.

3. Kim kimga buysungaligini kursating.

A. Patriarxlarga
V. Arxiyepiskoplarga
S. Yeparxiyalarga
1)presviterlar
2)mitropolit va arxiyepiskoplar
3)oddiy yepiskoplar buysungan

**Talabalar uchun mustakil ish topshiriklari:**

1. Rim imperiyasi kuldorlik tuzumining tushkunlikka uchrashi sabablari
2. Rim imperiyasi xukumat siyesatida ikki tendensiya kurashi.
3. Papalik va rim katolik cherkovining roli

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Urta asrlar tarixi V.F. Semenov. T.,-1973.
2. Istoriya Srednix vekov. Pod.red. Z.V. Udalsevoy i S.P. Karpova, M., 1990.

## 9 - mavzu: Salib yurishlari.

*(4 soat ma'ruza).*

**Asosiy savollar:**

1. XI-XIII asrlarda Yevropa feodallarining ijtimoiy-iktisodiy axvoli va salibchilik xarakatining boshlanishi.
2. Yevropa feodallarining va risarlarining Sharkka yurishi.
3. Vizantiyaning istilo etilishi va salibchilar xarakatining yakuni.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Yarim oy**,** kofirlar, beklik, xristian, katolik, pravoslav, salibchilar, orden, magistr, risarlik, patriarx, renta, «Tevton» ordeni, Salib yurishi, «Mukaddas urushlar», papa, sxizmatiklar, «kofir», «Kuddus assizlari», Pruss, tampliyerlar, gospitalyerlar, Krit, «Romeya», ionnitlar, ibodatxona.

**1-asosiy savol:**

XI-XIII asrlarda Yevropada feodallarning ijtimoiy-iktisodiy axvoli va salibchilik xarakatining boshlanishi.

**Maksad:** XI-XIII asrdagi Yevropa xalklari tarixidagi ijtimoiy-iktisodiy xayotni tushuntirish . Salibchilar xarakatini yuzaga kelish sababini aytish va salibchilar xarakatini Yevropada tutgan urniga baxo berish. Salib xarakatida asosan kimlar ishtrok etishini aytish xamda uning tarbiyaviy tomonlarini ochib berish .

**Identiv ukuv maksadlari:**

1.1. XI-XIII asrlarda Yevropadagi ijtimoiy-iktisodiy xayotni tushunadi.

1.1. Salib yurishlarining maksad va sabablarini aniklaydi.

1.2. Cherkov siyosatini maksadini anglaydi.

1.3. Salib xarakatida kimlar ishtrok etishini biladi.

1.4. Salibchilar yurish kilgan davlatlarni xaritadan kursatadi.

**1-asosiy savolning bayoni:**

Salib yurishlari deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan to XIII asr oxirigacha uzok vakt davomida Yakin Sharkda – Suriyada, Falastinda, Misrda, Bolkon yarim orolida, Kipr orolida va boshka joylarda. Olib borgan xarbiy-kolonizasiya ekspedisiyalari kuzda tutiladi. Tashki jixatdan bu ekspedisiyalar edi, chunki katolik cherkovi bu kurashni – «butning – yarim oyga» karshi, xristianlikni – islomga karshi kurashidir, deb e'lon kilgan edi; yurishlardan muddao Falastinni «kofirlar»dan xolos kilish va xristianlar e'tikodicha, Kuddusdagi «Iso paygambar kabri»ni xristianlarga kaytarib olib berishdir deb, rasmiy e'lon etildi. Xakikatda esa, bu boskinchilik yurishlardan iborat bulib, ularda yevropalik baronlar va risarlar xech tap tortmay, Sharkning shaxarlarini taladilar, butun-butun knyazlik (beklik) va kirolliklarni tulovchilarni kulga kiritdilar. Ammo salib yurishlarida, feodallardan tashkari, jamiyatning boshka sinflari, jumladan, dexkonlar xam katnashdilar. Bu xol salib yurishlariga endi yalpi, ommaviy tus berdi. Zamondoshlarga butun Yevropa xarakatga kelganday, xalklarning kandaydir yangi buyuk xijrati yuz berganday bulib kurindi. XI asrda Sharkda Yevropa feodallarining xujum kilishi uchun juda kulay bir vaziyat maydonga kelgan edi. Bir vaktlar kudratli deb xisoblangan Bogdod xalifaligi 1055 yilga kelib batamom tarkaldi. Boshka yirik davlat – Komninlar zamonidagi Vizantiya xam ogir kunlarni boshidan kechirmokda edi. Bolkon yarim oroliga bostirib kirgan pecheneglar Vizantiya imperiyasiga shimol tomondan xujum boshlagan edilar. Sisiliya normandlari garbdan Vizantiyaga xavf solmokda edilar. Ammo saljuk turklari Vizantiya uchun ayniksa xavfli edilar, ular Kichik Osiyoning katta bir kismini bosib olgan va ayni zamonda, Konstantinopolga kushni bulgan Nika shaxrini uzlariga poytaxt deb e'lon kilib olgan edilar. Salib yurishlarining, jumladan birinchi salib yurishining asosiy sababi, Garbiy Yevropaning uzidagi ijtimoiy ziddiyatlarning utkirlashib ketganligi edi. XI asrda mayda risarlarning kupchiligiga yer yetishmas edi. Savdo-sotik va shaxarlarning rivojlanishi natijasida extiyojlarning usib borishi munosabati bilan feodallarning maxalliy dexkonlarni ekspluatasiya kilishdan oladigan daromadlari ular uchun kifoya kilmaydigan bulib koldi. Juda kup risarlar yerdan maxrum kilingan edilar, chunki feodallarga karashli yer-

mulk va daromadlar (feod) odatda katta ugilag berilar edi va kichik aka-ukalar esa otadan kolgan merosdan biror narsa olishga xaklari yuk edi. XI asr oxri – XII asr boshida salib yurishidagi goyat muxim masala – dexkonlar masalasi edi. Garbiy yevropaning feodal zulmi natijasida asoratga tushirilgan, ezilgan dexkonlari dastlabki paytlarda Sharkka bajonu dil yul oldilar. Krepostnoy karamlikdan xalos bulish, karzlarni tugatish, Sharkdan yer olish umidi uni minglab kishilarning tugilib usgan shaxar va kishloklarini tashlab, uzok yurtlarga ketishga majbur etdi. Ularning kuplari bu joylarda och-yalongoch kolib, xor-zorlikda ulib ketdi. Dunyoviy va ruxoniy feodallar dexkonlarning Sharkka kiladigan yurishini vujudga kelgan ogir axvoldan kutilishning uziga xos bir yuli deb bilardilar. Kupdan-kup monaxlar va boshka daydi voizxonlar dexkonlar orasida targibot yurgizib, ularni Sharkka yurishdek «ezgu ishda» katnashishga dav’at etardilar. Birok dexkonlar masalaning moxiyatiga darxol tushunib yetmagan bulsalarda, lekin okibat-natijada, ular gapning nimada ekanligini ochik-oydin paykab koldilar. Sharkka kilingan dastlabki ikki yurishda dexkonlar kupchilikni tashkil kilgan bulsalar, uchinchi salib yurishida esa, katnashmay kuydilar. Bundan keyingi salib yurishlarining xammasida fakat feodalarning uzlari katnashdilar. Yevropa kirollari, eng yirik feodallar (graflar va boronlar), shuningdek, kupdan-kup risarlar Yakin Sharkda, fakat Arab Sharkidagina emas, balki Vizantiyada xam yangi feodal davlatlar barpo etish masalasini ochikdan-ochik kuzlay boshladilar.

Shunday kilib, Sharkning ikki eng yirik davlati – Arab xalifaligi bilan Vizantiya imperiyasi – salibchilarga biror-bir jiddiy tuskinlik kursatishdan ojiz edilar. Buning ustiga, ulardan biri Vizantiya xatto Yevropa feodallarini Shark majarolariga aralashishga dav’at etdi.

**Nazorat topshiriklari:**

1.Birinchi salibchilar xarakatining anik sabablari nimalardan iborat.
2. Salibchilarni birlashishida papa siyosatini urnini aniklang.
3. Yevropa feodallarining Sharkka yurish maksadini asoslaydigan sabab?
A) Yevropaning Sharkka uyushtirgan xarbiy mustamlaka siyosati.
V) Butning «Yarim oy»ga karshi kurashi.
S) Iso paygambar kabrini kulga kiritish.
D) Shark boyliklariga ega bulish.
Ye) Sharkda mustakil xrestian davlatini tuzish.
2. Salibchilik xarakatida asosiy ishtrokchilar?
A) Kambagallar .
V) Yer mulk va daromadi yuklar.
S) Savdogarlar.
D) Feodallar va risarlar.
Ye) Ruxoniylar.
3.Salib yurishlari kaysi asrlarni uz ichiga oladi?
A) XI-XII asrlar
V) XI asr oxiridan to XIII asr oxirigacha
S) IX-XI asrlar
D) XI asr boshlari XII asr oxirigacha.
S) X asr boshlari XIII asr oxirigacha
Ye) XI asr oxiri XIII asr boshlarigacha.

**2-asosiy savol:**
Yevropa feodallarining va risarlarining Sharkka yurishi.

**Maksad:** Salibchilar xarakati jarayonini ta’riflab berish, risarlarning Sharkka yurishdan kuzlangan maksadalarini ochib berish xamda Sharkka yurishlarini tushuntirib berish. Mavzuni yorituvchi manbalar bilan tanishtirish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
2.1. Dexkonlar va risarlar armiyasining Sharkka yurishini sababini aniklaydi.
2.2. Risarlar tomonidan bosib olingan territoriyalarda xarbiy xarakat uyushtirilishini biladi.
2.3. Salib yurishi papa siyosati ekanligini tushunadi.

2.4.Salib yurishlari necha marta takrorlanganligini belgilaydi.
2.5.Salib yurishlarini marshrutini xaritada kursatadi.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Salib yurishlarining boshlanishi 1096 yilga tugri keldi. 1096 yilning baxorida Shimoliy va Sharkiy Fransiyaning kisman Garbiy Germaniyaning dexkonlar ommasi salib yurishi uchun yulga tushdi. Kuyni puch yongokka tulgizilgan dexkonlarga monax Pyotr Amyenskiy (Pyotr Pustinnik) va kichik mulkdor risar Valter Golyak boshchilik kilidilar. Dexkonlar olomoni yomon uyushtirilgan, naridan-beri kurollantirilgan, ozik-ovkat maxsulotlari bilan muntazam ta’minlanib turilmas edi. Bu xol salibchilar «kofirlar» istikomat kiladigan yerlarga yetib bormasdanok ma’lum bulib koldi. Jumladan , salibchilar Reyn daryosi buyidagi shaxarlarga utib keta turib, u yerlarda pogromlar uyushtirdilar 1096 yilnitng kuzida risarlar, asosan fransuz va ital’yan risarlar, kisman Garbiy Germaniya risarlari junab ketdilar. Bu yurishga kuyi Lotaringiya gersogi Godfrid Bulonskiy boshchilik kilib, uzi bilan birga Sharkka ikkita ukasi – Bolduin bilan Yevstafiyni olib ketdi. Shimoliy fransuz feodallariga Normandiya grafi Robert xamda Flandriya grafi boshchilik kildilar. Salibchilar bosib olingan territoriyada uz davlatlarini tuzdilar bu davlat Kuddus kirolligi deb ataldi. Bu davlatga dastlab Gotfrid Bulonskiy kirol kilib saylandi. Ammo, Kuddus kirolligi Balduinning vorislari zamonida (1100 - 1118) kat’iy rasmiylashdi. Kuddus kirolligi uziga xos «namunali» feodal davlat edi. Kuddus kirolligidan tashkari, shu kirollikning vassal davlatlari sifatida yana uchta yirik knyazlik : Antioxiya knyazligi, Tripoli va Edessa grafliklari bor edi. Salibchilar Sharkda mudofaani tashkil kilmok uchun uziga xos doimiy kushin tuzishga majbur buldilar. 1099 – 1100 yillarda birinchi salib yurishi tamom bulgandan keyin risarlarning bir kismi Yevropaga kaytib ketdi. Shundan keyin bu risarlarga yordam tarikasida diniy – risarlik ordenlari barpo etildi. Ordenlar papaga buysunardi. Sharkda uchta orden tashkil etildi. 1119 yilda birinchi bulib tampliyerlar yoki ibodatxona axillari degan italyan ordeni bunyodga keldi. Tez orada shunga uxshash gospitalyerlar yoki ionnitlar degan italyan ordeni joriy etildi. Keyinrok 1190 yilda nemislarning uchinchi bir ordeni ta’sis etilib, u Nemis yoki Tevton ordeni deb ataldi. Tevton ordeni Prussiyani istilo etib va shuning okibatida «Tevton» ordeni degan nom urniga «Pruss» ordeni degan nom oldi. Birok Kuddus iorolligi diniy-risarlik ordenlari tarzidagi kushimcha kuchga ega bulishiga karamay, uning axvoli juda nochor edi. XII asrning 30-40 yillarida Kuddus kirolligi eng kuchli kirolikka aylangan edi. Ammo 1144 yilga kelib uning yerlarining anchagina kismini (Kichik Armaniston va Edessani) turklar bosib oldi. Kuddus kiroli turklarga karshi Yevropadan yordam berish uchun yangi risarlarni chakirishni surab papaga murojaat kildi. Bunga javoban, 1147-1149 yillarda ikkinchi salib yurishi uyushtirildi. Ikkinchi salib yurishida fransuz kiroli Lyudovik VII va german imperatori Konrad III xam katnashdilar. Lekin yurishga tortilgan xarbiy kuchlar ancha ancha kup bulishiga karamay, bu yurish butunlay muvaffakiyatsizlik bilan tugadi. Uchinchi salib yurishining eng muxim natijasi, yukorida eslatib utilganidek, Kipr orolining Garbiy yevropaliklar tomonidan istilo etilishi buldi. Keyinchalik Kuddus kiroli uz saroy axiillari bilan birga Akradan bu yerga kuchib keldilar. Salibchilarning barcha yer-mulklari ichida Kipr kirolligi eng mustaxkam kirollik bulib chikdi. Bu kirollik XV asrning ikkinchi yarmigacha, ya’ni 250 yil yashadi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Birinchi salib yurishida dexkonlarning maksadi.
2. Risarlar xarakatining okibati.
3. Uchinchi salib yurishining natijasi nima bilan tugadi?
4. Birinchi salib xarakatidagi maglubiyat sabablari?

A) Ularni fakat dexkonlar guruxidan iborat ekanligi.
V) Muntazam kurollanmaganligi.
S) Turk kushinlariga tuknash kelganligi.
D) Imperator ularni xaydab yuborganligi.
Ye) Ularda anik maksadning yukligi.

5. Risarlar tomonidan Kuddus xukmronligining yuzaga kelishi?

A) Risarlarning xarbiy tayyorgarlikka ega ekanligi.
V) Vizantiya kiroliga va’da berganligi.
S) Kuddusda xristianlarning salibchilarga yordam berishi.

D) Salibchilarga arman ittifokchilarining yordami.
Ye) Risarlar bilan tuknashuvda turk ximoyachilarning yengilishi.
6. Salib yurishlarining boshlanishi kaysi yilga tugri keladi?
A) 1097 yil
V) 1096 yil
S) 1098 yil
D) 1190 yil
Ye) 1090 yil.

**Asosiy savol:**
2. Vizantining istilo etilishi va salibchilar xarakatining yakuni.

**Maksad:** Vizantiyaning ichki kismidagi siyosiy inkirozdan foydalangan salibchilarni muvaffakiyatini asoslab berish, salib yurishlarini bir-biriga takkoslash xamda salibchilar xarakatining maglubiyatga uchrashi sabablarini ochib berish. Salib yurishlari keyingi urta asr Yevropasi xayotidagi eng muxim xodisalarni rivojini tezlashishi xakida axborot berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
1.1. Vizantiyadagi ichki ziddiyatning moxiyatini taxlil kiladi.
1.2. Vizantiyada salibchilar olib borgan siyosatni biladi.
1.3. Sunggi salib yurishlarida kilingan tartibsiz xarakat bilan tanish buladi.
1.4. Xarbiy ekspedisiyalar batamom muvaffkiyatsizlik bilan tugashini anglab yetadi.

**3-savol bayoni:**
Xammasi bulib sakkiz marta salib yurishlari buldi. Lekin dastlabki turtta salib yurishi eng muximi deb xisoblanadi. Keyingi turtta salib yurishida uncha kup katnashmagan. Yettinchi va Sakkizinchi salib yurishlari fransuz kiroli Lyudovik IX tomonidan uyushtirilib, ular fransuzlarning Shimoliy Afrikadagi ta’sirini mustaxkamlamokchi bulgan edilar. Sakkizinchi yurishda (1269 - 1270) Lyudovik Tunis shaxrini kamal kilish uchun zur berib kuch tupladi, bundan muddao Afrikada urush xarakatlarini yanada davom ettirish uchun tayanch bazasiga ega bulish edi. Ammo Tunisni kamal kilish paytida fransuzlar lagerida o’lat kasali boshlanib, kuplar katorida kirolning uzi xam xalot buldi.

Xarbiy muvaffakiyatsizliklarga karamay, xar kalay, salib yurishlarining Garbiy Yevropa tarakkiyoti uchun goyat katta buldi. Ammo salib yurishlarining Garbiy Yevropaga kursatgan ta’siri bilinib turadi. Ikkinchi tomondan, Garbiy Yevropaning o’zi XI-XIII asrlar davrida o’zining ishlab chikaruvchi kuchlarning usishi jarayonida yangi ijtimoiy, siyosiy va madaniy formalar yaratdi.

Ammo salib yurishlarining Garbiy Yevropaga kursatgan ta’siri xakida gapirilar ekan, Arablar Sharkining madaniyati salib yurishlaridan tashkari, boshkacha yullar bilan, jumladan, Ispaniya arablari yoki mavrlar Garbiy yevropani utib kirganligini xam unutmaslik kerak. Shark bilan yakin aloka kilish natijasida yevropaliklarning saviyasi sezilarli darajda kengaydi. Sharkda madaniy xalklar bor ekanligini ilgari ular xayollariga xam keltirmagan edilar. Shark xayoti bilan tanishganlaridan keyin, boshka dinlarga ancha-muncha yul kuyadigan buldilar. Yevropaliklar xrestian dinini musulmon dini bilan takkoslab kurib, xristian dinining uziga va xususan salib yurishlari davrida urta asr papaligi tomonidan bevosita amalda kullanilgan teokratizm ideyaga nisbatan ba’zi bir tankidiy andisha va muloxazalarga kela boshladilar. Salib yurishlari keyingi Urta asr Yevropasi xayotidagi bu eng muxim xodisalarning rivojini tezlatdi, xolos.

**Nazorat topshiriklari:**
1. Vizantiyani kulga kiritishni sababini aniklang.
2. Salib yurishlarining maglubiyati nimalardan iborat edi.
3. Salibchilar xarakati kachon uz yakuniga keldi?
A) XI asr oxirida XIII asr boshida .
V) XI asr oxiri XIII asr urtalarida.
S) XI asr oxiri XIII asr oxiri.
D) XIII asrda.

Ye) XII asrda.
4. Salibchilar Vizantiyadan kachon kuvib chikarildi?
A) 1260 yilda.
V) 1186 yilda.
S) 1187 yilda.
D) 1270 yilda.
Ye) 1261 yilda.
5. Sungi salib yurishidan keyin Vizantiyaning axvoli?
A) Ikkiga bulinib ketdi
V) Uchga bulinib ketdi
S) Gullab yashnadi
D) Vizantiyada feodallshuv jarayoni tez avj oldi.
Ye) Cherkovlar ajralib ketdi.

**Mavzu bayoni yakunida:**
**Talabalar uchun mustakil ish topshiriklari:**

1. Salibchilar xarakatining sabab va maksadlarini aniklab bering?
2. Salibchilar xarakatidagi iktisodiy okibatlarni ochib bering?
3. Sungi salib yurishidan keyingi Vizantiyaning axvoli xakida gapiring?
4. Nima uchun turtinchi salib yurishini asosiy yurish deb xisoblaymiz?
5. Birinchi va ikkinchi salib yurishidagi iktisodiy maksad?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Urta asrlar tarixi V.F. Semenov, T.,-1973. 177-190 betlar.
2. P.Musayev, A.Baxromov va boshkalar taxriri ositida. «Geografiya», T,- «Ukituvchi» 1996.
3. Gerodot «Istoriya».

**10-mavzu: VI-XI asrlarda Vizantiya imperiyasi.**
*(2 soat ma'ruza)*

**Asosiy savollar:**
1. Sharkiy Rim imperiyasi. Vizantiyaning kengayishi
2. Yustinian konuni va ma'muriy zulmning kuchayishi. . «Dexkonchilik konuni»
3. Isavrlar dinastiyasining idora kilinishi..

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** But, isavrlar dinastiyasi, Vizantiya, imperiya, Uzon Shark, Solun, Rim imperiyasi, «Nika», Sofiya, «Sirli tarix», Dexkonchilik konuni, turmarxlar, varvar, benefisiy, Dualizm, obrok, «Aleksandriya», «greklar uti», «Dexkonchilik konuni», «ulush», monofizitlar, nestorianlar, german, Vizantiya imperiyasi, Kichik Osiyo, mistoolar, vlastellar, «Miriobiblion», «Filokratis».

**1-asosiy savol:**
Sharkiy Rim imperiyasi. Vizantiyaning kengayishi.

**Maksad:** VI-XI asrlarda Rim imperiyasidagi ijtimoiy va siyosiy xayotni tushuntirib berish, imperiyada inkirozning boshlanish okibatlarini aytish xamda Yustinian zamonida Vizantiya imperiyasining yuzaga kelish shart-sharoitlarini ochib berish. Xaritadan Vizantiya imperiyasining chegaralarini kursatish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
1.1. Rim imperiyasining german kabilalari tomonidan istilo kilinishini biladi.
1.2. Varvarlarning kelishi kuldorlik tuzumining kulashi va ancha progressivrok ijtimoiy feodal munosabatlarning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratilishini esga tushiradi.
1.3. Yustinian zamonida Vizantiyaning kengayishini tushunadi.
1.4. Imperiya chegaralarini xaritada kursatadi.

**1-asosiy savolning bayoni:**
Garbiy Rim imperiyasida German kabilalari tomonidan istilo kilingandan keyin xam Rim imperiyasining Sharkiy kismi yana uzok vakt xukm surdi. U xatto uzini rasmiy suratda Rim (Romeya) imperiyasi deb atayverdi. Latin tili yana uzok vaktgacha Sharkiy imperiyaning davlat tili bulib koldi.. Lekin Sharkda imperiyaning davlat tili bulib koldi. Lekin Sharkda xalk grek tilida gaplashardi. «Rim imperiyasi» degan nom bora-bora yukolib, «Vizantiya imperiyasi» degan nom yuritila boshladi (imperiyaning poytaxti kadimgi vaktda Vizantiya deb atalgan bulib, 330 yilda Konstantin Buyuk unga Konstantinopol deb nom bergan edi). Ba'zi olimlar xuddi shu yilni Vizantiya imperiyasiga asos solingan yil deb xisoblaydi.

Sharkiy imperiyaning yukorida kayd kilib utilgan xususiyatlari natijasida uning varvarlarga bulgan munosabatlari xam boshkacha bir xarakterga ega buldi. Vizantiya Garbiy imperiyaga uxshab varvarlar tomonidan bosib olinmadi xam, yashashdan tuxtamadi xam. Jumladan, Vizantiya german kabilalari vessgotlar, ostgotlarning va boshka kabilarning xujumlariga bardosh berdi, bu kabilalar esa, Vizantiyadan Garb tomon kirib borib, u yerda uzlarining varvarlik kirolliklarini tuzdilar. Vizantiya kadimgi Rimga xos bulgan ijtimoiy va siyosiy tradisiyalarni uzida saklab, ilgarigidek «Romeya davlati»ligicha kolib kelayotgan bulsada, uning ijtimoiy tuzumi feodalizm tomon tezlashib bormokda edi. Okibat-natijada Vizantiya xam, «varvarlashtirishdan» kochib kutilmadi, bu narsa Bolkon yarim oroliga juda kupdan-kup slavyan kabilalarning kelishida nomoyon buldi. Shunday kilib, shuni e'tirof etish mumkinki, okibat natijada germanlar Garbiy Rim imperiyasiga nisbatan kanday rol uynagan bulsalar, slavyanlar xam Vizantiyaga nisbatan (ozgina fark-sark bilan) xuddi shunday rol uynaydilar.

Vizantiya xali Garbdagi varvar korolliklariga, shimoldagi slavyan kabilalariga, shimoldagi slavyan kabilalariga va Urta Sharkda yangi fors (Eron) podsholigiga keskin ravishda karama-karshi turuvchi kuldorlik «Rim imperiyasi» mavjud bulgan davrda, VI asrda imperator Yustinian xukmronlik kilgan vaktda eng katta muvaffakiyatga erishdi. Yustinian 527-565 yillarda podsholik kildi. U uzidan oldin utgan

Feodosiy dinastiyasi urniga kelgan yangi dinastiyaning vakili edi. Uning amakisi imperator Yustin I ba'zi ma'lumotlarga kura, illiriyalik savodsiz bir dexkon bulib, xarbiy xizmatda shuxrat kozongan edi. Shunday kilib, Urta dengiz vizantiyaliklar uchun yana «Bizning dengiz» (Mare nostrum) bulib koldi. Yustinian uz davlatining shimoliy chegaralarini kisman xunlar xujumidan, kisman slavyanlar sikuvidan ximoya kilishga juda zur berdi. Bolkon yarim orolida bir-biriga parallel ravishda uch kator kal'alar kurildi. Ammo bu mudofaa tusiklari slavyanlarning Bolkon yarim oroliga siljishlarini tuxtata olmadi. Slavyanlarning kupini imperiya yarim oroliga ittifokchi – federatlar sifatida joylashtirishga majbur buldi. Boshkalari xatto Bolkon yarim orolining janubida – Makedoniyaga va Egey dengizi buylariga kolonist-yer egalari sifatida joylashtirildi. Yustinian imperiyani Krimning janubiy kirgogidagi va kisman, Zakavkazyedagi yerlarini kaytarib oldi. Lekin u Mesopatamiyaning bir kismini Eron shoxiga berishga va sulx tuzilganidan keiyn unga katta-katta pul tulab turishga majbur buldi.

Shunday kilib, Yustinianning ulug davlat tuzish siyosati bir kadar muvaffkiyatli natijalar berdi, xolos. Shunday bulsada, uning vaktida imperiyaning chegaralari ancha kengaydi. Keyingi vaktlarda Vizantiya imperiyasi bunday yutuklarga xech bir erisha olmadi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Rim imperiyasining german kabilalari tomonidan istilo kilinishi.
2. Yustinian davrida Vizantiyaning kengayish okibatlarini ayting.
3. VII-VIII asrlarda Vizantiyadagi ijtimoiy axvol.
4. Yustinian Vizantiyada nechanchi yillarda podsholik kildi?

A) 522-564 yillar.
V) 524-568 yillar
S) 527-565 yillar
D) 527-556 yillar
Ye) 530-560 yillar

5. Vizantiya imperiyasi kachon tashkil topdi?

A) 356 yilda
V) 329 yilda
S) 368 yilda
D) 395 yilda
Ye) 397 yilda

**2-asosiy savol:**
Yustinian konuni va ma'muriy zulmning kuchayishi. . «Dexkonchilik konuni»

Varvarlarning Rim imperiyasiga bulgan munosabati IV asr oxirigacha kelib juda xam keskinlashib ketdi. Imperiyaning zaiflashuvi varvar kabilalariga imperiya chegarasidan deyarli bemalol utib, uning territoriyasini egallab olish uchun imkon berdi. Imperiya varvarlarning sikuvini yana bir oz vakt tuxtatib tura olar edi, lekin u, imperiyaga federat – ittifokchilar tarzida xizmat kilayotgan varvarlarning uzining yordamiga tayangan chogdagina shunday kila olar edi. Ammo federatlarning dushmanga aylanishi oson edi; buning oldini olish uchun imperiya ularga tobora kuprok yon berishga majbur bulmokda edi. German kabilalari II-IV asr urtalarida uzlarining ishlab chikarish kuchlarini anchagina rivojlantirdilar. Ular Sezar va Tasit zamonidagiga karaganda yaxshirok ishlay boshladilar. Ularda xayvonlarning nasli (jumladan, otlarning nasli) yaxshilandi. Xunarmandchilikdan rivojlantirishda ancha olga ketiladi. Germaniyaning kup joylarida yer ustidagi yoki uncha katta bulmagan chukurlikdagi rudalar ishlana boshlanadi. Chegara oblastida yashovchi germanlar rimlik savdogarlar bilan oldi – sotdi kila boshladilar. Varvarlarning axolisi tobora kupayib borganligi uchun yer masalasi juda keskin masala bulib koldi. Varvarlar axolisining oshib-toshib ketayotganligini sezmokda edilar. Ular imperiyaning serxosil va kisman butunlay ishlov berilmagan yerlarini ishgol kilishga intildilar. Butun bir varvar kabilalarini rim imperiyasiga karshi keskin kurash olib borishga olib kelgan eng muxim va asosiy sabab yer tankisligi edi. Bu vaktga kelib german kabilalarining ichida katta uzgarishlar sodir buldi. German jamiyatining tobora kuprok tabakalanib borishi – zodagonlarning ajralib chikishi, ularga karam bulgan kishilarning sonini kupayishi va xokozolar bilan bir katorda, kabilalarning katta – katta ittifoklarga birlashuv prosessi xam yuz bermokda edi. Kuyi Reynda xamda Yutlandiya yarim orolida anglo–saks kabilalari birlashmasi; Yukori Reynda allemanlar ittifoki (bunga kvadlar, markomanlar, kisman svevlar kirardi); Elbada va Elbaning narigi tomonida langobardlar, vandallar burgundlarning ittifoklari tashkil topdi. Bundan oldingi bobda

gotlarning ikkita ittifoki – vestgotlar ittifoki va ostgotlar ittifoki vujudga kelib, bularning xar biri Dunay va Kora dengiz buyi rayonida kup kabilali davlat tashkil kilinganligi gapirib utilgan edi. IV asrning oxirlaridan boshlab va ayniksa V asrda varvarlar yoppasiga imperiya territoriyasiga karab yul olib, uni asta–sekin istilo kila boshladilar. Tugri, bu istilo kilish kariyb butun bir asrga chuzildi. Ancha vaktgacha bu istilochilar rasman imperiyaning “ittifokchilari” deb karaldi. Birok zamondoshlar bu nomga aldanmadi. Garbiy Rim imperiyasining tobora kullab borayotganligi shubxasiz xakikat edi. chunki varvarlar imperiyani istilo etish bilan bir vaktda imperiya territoriyasiga uzlarining butun oilalari, uy anjomlari, sigir – buzoklari va xokozolari bilan kuchib kelib, urnashayotgan edilar. Shuning uchun IV asrning oxiri va V asrning xammasini uz ichiga olgan bu davrni tarixchilari odatda ***Xalklarning buyuk kuchishi*** davri deb ataydilar.

Bu kuchish imperiya territoriyasiga gotlarning bostirib kirishidan boshlandi, deb xisoblanadi. Ostgotlar va vestgotlarning imperiya bilan totuv yashashlari mumkindek tuyular edi. Usha vaktda Yevropaning janubiy – sharkida bu varvarlarning juda keng yer maydonlari bor edi. Vestgotlarda xam, ostgotlarda xam xech kanday «yer kaxatchiligi» yuk edi. Tugri, ostgot zodagonlari gox-gox Bolkon yarim oroliga xujum kilib turar edilar. Lekin ikkinchi tomondan, gotlar Sharkiy Rim imperiyasi bilan tinch savdo alokalari olib borar edilar. Gotlar xristianlikni sharkiy rimliklardan kabul kilgan edilar. Gotlar urtasida xristianlikni targib kilgan kishi yepiskop Ulfila buldi, u injilni va diniy kitoblarni got tiliga tarjima kildi.

Ikki davlatning eng kuchli - Ostgotlar davlati bulib, u kup kabilali ittifok edi, bu ittifok uzining ostgot kabilasidan tashkari, slavyan va sharkiy sarmat kabilalaridan bir kanchasini uz ichiga oladi va bu davlatga kirol Germanarix 50 yil boshchilik kildi (u 375 yilda vafot etdi) Ostgotlarning uzlari maxalliy madaniyat ta’siriga anchagina berilib, maxalliy axoli bilan kisman aralashib keta boshlagan edi.

Vestgotlarning Dunaydan utishi yuzaki karaganda aytarli bir narsa emasdek edi. Rimliklarning butun-butun kabilalarini federat kilib kabul kilish xollari ilgari xam bulgan edi . Lekin xakikatda esa, vestgotlarning Bolkon yarim orolida paydo bulishi katta okibatlarga olib kelgan edi.Gonoriyning lashkarboshisi Stilixon (aslida varvar edi) dastlabki vaktda vestgotlarning Italiyaga kilgan xujumini tuxtatib turdi. U xatto Britaniyadagi rim legionlarini (407 yilda) chakirib keltirdi, legionlarning bu vaktida Italiyaning uzida bulishi nixoyat darajada zarur edi. Birok saroy axli urtasida fitna natijasida Stilixon tez orada vazifasidan tushirildi va uldirildi. Vestgotlar kiroli Aliarix endi kattik karshilikka uchramay, 409 yilda Italiya territoriyasiga kirib boradi. Keyingi yilda Alarix Rimni juda katta talonga soldi. Shu narsa xarakterliki, Alerix Rimni kullar yordami bilan oldi. Rimda va uning atrofida yashagan 40 mingga yakin kul Alarix tomoniga utdi.

## Nazorat topshiriklari:

1. Xalklarning Buyuk kuchish davri kaysi asrlarga tugri keladi?

A) V-VII asrlarda.
V) IV asr oxiri V asrning oxiri.
S) V asr oxiri –VII asr boshlari
D) IV asr oxiri - V asr boshlari.
Ye) V-VI asrlar.

2. Vestgotlar Rimni kachon bosib oldilar?

A) 410 yil 24 avgust.
V) 411 yil 23 oktyabr
S) 412 yil 25 aprel
D) 410 yil 11 mart
Ye) 411 yil 24 oktyabr

3. Kirol Germanarix necha yil xukmronlik kildi?

A) 45 yil
V) 54 yil
S) 60 yil
D) 40 yil

Ye) 50 yil.

4. Feodosiy ulgandan keyin Rim imperiyasida kanday vokea yuz berdi?

A) Imperiya ugillari urtasida taksimlandi.

V) Rimliklar poytaxti talon-taroj kilindi.

S) Vestgotlar Rimni bosib oldilar.

D) Rimdagi kuldor zodagonlarning kupi uldirildi.

Ye) Rimda yashagan 40 ming kishi Alarix tomoniga utdi.

5. Rim imperiyasining varvarlar tomonidan istilo kilinishining okibatlari ayting?

6. Nima uchun xalklarning buyuk kuchish davri deb ataydilar?

**2-asosiy savol:**

Rim imperiyasidagi Tuluza, Vandallar va Burgundiya kirolliklarining tutgan roli.

**Maksad:** V-VI asrlarda Rim imperiyasidagi ijtimoiy tuzumga baxo berish, Vestgotlarning Tuluza kirolliklarining yuzaga kelish shart-sharoitlarini aytib berish, Shimoliy Afrikadagi vandallar korolligining ijtimoiy-siyosiy axamiyatini aniklash va uning istilochilik xarakatlari okibatida xalkning, davlatning tushkunlikka tushish sabablarini ochib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

2.1. V-VI asrlarda Rim imperiyasidagi ijtimoiy tuzumni aytib beradi.

2.2. Rim imperiyasidagi istilochilik xarakatlarining sabablarini ochib beradi.

2.3. Vestgotlarning Tuluza kirolligi va Shimoliy Afrikadagi vandallar korolligining yuzaga kelishidagi asosiy omilllarni kursatib beradi.

2.4. Istilochilik xarakatlarining asosiy sabablarini aniklab beradi.

**2 – asosiy savolning bayoni:**

Italiyada bir oz vakt turgandan keyin, vestgotlar Gonoriy xukumati bilan kelishib, Janubiy Galiyaga utdilar va u yerda 419 yili Rim imperiyasi territoriyasida dastlabki varvarlar korolligini tuzdilar, uning poytaxti Tuluza shaxri buldi. Tuluza kirolligi Rim imperatoriga nomigagina karam xisoblanar edi. Aslida u butunlay mustakil edi. Galiyaga kuchib kelganlaridan vesstgotlar juda kup yerlarni boshkatdan taksimladilar, Ular maxalliy galliyalik-rimlik kuldorlar ixtiyoridagi yerlarning uchdan ikki kismini undagi kullar, binolar, kishlok xujalik asbob-uskunalari va boshka narsalari bilan birgalikda musodara kilib, uzaro bulishib oldilar, katta-katta latifundiyalardagi eng yaxshi yerlarni, kullarni va asbob-uskunalarni kirol bilan zodagonlar oldi. Oddiy vesstgot jangchi dexkonlar uzlarining oilaviy chek yerlarini - sortes - ya'ni aynan olganda kur'aga (chekiga) chikkan yerlarni oldilar, bular: xaydaladigan yerlardan, jamoaga karashli yer-mulklar – urmonlar, yaylovlar va boshkalardan iborat edi. Keyincha V asrning oxiri – VI asrning boshlaridan boshlab Vestgotlar korolligi Piriney toglarining narigi tomoniga Ispaniyaga xam yoyildi. Uning poytaxti Toledo shaxriga kuchirildi. Taxminan, Galliyada vestgtlar uz davlatini vujudga keltirgan vaktda, boshka bir gruppa varvar kabilalari Pireney yarim oroliga bostiri kirdi. Bular svevlar bilan vandallar edi. Svevlar yarim orolning shimoliy-garbiy kismini bosib oldilar, vandallar janubga kirib borib, birmuncha vaktgacha Gvadiana daryosi janubidagi territoriyada yashadilar. Xozirgi vaktda xam shu oblast Andaluziya deb ataladi (dastlabki vaktlarda Vandalusiya deb atalar edi). Vandallar bu yerdan korol Geyzerix boshchiligida Shimoliy afrikaga xujum kildilar. Vandallar Shimoliy afrika axolisining kuyi tabakalari orasida Rim xukumatining va katta kuldorlarning e'tibori yukligidan foydalanib, bu keng territoriyani bosib oldilar va 439 yilda Rim imperiyasi territoriyasida ikkinchi varvar kirolligini vujudga keltirdilar, bu davlatning poytaxti kadimgi Korfagen buldi.

Vandallar Rim zodagonlarining juda kup yerlarini xam musodara kildilar. Lekin ularning uzlarida xam zodagonlar tezlik bilan tarkib topmokda edi, bu zodagonlar bosib olingan yerlar, olingan kullar va boshka xil uljalar xisobiga boyib ketdi, vandal zodagonlari Italiyaga kilingan boskinchilik xujumlari natijasida ayniksa boyigan edi. 455 yilda vandallar Rimni bosib olib, vestgotlarning 410 yildagi tolon-tarojidan battarok misli kurilmagan darajada taladilar va vayron kildilar. Vandallar Rimning eng nodir kadimgi yodgorliklarini ayovsiz buzib tashladilar. Shu sababli «vandalizm» degan suz madaniyat yodgorliklarini vaxshiyona vayron kilish timsoli bulib koldi. V asr urtalarida 443 yil bilan 457 yil oraligida

Rona daryosi xavzasida yana bir varvar kirolligi vudjudga keldi, bu kirollikning poytaxti Lion shaxri buldi. Bu Burgundiya korolligi bulib, xajmi jixatidan bir muncha kichikrok bulsada, xozirda Fransiyaning janubi-sharkini, geografik va strategik jixatdan juda muxim va serxosil joyini ishgol kildi. Bu korollik vujudga kelishi natijasida imperiyaning shimoliy Galliya bilan alokasi uzilib koldi. Shunday kilib, Garbiy Rim imperiyasi usha vaktdan boshlab xakikatda birgina Italiyaning uz doirasi bilan cheklanib koldi. Burgundlar xam maxalliy galliyalik-rimlik zodagonlarning yerlarini tortib oldilar, lekin bu tortib olish vestgotlar utkazgan musodaraga karaganda birmuncha xajmda buldi.

Burgundlar son jixatidan xiyla oz bulib, IV asrda uzok vaktgacha yukori Reynda rimliklar bilan yonma-yon yashadilar (ularning usha vaktdagi poytaxti Vorms shaxri edi), ular tez vakt ichida romanlashib, V asrdayok lotin tilini, rimliklarning urf-odatlarini va ularning mulkiy munosabatlarini uzlashtirib oldilar. Birok, shunga karamay, Burgundiyaning asosiy axolisini bu yerda uzlariga chek yerlar olgan varvar dexkonlar tashkil etar edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. V-VI asrlarda Rim imperiyasidagi ijtimoiy tuzumini tushuntiring?
2. Vestgotlarning Tuluza korolligi kachon tashkil topdi?
3. Rim imperiyasida dastlabki varvarlar kirolligi kachon tashkil topdi?

A) 418 yilda
V) 419 yilda
S) 420 yilda
D) 417 yilda
Ye) 412 yilda

4. Ikkinchi varvar kirolligi kachon vujudga keldi?

A) 439 yilda
V) 437 yilda
S) 438 yilda
D) 436 yilda
Ye) 440 yilda

5. Uchinchi varvar kirolligi kachon vujudga keldi?

A) 443-457 yillarda
V) 443-467 yillarda
S) 443-457 yillarda
D) 444-456 yillarda
Ye) 442-457 yillarda

**Asosiy savol:**
3. Garbiy Rim imperiyasining kulashi va Gotlar urushi.

**Maksad:** Rim imperiyasining ijtimoiy xayotiga baxo berish, uning kulashi sabablarini ochib berish, Gottlarning kirib kelishi va uning istilolarining asl maksad va moxiyatini tushuntirish. Atilla zamonida gunnlarning vujudga kelish shart-sharoitlarini aytib berish.

**Ilentiv ukuv maksadlari:**

1.1. Rim imperiyasining ijtimoiy xayotini tasvirlaydi.
1.2. Rim imperiyasining kulash sabablarini tushuntirish.
1.3. Uning istilolarining maksad va moxiyatini belgilovchi omillarni ochib beradi.
1.4. Gunnlar urushining sabab va okibatlarini biladi.
1.5. Atilla zamonidagi gunnlarning vujudga kelish shart-sharoitlarini kursatadi.

**3 – asosiy savolning bayoni:**

Atilla ulgandan keyin imperator saroyidagi (saroy Ravennada edi) fitnalar avj olib ketdi, natijada Aesiyning uzi xalok buldi. Aesiy Rimning sungi davrdagi davlat arboblari ichida eng kuzga kuringan kishi

edi. imperatorning buyrugi bilan uldirilgan Aesiydan keyin Valentinian III uzi xam uldirildi.. Shundan keyin vandalar (455 y.) xujum kilib, Rimni un turt kun taladilar. Bu xujum imperiyani uzil-kesil xalok kildi. Italiyani nomigagina taxtga utirgan imperatorlar nomidan yollanma varvar drujinalarining boshliklari idora kildi. Shu drujina boshliklaridan biri Odoakr (kichkinagina bir german kabilasining – skerlarning boshligi) 476 yilda Rimning oxirgi imperatori gudak Romul Avgustulni taxtdan tushirib, imperatorlik nishonlarini Konstantinopolga, sharkiy imperatorga yubordi.

Shunday kilib, Garbiy Rim imperiyasi rasmiy jixatdan xam tamom buldi. Uning markazi Parij bulgan Shimoliy Galliyadagi kolgan-kutgan territoriyasini 10 yildan keyin (486 yilda) frank koroli Xlodvig bosib oldi. Odoakr davlati etnik sostavi jixatidan kurama bir davlat edi. Uning kul ostida skerlar, gerullar, gotlarning bir kismi, alanlar (Shimoliy Kavkaz kabilasi) va boshkalar bor edi. U Italiya zodagonlari kulida yerlarning uchdan bir kismini musodara kilib, uz tarafdorlariga berdi. Lekin italiyalik-rimlik axolining ichki ishlariga aralashmadi. Odoakrning mavkei umuman mustaxkam emas edi. U, birorta yirik varvar kabilasidan yordam olaman, deb umid kila olmas edi. Odoakr rimlik kuldor zodagonlarning yeralarini musodara kilib olganlari uchun ular bilan Odoakr urtasidagi munosabat buzik edi. Shu bilan birga Konstantinopoldagilar xam unga ishonmas edilar va uning urniga uz kandidatini ostgotlar koroli Teodorixni tayerlamokda edilar.

Vestgot, Vandal va Burgundiya korolliklarining vujudga kelishi bilan garbiy rim imperiyasining axvoli nixoyat darajada mushukllashib koldi. Bu vaktda imperiyani idora kilib turgan imperator Valentinian III (425-455) sonda bor, salmokda yuk bir odam edi. Lekin uning ministri (uni tarixchilar ba’zan «sungi buyuk rimlik» deb atar edilar (Aesiy) xiyla romanlashgan) varvarlarning birini ikkinchisiga karshi ishga solib, imperiyani saklab kolishga zur berib xarakat kildi. V asr urtalarida imperiya uchun eng xavfli dushman yukorida aytib utganimiz gunnlar buldi. V asrning dastlabki uchdan bir kismi ichida gunn kabilalari gayratli va shijoatli kirol Attila (435-453) kul ostida birlashdi. Attilaning poytaxti – Tissa kirgogi xozirgi Vengriya territoriyasida edi. Shu joydan Attila uzok-uzok joylarga Bolkon yarim oroliga, Kichik Osiyoga, Armeniyaga va xatto Mesopatamiyaga yurishlar kildi. Attila olib borgan urushlar ochikdan-ochik boskinchilik, talonchilik urushlar edi. Unga Vizantiya (Sharkiy Rim) imperatori katta xiroj tular edi. Dunay yonida yashovchi kupgina slavyan kabilalari gunnlarga karam edilar. 50-yillarning boshida Attila garbga yurish kildi va 451 yili Galliyaga bostirib kirib, bu yerda kup shaxarlarni bosib oldi xamda Galliyaning eng muxim strategik punkti bulgan Orlean gunnlar tomonidan olindi, lekin Aesiy Attilaga karshi varvarlar federasiyasini tuzishga muvaffak buldi va Iattila Orleandan chikib ketishga majbur kildi. Attila kup sonli lashkarlari bilan birgalikda yanada sharkka – orkaga burilib (Sans shaxri orkali) Trua shaxri tomonga karab yul oldi.

Vizantiyaning yordami bilan Teodorix 493 yilda Italiyani bosib oldi va shundan keyin 30 yildan ortikrok (493-526) – «gotlar va italiyaliklar koroli» bulib xukmronlik kildi. Uning poytaxti Ravenna shaxri edi (ilgari Gonoriydan boshlab Rimning sungi imperatorlari shu shaxarda yashagan edilar)

Teodorix murakkab ichki va tashki siyosat yurgazdi. U uzini varvar korolliklarining «kattasi» deb xisoblab, varvar korolliklari urtasidagi munosabatlarni tartibga solishga xarakat kildi. Teodorix Vizantiyaga nisbatan xam mustakil pozisiya tutdi. Sharkiy rim imperatorlari uning «kurnamakligidan» norozi bulib, Italiyada imperator xokimiyatining tiklashning yangi rejalarini tuzmokda edi. Ichki siyosatda Teodorix axolining ikkala etnik grupasini – rimliklar bilan varvarlarni murosaga keltirishga xarakat kildi. U uz saroyiga Rim olimlari va yozuvchilarni tortdi, kup eski Rim yodgorliklarini tikladi, atrofiga rimliklardan maslaxatchilar tupladi. Teodorix davlatining siyosiy tuzumi Teodorix xukmronligining oxiriga kadar ikki yoklama buldi. Gotlar rimliklarga kushilmay, aloxida vaziyatda yashadilar. Ular uzlarining german sudi koidalariga muvofik sud kilinar edi.

Teodorix vafotidan keyin Ravenna saroyida ikkita grupa bir-biri bilan kattik kurash olib bordi: bulardan biri-Konstantinopol bilan ittifok tuzish tarafdori («Rim guruxi»), ikkinchisi – mustakil siyosat yurgizish va rimlik kuldorlarni yanada cheklash tarafdori edi. Imperator Yustinian I zamonida vizantiyaliklar ostgotlar italiyasini istilo etdilar va butun Appenin yarim orolini Vizantiyaga kushib oldilar. Lekin Italiyani Vizantiya osonlik bosib olmadi. Gotlar urushi 20 yildan ortik davom etdi. Ostgotlar uzlarini juda kattik ximoya kildilar. Yangi saylangan ostgot kiroli Totilla (541-552) Vizantiyaga karshi kurashga, ostgotlardan tashkari, ezilgan italiyaliklarning bir kismini xam tortdi. Ostgotlar uzlarini juda kattik ximoya kildilar. Imperator Yustinian farmonlar chikarib, Italiyada ilgarigi kuldorlik tuzumini tikladi. Totilaning kullar va kolonlar tugrisidagi farmon va xukmlari bekor kilindi.

**Nazorat topshiriklar:**

1. Garbiy Rim imperiyasining eng oxirgi imperatori kim?

A) Valentinian III
V) Romul Avgustul
S) Aesiy
D) Teodorix Buyuk
Ye) Yustinian 1

2. Gotlar urushi necha yil davom etdi?

A) 19 yil
V) 20 yil
S) 18 yil
D) 21 yil
Ye) 30 yil

3. «Gotlar tarixi»ni kim yozgan?

A) Teodorix
V) Totila
S) Grigoriy 1
D) Kassiodor
Ye) Odoakr

4. Garbiy Rim imperiyasining kulashi sabablarini aytib bering?
5. Gotlar urushning maksad va okibatlari?

**Asosiy savol:**

4. Shimoliy Italiyaning langobardlar tomonidan istilo kilinishi va varvarlar istilolarining natijalari.

**Maksad:** Ostgotlarning Italiyaga kirib kelish sabablarini aytib berish, Shimoliy Italiyaning langobardlar tomonidan istilo kilinishi tarixini yoritib berish va Langobardlar istilolarining uziga xos xususiyatlariga baxo berish. Varvarlar istilolarining natijalarini ochib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

4.1. Vizantiyaning Italiyada xukmronligi paytidagi Italiyaning ijtimoiy xayotini biladi.
4.2. Ostgotlarning Italiyaga kirib kelishi sabablarini tushuntiradi.
4.3. Langobardlarning Italiyaga xujumining sabab va okibatlarini ochib beradi.
4.4. Garbiy Yevropada Rim imperiyasining ijtiomiy xayoti va varvarlar tomonidan istilolarining natijalarini tushunib yetadi.

**4 – asosiy savolning bayoni:**

Vizantiyaningn Italiyada xukmronlik kilishi uzokka bormadi.. 568 yilda Shimoliy Italiyaga yangi varvarlar – langobardlar bostirib kirdilar. Langobardlar oldin Elbaning chap kirgogida yashagan bulib, svev kabilalariga karindosh edi. Langobardlarning boshligi kirol Alboin edi. Yangi davlatning poytaxti Paviya shaxri buldi. Italiyada langobardlarning nomi shu maxalgacha xam saklanib kolgan-xozirgi shimoliy Italiya Lombardiya deb ataladi.

Langobardlar istilosining uziga xos bir kancha xususiyatlari bor edi. Birinchidan, langobardlar Shimoliy va kisman urta Italiyani batamom ishgol kildilar, maxalliy kuldor zodagonlar bilan xech kanday bitimga kelmadilar. Ular Appenin yarim oroliga rimliklarning federatlari sifatida emas, balki ularni istilo kiluvchilar sifatida keldilar. Ikkinchidan, langobardlar Rim kuldorlarining juda kup mol-mulkini musodara kildilar. Masalan, biz yukorida kurib utganimizdek, vestgotlar, ostgotlar yoki uchdan ikki kismini musodara kilgan bulsalar, langobardlar esa, bunga konikmay, badavlat rimliklarning pomestyelarini butunlay trtib oldilar. Kpdan-kup rimlik kuldorlar kulga aylantirildi, bir kismi oila a’zolari bilan boshka mamlakatlarga sotib yuborildi. Langobardlar istilosining uchinchi xususiyati ulardagi ijtimoiy tuzumning

uziga xos xislatidan kelib chikdi. Langobardlar Italiyaga kelgan vaktlarida ularda urugchilik alokalari birmuncha mustaxkam edi. Ularning Italiyada joylashuvini uzi xam xali xiyla darajada urugchilik tusida edi.

Langobard kirolligi bilan bir vaktda Italiyada VI-VII asrlarda yana bir siyosiy tashkilot-papalik vujudga keldi. Italiyaga langobardlar kelgandan keiyn xam rimlik yepiskoplar – papalar – rasman uzlarini Sharkiy Rim imperatorlarining oliy xokimiyati kul ostida deb xisoblab keldilar. Xakikatda esa. Konstantinopolga bulgan bu karamlik kundan-kun yukola bordi. Papalar asta-sekin Urta Italiyaning mustakil xukmdorlariga aylana boshladilar. Rimning va Rim oblastining xam diniy, xam duneviy xokimi bulgan birinchi papa Grigoriy 1 (590-604) buldi. Langobard korollari keyincha papa oblastini uz xokimiyatlariga buysundirishga xarakat kildilar, lekin bu xarakat natija bermadi. Papalar frank kirollaridan iborat ittifokchilarga ega edilar. VIII asrning yarmida ular shu frank kirollarining yordami bilan uzlarining papa cherkovi davlatini uzil-kesil tashkil etdilar, bu davlat xam, shunday kilib, ilgari Rim imperiyasining uziga xos bir koldigi edi.

Shunday kilib, Garbiy Yevropa xaritasi eramizning V va VI asrlari ichida butunlay uzgarib ketdi. Goyat katta Garbiy Rim imperiyasi esa Vizantiya degan nom bilan yashab keldi, birok uning sharoitlari va alokalari boshkacha edi. (U asosan slavyanlar va Sharkiy Osiyo bilan aloka kildi). Yevropada davlat tuzumi ibtidoiy bulgan unlab mayda-mayda varvar kirolliklari vujudga keldi. Lekin bu uzgarish fakat siyosiy uzgarishlaridangina iborat emas edi. Xalklarning Buyuk kuchishi deb atalgan kuchishning tarixiy axamiyati uning ijtimoiy natijalaridir. Bu kuchish-antik kuldorlik tuzumining xalok bulishi edi. Yukorida kurib utganimizdek, varvarlar imperiyani istilo kilish prosessida Rim jamiyatidagi ezilgan sinflar bilan-kullar va kolonlar bilan birgalashib ish kurdilar. Shunday kilib, kullar bilan kolonlar kuldorlik tuzumini yikitishda bevosita, aktiv ishtrok etdilar. Ularning kupi varvarlar kushini safiga kirdi. Kolganlari esa xujayinlarining kulidan kuplab kochib ketdi, bu vaktda xujayinlar kochoklarni kaytarib olib kelishdan ojiz edilar. Okibat-natijada Rim kullari va kolonlari dexkonlar ommasiga aylandilar, kelgindi varvar-dexkonlarning bu dexkonlardan farki shu ediki, kelgindilar bularga karaganda erkinrok va mustakilrok edilar.Darxakikat, varvar zodagonlari orasidan chikkan yangi yer egalari yer olish bilan birga bir necha kul xam oz bular edi, chunki usha vaktda kuldorlik latifundiyalarida kullarning soni umuman juda kamayib ketgan edi; ikkinchidan, eski xujayinlarning. Ya'ni Rim kuldorlarining urnini olgan yangi xujayinlar kullarni odatda darxol obrok tulaydigan dexkonlarga aylantirar edilar. Kullikning plantatorlar tomonidan kullanilgan formasini (yoki kazarma formasini) german zodagonlari ilgari xam xaddan tashkari murakkab va besunakay forma deb xisoblar edilar. Plantatorlardagi kullik yangi sharoitga (kup kullar yakinda ozod bulib ketgan edi, markazlashgan polisiya apparati yuk edi, varvar kirolliklarining davlat xokimiyati kuchsiz edi) ayniksa tugri kelmas edi. Kuldorlik xukmronligini yuk kilib tashlagan buyuk uzgarish natijasida eskicha, rimcha kullik ma'nosidagi kulchilik uzil-kesil yukoldi. Eski kuldor zodagonlarning yer-mulklari juda kup yangi yer egalri urtasida bulinib ketdi. Bu yangi yer egalarining bir kismi yangi, varvar aristokratlar bulib, bular keyingi urta asr feodallarining eng yakin utmishdoshlari edilar. Yerlarning bir kismi esa varvar dexkonlar kuliga utdi, bu dexkonlar shaxsiy erkinliklarini xali saklab kolgan va uzlarining jamoa tartiblarini yangi joyga kuchirib olib kelgan edilar, bu jamoa tartiblari sinflar paydo bulmasdan ilgari urugchilik tuzumi bilan boglangan edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Langobardlar kaysi kabilaga karindosh bulgan?

A) Vavarlarga
V) Svevlarga
S) Vandallarga
D) Gotlarga
Ye) Tugri javob yuk

2. Langobardlarning yangi poytaxtining nomini kursating?

A) Italiya
V) Rim
S) Paviya
D) Lombardiya
Ye) Vizantiya

2. Rim oblastining xam diniy, xam dunyoviy xokimi bulgan birinchi papa kim?
A) Alboin
V) Yustinian
S) Gregoriy 1
D) Teodorix
Ye) Valentinian III
4. Varvarlar istilolari natijasida kaysi imperiya batamom tugallandi?
A) Garbiy Yevropa
V) Sharkiy Rim
S) Garbiy Rim
D) Sharkiy Osiyo
Ye) Konstantinopol

**Talabalar uchun mustakil ish topshiriklar:**

1. Fransiya kirolligining tashkil topishi.
2. «Sali xakikatiga» franklarning ijtimoiy tuzumi.
3. Xlodvigdan keyin franklardagi feodallashuv jarayoni.
4. Karolinglarning idora kila boshlashi.
5. Karl Buyuk imperiyasi.
6. Karl Buyuk imperiyasining parchalanishi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Urta asrlar tarixi V.F. Semenov, T.,-1973.
2. Sredniye veka. M., Nauka. 1987. Vыр 50.
3. Agafiy. O sarsvovanii Yustiniana. (per.statya i primech. M.V. Levchenko).
4. Istoriya Vizantii. V 3 t. M., Politliter. 1971. T.1.G
5. Grigoriy Turskiy «Istoriya frankov» M.,1987.

## 15-mavzu: XI-XV asrlarda Angliya.

*(2 soat ma'ruza)*

**Asosiy savollar:**
1. XI-XIII asrlarda Angliyada siyosiy markazlashishning boshlanishi.
2. Angliyada parlamentning vujudga kelishi
3. Uot Tayler kuzgoloni.
4. Kizil va ok gullar urushi.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Normandiya gersogi, «kvadrad», «minora», yepsikop, Relyef, «Daxshatli sud kitobi», «Daniya puli», Bordarilar, kottarilar, frigolderlar, «erkin kishilar» «sotnya», «Anju imperiyasi», villan, abbat, arxiyepiskop, «Tenglar sudi», monastir, «manor odamiga», kotterlar, «Namunali parlament», eschitor, «subsidiya», baron, lordlar palatasi, kommutasiya, lord, domenan, «kora ulat», plebey, «Ishchi konunchiligi», «fakir poplar», lollardlar, «tayler», Kizil va ok gullar kuzgoloni, «Kapital», Yuz yillik urush, regent, «Kenterberi xikoyalari», Ezop.

**1-asosiy savol:**
XI-XIII asrlarda Angliyada siyosiy markazlashishning boshlanishi.

**Ukituvchining maksadi:** Normandiya istilosining sabablari va «Daxshatli sud kitobi»ning joriy kilinishi xakida aytib berish, Vilgelm Istilochilik vorislari va Genrix II Platagenetning isloxatlari natijasida cherkov bilan tuknashuining asosiy maksadlarini yeritib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
2.1. Normandiya istilosi va Vilgelm Istilochilarining idora kilishini biladi.
2.2. «Daxshatli sud kitobi»ning yaratilish tarixi va Genrix II isloxatlarining mazmunini tushuntirib beradi.
2.3. Kalkon pulining joriy kilinishining ijtimoiy okibatlarini ochib beradi.
2.4. Buyuk erkinlik natijasida Xartiyaning vujudga kelishiga baxo beradi.

**1 – asosiy savolning bayoni:**

XI asrdagi urta asrlar Angliyasi tarixidagi eng yirik vokea Normandiya gersogi Vilgelm boshlik fransuz-normand feodallari tomonidan Angliya istilosi kilinishi buldi. Bu itsilo uchun Vilgelm Istilochi degan lakab oldi. 1066 yil 14 oktyabr Vilgelm La-Mansh bugozidan suzib utib, kariyb 15 ming kishilik katta risarlar kushini bilan Angliya territoriyasiga bostirib kirdi. Vilgelm kushinida fakat normandlargina emas, balki Fransiyaga karashli boshka viloyatlarning yer-mulk va krepostnoylar izlovchi risarlari xam bor edi. Vilgelm rubaro chikkan ingliz kiroli Garold normandlarning xujumini tuxtata olmadi. Bir kismi risarlardan, boshka bir kismi dexkonlarning piyoda lashkarlaridan iborat bulgan ingliz-saks kushinlari Gastings shaxri yonida jangda batamom maglubiyatga uchradi. Garold uldirildi. Shundan keyin Vilgelm aylanma yul bilan Londonga karab bordi, sung Duvr, Kenterberi va Sautvork shaxarlarini bosib oldi. Uning kushinlari Londondan yukorirokda Temza daryosini kechib utdi. London shimoldan kesilib koldi va u taslim bulishi lozim edi.

Vilgelm Istilochi tomonidan Angliya axolisining ruyxatga olinishi (1086) XI asrdagi goyat katta tadbir edi. Angliyada xech kachon kurilmagan bu tadbirga axoli kurkinch bilan karadi. Ruyxatga olish natijasida tuzilgan varakalar xalk orasida «Daxshatli sud kitobi» deb ataldi. Kirol xazinasi yer egaligining xajmi tugrisda endi anik ma'lumotlarga ega ekan, axoli ruyxati xukumatga «Daniya puli» deb atalgan eski yer soligi kupaytirilgan mikyosda undirish imkonini berdi. Yangi normand-fransuz lordlarining ingliz kishlogidagi krepostnoy axvoli rasmiylashtirishga intilishi ana shu ruyxatda ravshan aks etdi. 1086 yilgi ruyxatda dexkonlar turli nomlar ostida gavdalandilar: ozod kishilar (kelajakda ular frigolderlar yoki yerni erkin tasarruf kiluvchilar deb ataldilar), sokmenlar, villianlar, bordarilar, kottarilar, shuningdek, kupgina mikdorida kullar xam uchraydi. Ammo villanlar ruyxatda tez-tez uchrab turadilar. XI-XII asrlar sharoitida krepostnoy tabaka xususiyatlariga ega bulgan dexkonlarning bu kategoriyasi (feodal yer-mulki territoriyasida barshchina utaydigan va shu territoriyaga biriktirib kuyilgan) ingliz kishlogining feodal-krepostnoylik kiyofasini xammadan kura ochikrok xarakterlab beradi. Ammo Angliyaning shimoli-sharkiy

kismida, xatto 1086 yilgi ruyxatda xam, dexkonlarning salkam yarim «erkin kishilar», kisman sokmenlar xolatida kolaveradi. Genrix II davrida (1154-1189) ingliz kirolligining chegaralari goyatda kengaydi. Uzining kup sonli mulklaridagi moddiy resurslariga tayanib, shuningdek, feodallar urtasida bundan oldin yuz bergan uzaro urushlaridan axoli ichidagi urta sinflarning norozi bulganligidan foydalanib, Genrix II kirol xokimiyatining obru-e’tiborini yanada kutara oldi. Uz kirolligining boshidanok u grafliklarga barcha sheriflarini (Angliya grafligida oliy ma’muriy va sud lavozimidagi shaxs Tarj) uzgartirib, ularning urniga uziga ishonchlirok bulgan yangi odamlarni tayin etdi. Galayonlar maxalida feodallar tomonidan uzboshimchalik bilan kurilgan «konunsiz» kasrlarning kupchiligi yuk kilib tashlandi. Ayni zamonda mamlakatda kirollik sudining axamiyati ortdi. Genrix II ning sud soxasidagi asosiy isloxati sud maslaxatchilarining urnatilishi edi. Kirol xar bir risarga, xar bir shaxarlik va erkin dexkonga feodal va baronlarning sudlariga emas, balki kirollik sudiga murojaat etish xukukini berdi. Genrix II doimiy kushin tuzmokchi buldi. Chunki vassallarning risarlik xizmati bir yilda ma’lum kunlar bilan cheklangan bulardi, bu esa kuruklikda uzok urushlar olib borishda ungaysizlik tugdiradi. Shu sababli Genrix II risarlarning bir kismini xarbiy xizmatdan bushata boshladi. Bunday risarlar shaxsiy xizmat kilish urniga xarbiy yoki kalkon soligi tulashlari rozi bulgan risarlarni yoniga yollashi mumkin edi. Kalkon pulining joriy kilinishi muxim ijtimoiy okibatlarga ega buldi. Bu tadbir tufayli ingliz risarlari xarbiy-feodal xizmatdan ertarok ozod bulib, tinch kishlok xujayinlariga aylana boshladilar. Kelgusida bu xolat kuyi ingliz dvoryanlarini shaxar burjuaziyasi bilan yakinlashtirishda katta rol uynadi.

Genrix II ning ugillari Richard I Sher Yurak (1189-1199) va Ioann (Jone) Yersiz (1199-1216) davrlarida kirol xokimiyati zaiflashib koldi. Richard deyarli Angliyada yashamadi xam, chunki xamisha yoki Sharkda salib yurishi bilan, yo Fransiyadagi urushlar bilan band buldi. Ioann Yersiz Filipp II Avgust bilan kurashda doimo muvaffakiyatsizlikka uchradi va pirovardida, Normandiyani, Anjuni va Fransiyadagi boshka bir kancha mulklarni kuldan boy berdi. Bundan tashkari, yangi Keterbedi arxiyepiskopini saylash masalasiga aralashib, u papa Innokentiy III bilan tuknashib koldi. Papa Ionn cherkovdan kuvib, butun Angliyada ibodat kilishni man etdi (1208). Taxtdan ajralish xavfi ostida kolgan va jamiyatning yetarlicha kullab-kuvvatlashga kuzi yetmagan kirol taslim bulishga majbur buldi. U uzini papaning vassali deb tan oldi va xar yili papaning xazinasiga bir ming funt sterling xiroj tulash majburiyatini oldi. (1213). Papa bilan tuknashuvdagi muvaffakiyatsizlik mamlakatda kirolning obru-e’tiborini juda tushirib yubordi. Ioann va uning amaldorlari kullab kelgan xar xil tamagirliklar, noxak yiginlar yigilishi va zuravonliklar kilinishi fakat baronlar va yepiskoplar orasidagina emas, balki risarlar va shaxarliklar orasida xam kirolga karshi norozilik tugdiradi. 1215 yilgi Xartiyasi 63 moddadan iborat katta siyosiy xujjat edi. U latin tilida tuzilgan edi. Xartiya asosan feodallar sinfining manfaatlarini kuzda tutuvchi kupdan-kup yon berishlar va imtiyozlarni uz ichiga olgan edi. U baronlarga va feodallarga uz feodallarini meros kilib koldirishni va «odatga kura» mu’tadil vassalik tulovlari tulashni ta’minlar edi. Ular uchun imtiyozli bulgan «Tenglar sudi»ni topshirib kuyildi. Tenglar sudining konuniy xukmidan va mamlakat konunlaridan tashkari, Angliyada birorta erkin kishi kamokka olinmaydi, avaxtaga kamalmaydi. Feoldallar xujjati bulgan va aavalo yirik baronlarning manfaatlarini ta’minlagan Buyuk erkinlik xartiyasi,xar xolda, progressiv axamiyatga ega edi. Xartiya baronlar ayrim gruppasining talabi bulmasdan, balki siyosiy markazlashish prinsipini endi rad etmagan, bu prinsip bilan xisoblashgan va davlatni idora kilishni ma’lum darajada tartibga tushirishiga intilgan, umuman, feodal dvoryanlar barcha toifasining xam talabi edi. Buyuk erkinlik xartiyasining shaxarliklar talabini xisobga olishi juda muxim buldi. Angliyadagi uchinchi toifa birinchi marta shu yerda siyosiy kuch sifatida maydonga chikdiki, feodallar u bilan xisoblashishga majbur buldilar. Buyuk kirollik kengashi yoki xartiyada eslatib utilgan baronlar va risarlar parlamenti tez orada (shu XIII asrda) ingliz parlamentiga aylandi. Bu parlamentda fransuzlarning General shtatlaridagiga uxshash kirollikda uchta toifaning vakillari bor edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. «Daxshatli sud kitobi» nechanchi yilda yozib tugatildi?

A) 1087 yil.
V) 1085 yil
S) 1086 yil
D) 1088 yil
Ye) 1089 yil

2. 1110-1135 yillarda Vilgelm Istilochining urniga kim taxtga utirdi?
A) Genrix I
V) Stefan Bluasskiy
S) matilda
D) Genrix II
Ye) Foma Bekeket
3. Buyuk erkinlik xartiyasi nechta moddadan iborat edi?
A) 62 moddadan
V) 63 moddadan
S) 64 moddadan
D) 65 moddadan
Ye) 66 moddadan
4. Buyuk erkinlik xartiyasiga kachon imzo chekildi?
A) 1216 yil 14 iyulda
V) 1215 yil 15 iyunda
S) 1312 yil 13 iyunda
D) 1256 yil 15 avgustda
Ye) 1215 yil 12 iyulda

**2-asosiy savol:**
Angliyada parlamentning vujudga kelishi.

**Ukituvchining maksadi:** XIII asrda Angliyadagi ijtimoiy va iktisodiy axvolni tushuntirish, ingliz parlamentining boshlanish shart-sharoitlarini aytib berish, «Namunali parlament»ning vujudga kelishi va Eduard I ning idora kilinish tarixiga nazar tashlash xamda XIV asrda parlamentning rivojlanishiga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
2.1. XIII asrda Angliyada kishlok xujaligi va sanoatning rivojlanish shart-sharoitlarini biladi.
2.2. Ingliz parlamentinig kanday vujudga kelishi xakida tushuntirida.
2.3. «Namunali parlament»ning vujudga kelish shart-sharoitlarini anglab yetadi.
2.4.XIV asrda parlamentning rivojlanib ketish sabablari va maksadlarini ochib beradi.

**2 – asosiy savolning bayoni:**
XIII asr mobaynida Angliyada kishlok xujaligi xam, sanoat xam zur berib tarakkiy etdi. Yerni ishlash takomillashdi, bu vaktda agromiyaga doir turli traktat (ilmiy asar)larning bosilib chikishi shuni kursatadi. Ikki dalali sistema uz urnini kuprok uch dalali sistemaga bushatib beradi. Koramol kuprok urchitila boshlashi munosabati bilan dalalarni gunglash keng kullaniladigan buldi. Angliyada kuychilik ayniksa kup rivojlana bordi. XII asrda Angliyada dexkonchilik soxasida erishilgan yutuklarni ana shu fakt kursatib beradiki, bu asrda Angliyada Yevropa kit’asiga kup galla olib ketilar edi. Feodallar orasida kup sonli ma’muriyatga ega bulgan, uzidan keyin xiyla murakkab manorial buxgalteriyasi koldirgan monastir va yepiskop manorlari bozor munosabatlariga eng kup tortilgan edi. Dunyoviy yirik feodallar-baronlar bozor bilan uncha aloka kilmas edi. Baronlar krepostnoylari yetishtirgan maxsulotning kup kismi feodalning va uning mulozimlarinig extiyojlariga sarflanardi. Mamlakatdagi ishlab chikarish kuchlarining umumiy usishi va uning iktisodining mustaxkamlanishi sharoitida XIII asrda rivojlanib borayotgan feodal jamiyatning ijtimoiy ziddiyatlari goyat keskinlashdi. Ziddiyatlarning bir yuli feodallar bilan dexkonlar urtasida bordi. Ingliz dexkonlari XIII asrdan boshlab ogir davrni boshidan kechirar edi. XIII asrda ingliz kishlogida asosiy siymo xisoblangan villanlar turar joyiga biriktirilgan bulib, xaftalik barshchinani utashga majbur bulgan, Lordga nikox soligi va boshka boshka noxak soliklar tulagan, uning sudiga buysundirilgan tamomila krepostnoy kishi edi. XIII asrdagi ingliz dexkoni aslida villangan emas, balki servga uxshab ketardi. Ingliz yuristlari «rim xukuki»ni dalil keltirib, villanlar Rim kulining bir turi deb ochik-oydin fikr bildirgan edilar. XIII asrda turli minoralarda kuplab tartibsizliklarning yuz berishi. Dexkonlarning tez-tez kochishlari, butun

jamoa dexkonlarining lord uchun majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishlari bejiz emas edi. XIII asrda Angliyadagi ijtimoiy ziddiyatlarning boshka bir yuli bir tomondan, yirki feodallar, ya'ni lordlar, yepiskoplar, yirik monastlarning abbatlari urtasida yuz bergan bulsa, ikkinchisi-mayda risarlar urtasida kelib chikdi. Yukorida aytib utilgan yirik feodallar mamlakatdagi yerlarning kupchilik kismini egallab olgan edilar. Ularning xar biri necha unlab, ba'zan esa yuzlab manorlarning egasi edi; krepostnoy dexkonlar, asosan shularga karashli edi.

Bularning xammasi risarlar bilan shaxarliklarning birgalikda siyosiy chikishlar kilish uchun sharoit yaratib berdi. XIII asrning ikkinchi yarmidagi siyosiy vokealar xuddi shuni kursatadi. Ioann Yersiz Buyuk erkinlik xartiyasini imzolar ekan, xakikatda uni bajarmokchi emas edi. Ioann Yersizni uzi ichgan kasamiga rioya kilish majburiyatidan xalos etgan papa Innokentiy III xam kirol tomoniga utdi. Ioann baronlar bilan yangi urushga tayyorlana boshladi xam, ammo urush xarakatlari ayni kizib turgan paytda kirol kazo kildi. Uning vorisi kichik yoshli ugli Genrix III (1216-1272) baronlar oligarxiyasi kulida uzok vaktgacha kirol bulib koldi. Fransiyadan Angliyaga kelgan karindosh uruglari va ularning dustlarini ingliz baronlariga karshi kilib kuymokchi buldi. Bu esa ingliz baronlari urtasida kaxr-gazab uygotdi. Dastlabki paytda baronlar risarlar bilan kelishib xarakat kildilar. Ammo baronlar xokimiyatni fakat uzlari uchn bosib olishga intilayotganliklarini, risarlar masalasida noanik va'dalar berish bilan cheklanayotganliklarini risarlar tezda paykadilar. Ular norozilik bildirdilar.

Xarakat keyinchalik shaxarliklar va bir kancha joylarda dexkonlar, kisman frigolderlar, kisman villanlar kelib kushildilar. Baronlar tudasi bulinib ketdi. Demokratik elementlarning aktivligidan, xususan, boshlanib ketgan dexkonlar xarakatidan kurkib ketgan baronlarning kupchiligi tezda kirol tomnga utdi. 1264 yil baxorida Simon kirolning tarafdorlari bulgan baronlarni yakson kilib, Genrix III ni va uning katta ugli shaxzoda Eduardni asir kilib oldi. 1265 yili boshida u keng sostavda parlament chakirdi: parlamentga baron va yepiskoplardan tashkari, risarlarning va shaxarlarning vakillari taklif kilindi. Shunday kilib, fransuz General shtatlariga uxshash, Angliyada birinchi marta uch toifa vakillaridan iborat parlament chakirildi.

Eduard I (1272-1307) 50-60 yillardagi «galayondan» katta sabok olgan xiyla gayratli kirol edi. Ayni zamonda 1258-1265 yillardagi baronlar urushi maxalida urta va kuyi sinflarning xarakatidan kurkib kolgan feodallar endi kirollik toj-taxt tevaragida mustaxkamrok zichlashdilar. Eduard I uz mavkeini yanada kuchaytirish uchun bir kancha istilochilik urushlari kildi. Eduard I Uelsni istilo kildi (1282) va Shotlandiya bilan uzok urush olib bordi. Shotlandiya bilan olib borilgan urush gox ogir buldi. Urushni davom kildirish uchun yetarlicha mablagi bulmagan kirol juda mushkul bir axvolga tushdi. 1295 yili kirolning uzi umum toifaviy parlament chakirdi. Bu parlamentning sostavi kelajakda ana shunday yigilishlar uchun namuna bulganligidan, uni keyinchalik «namunali parlament» deb atadilar.

Fransiya bilan boshlanib ketgan Yuz yillik urush xukumatdan katta pullar talab kildi. Pulga muxtoj bulgan kirol xar safar parlamentga murojat etib, undan «subsidiya» yoki «kumak» surashga majbur buldi. XIV asr ingliz parlamentining xukuki xam asosan rasmiylashdi. 1343 yildan e'tiboran parlament ikki palataga bulindi. Yukori palata l o r d l a r p a l a t a s i deb atalib, u ruxoniy lordlar, arxiyepiskoplar, eng yirik monastirlarning abbatlari va dunyoviy lordlar (baronlar)dan iborat bulardi. ***U m u m p a l a t a s i*** deb atalmish kuyi palata grafliklarning vakillari bulgan risarlar va shaxarliklardan iborat bulardi.

XIV-XV asrlarda Angliyadagi shaxar idorasi tobora kuprok yopik sex-oligarxiya xarakteriga ega buldi. XIV asrdan boshlab risarlar grafliklardagi xokimiyatni uz kullariga kiritib olib, bu vaktga kelganda endi bozor, savdo-sotik bilan, ba'zan esa sanoat bilan xam yakindan boglangan kishlok xujayinlariga aylangan edilar. XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab tuzilgan murosaga keltiruvchi sudyalar degan yangi mansab, risarlarning joylardagi siyosiy xokimiyatning ifodasi edi. Risarlar bu mansabni bepul bajarar edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Angliyada shaxarlarning rivojlanishi kaysi asrga tugri keladi?

A) XIII asrga
V) XI asrga
S) XVI asrga
D) XII asrga
Ye) XIV asrga

2. “Namunali parlament”da kimlar katnashardilar?
A) dexkonlar, baronlar va ruxoniylar.
V) risarlar, baronlar va kirol.
S) lordlar, ruxoniy feodallar va risarlar.
D) dexkonlar va shaxarliklar.
Ye) Xamma javob tugri.
3. 1343 yilda parlament xayotida kanday vokea yuz berdi?
A) parlament parchalanib ketdi.
V) Parlament ikkiga bulindi.
S) Parlamentga Eduard III boshchilik kildi.
D) Parlament uchta palataga bulinib ketdi.
Ye) Parlament dexkonlar kuliga utdi.
4. «Eschitor» ma’nosini ayting?
A) Xamma yerlarga egalik kilish.
V) Vorissiz tanxo yerlarni boshkaruvchi amaldor.
S) Dexkonlarga yerlarni bulib beruvchi amaldor.
D) Parlament boshkaruvchisi.
Ye) Solik yiguvchi.

**3-asosiy savol:**
Uot Tayler kuzgoloni.

**Ukituvchining maksadi:** XIII asrning ikkinchi XIV asrda Angliya ekonomikasidagi uzgarishlarni aytib berish, 1348 yilda Angliyadagi vabo kasalligining okibatlarini tushuntirib berish, Uot Tayler kuzgoloning shart-sharoitlarini ochib berish va bu kuzgolonning tarixiy axamiyatiga baxo berish.
**Identiv ukuv maksadlari:**
3.1. XIV asrdagi Angliyaning iktisodiy tarakkiyotini kay daraja ekanligini bilib oladi.
3.2. Angliyada kassalikning kelishi va uning okibatlarini tushuntiradi.
3.3. Jon Viklev kuzgolonining asosiy omillarini tushunib yetadi.
3.4. Uot Tayler kuzgolonining boshlanishi va uning tarixiy axamiyatiga baxo beradi.

**3-asosiy savolning bayoni:**
XIII asrning ikkinchi yarmida va xususan XIV asrda Angliya uz iktisodida yana ancha katta siljishlarni boshidan kechirdi. Flandriya bilan va kuruklikdagi boshka mamlakatlar bilan olib borilgan kizgin savdo-sotik munosabatlari ingliz kishlogini keng bozor alaokalariga tortdi. Angliya shaxarlarning, avvalo Londonning uzining usishi, Fransiya shaxarlaridagi singari kishlok xujaligining boshka maxsulotlariga – galla, gusht, sut maxsulotlari, teri va xokazolarga bulgan talabni tobora oshirdi. Pul xujaligining rivojlanishi Angliyadagi krepostnoy yer –mulkining – manorning yemirilishiga sabab buldi. Lordlar barshchinani pul obrogi bilan ayirboshlashni foydalirok deb bilardi. Bunday paytda ular uzlariga karashli yerlarni (domenlarni) kam yerli dexkonlar orasidan chikkan yollanma ishchilar mexnati bilan ishlaydigan buldilar. Ba’zi bir lordlar xech kanday xujalik yurgizmay, yillik pul rentasi olishni afzal kurib, uz domenlarini ijaraga berardilar. Kommutasiya XIII asrdayok katta yutuklarga erishdi. XIV asrning birinchi yarmida bir kancha tumanlarda kommutasiya barshchinani batamom sikib chikardi. Kommutasiya birinchi galda eng badavlat dexkonlar uchun foydali edi. XIII asr boshida urta xol dexkonlar kommutasiyadan kupincha voz kechar edilar. Chunki ularning pul topishlari kiyin edi. Vakt utishi bilan, kishlokda pul mikdori kupayigi bilan urta xol dexkonlar xam kommutasiya uz axvollarini yaxshilashishi bilib, unga boshkacha nazar bilan karaydigan bulishdi. Ammo lord belgilangan pul rentasining goyat yukori ekanligidan dexkonlar norozi edilar. Ba’zi bir grafliklarda, chnonchi, Kent grafligida dexkonlar kam yerlikdan kattik jafo chekar edilar. Lordlar bekor yotgan yerlarni bosib olib va dexkonlarni foydalanib turgan yaylovlaridan sikib chikarib, jamoa utlokldarini kiskartirmokda edi. Bularning xammasini dexkonlar orsidagi norozilikning tobora kengrok usib borishiga sababchi buldi.
1348 yilda Angliyada daxshatli vabo epidemiyasi (yukumli kasallik) avj oldi, zamondoshlar uni «kora ulat» deb atashdi. Shu yukumli kasallik natijasida mamlakat axolisining kariyib turtdan uch kismi

xalok buldi. Ishchi kullarning kamayishi shaxarning xam, kishlokning xam axvoliga yomon ta'sir kursatdi. Ishchi kullar ancha kimmatlashdi. Yuz yillik urushdagi muvaffakiyatsizlik munosabati bilan XIV asrning 60 – 70 yillaridagi Angliyaning axvoli mushkullashdi. Yomenlarlar yurushlarda katnashishganligi tufayli ingliz feodallari Kresi va Puatye yonida erishgan ajoyib galabalar tugab, endi ular birin-ketin maglubiyatga uchray boshladilar. Fransiyadan uljalar kelishi urniga, urush endi yangidan – yangi xarajatlar kilishni talab kilardi.

1381 yilgi kuzgolon ba'zi bir ideologik tayyorgarlik xam edi. Kuzgolondan avvalgi yillarda ingliz kishlogida va'zxonlar paydo bulib, ular uzlarini «fakir poplar» deb atardilar. Bular ingliz cherkovining mashxur reformatori Jon Viklefning shogirdlari edilar. Pop va Oksford universitetining professori Jon Viklef (1320-1384) XIV asrning 60-70 yillarida cherkovni reforma kilish kerak, degan talab bilan chikdi. Cherkov papasiz yashay olmaydi va papa xokimiyati kirollik xokimiyatidan yukori turishi lozim degan urta asr katolitizmi ta'limotini J.Viklef rad kildi. Viklefning chikishi ideologiya jixatdan katta axamiyatga ega buldi. Viklef XVI asrda Yevropada yuz bergan Yevropa reformasiyasi muxlisilaridan biri edi. Yuz yillik urush maxalida Angliya papalikka nisbatan goyat dushmanlik munosabatlarida buldi, bu vaktda fransuz kirollari ta'sirida bulgan Avinon papalari Angliyaga karshi fransuz xukumatiga xar kanaka kilib bulsa xam yordam berardilar. Viklef reformasi London shaxari axolisi orasida xam zur shuxrat kozondi. Cherkov diniy marsimlari soddalashtirilishi va arzonlashtirilishi kerak xamda cherkov biror-bir ajnabiy kuchga karam bulmagan mustaxkam milliy tashkilotga aylanishi lozim, degan Viklefning chakiriklari Londonda, shuningdek, boshka joylarda xususan Angliyaning eng rivojlangan janubida va janubi-sharkida unga ergashgan bir gurux muxlislarni keltirib chikardi. Viklefning Angliyadagi muxlislari l o l l a r d l a r deb atalardi.

Tarixga Uot Tayler kuzgoloni nomi bilan kirgan kuzgolon 1381 yil may oyining oxirida janubiy-sharkiy Esseks grafligida boshlandi. Dexkonlar bu yerda jon soligi yiguvchilarni xaydab yubordilar va ulardan ba'zilarini uldirdilar. Shundan keyin villanlar manor egalariga karshi kutarildilar. Kuzgolon Esseksdan kushni grafliklarga-Kent, Sefolk, Norfolk va boshka graliklarga kuchdi. Kiska bir fursat ichida kuzgoln Angliya grafliklarining katta bir kismiga yoyildi. Dexkonlar dunyoviy va ruxoniy lordlarga karashli manorlarni yakson kildilar, ulardagi galla, chorva mollari va boshka mol-mulklarni bosib oldilar, manor arxivlarida saklangan barshchinaga va ochbrok majburiyatlariga doir ruyxatlarni yondirib tashladilar. Uot Tayler gayratli raxbar bulib chikdi. U Kiroldan dexkonlar talabini kondirishga erishmok uchun kuzgolonchilarni kirollik poytaxti Londonga olib borishga karor berdi. Londonga borishning uzini u tugri uyladi va bu chora tez amalga oshirildi. London shaxari ma'murlari dexkonlarning London kuprigidan utib, shaxar darvozasi orkali London Sitisiga kirishlariga monelik kilmadilar.

Uch kun mobaynida, ya'ni 1381 yilning 13,14 va 15 iyun kunlari kuzgolonchi dexkonlar Angliya poytaxtining xujayinlari bulib koldilar. Kirollik ministrlarining ba'zilari-ular orasida kirollik kansleri Simon Sedberi va lord-xazinachi Xeyls-katl kilindilar. Londondagi turmalarning xammasi agdar-tuntar kilindi. Kuzgolonchilar London sudining asosiy arxivini bosib olib, uni utda yokib yubordilar. Yirik binolardan kirolning amakisi, Lankasterskiy gersogining saroyi vayron kilib tashlandi.

Urta asr davridagi barcha dexkonlar xarakati singari 1381 yilgi kuzgolon xam muvafakiyatsizlik bilan tamom buldi. Bunga sabab, odatdagi uyushkoksizlik, kuchlarning bulinib ketganligi, programmaning yetarli darajada anik bulmaganligi va kupol taktik xatolarga yul kuyilishi buldi. Ingliz dexkonlari kirol bizning tarafamizni oladi, deb soddadillik bilan ishonardilar. Dexkonlar uzlari eng yomon kurgan amaldorlarning adabini berib, xatto uz xukumatlarini tuzishga intilib xam kurmadilar. Shaxarning plebey elementlarning uzlari zaif bulganliklari tufayli, kuzgolonga boshchilik kilib. Uni galabaga olib bora olmadilar. 1381 yilgi kuzgolon maglubiyatga uchragan bulishiga karamay, u ingliz dexkonnining bunday keyingi takdiriga xar xolda katta ta'sir kursatdi. Kuzgolon ancha katta va kudratli kuzgolon buldi, bu kuzgolondan keyin esa pomeshchiklarga barshchinani jiddiy suratda kaytadan tiklash xakida uylashga endi tugri kelmadi. 1382 yilda va undan keyingi yillarda ayrim grafliklardagi dexkonlar feodallarga karshi kaytadan kuzgolon kutarishga urindilar. Lordlar yon berishga majbur buldilar. Shu sababli, 1381 yildan keyin kommutasiya jarayoni yanada kuchaydi. Kuychilik tobora kuchayib, unda barshchina keraksiz bulib koldi. XV asrda yanada kuprok mustakil xujalik yurgizuvchi erkin dexkonlardan iborat edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Angliyada krepostnoy yer-mulkning susayishiga nima sabab buldi?

A) Soliklarning kupayishi.
V) Pul xujaligining rivojlanishi.
S) Chorvachilikning rivojlanishi.
D) Ichki ziddiyatlarning keskinlashuvi.
Ye) Xamma javob tugri.
2. 1348 yilda Angliya xayotida nimalar ruy berdi?
A) Tashki urushlarning kupayishi.
V) Daxshatli vabo epidemiyasi.
S) Chet elga galla eksport kilina boshladi.
D) Kommutasiya joriy kilindi.
Ye) Tugri javob yuk.
3. Angliyada «Lollardlar» deb kimlarni atashardi?
A) Yersiz dexkonlarni
V) Zodagonlarni.
S) Viklefning Angliyadagi muxlislarini
D) Papa odamlarini.
Ye) Kirollarni.
4. Uot Tayler kuzgoloni nechanchi yilda tilga olina boshladi?
A) 1381 yildan.
V) 1382 yildan.
S) 1386 yildan.
D) 1383 yildan
Ye) 1385 yildan
5. Uot Tayler kuzgolonining asosiy tumanini belgilang?
A) Fransiya.
V) Angliya.
S) London.
D) Sefolk.
Ye) Norfolk.

**4-asosiy savol:**
Kizil va ok gullar urushi.

**Ukituvchining maksadi:** XV asrda Angliyadagi iktisodiy va ijtimoiy xayotni tushntirib berish, Angliyadagi feodalizmning yemirilish sababalarini ochib berish, Lankestrlarning dinastiyaga kelishi va Jek Ked kuzgolonining asosiy omillarini yoritib berish. Kizil va ok gullar kuzgoloni okibatida ingliz millatining tarkib topishidagi shart-sharoitlarga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
4.1. XV asrda Angliyaning iktisodiy va ijtimoiy xayotini urganadi.
4.2.Usha davrda Angliyada feodallarning ikkiga bulinib ketish sabablarini aniklaydi.
4.3. Kizil va ok gullar urushi okibatida ingliz millatining kelish chikish shart-sharoitlarini tushuntiradi.

**4 – asosiy savolning bayoni:**

XV asr mobaynida Angliyada feodalizmning yemirilshi yanada zuraydi. Mamlakatning umumiy xujaligida sanoatning axamiyati kuchaydi. Angliyada movut sanoati ayniksa katta yutuklarga erishdi. Angliyada yukori sifatli movut navi yetishtirilib, uning bir kismi chet ellarga kuplab chikariladigan buldi. Jun yigirish va tukish, shaxarlardan tashkari, kustarchilik kasbi formasida kishloklarga xam keng tarkaldi. XV asrda ingliz savdogarlari turli dengizlarda uz savdo-sotik ishlarini keng yoya boshladilar. Shu munosabat bilan ingliz kemasozligi zur berib rivojlana bordi. Dengizlarning narigi tomonlariga borib savdo kiluvchi yirik savdogarlarning bir kismi XV asrning 70-yillarida savdogar avantyuristlarning birinchi dengiz savdo kompaniyasini tuzdi. Bu savdo kompaniyasi, avvalo La-Mansh va shimoliy dengizdagi movut savdosini uz kuliga monopoliya kilib oldi.

Eski feodal aristokratiyasi XV asr mobaynida xukmron sinf xisoblanar edi. Uning kupincha an'anaviy tulovlar tarzida yerlardan oladigan daromadlari usmay, balki pulning asta-sekin kadri ketishi bilan ular amalda kamayib borganligidan, aristokratiya davlat mansablarini bosib olish yuli bilan uz zararlarining urnini koplashga xarakat kildi. Bu aristokrati Fransiya bilan olib borilgan Yuz yillik urushdan xam katta umidvor edi. Aristokratiya Fransiyadagi yangi yerlar va xar kanakangi xarbiy uljalar olishga ishongan edi. 1399 yilda Plantagenetlar urniga kelgan yangi Lankasterlar dinastiyasi, aristokratik siyosatning kuroliga aylandi.

Lankasterlar siyosatidan, jumladan soliklarning usib borishidan, ular ma'muriyatining suiiste'mollaridan, Yuz yillik urushdagi muvaffakiyatsizliklardan va Angliya savdosining izdan chikishidan bulgan norozilik Angliyaning eng tarakkiy etgan dengiz soxili grafliklaridan biri bulgan Kent grafligida xalk xarakatining ancha avj olishida ifodalanadi. Gersog York vassalaridan biri bulgan Jek Ked boshchiligida 1450 yilda Kentda kuzgolon buldi. Kentning kupgina mayda dexkonlari, shuningdek, shaxarliklarning bir kismi kuzgolonda ishtrok etdi. Ammo xarakatga asosan risar elementlari raxbarlik kildi. Kuzgolonchilar (1550 yil 2 iyun) Londonga kelib, unda xukumat oldiga bir kancha talablar kuyishdi. Bu talablar, asosan, kirolning telba maslaxatchilarini tartibga solish, lordlarning joylarda uzboshimchalik kilishiga, zulm utkazishga chek kuyish talablaridan iborat edi.

Xalk ommasining Lankaterlar dinastiyasiga bulgan nafratidan foydlangan gersog Yorkskiy tarafdorlari mumkin kadar tezrok xokimiyatni uz kullariga olishga intildilar. Genrix VI betobligi sababli 1455 yilda Richard Yorkskiy kirollik regenti deb e'lon kilindi.Birok Lankasterlarning muxlislari (kolok garb va janubi-garb ularning asosiy tayanch joylari edi) tez orada Richard Yorkskiyni regentlik vazifasidan olib tashlashdi. Xuddi shu yili Lankasterlarning Yorklarga karshi boshlagan urushida dastlab Lankasterlar tarafdorining kuli baland keldi. Boy berilgan janglardan birida, 1460 yilda Richard Yorkskiy uldirildi. Ammo uldirilgan Richard Yorkskiyning ugli Eduard Yorklar tudasiga boshchilik kildi, u lankasterlarni 1461 yilda ikki marta maglubiyatga uchratib, Londonni bosib oldi va uzini Eduard IV nomi bilan kirol deb e'lon kildi. Genrix VI esa Tauer zindoniga kamab kuyildi.
York tudasi esa xokimiyatni uzok muddatga uz kulida ushlab turdi. 1470-1471 yillarda Lankasterlar uz tomonlariga utgan yirik feodal Uorvik kumagida xokimiyat tepasiga Genrix VI ni kaytadan tiklamokchi buldilar.Lekin buning uddasidan chika olmadilar. XV asrning ikkinchi yarmida feodallar tus-tupoloni Angliyaning siyosiy tarakkiyotida katta axamiyatga ega buldi. XIV-XV asrlarda Angliyada ingliz millatining tarkib topa boshlashi uchun shart-sharoit vujudga kelmokda edi. Territoriyaning umumiyligi va ekonomikaning umumiyligi ana shu vaktlarda endi yetarli anik namoyon buldi.

XIV-XV asrlarda Angliyada keng milliy bozor tashkil topib London mamlakatdagi savdo-sotik oborotlarining kattagina kismini uziga jalb kilgan edi. XIV-XV asrlarda ingliz adabiyoti jaxonga nom chikargan bir kancha ajoyib asarlar berdi. 1066 yilgi normandlar istilosidan boshlab, avvalgi paytda ingliz jamiyatining turli milliy sostavini aks etirgan ikki tildan foydalanib kelindi. Kirol saroy zodagonlarining katta kismi fransuz tilida suzlashrdi. Axolining asosiy ommasi – dexkonlar va shaxarliklar, urta va mayda feodallar ingliz tilida gaplashardilar. Ingliz tili yana bir kancha shevalarga bulinib, ular orasida London shevasi yetakchi shevalardan edi. Axoli kupchiligining tili bulgan ingliz tili fransuz tilini xonadon xayotidan xam, jamiyat xayotidan xam asta-sekin sikib chikardi. 1258 yildayok kirol Genrix III Angliya axolisiga ingliz tilidabayonnoma bilan murojaat kilishi lozim buldi. 1362 yilda Eduard III London shaxarining petisiyasiga javoban , «fransuz tili uncha ma'lum bulmaganligi» tufayli. Sudlardagi ishlar ingliz tilida olib borilsin, deb karor chikardi. XIV asrning ikkinchi yarmida Angliyada eng yirik asarlar paydo bulib, ularda London shevasi asosida rivojlangan ingliz tili uziga xos barcha lugaviy-grammatik xususiyatlari bilan milliy adabiy til sifatida maydonga chikdi.

XV asrdagi ingliz madaniyatini rivojlantirishda Vilyam Kekston (1422-1491) katta rol uynadi. Kekston savdogar, tarjimon, matbaachi va noshir bulgan edi. Angliyada kitob chop kilish shu odam nomi bilan boglangan (1477yildan). Kekston 100 ta kitob bosib chikargan, bu kitoblarning kupchiligi ingliz tilida edi. Shular orasida Choserning «Kenterberi xikoyalari», latin klassiklari Siseron, Ovidiy va Vergiliyning inglizcha tarjimalari, Ezop masalalari va boshkalar bor edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Angliyada feodalizining yemirilishi nechanchi asrga tugri keladi?
A) XIV asrga

V) XV asrga
S) XVI asrga
D) XIII asrga
Ye) XVII asrga
2. Lankasterlar dinastiyaga nechanchi yillar keldi?
A) 1389 yilda
V) 1899 yilda
S) 1399 yilda
D) 1398 yilda
Ye) Xamma javob tugri.
3. Kentdagi Jek Ked boshchiligidagi kuzgolon kachon buldi?
A) 1452 yilda
V) 1456 yilda
S) 1450 yilda
D) 1459 yilda
Ye) 1455 yilda
4. Ingliz millatininng shakllanishi nechanchi asrlarga tugri keladi?
A) XVI-XVII asrplarga
V) XIV-XV asrlarga
S) XV-XVI asrlarga
D) X-XV asrlarga
Ye) XII-XIII asrlarga
5. XIV-XV asrlarda Londonda axoli kanday tillarda suzlashardi?
A) Ingliz, fransuz.
V) Nemis, fransuz.
S) Ingliz, nemis.
D) Fakat ingliz tilida.
Ye) Fakat fransuz tilida.

**Talabalar uchun mustakil topshiriklar:**

1. Fransuz-normandlar tomonidan Angliyaning istilo kilinishi shart-sharoitlarini aytib bering?
2. «Daxshatli sud» kitobining asosiy goyalarini tushuntiring?
3. Genrix 1 vafotidan keyin Angliyadagi ichki ziddiyatlarning sabablarini ochib bering?
4. Buyuk erkinlik xartiyasining imzolanishi va Angliya parlamentining vujudga kelishida uning iktisodiyoti va ijtimoiy xayotidagi uzgarishlarni ayting?
5. Uot Tayler kuzgolonining vujudga kelish shart-sharoitlari va uning okibatlarini gapiring?
6. Kizil va ok gullar urushining asl moxiyati nimalardan iborat edi?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Urta asrlar tarii V.F. Semyonov . T.,-1973 yil. 230-255 betlar.
2. Jaxon tarixi. Ye.B. Agibalov, G.M.Donskoy, T.U. Salimov. T.,-1995. Urta maktablar uchun 7-sinf.
3. Istoriya Yevropы.

## 16-mavzu: X-XI asrlarda Germaniya.

*(2 soat ma'ruza).*

**Asosiy savollar:**

1. X-XI asrlarda Germaniyada feodal munosabatlarning rivojlanishi.
2. Italiyaga kilingan yurishlar va Germaniya imperiyasining tashkil topishi.
3. Papalar va imperatorlarning investitura uchun kurashi.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**
Verden taksimoti, «Sharkiy frank yerlari», gersog, «Stelling», gufa, kommendasiya, prekariy, risar, fogtlar, soslovich, frilinglar, freymanlar, burglar, immunitet, yepiskop, libel, graf, baronlar, monastir, «Mukaddas Rim imperiyasi», «Abadiy shaxar», kardinallar, «Rim cherkovi senati», selibat, dunyoviy investitura, «shvab», Vorm konkordati, selibat.

**1-asosiy savol:**
X-XI asrlarda Germaniyada feodal munosabatlarning rivojlanishi.

**Ukituvchining maksadi:** X-XI asrlarda Germaniyadagi feodallashuv jarayonini tushuntirib berish, saksoniyaliklarning kirib kelishi va dinastiyasini boshkarish tugrisida ma'lumot berish, Otton I ning taxtga kelishi va idora kilishiga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
1.1. X-XI asrlarda Germaniyadagi feodal munosabatlarning keskinlashuvini aytib beradi.
1.2. Saksoniya dinastiyasining vujudga kelishi va idora kilishining shart – sharoitlarini tushunib yetadi.
1.3. Genrix I ning Germaniyada idora kilish usullariga baxo beradi.
1.4. Otton I ning taxtga kelishi va idora kilishda nimalarga suyanganligini ochib beradi.

**1-asosiy savolning bayoni:**
843 yilda Verdenda bulgan taksimotga muvofik «Sharkiy Frank yerlari» (bulgusi Germaniya territoriyasi nazarda tutilgan edi) Lyudovik Nemisga (yoki nemischa, Lyudvigga) utdi. Aslida bu yerdar bir necha kabilaviy knyazliklarning – gersogliklarning yerlari edi. Mamlakatning xech kanday milliy birligi tugrisida u vaktda suz xam bulishi mumkin emasdi. Gersogliklar shimoldan – janubga karab kuyidagi tartibda joylashgan edi: Saksoniya, Frankoniya, Shvabiya (ilgarigi Allemaniya), Bavariya. Birmuncha keyinrok borib garbda joylashgan beshinchi bir gersoglik – Lotaringiya kushib olindi. Reynning narigi tomonidagi yerlarda feodallashuv prosessi Fransiyadagiga karaganda sustrok buldi. Xatto X asrning boshlarida xam Germaniya, u kadar feodallashmagan edi. Jamoalarga – markalarga uyushgan erkin dexkonlar uzok vaktgacha uz mustakilliklarini saklab keldilar. Krepostnoylashtirish yulidagi urinishlarga dexkonlar katta kuzlonlardan biri, masalan, 841-842 yillarda Saksoniyada bulib, u «Stelling» degan nom bilan mashxurdir. Bu kuzgolon dexkon jamoalarning ittifoki bulib, bu ittifok eski majusiylik bayrogi ostida ish kurgan edi, bu ittifok xam kelgindi frank zodagonlariga, xam maxalliy saks zodagonlariga karshi karatilgan edi. Rim ta'sirini utkazishning, jumladan, xususiy mulkchilikning va yerga biriktirib kuyib shaxsiy karam kilishning yangi formalarini kiritish Reyning narigi tomonida ancha sekin amalga oshirilmokda edi. Birok X va XI asrlarda xam feodallashuv ancha muvaffakiyat kozondi. Marka, ya'ni jamoa tushkunlikka yuz tutdi. Katta dunyoviy va cherkov yer egalari tobora kup yerni uz kuliga ola bordi. Dexkonlarning ilgarigi chek yerlari – Gufa maydalanib bordi. Xususiy mulkchilikning rivojlanishi orkasida yer kuldan- kulga uta boshladi. Dexkonlarning bir kismi uz yeridan ajrab feodal yer egaliga karam bulib koldi. Kommendasiya, ya'ni uzini kudratli kushnisining, yirik yer egasining xomiyligiga topshirishi, immunitet, ya'ni yer egasining davlat funksiyalarini olib borish va birinchi navbatda tevarak - atrofida axolini sud kilish, Reyn buyidagi cherkov yerlarida ( asosan Frankoniyada ) juda xam avj olib ketgan perekayitlik munosabatlari X – XI asrlarda Reyning narigi tomonida tobora tez- tez uchraydigan buldi. Bu prosesslarning xammasi shuni kursatadiki, yuz-ikki yuz yil ilgari garbiy Frank davlatida feodal

munosabatlar kanday avj olgan bulsa, Germaniyada xam garchi kechikib bulsa xam, shunday avj oldi. Germaniyada katta yer egaligining avj olishida kirol xazinasiga karashli yerlarning tolon toroj kilinishi katta rol uynadi, Karollinglarning keyingi kuchsiz kirollari bu yerlarni uz kullarida saklab kololmadi. Shu bilan bir vaktda, German feodallarining sharkda slyavyanlar va vengrlarga karshi, janubda Italiyaga karshi olib borilayotgan urushlari kengaygan sari, Germaniyada risarlik xam tobora zur berib avj oldi. Germaniyada feodal munosabatlar rivojlanishining uziga xos xususiyatlari sifatida cherkov yerlarida tashkil topgan fogt - deb ataladigan yer egaligining keng tarkalganligini kursatib utish kerak. Dastlab fogtlar cherkovda xizmat kilar, u yerda xarbiy va sudyalik vazifalarini ado etar edilar, ( advocati eclesiae) va buning evaziga cherkov yerlarining bir kismini foydalanish uchun olar edilar. Keyinchalik bu yerlar nasldan – naslga utadigan feodal yerlariga aylandilar, Fogtlarning uzlari esa xakikiy feodal bulib koldilar. Urushlar feodallar kuchini ma'lum darajada birlashtirishni talab kilib kirol esa feodallar lashkarlarining sarkardasi sifatida zarur edi. Bu narsa ularni kirolga buysunishga majbur kilar edi. Nixoyat risarlarning siyosiy rolini xam etiborga olish kerak. Risarlar tobora kupayib, sosloviy bulib borgan sari kirol xokimyati katta feodallar bilan tuknashuv da risarlarga tayana olardi xalk ommasini tushkunlikka solish davom etib borayotgan sharoitda kirol xokimyati xalk xarakatiga, dexkonlar xarakatiga karshi tayanch sifatida feodallarning xammasiga xam zarur edi. Genrix I ning ugli Otton I (936 – 973) Kirol xokimiyatini mustaxkamlashni davom ettirdi. U dastavval boshka gersoglar ustidan nazoratni kuchaytirdi, buning uchun nikox va boshka karindoshlik alokalaridan foydalandi. Kirol ta'sirini butun mamlakatga yoyishning ikkinchi bir usuli yepiskoplik sistemasi buldi. Otton cherkov bilan dustona aloka bogladi. U yepiskoplarga keng mikyosda immunitet xukuklar berdi va ularga juda kuplab yer ulashdi. Shu bilan birga yepiskoplarni xam uning uzi tayinlardi. Cherkov yerlaridan keladigan daromadlar Kirol xazinasiga kupdan-kup xissa ajratdi. Shunday kilib Germaniyada cherkov manfaatlari bilan davlat manfaatlari bir – biriga chatishib Gemaniyaning turli viloyatlaridagi yepiskoplar maxalliy knyazlarga – gersoglarga e'tibor bermay bevosita kirolga buysundilar. Shu bilan bir vaktda yepiskoplarning kirolga tobeligi ularning Rim papasiga deyarli buysunmay kuyishiga olib keldi. Otton I otasining agressiv tashki siyosatini davom etirdi. Otton I zamonida Elbaning narigi tomonidagi slavyanlarga karshi kurash yanada kuchli suratda davom etdi. Elbaning narigi tomonidga nemis kolonistlari kuchib kelib urnasha boshladi. Ularning eng yaxshi yerlarini tortib olib, kolonis-nemislarga berar edilar. Ba'zan esa xatto nemis feodallari bilan tinch munosabat urnatishga moyil bulgan slavyanlarning 30 ga yakin knyazini uz xuzuriga «ziyofat»ga chakirib, shu yerda buyruk berib ularning xammasini uldirtirib yubordi. Otton I vengrlarga karshi kurashni davom ettirdi. U 955yilda Lexa daryosi buyida ( Augsburgga yakin bir joyda ) vengrlarga yana zarba berishga muvaffak buldi. Shundan keyin vengrlar Germaniya yerlariga xujum kilishni tuxtatdilar. Ular xristianliklarni kabul kila boshladilar va nemislarning ta'siriga uta boshladilar, keyinchalik vengr feodallari nemislarning slavyanlarga karshi olib borgan kurashida bir necha martta nemislarga ittifokchi buldilar. Lekin Otton asosiy e'tiborini sharkka emas, balki Italiyaning janubiga karatdi, chunki Italiya german imperatorlarining – dunyoga xokim bulish rejasi asosiy urin tutar edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Verden taxsimoti kachon buldi?

A) 840 yil
B) 842 yil
S) 843 yil
D) 850 yil
Ye) 854 yil

2. Stelling – kuzgolonining ittifoklari va maksadlari.

A). Germaniyadagi risarlarittifoki bulib, dexkonlar ustidan xukmronlikni urnatish.
B) Dexkon jamoalarining ittifoki bulib, majusiylik bdyrogi ostida ish kurgan.
S) Zadoganlar ittifoki bulib, yangi reformalarni joriy kilish.
D) Dexkonlar ittifoki bulib, zodagonlarning ogir soliklarini yo'kotish.
Ye) Fogtlar ittifoki bulib, cherkovlarini feodal yerlariga aylantirish.

3. Saksoliyaliklar birinchi bulib asos solgan shaxsni aniklang.

A) Genrik I Ko'shboz.
B) Otton I.

S) Grigoriy. VII
D) Lyudovik
Ye) Otton II.
4. Genrik 1 kaysi yilda Saksoniya gersogi etib tayinlandi
A) 920 yil
B) 919 yil
S) 924 yil
D) 950yil
Ye) 923 yil

**2-asosiy savol :**
Italiyaga kilingan yurishlar va Germaniya imperiyasining tashkil topishi.

**Ukituvchinig maksad :** Italiyaga kilingan yurishlarning sabab va okibatlarini tushuntirib berish, Italiyada feodal munosabstlar rivojlanishining xususiyatlarini aytib berish va Otton 1 ning Italiyadagi faoliyatiga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadlari :**
2.1 Italiyadagi feodal munosabatlarning keskinlashish sabablarini biladi.
2.2 Otton I ning Italiyada yurgizgan siyosati va imperiyaning kayta tiklanishini tushuntiradi.
2.3 X asr oxiri – XI asr boshlarida Germaniya va Italiyadagi Otton I ningsiyosatiga baxo beradi.
2.4 Frankoniya dinastiyasining idora kilinishining shart – sharoitlarini ochib beradi.

**2-asosiy savolning bayoni:**

Italiya X asrda ancha feodallashgan edi. Bu yerda feodallashish prosessi Germanidagiga karaganda ancha ilgarilab ketdi. Italiyada feodal munosabatlar juda boshkacha bir tarzda uziga xos xususiyatlar bilan boshlandi. Langobardlar uz davrida Italiyadagi kuldorlik tuzumini uzil-kesil tugatganligi Shimoliy va urta Italiya dexkonlarning axvoliga ijobiy ta’sir kursatdi. Bu yerda dexkonlar borib–borib asoratga solingan bulsalarda, xar xolda bu yerda krepostnoylik u kadar kattik bulmadi. Jumladan, bu xol shu ifodasini topgan ediki, dexkonlarning majburiyatlari ilgarigidek uzboshimchalik bulmasdan, balki anik bir normaga solingan edi. Ikkinchi tomondan, Italiyada shaxarlar ancha erta rivojlana boshlaganligi sababli krepostnoy dexkonlar shaxarlarga ketishi, natural majburiyatlarni pul bilan muddatidan ilgari tulashi, erkini sotib olishi mumkin edi va xakozolar. Italiyada krepostnoy dexkonlar bilan bir katorda krepostnoy bulmagan, lekin yeridan maxrum kilingan dexkonlar kup edi. Bu dexkonlar feodallarning yerlarini ma’lum muddatga yoki egasi bilan maxsus tuzilgan yozma shartnoma–kontrakt (ular liberlar deb atalarda xam ) da kursatilgan shartlar bilan ijaraga olar edilar. Italiya X asrda siyosiy jixatdan Yevropada eng tarkok bir davlat edi. U juda kup mustakil gersoglik, graflik, va yepiskoplarga bulinib ketgan edi. O’rta Italiyadagi papa davlati xam feodallashgan edi. Papalik taxti xar turli rimlik aristokratiya xonadonlari o’rtasidagi nayranglar, va konli urushlarga sabab bulmokda edi. Italiya janubiy territoriyasining bir kismi xali Vizantiyaga karar edi, bir kismini esa arablar bosib olgan edi. Birok Italiya siyosiy jixatdan shunday tarkok bulishiga karamasdan, mamlakatda shaxar xayoti zur berib tarakkiy etmokda edi. Italiya shaxarlari xali xam O’rta dengizda Vizantiyaliklar va arablar bilan savdo kilar edi. Shaxarlardagi turli xildagi xunarlar rivojlanmokda edi. X asrda savdo va shaxarlarning axamiyati juda kam bulgan Germaniyaga nisbatan Italiya german feodallariga juda katta boyliklarga ega bulgan, zeb–ziynatli va farovon mamlakat bulib kurinar edi. Otton I ning ugli bilan nevarasi – Otton II xam, Otton III xam butunlay Italiyadagi siyosat bilan band buldi. Otton II janubni kulga kiritishga xarakat kildi. U Neapol bilan Terentini bosib oldi. Lekin pirovard–okibatda 983 yilgi arablar bilan bulgan dengiz janglaridan birida maglubiyatga uchradi, oradan kup utmay, Ravennada yosh o’lib ketdi. Onasi imperatrisa Feofaniya regent bulib idora kila boshladi. Lekin uning obro’si yaxshi emas

edi. Imperator – kirol xokimiyatining zaiflashganligidan foydalanib, german gersoglari o'z knyazlarini butunlay mustakil xokimlar sifatida idora kila boshladilar.
Kongrad II yana konun chikarib, risar feodallarini nasldan – naslga meros bulib utadigan kilib kuydi. Italiyaning yirik feodallariga karshi kurashda Italiya risarlari–vavassorlarni kirol tomoniga ogdirib olish maksadida Konrad II bu konunni dastlab 1037 yilda Italiya uchun chikargan edi. Sungra, oradan kup vakt utmay, bu yangi konun Germaniyaga xam tadbik kilindi. 1034 yilda Konrad janubda Son va Rona daryolari xavzasidagi butun boshlik Butungriya kirolligini, shuningdek Provansni kushib olishga muvvaffak buldi ( Germaniyaning Provansdagi ta'siri Otton I Provans kirolichasi Adelgeydaga uylangan vaktdan boshlangan edi. Genrix III Chexiya knyazi slavyan Brjetislavni o'ziga vassal tarzida karam kilib oldi ( 1041 ). U Polsha bilan Vengriyaga xam uz ta'sirini utkazdi. Germaniyada Frankoniya yerlaridan tashkari, imperator Bavariya va Shvabiya gersoglarini xamda janubi – sharkda yangi bir gersoklikni – Karintiyani xam bevosita nazorat kilar edi. Fakat Saksoniya, Lotaringiya va Burgundiyagina ilgarigi avtonomiyalik xolatini saklab kolgan edi. Genrix III kupayib borayotgan risarlarga tayanish bilan birga, uz ittifokchisi bulgan cherkov xizmatchilaridan foydalanishni xam davom ettirdi.

**Nazorat topshiriklari :**
1. Otton I - 951 yilda kaysi shaxarga kushin tortib bordi.
A) Angliyaga
B) Italiyaga
S) Germaniyaga
D) Draminega.
Ye) Paviyaga
2. Otton I imperatorlik tojini nima uchun oldi
A) Karl Buyuk ulgandan keyin, ichki ziddiyatni bostirgani uchun. .
V) Rim feodallari bostirib, papani taxtga utkazgani uchun
S) Kuldorlik tuzumi uzil-kesil tugallangani uchun.
D) Yepiskoplarga keng mikyosda immunitet xukuklar bergani uchun.
Ye) Italiya knyazlaridan bir nechtasini tor-mor kildi.
2. Otton I ning xukmronligi davrida Italiyaning ijtimoiy xayotini tushuntirib bering?
3. X asr oxiri – XI asr boshlarida Germaniya va Italiyadagi siyosiy axvolga baxo bering?
4. Feodal tuzumga utish kay yusinda amalga oshdi?

**3-asosiy savol:**
Papalar va imperatorlarning investitura uchun kurashi.

**Ukituvchining maksadi:** Rimda Grigoriy VII ning isloxatlari xakida aytib berish, natijada Genrix II ning bosh kutarib chikishining asl moxiyat va maksadalarini aniklab berish, saksoniyaliklarning 1073-1075 yillardagi kuzgolonlariga baxo berish va Vorm konkordati xakida tushuncha berish.

**Identiv ukuv maksadalari:**
3.1. Grigoriy VII isloxatlarining asl moxiyati va maksadani biladi.
3.2. Genrix VII ning xokimiyatga bosh kutarib chikish sababalarini tushunib yetadi.
3.3. Saksoniyaliklarning 1073-1075 yillardagi kuzgolonining sabab va okibatlarini ochib beradi.
3.4. Vorm konkordatining vujudga kelish shart-sharoitlari bilan tanish buladi.

**3-asosiy savolning bayoni:**
XI asrning urtalarida katolik cherkovi aloxida bir xolatda edi. Bir tomondan, bu vaktda cherkov uz ta'sirini butun Garbiy Yevropga yoygan edi. XI asrda Skandinaviya xalklari, Vengriya, Polsha xristianlikni uzil-kesil kabul kildi. Cherkov idoralarida bir xarakat vujudga kelib, bu xarakat yukorida kursatilib ziddiyatlarni xal kilishni, papaning cherkov ustidan bulgan xokimiyatini kuchaytirishni va cherkovning uzining dunyoviy xokimiyatidan mustakilligini oshirishni uz oldiga maksad kilib kuydi. Bu kayfiyatlarning ifodachisi Klyuniy monaxlari Fransiya, Germaniya va Italiyada unlab yangi monastirlar ochib, aloxida bir monastirlar federasiyasini tuzdilar. Bu federasiya papaning maxsus xomiyligi ostida edi. Klyuniychilardan

biri, Gildebrand nomli italyan (toskanalik) bir gurux xamfikrlari bilan birgalikda 25 yil davomida papa kuriyasi bir nechta papa davrida raxbarlik mavkeini egallab keldi. Pirovardida Gildebrandning uzi papa bulib, Grigoriy VII (1073-1085) degan nom oldi. Grigoriy VII xar kanaka kelishishni xam yomon kuradigan, mustaxkam irodali, ujar fanatik, juda keskin kishi bulib, Teoratik ideyalarni uzlashtirib olgan edi.

Rim cherkovining yukorida aytib utillgan reformalaridan dastlabki ikkitasining amalga oshuvi shu narsa imkon berdiki, bu vaktda imperator Genrix xali yosh edi. Genrix Sh ulgan yili u endi 6 yoshga kirgan edi. Imperatorning yoshligidan imperiyadagi knyazlar foydalanib koldi, natijada Germaniyada XI asrning 50-60 yillarida siyosiy jixatdan tula tartibsizlik xukm surdi. Shuning uchun xam papalik uzok vaktgacha imperator xokimiyati bilan xisoblashmadi. Birok Rim kuriyasi investituraga oid uchinchi reformaga utgan vaktda, endi balogatga yetgan Genrix IV bunga kattik norozilik bildirdi. 1076 yilning boshlarida Vormsda bulgan cherkov yigilishida (bu yigilishga german yepiskoplari va zodagonlarning yukori tabakalari tuplangan edi) imperatorning talabi bilan Grigoriy VII urnidan tushirildi.

Imperator bilan papa urtasidagi kurashning keskinlashuv sababalarini tushunish uchun imperatorning uzining 70-yillarda Germaniyada olib borgan siyosatini bilib olish kerak. Genrix IV kattik kul va shuxratparast kirol edi. Otasi Genrix III singari, u xam feodal zodagonlarning uzboshimchaligini jilovlashga xarakat kildi. Uning davrida kirollik – imperatorlik xokimiyatining ta’siri Frankoniyadan tashkari, kushni Shvabiyada, shuningdek, Saksoniyada xam kuchayib bordi. Genrix IV Saksoniyani buysundirishni uz oldiga eng birinchi siyosiy vazifa kilib kuydi. U Garbiy Saksoniyada yangidan-yangi imperator kasrlari kurishni davom ettirdi, saroyini shu yerga kuchirib bordi va bosib olingan mamlakatda kanday xujayinlik kilsa, bu yerda xam xuddi shunday xujayinlik kildi. Saksoniyada imperator pomestyelarining soni borgan sari ortib bordi (XI asrining oxirida imperatorning Frankoniyadagi yerlarida kancha pomestyesi bulsa, Saksoniyada xam shuncha pomestyesi bor desa bulardi). Imperator Saksoniyaning boy urmonlarini tortib olib, uz mulkiga aylantira boshladi. Ancha kismi xali erkin bulgan sakson dexkonlariga juda ogir imperator soligi (census) solindi. Impratorga karashli imeniyelarni boshkaruvchi ministeriallar dexkonlarning jamoa yer-suvlaridan foydalanishni kiyinlashtirib kuydi. Biror sabab bilan uz yeridan ajragan erkin dexkonlarning-freymayenlarning bir kismi karam kishilarga yoki xatto-«franklar» va «shvablar» uchun barshchina majburiyati boshladi. Dexkonlarning imperatorga va uning amaldorlariga-ministeriallar va fogtlar (yepiskoplar nomidan cherkovga karshli yerlarni boshkaruvchilar)ga va shu kabilarga nafrat kuzi bilan karashi tabiiy edi. Saksoniyaga sukilib kirib borayotgan Frank va Shvabiya feodallarini ular dexkon jamoalariga zulm kiluvchi va ularni ezuvchi asosiy zolimlar deb xisoblardilar. Tugri, bu vaktda Saksoniya zodagonlari xam krepostnik feodallarga aylana boshlagan edi. Lekin, imperatorga, yepiskoplarga va monastirlarga karaganda Saksoniya feodallarining yerlari birmuncha kam edi. Saksoniya feodallari xam imperatorga va uning atrofdagilarga nafrat kuzi bilan karar edi, ularga Saksoniyani ekspluatasiya kiluvchi ajnabiylar deb karar edi. Shuning uchun xam Saksoniyada 1073-1075 yillarda kuzgolon kutarildi. Bu kuzgolonda maxalliy dexkonlar xam, maxalliy feodallar xam katnashdi. Kuzgolon 1073 yilning avgustida kutarildi. U shu kadar shiddatli va katta kuzgolon buldiki, Genrix IV ning uzi xam kuzgolonchilar kuliga asir tushishiga sal koldi. U zur kiyinchilik bilan va juda katta xavf-xatar ostida Sasoniyadan kochib jon saklab koldi. Dexkonlar imperatorga karashli kupgina pomestyelardagi xujalik binolariga ut kuydilar, bu vaktgacha tulab kelgan tulov va barshchinalarini tulamay kuydilar.

Birok dexkonlarning aktiv xarakati saks feodallarini kurkuvga soldi. Dexkonlarga bildirmasdan turib, feodallar imperator bilan muzokara boshlab, uni uzlariga kuprok yon berdirishga xarakat kildilar. Saks zodgonlari imperatorga karshi urush xarakatlarini sustlik, bushanglik bilan olib bordi. Genix IV esa bularning xammasidan juda ustalik bilan foydalandi. 1075 yil yozining boshlarida u, bir kismi imperatorning frankoniyalik risarlardan, bir kismi Shvabiya togliklaridan iborat bulgan katta kushin bilan Saksoniyaga bostirib kirdi. 1075 yil 9 iyunda Langenzols degan joy yakinida kuzgolonchilarning asosan dexkonlardan iborat bulgan kushinlarini tor-mor kildi. Dexkonlarga kushilmay, uzlaricha aloxida jang kilgan saks feodallari xam maglubiyatga uchradilar. Lekin ular dexkonlarga karaganda oz talofat kurdilar. Kuzgolonchi dexkonlar maglubiyatga uchrash natijasida juda katta talofat kurdilar, ulardan bir necha ming kishi xalok buldi.

1075 yilning ikinchi yarmida Genrix IV Saksoniyada butunlay xujayin bulib koldi. Bu ulka juda kattik talandi va vayron kilindi. Saksoniya yakin orada Frankoniyaga kushilib ketadiganday kuringan edi. Genrix

IV sakslar ustidan galaba kozongach, uzini Grigoriy VII ga nisbatan xam xujum siyosati yuritish uchun yetarli darjada kuchga egaman, deb xis kildi.
Investitura uchun kurash XI asrning oxiridi va XII asrning boshlarida xam davom etdi. Grigoriy VII ning vorislari Genrix IV ga karshi uning uz uglini-Genrix V ni kurollantirdilar. Birok Genrix V otasining urniga uzi imperator bulib olagandan keyin, u xam investituradan voz kechishni istamadi. Genrix V kirollik kilgan davrning oxirgi vaktlaridagina, 1122 yilda, u bilan Kallist II urtasida **V o r m s k o n k o r d a t i** deb nom olgan kelishuv shartnomasi tuzildi. Vorms konkordatida yepiskoplarning ruxoniylar tomonidan saylanishi prinsip kilib belgilandi. Shu bilan birga, Germaniyada saylovlar imperatorning uzi yoki uning vakillari ishtrokida utkaziladigan buldi. Burgundiya bilan Italiyada esa yepiskop saylashga imperatorning katnashishi kuzda tutilmadi. Sungra imperator papa bilan bulgan kurash vaktida undan tortib olingan cherkov mulkini kaytarib berishni va'da kildi. Investituraning uzi esa konokordatga muvofik ikki kismga bulindi – bir kismi cherkov investiturasi (uzuk va xassadan iborat) bulib. Buni papa beradigan buldi, ikkinchi kismi dunyoviy investitura (saltanat xassasidan iborat) bulib, buni imperator beradigan buldi, imperator shu bilan uzining yepiskoplar ustidan senorlik xukukini ta'kidladi.
Umuman olganda, konkordat imperatordan xokimiyatning yepiskoplarga bulgan ta'siri zaiflashdi. Cherkov yerlaridan imperatorga tulanadigan tulovlar esa endi kamaytirilib, dunyoviy lenchilarning majburiyatlariga tenglashtirildi. Investitura masalasidagi yon berishdan tashkari, konkordatda imperatorga nokulay bulishiga karamay, Grigoriy VII amalga oshirilgan boshka isloxatlarga xam papaga indamay yon berilgan.

**Nazorat topshiriklari:**
1. XI asrning urtalarida katolik cherkovi kanday axvolda edi?
2. Grigoriy VII isloxatlarining asl moxiyati xakida gapiring?
3. Vorms konkordatining tashkil topish shar-sharoitlarini ayting?
4. Grigoriy VII kachon vafot etdi?
A) 1080 yilda
V) 1082 yilda
S) 1079 yilda
D) 1085 yilda
Ye) 1095 yilda
5. Saksoniyadagi 1073-1075 yillardagi kuzgolonning asl moxiyati nimalardan iborat edi?
A) Imperator bilan pap urtasidagi kurashning keskinlashuvi.
V) Saksoniya zodagonlari krepostnik feodallarga aylana boshlashi.
S) Ichki ziddiyatlarning keskinlashuvi va tashki muxitning ta'siri.
D) Yepiskoplarning uylanmasligi majburiyatidir, degan tartib joriy kilindi.
Ye) Solik turining kupayishi.

**Talabalar uchun mustakil topshiriklari:**
1. Saksoniyaliklar idora kila boshlagan paytlarda Italiyadagi ijtimoiy axvol?
2. Italiyaga kilingan yurishlar va Germaniya imperiyasining tashkil kilinishi xakida?
3. Otton 1 ning xukmronligi davrida Italiyaning iktisodiy-siyosiy axvoli?
4. Imperatorlarning investitura uchun kurashishining asl moxiyati va maksadlari?
5. Vorms konkordatining asl maksadi?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**
1. Urta asrlar tarixi. V.F. Semyonov T.,-1773.
2. Lamprext K. Istoriya germanskogo naroda. M., Vыsshaya shkola. 1985. T.2
3.Istoriya srednix vekov (Pod.red.Z.V. Udalsovoy i S.P. Karpova. 1-2 ch. M.,Vыsshaya shkola, 1988.

**17-mavzu: IX-XI asr urtalarigacha Angliya.**
*(2 soat ma'ruza).*

**Asosiy savollar:**
1. Angl-saks istilosi va angl-saks kirolliklari.
2. Daniyaliklarga karshi olib borilgan kurash va Alfred Buyukning idora kilishi.
3. Kanut Datskiy davlati va angl-sakslarning ijtimoiy tuzumi natijasida feodallashuv jarayoni.

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:** Angl-saks, «Britaniya mustakilligi», geptarxiya, Uyesseks, Sesseks, Esseks, Daniyaga karashli mintaka, «daniyaliklar puli», «Eduard vasiyati», kyorllardan, gayda, letlar, uillar, vergeldi, kyorllar, graf, vitenagemot, boklend, virgata, zodagon, immunitet, kommendasiya, «sen'or», soka, sokmenlar, manorlar, pomestyelar, genitlar, geburlar, kassetlar, «erkin kishilar», lordlar, kotterlar, «Sherif», «gerefa», folklendga.

**1-asosiy savol:**
Angl-saks istilolari va angl-saks kirollari.

**Ukituvchining maksadi:** Angl-sakslarning vujudga kelishini tushuntirib berish, natijada mamlakatning mayda kirolliklarga bulinib ketishi sabablarini yeritib berish, Anliyadagi ikkita xristian cherkovining urtasidagi ichki kelishmovchiliklarning okibatlarini ochib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
1.1. Angl-saks istilolarining keskinlashish sababalarini aytib beradi.
1.2. Angl-saks korolliklarning vujudga kelishini tushuntirib beradi.
1.3. Mamlakatning mayda korolliklarga bulinib ketish okibatlarini izoxlab beradi.
1.4. Ikki xristian cherkovining urtasidagi ichki kelishmochliklarga baxo beradi.

**1 – asosiy savolning bayoni:**
Rim legionlari Britaniyadan V asrning boshlaridayok chikib ketgan edi. Birok mamlakatning bir kancha mayda kirolliklarga bulinib ketishiga sabab bulgan «Britaniya mustakilligi» uzokka bormadi. V asrning urtalaridan boshlab, (449 yil atrofida) bu orolga turli xil shimoliy-garbiy German kabilalari – angllar, sakslar, yutlar bostirib kira boshladilar Orol oz-ozdan istilo kilina borib – bu istilo butun bir asrga – VI asrning ikkinchi yarmigacha chuzildi. Angl-sakslar istilosi natijasida ilgari Britaniya territoriyasida undan ortik mayda varvar-german kirolliklari vujudga keldi; bu varvar kirolliklari eng chekka garbdan – Uels bilan Kornueldan va kelt kirolliklari saklanib kolgan eng chekka shimoldan – Shotlandiyadan tashkari, orolning butun territoriyasini egalladi. VII asrga kelib, Angl-saks kirolliklari bir kadar yiriklashib, yettita (Geptarxiya deb ataladigan) kirollikni tashkil etdi. Janubda sakslarning uchta kirolligi – Uesseks, Sesseks, Esseks (Garbiy – Janubiy va Sharkiy Saks) kirolliklari vujudga keldi. Markazda va Shimoliy-Sharkda asosan angllar urnashgan bulib, bu yerlarda Mersiya, Natumbriya va Sharkiy Angliya kirolliklari tashkil topdi. Yutlar chekka janubi Garbda muxim territoriyani, ya'ni Temza daryosi kuyiladigan joyini ishgol kilgan kichik bir Kent kiroligini tuzdilar. VII asr ichida va VIII asrning birinchi yarmida asosiy rolni Shimoliy kirolliklar – Nortumbriya va Mersiya uynadi. VIII asrning urtalaridan boshlab, gegemonlik janubiy kirolliklardan biriga – Uesseksga utdi (uning poytaxti Vinchester shaxri edi). Uesseks kirollari dastlab janubni –Sesseks, Esseks va kentni uziga buysundirdi, sungra IV asrning boshlarida esa Mersiya bilan Nortumbriyani bosib oldi.Sharkiy angllar kirolligi uz mustakilligini bundan ilgari yukotgan bulib, avval Nortumbriyaga,keyin esa Mersiyaga buysungan edi. Uesseks kiroli-butun mamlakatni birlashtirgan kishi – Ekbert (802-839) edi.U mamlakatni birlashtirishni 829 yillarda amalga oshirdi. VI asrdan boshlab angl-sakslar orasiga xristianlik kira boshladi. Bir kancha vaktgacha Angliyada ikkita xristian cherkovi uzaro kurash olib bordi: biri – V asrda tashkil topgan va Sharkda grek cherkovlari bilan tashkiliy alokada bulgan Irlandiya cherkovi, ikkinchisi – papa tomonidan Rimdan yuborilgan missionerlar tashkil etgan rim cherkovining ta'siri golib chikdi, buning sababi kisman istilochilar bilan, ya'ni angl-sakslar bilan

orollardagi keltlar urtasida bulgan antogonizm bulsa, asosan Rim cherkonvining kuprok markazlashganligi va aristokratlashganligi  buldi, angl-saks kirollari uning yepiskoplaridan e'tiborli siyosiy kuch sifatida foydalanishlari mumkin edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Rim legionlari Britaniyadan nechanchi asrlarda chikib ketdi?

A)  V asrda
V) VI  asrda
S) VII asrda
D) VIII asrda
Ye) IV asrda

2. Ekbert nechanchi yillar xukmronlik kildi?

A) 802-839 yillar.
V) 823-843 yillar.
S) 804-842 yillar.
D) 806-844 yillar.
Ye) 804-842 yillar

3. Angliyada kanday xristian cherkovlari mavjud?

A) papa va grek cherkovlari.
V) Rim va papa cherkovlari.
S) irlandiya va missionerlar cherkovi
D) missionerlar va grek cherkovlari.
Ye) angl-saks va irlandiya cherkovlari.

4. Asosan mamlakatni birlashtirish nechanchi asrlarga tugri keladi?

A) 827 yillar
A) 820 yillar
S) 829.yillar
D) 832  yillar
Ye) 829 yillar

**2-asosiy savol:**
Daniyaliklarga karshi olib borilgan kurash va Alfred Buyukning idora kilishi.

**Ukituvchining maksadi:** Daniyaliklarga karshi olib borilgan kurashning sabab va moxiyatini tushuntirib berish, olib borilgan istilochilik xarakatlarining okiblarini ochib berish va Alfred Buyukning idora kilish davrida Angliyada risarlarning vujudga kelish shart-sharoitlariga baxo berish.

**Identiv maksadlari:**

1.5. Daniyaliklarning ijtimoiy xayotini biladi.
1.6. Daniyaliklarga karshi olib borilgan kurashning asl moxiyatini aniklab beradi.
1.7. Alfred buyukning idora kilishida uning yurgizgan isloxatlarining axamiyatini tushunib yetadi.
1.8. Alfredning konunlar tuplamidagi asosiy goyalarga baxo beradi.

**2-asosiy savolning bayoni:**
Birlashgan angl-saks kirolligining tashkil topishi bilanok Daniyaliklarga karshi kattik kurash boshlashga majbur buldi. Daniyaliklar deganda  Angliyada fakat Skandinaviyadan Yutlandiya yarim oroliga kuchi kelib, urnashib, bu yerda IX asrda  kuchli korollik tuzgan Daniyaliklarning uzinigina emas, balki yana Skandinav-norvejlar xam nazarda tutilar edi. Skandinavlar normanlarning Yevropa kit'asiga – Fransiyaga va janubiy Italiyaga kilgan xujumlari tugrisida yukorida gapirilib utgan edi. Skandinavlarning Britaniya orollariga kilgan xujumlari undan xam daxshatlirok buldi. Ular Irlandiyaga, Shotlandiyaga va Angliyaga bir necha asr davomida juda kup va daxshatli xujumlar kilib turdilar. Umuman olganda   Daniyaliklar – Skandinavlarning Angliyaga kilgan xujumlari kamida 300 yil (VIII asrning ikkinchi yarmidan to XI asr urtalarigacha) davom etdi. Juda kup Skandinavlar Shimoliy-sharkiy Angliyaga urnashib olib, bu ulkaning

tarakkiysiga ta'sir etdi. 838 yilda Ekbert Daniyaliklarning Angliyaga kilgan xujumlaridan birini kaytara oldi, ammo 842 yilda ular orol ichkarisiga yana bostirib kirib, Londonga ut kuydilar, 866 yilda esa, Shimoliy-Sharkiy kirgokning xammasini bosib oldilar.

Daniyaliklar ancha zich joylashgan bu territoriya butun Urta asr davomida Daniyaga karashli mintaka degan nom bilan yuritilar edi. Kirol Alfred Buyuk kirollik kilgan davr (871-900) angl-sakslarning Daniyaliklarga karshi eng kattik kurash olib borgan mamentlaridan biri buldi. Alfred buyukdan oldingi kirol Etilred I daniyaliklarga karshi kurashda xalok buldi. Alfred bir muncha vaktgacha daniyaliklarga karshi partizan otryadlari, tarkok otryadlar vositasi bilan kurash olib bordi. Fakat keyinrok borib, u muntazam urushga utib, Daniyaliklarni Temzaning narigi tomoniga uloktirib tashlashga muvaffak buldi. 879 yilda Daniyaliklar bilan sulx tuzildi, bu sulxga binoan mamlakat ikki kismga bulindi: Angliyaning janubiy-garbiy kismi angl-sakslarga, Shimoliy-Sharkiy kismi Daniyaliklarga bulib berilgan edi. Daniyaliklarga karshi kurashda Alfred kisman eski umumiy xalk lashkarlariga tayandi, kisman feodal xarbiy tipidagi katta, urtacha va mayda yer egalaridan iborat yangi feodal kushinini kuchaytirilishini kuvvatladi. Angliyada birinchi marta axolidan doimiy solik olishni joriy kildi. Bu solik «Daniyaliklar puli», ya'ni daniyaliklarga karshi kurashish uchun yigiladigan solik deb ataldi. Alfred zamonida ba'zi latin avtorlarining asarlari angl-saks tiliga tarjima kilindi. Kirolning buyrugiga binoan davlat axamiyatiga ega bulgan eng muxim vokealarning muntazam yilnomasi tuzilib borildi. Savodli kliriklar tayyorlash uchun yepiskoplik kafedralari koshida yangi maktablar tashkil etildi.

Alfred Kent, Uesseks va Mersiyaning kadimgi konunlarini – xakikatlarini – tuplashni, unga ancha keyin «Alfred xakikati» nomi ostida chikarilgan konunlarni kushib bitta tuplam kilib chikarishni buyurdi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Daniya-skandinaviyaliklarning Angliyaga kilgan xujumlari necha yil davom etdi?

A) 350 yil
V) 325 yil
S) 300 yil
D)200 yil
Ye) 400 yil

2. Kirol Alfred buyukning kirollik kilgan davri?

A) 870-900 yillar.
V) 870-970 yillar
S) 877-800 yillar
D) 890-900 yillar.
Ye) 898-902 yillar

3. Angliyada birinchi marta axolidan olinadigan doimiy solik turi?

A) «Alfred soligi»
V) «Daniyaliklar puli»
S) «Angl – saks puli»
D) «Britaniya mustakilligi»
Ye) «Sherif»

4. Angliyada 879 yilda kanday vokea yuz berdi?

A) Daniyaldiklar bilan sulx tuzildi.
V) Kirol Alfred vafot etdi.
S) Angliyada risarlar vujudga keldi.
D) Kuchli kirollik yuzaga keldi.
Ye) Yangi maktablar tashkil buldi.

**3-asosiy savol:**
Kanut Datskiy davlati va angl-sakslarning ijtimoiy tuzumi natijasida feodallashuv jaryoni.

**Ukituvchining maksadi:** Kanut Datskiy zamonida Daniyaning ijtimoiy axvolini tushuntirib berish, angl-sakslarning ijtimoiy tuzumini aytib berish va feollashuv jaryonining keskinlashish sabablarini ochib berish. Daniyaliklar xujumining dexkonlarning axvoliga ta'siriga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

3.1. Kanut Datskiy davlatining ijtimoiy xayoti bilan tanishadi.
3.2. Angl-sakslarning ijtimoiy tuzumi xakida tushunchaga ega buladi.
3.3. Feodallashuv jarayonining keskinlashuviga baxo beradi.
3.4. Axir okibatda xujumlar vaktida dexkonlar axvoli bilan yaxshi tanish buladi.

**3-asosiy savolning bayoni:**

Daniyaliklarning sikuvi Alfred zamonida va uning vorislari zamonida tuxtatildi. Alfredning vorislari Londonni kaytarib olib, daniyaliklarni Shimoliy-shark tomonga juda uzokka surib tashladi. Lekin daniyaliklarning xujumi X asrning oxirida – XI asrning boshlarida yanada zur berib takrorlandi. Bu safar xujum Skandinaviyadan (xozirgi Norvegiyadan) boshlanmasdan balki, bevosita Daniyaning uzidan boshlandi. Oradan kup vakt utmay. Angliya uz mustakilliklridan butunlay maxrum buldi. Daniya kiroli Kanutga buysundi. Kanut Datskiy (1017-1035) istilo kilingan yerlardan juda katta shimoliy davlat tuzdi, bu davlatga Daniyaning uzi, Norvegiya, Shvesiya, Angliya va Shotlandiya kirdi. Angliya Daniyaga juda katta soliklar tulab turishga majbur buldi. Ilgari Daniyaliklarga karshi kurashga sarflanib kelgan «Daniyaliklar puli» ancha kupaytirilib, Daniya kirolligi xiroj tarzida tulanadigan buldi. Daniya zodagonlari Angliyaning janubida juda kup yangi yerlar oldi. Kanut ulgandan keyin uning murt, kup kabilali davlati tez vakt ichida parchalanib ketdi. Daniya kirolligining kulida yana birgina Daniya koldi.

Angliyada Eduard Ispovednik (1042-1066) taxtga chikib, uzining angl-saks dinastiyasini tikladi. Lekin Eduardning xokimiyati kuchsiz edi. Angl-saks zodagonlarining bir kismi daniyaliklarga moyil edi. Eduard boshchiligidagi ikkinchi bir kism zodagonlar fransuz – norman gersogi Vilgelm bilan ittifok tuzishga xarakat kildi. Eduard ulgandan keyin zodagonlar maxalliy angl-saks feodali – Uesseks gersogi Garoldni kirol kilib sayladi. Lekin Vilgelm Noramnskiy «Eduard vasiyati»ni pesh kilib, taxtni zurlik bilan olishga karor kildi. Shundan keyin Vilgelm Londonga yul oldi va u yerda 1066 yil 25 dekabrda Angliya koroli deb e’lon kilindi. Bu vokea Angliya tarixida angl-saks davrining nixoyasi, deb xisoblanadi. Ilk angl-saks kirolliklarining ijtimoiy tuzumida uzok vakt saklanib kelgan urugchilik munosabatlarining yakkol alomatlari kurinib turardi. Juda kupdan-kup «xakikat»larga, ya’ni VII-VIII asrlardagi tarli angl-sakslarning ijtimoiy tuzumi kup jixatdan franklarning «Sali Xakikati»da tasvirlangan ijtimoiy tuzumiga uxshar edi. Franklardagi singari, angl-sakslarda xam axolining asosiy ommasi (Angl-saks «xakikatlari»da ishlatilgan termin bilan aytganda) erkin kishilardan – kyorllardan iborat edi. Zodagon kishining- erlning vergeldi esa, dastlab fakat 400 shilling bulgan bulsa, keyincha 600 shillinga, undan keyin yana oshib, 1200 shillinga yetdi. Bular – uz axvoli jixatidan frankliklariga uxshagan yarim erkin kishilar edi.

Ularning uz yeri bulmay, ma’lum majburiyat evaziga erllarning yerini ishalb berar edilar. Ularning vergeldi 80 shilling atrofida edi. Letlar Britaniyaning buysundirilgan maxalliy axolisidan kelib chikkan deb taxmin kilinadi. Zodagon angl-sakslarning, erllarning (va xatto ba’zi bir eng boy kyorllarning) kullari xam bulib, bu kullarning bir kismi obrokchi kullar bulib, dexkonchilik bilan shugullanar edi. Angl-saks jamiyatida jamoa va boshka maxalliy boshkaruv organlari juda kup edi. bularning asosiysi kishlok – tun edi. Bu kishlok – kishlok jamoasidan iborat bulib, unda yer-suv bor edi, muntazam suratda kishlok yigini – galimot chakirilib turardi. Saylab kuyiladigan kishlok oksokoli bular edi. Kishlok jamoalarining vakillari oyda bir marta yuz boshilar majlisiga tuplanar edi. Yuz boshilar majlislaridan yukori urinda xar bir graflikning xalk majlisi bulib – bu majlislar tarixiy jixatdan kabilaviy kirolliklar davrida saklanib kolgan edi. Kirol vakili – graflikning rasmiy boshligi, Sherif – uz faoliyatida graflikning bu kengashi bilan xisoblashib turishi kerak edi. Bu kengashda maxalliy zodagonlar xal kiluvchi ta’sirga ega edi. Vitenagemot kirol xokimiyatini juda xam cheklab kuygan edi. U, konunlarni tasdiklardi va mamlakatning oliy sud organi edi. Kirollarni saylash va biror gunox kilib kuysa, urnidan tushirish xam vitenagemot kulida edi, u tasdiklamasa, kirolning xech kanaka in’omi amalga oshmas edi.

VII – IX asrlarda, ayniksa X asrda angl-sakslarning patriarxal jamoa tartiblari tobora tushkunlik sari yuz tutdi. Xali kuchli bulgan kishlok jamoasi bilan bir katorda katta aristokratik yer egaligi avj oldi. Kirol maxsus yorliklar berib, yerni dunyoviy zodagonlarga va cherkovga xususiy mulk kilib bera boshladi. Odatdagi konun-koidalarga asoslangan yer mulkiga, ya’ni jamoalarning, dexkonlarning yer-mulkiga (folklendga) karama – karshi ularok, mamlakatda pomeshchiklar mulki (boklend), yerga kirol yorligi

asosida egalik kilish tobora kuchayib bordi, kirol yerning feodallarning xususiy mulki bulishini tan olish bilan birga, boklend egalariga kupincha yana bir kancha imtiyoz va immunitetlar (maxalliy dexkon axolisini sud kilish va ulardan solik tuplash xukuki) xam berdi. Dexkonlarning chek yeri borgan sari maydalanib bordi. Katta dexkon oilasining ilgarigi urtacha chek yeri – gayda urniga VII asrlarda xamma joyda dexkonlarning mikdor jixatidan ancha oz bulgan yangi chek yeri – virgata uchraydi (virgata – gaydaning turtdan bir kismi).

Daniyaliklarning xujumlari dexkonlarning axvoliga juda yomon tasir kildi. Daniyaliklar uz xujumlari vaktida dexkonlarning xujaligini butunlay vayron kilardilar. Dexkonlar burglar, kupriklar va yullar kurish, lashkarlar safida turib kurikchilik kiish va xarbiy xizmatni utash uchun juda kup vakt sarflashga majbur edilar. Tobora ortib borgan «daniyaliklar puli»-xar bir chek yerga solinardi. Nixoyat, daniyaliklarga karshi olib borilgan uzluksiz urushlar vaktida juda kup risarlar vujudga kelib, bularni taminlash xam shu dexkonlar ustiga tushardi. VII-VIII asrlarga oid esdaliklarda uchraydi, lekin bu narsa IX –X asrda ayniksa kupaydi. X asrda kirollardan biri Etelstan (Alfredning nevarasi) bir farmon chikardi, bu farmon Fransiyadagi Karl II Yaltirokbosh farmonining aynan uziga uxshardi, desa buladi. Etelstan 930 yilda xar bir erkin kishiga uzi uchun bir xujayin (angl-sakscha “lord”,bu termin fransuzcha “senor” degan terminga tugri keladi) topib olishni buyurdi. Dexkonlarning uz yonidagi katta yer egasiga bulgan karamligini davlat xokimiyati immunitet tarzida rasmiylashtirdi. Kirol katta yer egalariga uz atrofidagi axolini sud kilish va undan tegishli sud bojlari olish xukukini berdi. Bunday xususiy sud kilish xukuki soka deb xususiy sud kilingan dexkonlar sokmenlar deb atalardi.

Yerdor lordlar manorlar (bu suz xam angl-sakslar vaktida paydo buldi) deb atalgan uz pomestyelarida kisman kullar mexnatini, ekspluatasiya kilardilar. 1000 yilga oid bir manbada dexkonlarning turli gruppalari tasvirlanadi, lekin ilgarigi kyorllar degan nom urniga endi bu xujjatda genitlar va geburglar degan yangi nomlar ishlatiladi: genitlar xususiy yer egasi bulib, kisman kirolga, kisman yonidagi lordlarga soliklar tulab turuvchi erkin dexkonlar edi, geburlar esa uz yeri bulmay, pomeshchiklarning yerida dexkonchilik kilib, unga yil buyi xar xaftada uch-turt kun juda ogir barshchina utab beruvchi va bundan tashkari, lordga mol, galla, pul shaklida turli xil soliklar tulab turuvchi dexkonlar edi. Kam yerli dexkonlarning yana bir gruppasi kassetlar (kotterlar) tilga olinadi, bularning kichik bir parcha yerlari va kulbalari bulib, bular evaziga uncha katta bulmagan barshchina majburiyatini utar edilar.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Vilgelm Angliya kiroli etib kachon tayinlandi?

A) 1066 yil 25 dekabrda.
V) 1067 yil 26 dekabrda
S) 1065 yil 21 yanvar
D) 1017 yil 22 oktyabr
Ye) 1065 yil 25 dekabr

2. Kyorllar degan suzning ma’nosi ?

A) erkin kishilar
V) yer egalari
S) Zodagonlar
D) Kullar
Ye) Dexkonlar

3. Feodallashuv jarayonining keskinlashish okibatlari?

A) Dexkonlar mustakillik va erkinliklarini saklab koldilar.
V) Kanut Datskiy vafot etdi.
S) Daniya davlati parchalanib ketdi.
D) Fransuz kushinlari Angliyani bosib oldilar.
Ye) Dexkonlarning soliklaridan voz kechildi.

4. Vitenagemot suzining ma’nosini ayting?

A) Donolar kengashi.
V) Dexkonlar kengashi.
S) Daniyaliklar puli.
D) Yerdor lordlar.

Ye) Daniyaliklar mintakasi.

**Talabalar uchun mustakil ish topshiriklari:**

1. Angl-saks istilosi natijasida kirolliklarning parchalanib ketishi?
2. Alfred buyukning idora kilish usullari va natijalari.
3. Daniyaliklarga karshi olib borilgan kurashning moxiyatini tushuntirib bering?
4. Kanut Datskiy davlatining yuzaga kelish tarixi xakida gapiring?
5. Angl-saks korolliklarining ijtimoiy tuzumi davrida feodallashuv jarayonining keskinlashish sabablarini ayting?
6. Angliyadagi daniyalik-skandinaviyalik axolini urugchilik tuzumining saklanib kolishidagi shart-sharoitlarni gapiring?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Urta asrlar tarixi. V.F. Semenov T.,1973.
2. Morton A.L. Istoriya Anglii. M., Politizdat. 1960.
3. Savelo K.F. Rannefeodalnaya Angliya. L.,LGU. 1977.
4. Abramson M.L. Krupnыye goroda Anglii v XII-XIII vv. Sredniye veka. M.,Nauka.1987.
5. Avdeyeva K.D. Vnutrennyaya kolonizasiya i razvitiye feodalizma v Anglii v XI-XIII vv. L., LGU. 1973.

**18-mavzu: X1-XV asrlarda Vengriya.**
*(Ma'ruza 2 soat)*

**Asosiy savollar:**
1. Vengriya davlatining tashkil topishi va feodallashish jarayeni
2. 1222 yilgi Oltin bulla xamda mugul-tatarlar boskini okibatlari
3. XIV-XV asrlarda Vengriya ijtimoiy-siyesiy axvoli.

**Tayanch iboralar**:
Mojorlar, Arpadlar urugi, feodallashish jarayeni, Vengriya mulklari, Oltin bulla, mugul-tatarlar xujumi, Anjuy sulolasi, «Ulug Vengriya», Yagellolar sulolasi, Kuruslar kuzgoloni.

**1-asosiy savol:** Vengriya davlatining tashkil topishi va feodallashish jarayeni.

**Ukituvchining maksadi:**
Vengriya davlati tashkil topishini sharxlab berish, vengrlar xakida ma'lumotlar berish, vengrlar xujalik xayet tarzini ochib berish, Vengriya xukmdorlarini ta'riflab berish, XII - XIII Vengriyada feodallashish jarayenini sharxlab berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
1.1. Vengriya davlati axolisining ijtmoiy va iktisodiy xayetini ta'riflaydi.
1.2. Vengriyada xukmron sulolalarni biladi.
1.3. Vengriya feodallashish jarayenini tavsiflaydi.

**1-asosiy savol bayeni:**
Vengriya davlati IX asr oxirida Janubi-Sharkiy Yevropada tashkil topdi. Vengrlar yoki mojorlar, fin-ugor til guruxiga mansub xalk bulib, ular Sharkdan, Azov dengizi buyi – Don dashtlaridan Dunay daryosi buyiga kelganlar (ilgari ular undan xam narirokda, janubiy ural tog etaklarida yashaganlar). Una vaktda Vengrlar xali kuchmanchi chorvadorlar bulib, urug-kabilachilik xayotining xususiyatlarini juda ravshan saklab kolganlar. Vengrlar yetti kabilaga (yoki urdaga) bulinganlar, kabilalari esa uruglarga taksimlangan (jami bulib 108 urug mavjud bulgan). Vengrlarning xayot obrozi kuprok Osiyolik kuchmanchilarning xayotini eslatib turadi. Gusht bilan sut ularning asosiy ovkati bulgan. Erkaklar kupchilik uz urnini chavondozlikda utkazgan. Turli kabilalarning boshliklari orasida Almosh va Arpad ayniksa ajralib turganlar, ular raxbarligida vengrlar Urta Dunay teritoriyasini, ya'ni kadimiy Pannoniya bilan Tissa daryosi rayonini istilo kilganlar. Vengrlar turli kabilalardan tashkil topgan maxaliy axvolini sikib chikarganlar yoki uzlariga karam kilib olganlar, bu axoli esa germanlashgan keltlar, romanlashgan daklar, turli slavyan kabilalari va boshkalardan iborat bulgan.
Vengrlar X asr mobaynida garchi dexkonchilik kilishga kuchgan bulsalar-da, lekin chorvachilik bilan xam keng mikyosda shugullanganlar. Ularning xarbiy tuzumi xamon rivojlanib borgan. Vengr otliklari uzlarining xujumlari bilan Garbiy Yevropada barchaga daxshat solganlar. Vengrlar Shimoliy Italiyani, Provansni, Sharkiy Fransiyani, Janubiy va Garbiy Germaniyani payxon kilganlar va talaganlar. Saksoniya dinastiyasiga mansub nemis kirollari – Genrix I Kushvoz va Otton I gina vengrlarni yanchishga muyassar bulganlar ( bu janglar 933- 955 yillarda Merzuburg shaxri yonida va lex daryosi buyida bulgan). Shundan sung vengrlar Garbda xujumlar kilishni tuxtatib, utroklikka utganlar va ular orasiga xristianlik kira boshlagan. Vengrlar maxalliy slavyanlardan dexkonchilik texnikasini, uy xayvonlari urchitishni, dexkon kuralari kurishni va donli ekinlar ekishni urganib olib, zur berib dexkonchilik kiladigan bulganlar. Slavyanlarlarning uy xayotiga, dexkonchilikka, bogdorchilikka, polizchilikka, xunarmandchilikka, oilaviy xayotga va jamoat tartiblariga oid kupgina suzlari vengr tiliga kelib kirgan. XI-XII asrlarda vengrlar feodal munosabatlar rivojlangan, kisman bunga sabab vengrlar bilan asta-sekin kushilishib ketgan maxalliy

slavyanlar ijtimoiy tuzumining bevosita ta’siri bulsa, ikkinchi tomondan, Garbiy Yevropa feodalazimnning, xususan german feodallarining xam kisman ta’sir kursatilganligidir.
Vengraning Arpadlar urugidan chikkan bosh knyazi Ctefan I (vengrcha Ishtvan 997-1038) kariyb 1000-yilda papdan kirollik titulini oldi. Stefan davrida xristianlik uzil-kesil davlat dini deb e’lon kilindi. Mamlakat ma’muriy okruglarga (komitetlarga, ya’ni grafliklarga) bulinib, bu okruglar tepasida ishpanlar (slavyancha «jupan» suzining uzgargani) turardilar. Ishpan lashkar chakirar, kirollik foydasiga soliklar tular va sud ishlarini bajarardi. Butun Vengriya buylab kupdan-kup kasrlar kurildi; odatda eng yirik kasrlar ishpanining rezindensiyasi bulib xam xizmat kilardi. Bunday kasrlarning bir kismi tez orada shaxarlarga aylandi.
XII-XIII asrlarda Vengriya batamom feodal davlatga aylandi. Shunisi xarakterliki, fakat kuyi xalk ommasigina emas, balki eski patriarxal-urugchilik an’analaridan xali kutilib yetmay, ular bilan darxol alokasini uzmagan vengr aristokratiyasining bir kismi xam feodalizmga nisbatan uzok vaktgacha keskin oppozisiyada buldi. Feodalizmga karshi bulgan norozilik bir kancha kuzgolonlar va uzaro urushlarda yakkol ifodalandi, XI asr mobaynida vengriyada yangi, xristian diniga karshi eski, majusiylik dinini kuvvatlash uchun kurash bayrogi utgan edi. Fakat XI asr oxiriga kelib katolik cherkovi, Garbiy Yevropaga nisbatan chekka ulka xisoblangan va etnik sostavi jixatidan unga yot bulgan bu kirollikda nixoyat, uz mavkeini mustaxkamlab oldi.
Yevropa feodallarining siyosiy kumagi muxtoj bulgan vengr kirollari fakat nemis ruxoniylarigina emas, balki nemis risarlarini xam xizmatga tortib, ularning xar ikkalasiga katta-katta yerlar in’om kildi. XII-XIII asrlarda Dunay va Tissa daryolarining eng numdor tekisliklarida vengr zodagonlari, ya’ni vengr baronlari va yepiskoplarining kupdan-kup irik pomestyelari, shuningdek, mayda risarlarning juda kup mulklari vujudga keltirildi. Franklarda bir vaktlar graf mansabi bulganidek, vengrlarda ishpan mansabi xam feodallasha ordi. Bu mansab vorisdan – vorisga  utadigan buldi. Bu mansab bilan alokador yerlar feodal-magnatdlarning meros yerlariga aylandi. Vengrlarning kup sonli urushlari maxalida boshka yurtlardan xaydab olib kelingan deyarli kullardan tashkil topgan krepostnoy dexkonlar safi, endilikda, xonavayron bulgan erkin vengr jamoatchi  dexkonlar xisobidan tobora kuprok tuldirila bordi. Feodallar  uzlariga karashli unumdor yerlardan mumkin kadar kulayrok foydalanishga intilishlari munosabatlari bilan Vengriya krepostnoy xukuk ayniksa shavkatsizlik bilan ekspluatasiya kiladigan bir mamlakatga aylandi.
Yevropadagi juda kup salib yurishlarida katnashgan, Sharkka Vengriya orkali utgan salibchilar uz tomonlaridan Vengriyaning iktisodiy jixatdan jonlanishiga yordam kildilar. Vengriyada shaxarlar va xunarmandlik rivojlandi. Vengr bugdoyi, chorvasi, gushti va boshka kishlok xujalik maxsulotlari kuplab va foydali narxlarda sotiladigan buldi.. Bularning xammasi krepostnoy zulmini kuchaytirishga va krepostnoylarning sonini kupaytirishga olib keldi. Bu davr ichida Vengriya uz mulklarini ancha kengaytirdi. Vengriyaning uziga karashli asosiy mulklar yonida sharkda -–Transilvaniya va Zakarpatiya Rusi, janubda – Xorvatiya va Dalmasiya, sungra Bosniya xam kushib olindi. Vengriya Adriatika dengiziga chikish imkoniyatiga ega buldi. Vengriya kirollari Bolkon yarim oroli ishlariga aralashadigan bulib koldilar. Venesiya va Vizantiya bilan olib borilgan davomli urushlar Vengriyaning deyarli butun ana shu davrdagi tashki siyosatini xarakterlab beradi. XIII asrda Vengriya Sharkka kilingan salib yurishlarida (beshinchi salib yurishida) aktiv katnashdi.
Ayni zamonda vengr kirollari kushni Galich-Volin knyazligini egallashga xarakat kildilar (vengr yilnomalarida – Lodomeriya deyiladi, bu rus shaxari Vladimir Volinskiy degan nomdan kelib chikkan).

**Nazorat topshiriklari:**

1. Vengriya davlati kachon va kayerda tashkil topdi?

A. VIII asrning birinchi yarmi.
B. VIII asrning ikkinchi yarmi.
C. IX  asrning boshlarida.
D. IX asrning oxirlarida.
E. X asrning boshlarida.

2. Vengrlarning Arpadlar urugidan kelib chikkan bosh knyazi Ishtvan I kachon papadan kirollik titulini oldi?

A. 997 yili.
V. 999 yili.

S. 1003 yili.
D. 1000 yili.
Ye. 1005 yili.

3. Vengriya kiroli Stefan I davrida kaysi din davlat dini deb e'lon kilindi?

A. Buddaviylik.
V. Otashparastlik.
S. Nasroniylik.
D. Moniychilik.
Ye. Islom dini.

4. Saksoniya dinastiyasiga mansub nemis kirollaridan kaysilari vengrlarni yanchishga muyassar bulganligini aniklang va nechanchi yillarda.

**2-asosiy savol:**
1222 yilgi Oltin bulla xamda mugul-tatarlar boskini okibatlari

**Ukituvchining maksadi:**
Oltin bulla axamiyatini ochib berish, mugul-tatarlar xujumi va uning Vengriyadagi okibatlarini tavsiflash.

**Identiv ukuv maksadlari:**
2.1. Oltin bullaga imzo chekilish sababini biladi.
2.2. Oltin bulla xujjatining moxiyatini tushunadi.
2.3. Vokealarning xronologiyasini xotirasida saklab koladi.
2.3. Vengriyada mugul-tatarlar boskinini izoxlaydi.
2.4. Mugul-tatarlar boskini okibatlarini ochib beradi.

**2-asosiy savol bayeni:**
Vengr kirollarining xarbiy soxada erishgan yutuklarga karamay (shu bilan birga, bir kancha katta-katta muvaffakiyatsizliklar xam bulgan edi.), feodal tuzum mustaxkamlana borishi va yirik yer egaligi tantana kilishi bilan ularning mamlakat ichkarisidagi xokimyati juda zaiflashib klgan edi. Kirol Andrey II ning Sharkka kilgan muvaffakiyatsiz yurishlari (beshinchi salib yurishi paytida) va Galich Volin knyazligi bilan bulgan kurashda yengili risarlarning va yirik feodal baronlarining katta bir kismining korolga karshi kuzgolon kutarishiga olib keldi. Kuzgolon kutargan feodallarga taslim bulishiga majbur bulgan Andrey II (bu vaktda mamlakatning bir kancha joylarida dexkon xam bosh kutarib chikkan edilar) 1222 yilgi muxim bir siyosiy xujjatga imzo chekdi. Bu siyosiy xujjat – Oltin Bulla nomi bilan mashxur bulgan xujjat edi.
Angliyada Buyuk erkinliklar xartiyasi chikarilgandan keyin, oradan ozgina vakt utgach, paydo bulgan Oltin Bulla umuman feodallarning usha avvalgi tendensiyasini aks etirdi, ya'ni unda; feodallarning toifaviy xukuk va imtiyozlarini yuridik tomondan mustaxkamlash, kirol xokimyati ustidan doimiy nazoratni ta'minlagan, agar kirol bergan va'dalariga rioya kilmaguday bulsa, unga karshi feodal urushi boshlashgacha bulgan xukuk kursatilgan edi. 1215 yilgi ingliz boronlariga va 1454 yilgi polyak panlariga uxshash vengr magnatlari ba'zi bir bandlarda risarlarga ancha muncha yon bergan edilar. Risarlar maxaliy uzini – uzi idora kilish boshkarmasida («komintat jamoasi» da) ancha ta'sirga ega buldilar; risarlarning bevosita boshliklari bulmish ishpanlarning xukuklari cheklab kuyildi, risarlar soliklardan ozod kilindilar, ularning yerlari esa meros yerlar deb tan olinadigan buldi. Xar yilgi yigilish lozim bulgan Vengriya seymida risarlar xam katnashadigan buldilar, katnashganda xam cheklanmagan mikdorda vakillar yubora olardilar.
Birok zodogonlar mayda feodallarga bunchalik yon bersalarda, lekin ular kirollikning siyosiy ishlarida uzlarining asosiy raxbarlik ta'sirlarini aslo kuldan chikarib yubormadilar. Bu vaktda kelib komitetlarda xarbiy xizmat utovchi Vengriyaning kolgan-kutgan erkin dexkonlari xarakati Oltin Bullada bir kator uz ifodasini topgan edi. Bular axolining bu kotegoriyasiniga shaxsiy erkinlikni saklab kolishga va ishpanlar zulmidan ularni ximoya kilishga va'da bergan edi. Ammo mamlakat asosiy axvoli ommasining, ya'ni krepastnoy dexkonlarning axvoli masalasida bullada lom-mim deyimagan edi. Shu bilan bir vaktda Oltin bulla xuddi shu vaktda xali zaif rivojlangan va axolisining kuprogi ajnabiylardan – nemislardan, kisman

italyanlardan iborat axolisi bulgan shaxarlarga xech kanaka yon bermagan edi. Uning bu masaladagi tor dvoryanlik xarakteri polyaklarning Neshava statutlari mazmuniga bus-butun tugri keladi. Polshada bulgani singari, Vengriya seymi dexkonlar xam, shuninngdek, shaxarliklar xam katnashmaydigan feodallarning tor doiradagi toifaviy bir yigini bulib kolaveradi. 1240-1241 yillarda Vengriya katta ofatni boshidan kechirdi. Kiyovni istelo etgandan keyin Botu 1240 yil oxirida juda katta lashkar bilan Vengriyaga bosib kirdi. Sayo daryosi buyida (uning tissaga kuyiladigan joyida ) Botu vengrlarning ancha katta kushinini tor-mor kildi. Shundan keyin usha maxalda Vengriyaning eng yirik shaxarlari xisoblangan Pesht bilan Gran mugullar tomonidan talandi va shaxarga ut kuyib yuborildi. Kirol Bela IV saroy a'yonlari va kolgan kutgan kushini bilan Dalmasiyada yashirindi. Ammo Botu Vengriyada uzok vakt kololmadi. Ruslarning tatarlar xukmronligiga karshilik kursatishi uni kuchlarni bulib tashlamay, balki ularni rus yerlariga karshi fakat Sharkiy Yevropada bir joyga yigishga majbur etdi.
Mugul – tatarlar xujumi kiska vakt davom etgan bulishiga karamay; Vengriyaga katta ziyon zaxmat yetkazdi. Tatarlar ketgandan keyin mamlakatning katta kismi batamom chulu biyoboga aylandi. «Sayyox otda ikki xafta yul yursa xam, biror – bir kimirlagan jonni uchrata olmasdi», - deb yozgan edi usha zamondagi vokeanavislardan biri. Vengriyada mugul-tatarlar ijtimoiy okibatlari, bir tomondan, vengr dexkonlarining yana kuprok xonavayron bulishi va kullik asoratiga tushirilishi bulsa, ikkinchi tomondan, nemis kolonizasiyasining kuchayishi buldi (bu xol bungacha davom kilgan bulsada, lekin endilikda u yanada ildiz otadi). Kuprok Bovariyadan, kisman Saksoniyadan kuchib kelgan nemis muxojirlari Vengriyada bush yotgan katta-katta yerlarni egallaydilar. Nemis kolonistlarining kuplari Transilvaniya tog etaklariga kuchib kelib urnashib, u yerda turli xil rudalar (ayniksa kumush) kazib chikarish ishlariga ishlariga yordam berdilar. Biz Chexiyada va Polshada kurganimizdek, Vengriyadagi nemis kolonizasiyasi xam uzi bilan birga xuddi ushanday xatarli okibatlarga olib keldi. Vengriya yosh nemis yoki yarim nemis axolisi istikomat kilinadigan shaxarga ega buldi. Vengriya axolisi etnik jixatdan ancha kuroklashdi, xususan, Transilvaniyada tuplangan nemis kolonistlari konchilik, xunarmandchilik va savdo – sotik ishlarini uz kullariga kiritib oldilar. Bu xol Vengriyada uchinchi (shaxar) toifasining shakllanish jarayonini yana kuprok tuxtatib kuydi, vengr feodallarining siyosiy zuravonligini abadiylashtirdi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Kirol Andrey II feodallarga taslim bulishga majbur bulgandan keyin nechanchi yili muxim siyosiy xujjatga imzo chekishga majbur buldi?

A. 1217 yili
V. 1225 yili
S. 1222 yili.
D. 1230 yili.
Ye. 1220 yili.

2. Oltin bullaning e'tiborli bulishligi uchun unga kanday muxr bosilgan?

A. Kumush.
V. Mis.
S Oltin.
D. Temir.
Ye. Yogoch.

3. Transilvaniya tog etaklarida ayniksa kaysi rudalar kazib chikariladi?

A. Kurgoshin.
V. Mis.
S. Oltin.
D. Kumush.
Ye. Temir.

4. 1240-1241 Vengriyaning ijtimoiy xayotini yoritib bering?.
5. Mugul- tatar urushining asl moxiyati nimalardan iborat edi?

**3-asosiy savol:**
XIV - XV asrlarda Vengriya ijtimoiy-siyesiy axvoli.

**Ukituvchining maksadi:**
Sulolalar almashinuvini tushuntirish, Anjuy sulolasi davrida vengriya xayetini ta'riflash, xokimiyatni Yagellolar sulolasigi utishini ssabablarini tushuntirish, Kuruslar kuzgoloni axamiyatini ochib berish, Vengriya davlatining kulashi sabablarini kursatish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
3.1. Anjuy sulolasi siyesatini sharxlaydi.
3.2. Anjuylar sulolasidan bulgan korollarni biladi.
3.3. Xokimiyatning Yagellolarga utishi sababini biladi.
3.4. Kuruslar kuzgoloni moxiyatini ochib beradi.
3.5. Vengriya davlati kulashini izoxlaydi.

**3-asosiy savol bayeni:**
Vengriyada Arpadlarning maxaliy dinastiyasi 1301 yilga kelib Italiya – Vnjuy dinastiyasiga mansub Karl Robertning taxt vorisi Lyudovik Anjuyskiy (vengrcha Layosh) davrida (1342-1382) yangi dinastiya ayniksa kudratli bulib ketdi, Lyudovik bir kancha vakt Polsha taxtini (1370 yildan) xam egallab turdi. Anjuy dinastiyasi zamonida Vengriya xujalik soxasida bir kancha yutuklarga erishdi. Kimmatbaxo metallar – kumush va oltin kazib chikarish kupaydi, avvalgi shaxarlar usdi va kupgina shaxarlar bunyodga keltirildi, bu shaxarlarning bir kismi keyinchalik ancha katta sanoat va savdo markazlariga aylandi. Dunay daryosining xar ikkala kirgogida yirik shaxar – Pesht va Buda – uzining kattaligi va axolisining gavjumligi bilan usha maxalalardayok bu yerga kelgan sayyoxlarni xayratda koldirgan edi. transilvaniya shaxarlari (Semigradye) kon sanoatining muxim markazlari edi. mamlakatni Markaziy, Sharkiy va Janubiy Yevropa bilan boglaydigan keng tranzit savdosi Vengriya orkali utar edi. kimmatbaxo metallar kazib olish, shaxarlarning usishi va shu munosabat bilan davlat moliya ishlarining mustaxkamlanishi Anjuy dinastiyasi koroliga uz xokimyatlarini kuchaytirish imkoniyatini berdi. Kirollar seymlarni chikarmay kuydilar va uz amaldorlarining xokimyatini kuchaytirdi. Birok 1351 yili Lyudovik Oltin bullaning dvoryanlarining seymlarini chakirish xakidagi moddasini tasdiklashi lozim buldi. Vengriyadagi yerlarning egalari birgina dvoryanlarning uzlari bulishlari mumkin, degan dekret chakirdi. Dvoryanlarning yerlari davlat karamogiga olinmasin, deb e'lon kilindi. Dexkonlarga yer egalarining ruxsatisiz bir joydan ikkinchi joyga kuchib utish man etildi. Anjuy dinastiyasi davrida Vengriya kushni mamlakatlarga uz ta'sirini kuchaytirdi. Lyudovik zamonida Vengriya bilan dinastik uniyada bulgan Polshaga ta'sir kilishdan tashkari, Vengriya XIV asrda Serbiyaning bir kismini (Dunay buyini yoki Kuyi Serbiyaning) uziga karam kilib oldi. Shuningdek Moldaviya va Volaxiyani protektorat xukuklarida egalladi, (keyinchalik ya'ni XIX asrda, bu ikki knyazlikdan xozirgi Ruminiya tashkil topdi). Lyudovik Italiya mulklarini xam Vengriyaga kushib olishni xayol kilar edi. Italiya mulklarini usha Anjuy dinastiyasi vakillari idora kilar edilar. Shu maksadda u Italiyaga ikki marta yurish kildi, lekin xar ikkala yurish xam yaxshi chikmadi. «Ulug Vengriya»xakidagi xayol amalga oshmasdan koldi. Aksincha, Lyudovik vafot etgandan keyin uning mulklari tez tarkalib keta boshladi. Vengrlarning uzlari ozchilik bulgan turli kabila xalklaridan tashkil topgan, shaxar savdosi va sanoati ba'zi bir yutuklarga erishgan bulishiga karamay, umuman tipik dexkonchilik mamlakati xolatida kolib kelgan (sanoat umuman zaif rivojlangan edi), lekin xokimyatni feodallar monopoliya kilib olgan Vengriya uzok vaktgacha katta va siyosiy jixatdan kuchli davlat bulib kola olmadi. Uning yuksalishi muvakkat xarakterga ega edi. Xalkaro vaziyat yomonlashishi bilan (Polshaning Vengriyadan ajralib chikishi, turklarning Bolkon yarim orolidagi muvafakkiyatlari, butun Adriatika dengizi soxilini egallashga va jumladan, Delmasiya shaxarlarini bosib olishga xarakat kilgan Venesiya respublikasi bilan munosabatlarning keskinlashishi) Vengriya axvolini shu kadar xavf-xatarga solib kuydiki, u asl Vengr yerlarini ajnabiylar xujumidan mudofaa kilishi lozim edi. Vengriyaga turklar daxshati xavf-xatar solib turardilar, pirovardida vengrlar bu xavf-xatarni bartaraf kila olmadilar.Vengr feodallari turklar bilan tuknashish mukarrarligiga kuzlari yetib, ular 1382 yili Karl IV ning kenja ugli Sigizmundni Vengriya Koroli deb tan oldilar (Sigizmund Lyudovikning kizi Mariyaga uylangan edi.). Keyinchalik Germaniya imperatori kilib saylangan, shuningdek Chexiya toj-taxtiga kuz olaytirgan Sigizmund uz kulida juda kup moddiy resurslarni birlashtirdi. U turklarga zarba bera oladiganday bulib kurindi. Birok 1396 yili turklarga karshi yurish muvafakkiyatsiz bulib chikdi. Birlashgan nemis, vengr, chex va fransuz kushinlari Nikopol yonida tor mor etildi. Sigizmundning uzi arang kutildi, u Italiya orkali aylanma yullar bilan uyiga kaytdi.

XV asr mobaynida veng zadogonlari dinastiyani bir necha marta almashtirdilar. Toj-taxt gox nemis Gabsburglariga, gox polyak Yagollolariga utdi. Masalan: 1443 yilda vengr taxtiga polyak koroli Vladislav III taklif etildi, u birlashgan polyak-vengr kushini bilan 1444 yilda turklarga karshi yurish kildi. XV asrning ikkinchi yarmida Yanosh Xuniadaning ugli maxalliy feodal Matvey (Matyash) Korvin (1458-1490) korol kilib saylandi. Yanosh Xuniada esa turklar ustidan kilgan galabalari bilan shuxrat kozongan edi. Matvey korvin bir oz vakt kirol xokimyatining obru-etiborini kuchaytirdi. Urta va mayda risarlarga tayangan va shaxarlarni kullab kuvvatlagan (uning davrida shaxarlarning seym sostaviga kiritilgan edi) Matvey zodogonlarining bexuda xarakatlarini bir kadar cheklab kuygan edi. U nemis Gabsburglari bilan muvafakkiyatli urushlar olib bordi va janubiy chegaralarni turklardan puxta mudofaa kildi. Matvey Korvin davrida vengrlarda gusarlardan iborat yengil kurollangan muxsus otlik kushin tashkil etildi, gusarlar koroldan muntazam ravishda maosh olib turardilar. Gusarlar jangda chakkon xarakatlari va mardona xujum kilishlari bilan boshkalarda fark kilardilar. Ammo krol xokimyati vaktincha mustaxkamlangan edi. Yagellolar dinastiyasiga munsub bulgan bundan keyingi kirollar, ya’ni Vladislav va Lyudovik II zamonlarida zadogonlar xokimyatni yana uz kullariga kiritib oldilar va ular Vengriya davlati uchun tamomila xalokatli siyosat olib bordilar xamda bu siyosat tezda Vengriya mustakiligini yukotishga olib keldi. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida vengr dvoryanlari juda kup yer - suvga, kupdan kup kasr va shaxarlarga ega edilar. 46 ta komitatda 469 shaxsiy kasr, 16056 pomestyelar bor edi. Ba’zi magnatlarning xar biri yuzlab pomestyega xujayinlik kilar edi. Masalan; Papollar xonadoning 25 ta okrug komitada pomestyesi bor edi. bu xonadonga 12308 dexkov xovlisi karardi. Ikkinchi bir feodalning 28 ta kasri, 57 ta shaxri va 1000 ta pomestyesi bulardi (bularning bir kismi Zakarpatyeda edi). Krepastnoy dexkonlar goyat raximsizlik bilan ekspuluatasiya kilinardilar. Krepastnoy dexkonlar 3-4 kunlik barshchinadan tashkari, ikki desatinya – biri cherkov foydasiga, ikkinchi yer egasi feodal foydasiga tulashlari lozim edi. Bundan tashkari, dexkonlar davlat soliklari tulardilar. Veng dexkonlarining uz xujayinlariga goyat nafrat bilan karashlari bejiz emas, albatta. Dexkonlarning mamlakat chekkalariga kochib ketishi atmosferani bir oz yumshatdi. Ammo turklarning sikib kelishi dexkonlarni bu imkoniyatdan xam maxrum kildi. 1514 yilda Vengriyada dexkonlar urushi boshlanib ketdi, bu urush Vengriyada sosial ziddiyatlar nakadar keskinlashib ketganligini xamma tomonlama nomoyon kildi.

1514 yilning baxorida papa Lev X turklarga karshi navbatdagi salib yurishini e’lon kildi. Papa legati salibchilarni tuplashga kirishdi. Vengriyadagi magnatlar bu yurishga karshi buldilar, ammo boshda pana bullasiga karshi chika olmadilar. Chunki Rim kuriyasining fikricha, yurish umum xarakterga ega bulib, salibchilar lashkarlariga dexkonlarni xam jalb kila boshladilar. Bu yurishda katnashmok uchun 40 mingga yakin dexkon tuplandi (ba’zi bir tarixiy ma’lumotlarda – 60 mingga yakin edi, deyiladi.) Dexkonlarga sekler Georg (Dyerd) Doja boshchilik kildi. Salibchi dexkonlar ( kuruslar ) kurollangan bulib ular uz xarbiy tashkilotlariga ega edilar. Krepastnoy turklarga karshi yurishga junar ekanlar, ular uzlarining shaxsan ozod bulishlariga kattik umid boglangan edilar. Feodallar esa bunga norozi buldilar. Feodallar ichki kuli yetishmasligini paykaganlaridan keyin, ular tez orada korol Vladislavning krepastnoylarning yurishda katnashishi man etish va xarbiy otryadlarga kirgan krepastnoylarni pomestyelarga kaytarish xakida farmon chikarishga erishdilar. Bunga javoban kuruslar magnatlarning pomestyelarini yakson kila boshladilar. Shuningdek, Budda va Peshtdagi shaxar boyliklarining kuralari xam vayron kilib tashlandi. Kuzgolon 1514 yil 14 mayda boshlandi. Tez orada bu kuzgolon feodallarga karshi karshi muntazam dexkonlar urushlarga aylandi. Doja turli yoklarga aloxida komandirlar boshchiligida dexkonlarning beshta kolonasini yubordi. Dojaning uzi boshda Budapeshtga yakin Rakosha maydagini lager kurib joylashdi, keyin Vengriyaning janubidagi Segedin kal’asiga junab ketdi. Ammo Segedin kal’asi juda mustaxkamlangani sababli, u bu kal’ani ololmadi. Buning urniga Doja Chandu (Chan) shaxrini bosib olishga muvaffak buldi. Bu yerda Doja Vengriyani respublika deb e’lon kildi, dvoryanlar toifasi bekor kilinganligini va yalpi tenglik barpo etilganini e’lon kildi. Birok Doja boshka bir kal’ani, ya’ni feodallar armiyasining bosh kumondoni Stefan Batori turgan Temeshvarni kamal kilishga kirishgan paytida kuzgolonchilar yana muvaffakiyatsizlikka uchradilar. Kuzgolonchilar deyarli ikki oygacha kal’ani kamal kilib tursalar-da, lekin uni kulga ololmadilar. Dexkonlar armiyasining bu xarbiy – texnikaviy nuksonidan, tabiiy, feodallar uz manfaatlari yulida foydalanishga xarakat kildilar. Temeshvarga yordamga yetib kelgan Yanosh Zapoli nomli ikkinchi bir voyevoda 15 iyulda dexkonlarga xujum kilib,ularni tor – mor etdi va tarkatib yubordi. Doja asir kilib, olinib, kattik azoblab uldirildi: u kizitilgan taxtda tiriklayin jizganak kilindi. Kapalagi uchgan feodallar xalk raxbaridan ana shu tarika uch oldiloar.

Shundan keyin konli terror butun mamalakatni kamrab oldi. Minglab dexkonlar raximsizlik bilan jazolandilar va uldirildilar. Zamondoshlar, kuzgolon maxalida xalok bulgan dexkonlar soni 60 ming kishiga yetdi, deydilar.
1514 yilning oktyabrida tuplangan dvoryanlarning «yovvoyi» seymi dexkonlar masalasida eng reaksion karorlar kabul kildi: seym cheklanmagan barshchina joriy kildi, dexkonlarni tamomila pomeshchiklar sudi ixtiyoriga topshirdi, dvoryanlar mamlakaktda birdan-bir «siyosiy», ya'ni xukmronlik kiluvchi toifa, deb e'lon kilindi. Dexkonlar ulim jazosi bilan kurkitilib, ularga kurol-yarog takish man etildi.
1514 yilgi vokealardan keyin oshkora e'lon kilingan feodallar diktturasi Vengriya davlatining xalokatini tezlashtirdi. Vengr feodallari endilikda turklar bilan yangi urush kilish uchun uz dexkonlarini kurollantirishdan kurkib koldilar. Tugri, ezilgan dexkonlarda uz mamlakatlarini tashki dushmandan ximoya kilish uchun kuch xam, xoxish xam yuk edi. Ammo turklarning tajovuzkorligi davom etaverdi. XVI asrning 20 yillarida Turklar uz kushinlari uchun Turklar Vengriyaga asosiy xujumni boshlab, vengr risarlarini Moxach shaxari yonida tor-mor kilib tashladilar. Shundan keyin vengriya davlati mustakilligini uzok vaktgacha yukotdi. Kirolliklarning uchinchi, nisbatan kichik kismi, ya'ni garbiy Vengriya turklar tomnidan istilo kilinmasdan koldi.. ammo Vengriya kirolligining bu kolgan bir parcha joyi shu kadar kichik ediki, vengr feodallari tez orada Avstriya Gabsburglariga itoat etishga majbur buldilar. Feodallarning uz xalkini bu kadar ayovsiz jazolashi okibatida Vengriya uz mustakilligini yukotdi.

**1-2 - mavzu: Uygonish (renessans) davrini urganishning muxim urni.**
( 4 soat ma'ruza ).

**Asosiy savollar:**
1. Garbiy va Markaziy Yevropadagi mamlakatlar tarixida renessansning yuzaga kelish muammolari.
2. Uygonish davrining boshlanishiga asosan turtki bulgan shart- sharoitlar. Ilk italyan Uygonishi.
3. Uygonish davrida inson shaxsining urni va ilk uygonish davri san'ati.
4. Sharkda Uygonish davrining uziga xosligi, Yevropada gumanizmning yoyilishi.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Uygonish (renessans), insonparvarlik, neoplatonizm, san'at, madaniyat, dunyokarash, arxitektura, badiiy fikrlar va x.k. tushunchasi.

**Maksad:** XIV – XV asrda Yevropadagi ijtimoiy – siyosiy vaziyatning xarakterini aniklash, yangi fan va madaniyat rivojlanish xarakterini kursatib berish.

**Identiv ukuv maksadlar:**
1.1. Shark madaniyatining uziga xosligini talaba uzlashtiradi.
1.2. Yevropada Uygonish davrining yuzaga kelishida Shark madaniyatining ta'sirini anglaydi.
1.3. Shark va Garb fan rivojlanishini talaba kiyosiy urganadi.
1.4. Uygonish (renessans) tarixiy jarayon ekanligini anglab yetadi.

**1 – asosiy savolning bayoni:**

XIV – XV asrlarda Italiyada shaxarlarning yuksalishi, sanoatning tarakkiy etishi va dastlabki manufakturalarning paydo bulishi Italiyaning Yevropa va Shark mamlakatlari bilan umumiy alokalarining natijasi edi. Italiya shaxarlarida bank, kredit xalkaro kredit operasiyalarining bulishi boshka davlatlarga nisbatan Italiyada ilk kapitalistik munosabatlarining yuzaga kelishiga zamin tayyorlaydi.

Italiyada oldinrok ilk burjuaziya madaniyati yuzaga keldi. Bu madaniyatning nomi Uygonish (renessans) davri madaniyati deb nomlanadi. Ilk burjuaziya Italiyasi uchun uz sanoati, savdo-sotigi uchun Italiya shaxarlariga uz faoliyatlarini yuksaltirishlari uchun anik fanlar, jumladan matematikaning zarurligi kurinib koldi. Italiya burjuaziyasi uz turmush darajasini yaxshilash, chiroyli va xashamatli uylarda xamda did bilan yashash uchun san'ati xam uzlariga kabul kilishlari zaruriyati tugildi. Shuning uchun Italiya burjuaziyasi ichidan dastlabki adabiyotchilar, filosoflar, tarixchilar, shoirlar, musikachilar, arxitekturalar, rassomlar va boshkalar vujudga kela boshladi.

Bularning xammasi Italiyada yangi goyalarning vujudga kelishiga asosiy omil bulib xizmat kildi. Tarkib topayotgan goyatda boy italyan burjuaziya sinfi bilan bir katorda Italiya shaxarlarida akliy mexnat vakillarining xamda adabiyot va san'at bilan shugullangan kishilarning kupdan-kup guruxi: kupdan-kup adabiyotchilar, shoirlar, publisistlar, vrachlar, ukituvchilar, injenerlar, erkin kasb ustalari, rassomlar, xaykaltaroshlar, arxitekturlar va boshkalar usib bormokda edi. Yangidan tugilib kelayotgan ijtimoiy tabakaning – intelegensiyaning bu barcha vakillari Uygonish madaniyati yoki gumanizm deb nom olgan yangi madaniyatning bevosita arboblariga aylandilar.

Italiya xalk ommasi yangi progressiv, ilgor madaniyatning ravnakiga juda katta ta'sir kursatdi. Xalk ommasining kundalik kattik mexnati, xali uz axamiyatini yukotmagan yuksak darajadagi xunarmandlik, xalk ommasining xokim (plutokratiya) boylarga karshi juda kattik ba'zan jon-jaxdi bilan olib borgankurashi, umumiy xayotiy optimizm va birdamlik Uygonish madaniyatining eng yaxshi vakillarini ruxlantirib yubordi, gumanistlar ijodiga shunday chukur xalk-demokratik xususiyatlarni kiritdiki, bu xususiyatlar pirovardida ularning asarlarini juda xam jozibador kilib yubordi.

***U y g o n i sh*** termini (fransuzcha «Renessans») yangi madaniyatning antik madaniyat bilan alokadorligini kursatadi. Shark bilan, xususan Vizantiya bilan tanishish, salib yurishlari davrida Levant bilan muntazam alokadorligini kursatadi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Italiyada shaxarlarning yuksalishi kaysi davrga tugri keladi?

A. XIV-XV asrlar.
V. XV-XVI asrlar.
S. XIII-XIV asrlar.
D. XV-XVII asrlar.

2. «Plutokratiya» suzining ma'nosini nima?

A. Kambagal-dexkonlar ustidan ekspluatasiya kilish.
V. Feodallar urtasidagi ichki nizi.
S. Xalkning xokim boylarga karshi kurashi.
D. Feodallarning xokimga karshi chikishi.

3. XV asrda Yevropadagi ijtimoiy siyosiy vaziyat kanday edi?
4. Yevropada Uygonish davrining yuzaga kelishida Shark madaniyatining rolini kursating?
5. Uygonish (renessans) kanday jarayon?

**2-asosiy savol.**

Uygonish davrining boshlanishiga asosan turtki bulgan shart-sharoitlar. Ilk italyan uygonishi.

**MAKSAD:** Urta asr madaniyatini yuzaga kelish sabablarini aniklash, Uygonish madaniyatining yuzaga kelishidagi tarixiy sharoitga baxo berish va Iktisodiy imkoniyat egalarining utmish madaniyatini jonlantirish maksadida kilgan ishlarini ochib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

1.1. Uygonish davrining moxiyatini tushuntirib beradi.
1.2. Uygonish davrining yuzaga kelish sabablarini biladi.
1.3. Uygonish madaniyatining yuzaga kelishidagi tarixiy sharoitga baxo beradi.
1.4.Italiyada Uygonish davrining shakllanish omillarini ochib beradi.

**2-asosiy savol bayoni:**

Shark bilan, xususan Vizantiya bilan tanishish, salib yurishlari davrida va undan keyingi davrda Levant bilan muntazam aloka kilish natijasida italyanlar kadimgi grek kul yezmalari, antik tasviriy san'ati va arxitekturasining turli xil yodgorliklari bilan tanishadilar. Bu barcha kadimiy yodgorliklarni ksman Italiyaga olib kela boshladilar, bu yerda ular kolleksiya kilindi va urganildi. Ammo Italiyaning uzida xam ancha-muncha antik Rim yodgorliklari bulib, Italiya shaxar intelligensiyasining vakillari ularni xam sinchkovlik bilan urgana boshladilar. Italiya jamiyatida kadimiy klassik tillarga, kadimiy fa lsafa, tarix va adabiyotga chukur kizikish paydo bldi. Florensiya shaxri bu xarakatda ayniksa katta rol uynadi. Florensiya shaxridan yangi madaniyatning bir kancha atokli arboblari yetishib chikdi.

Kachonlardir iktisodiy jixatdan eng gavjum va uzining siyosiy tuzumi jixatidan eng demokratik bulgan kadimiy shaxarlarda vujudga kelgan antik ideologiyadan foydalanib, tugilib kelayotgan yangi burjuaziya kadimiy madaniyatni oddiy passivlik bilan uzlashtirmay, balki uni uzicha kaytadan ishlab chikdi. Yangi ital'yan madaniyatining ikkinchi nomi, ya'ni ***g u m a n i z m*** xam xuddi shundan dalolat beradi. Urta asr ideologiyasi dikkat markaziga iloxiyni, oxiratni kuygan bulsa, gumanizm madaniyati insonning uzini uz dunekarashining dikkat markaziga kuydi. Gumanistik dunekarashda asketizmga ega endi urin kolmadi. Inson tanasi, uning zavk-shavki va extiyoji gumanistlar tomonidan bostirish yoki azoblash kerak bulgan kandaydir gunox bir narsa deb emas, balki xayotdagi eng asosiy muddaodir, deb tan olindi. Tabiat bilan insonni e'tirof etish fanning moxiyatidir, deb e'lon kilindi. Urta asr sxolastlari va mistiklarining dunekarashida xukm surgan pessimistik oxanglarga zid ularok, Uygonish davri kishilarning dunekarashi va kayfiyatida optimistik oxanglar ustunlik kilardi, bu kishilar uchun insonga, insoniyatning yorug kelajagi, nson akl-zakovati va ma'rifatning kelgusida tantana kilishga ishonish xarakterli bir xol edi. Bu yangi buyuk akliy xarakatda atokli shoirlar va yozuvchilar, olimlar va xar xil san'at arboblari guruxi katnashdi. Urta asr bilan yangi zamon zamon chegarasida turgan eng yirik siymo («Urta asrning sungi shoiri va shu bilan birga yangi zamonning birinchi shoiri») Florensiyalik Dantiye Aligeri 1265-1321 yil)

edi. Dante zamonidagi boshka xech kanday asar uning iloxiy kamediyasidagidek urta asrlarning butun ideologiyasini aks ettirmagan edi.

XIV-XV asrlardagi boshka tarixchi-gumanistlardan flaviya Bionodo (1388-1463) eng kup nom kozongan bulib, u «Rim imperiyasining kulashidan boshlanadigan tarix» (410-1410 davr) nomli ummulashtiruvchi xarakterda katta asar yozdi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Gumanizm atamasini izoxlab bering.?

A.. Urta asr idealogiyasi.
V. Yangi Italyan madaniyatining ikkinchi nomi.
S. Gumanistik dunyokarash.
D. Urta asr mistiklarining dunyokarashi.

2. Yearopada gumanizmning yoyilish davrini aniklang?

A. XV asrning ikkinchi yarmi.
V. XVI asrning boshlari.
S. XIII asrda.
D. XIV asrning boshlarida.

**3 – asosiy savol:**
Uygonish davrida inson shaxsining urni.

**Maksad:** Uygonish davrining xarakterli tomonlarini tushuntirib berish, uning moxiyati nimalardan iborat ekanligini aytish va uygonish davrida inson shaxsining urniga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
3.1. Uygonish davrining moxiyatini tushuntirib beradi.
3.2. Renessans - Garbiy va Markaziy Yevropadagi rivojlangan urta asrlar davlatlari madaniyatini oliy boskichga kutarilish davri ekanligini tushunadi.
3.3. Uygonish davrining boskichlari va insonparavarlik goyalarini aytib beradi.
3.4. Uygonish davrida inson shaxsining urniga baxo beradi.

**3 - asosiy savolning bayoni:**
Davrning iktisodiy-siyosiy xayoti inson shaxsiyatining oldingi uringa kuyadi. Endilikda inson cherkov feodal tabakachilik munosabatlari torlik kila boshlaydi. Endilikda dunyoviy fikrlovchi yangi dunyokarash nomoyondalari turli kasbdagi va turli ijtimoiy mavkeyga ega bulgan kishilar – shoirlar, filologlar, rassomlar uzlariningtadkikot obyektlari deb insonni xisoblaydilar Uz-uzidan savol kelib chikadi. Gumanistlar kimlar?

Gumanistlar yangi dunyoga kuz tashlashda utmish antik dunyodan andoza olgan xolda yangi ma’rifiy goyaning kelishida asosida rol uynaydi.lar. IX-XII asrlarda yuzaga kelgan shark ilmiy falsafasi va shark madaniyati mutafakkirlari Roziy, Farobiy, ibn sino, Ibn Rushid asarlari Yevropadagi Yangi davr mutafakkirlarini yuzaga kelishida asos buldi.

Uygonish davri madaniyati tarkalishi XIII-XIV asrlardayok Italiyadan boshlandi. Bunga sabab Italiyada kadimdan antik davr madaniyati va san’ati kuchli rivojlanganligidir. Bunga Shark ilmiy-ma’rifiy ta’sirini garbiy ulkalariga borishidir. Garbiy va Markaziy Yevropada Uygonish davri kuyidagi boskichlar bilan ifodalanadi:

1. XIII-XIV asrlar ilk davr-tasviriy san’yaan va arxitekturaning rivojlanishi.
2. XV asr yuksak uygonish – adabiyotni rivoji.
3. XVI asr sungi uygonish davri-sinfiy kurashlarning keskinlashuvi bilan xaraaterlanadi.

XV asrning ikkinchi yarmiga kelganda Yevropaning barcha mamlakatlarida gumanizm keng tarkaldi. Kadimgi avtorlar, ya’ni Siseron, Seneka, Tasit va boshkalarning uslubida "kaytadan tiklangan" internasional latin tilidan foydalangan gumanist yozuvchilar, rassomlar va olimlar Yevrolpada uziga xos birodarlik tashkil etdilar, bu birodarlik turli mamlakatlarning olimlari urtasida kizgin yozishmalar olib

bordi. Feodal - krepostnoylik munosabatlarining keskinlashishi gumanizmning anti-feodal yulga tushib kolishiga sabab bulgan. Italiyaning uzida, XV asrda, Florensiyadan tashkari yana Rimda, Neopolda, Milanda va Venesiyada Uygonishning boshka markazlari bor edi. Uygonish san’ati, shuningdek, gumanistik falsafa, adabiyot siyosiy fikr bundan keyingi, XVI asrda, sungi Italiya yoki Yuksak Renessans davri deb atalgan davri zur rivoj topdi.

XVI asrda gumanizm uzil-kesil umumevropa madaniy xarakatiga aylanib, urta asr sxolastikasiga juda kattik zarba yetkazdi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Italyan gumanist tarixchilaridan kimlarni bilasiz?
**2.** Uygonish davri madaniyati avvalo kayerdan va kachon boshlandi?.

A. Rimda XV-XVI asrlarda.
V. Italiyada XIII-XIV asrlarda.
S. Garbiy Yevropada XIV-XV asrlarda.
D. Markaziy Yevropada XV-XVI asrlarda.
Ye. Italiyada X V-XVI asrlarda
.

3. Uygonish davrining xarakterini kursating?

A. Feodal ishlab chikarish asta-sekin yukolib, burjua ishlab chikarishni vujudga kela borishi bilan xarakterlanadi.

V. Shaxar ichki bozirlarining kengayishi va yangi maxsulot, savdoning avj olishi bilan xarakterlanadi.

S. Ispaniya, Angliya va Fransiya kabi mamalkatlarning yirk mustakil knyazlarini.

D. Shaxarlarning paydo bulishi bilan xarakterlanadi.

4. Uygonish davrining shakllanish omillarini aytib bering?

**4-asosiy savl:**

Sharkda uygonish davrining uziga xos muommolari.

**MAKSAD:** Jaxon xalklarpi tarixida Sharknng uygonish davriga baxo berish , Kitob bosishning ixtiro kilinishi xakida aytib berish va Shark va Garb urtasidagi uygonish davrini takkoslash.

**Identav ukuv maksadlar:**:

4.1. Sharkdagi asosan uygonish davriini chegaralab beradi.
4.2. Garbiy va Markaziy Yevropada uygonish davri kaysi boskichlar bilan ifodalnishini aytib beradi.
4.3. Birinchi kitob bosilish tarixini biladi.
4.4. Uygonish davrini madaniyatini rivojlanishi kaysi utmish davrini takrorlashini tushunadi.

**4 – asosiy savol bayoni:**

Ilm fan va madaniyatni rivojlanishi Urta asrlarda Garbiy va Markaziy Yevropaga xos bulibgina kolmasdan Jaxon xalklari tarixida Shark xalklari tarixiga xam boglikdir.

Akademik N.I. Kondrat VIII-XII asrlarda Uygonish Xitoyda boshlangan deyishi bilan A. Xayitmetov, M.M. Xayrullayev va boshkalar Urta Osiyoda IX-XII asrlarda uygonish davri boshlandi deb kursatilardi.

Shark uygonish davri bilan Garb uygonish urtasidagi fark va uxshashlik. Urtasidagi uxshashlik va fark asosan ijtimoiy - iktisodiy tuzum uzgarishi mazmunida yechiladi. Yevropada feodalizm munosabatlaridan kapitalizm yoki yangi ishlab chikarish boskichiga kadam kuyish bilan boglansa Sharkda esa xalifalikning savdo maydonlarining kengayishi va shaxarlar tarmogining usishiga bulgan extiyoji bilan boglanadi.

Shark uygonish davri mutafakkirlari. Sharkda IX - XII asrlarda fan rivojlanishi uchun imkoniyat yuzaga keldi. Fan va ma’rifiy ta’limotchilar katorida "Kur’on" mazmunini xalkka yetkazib beruvchi ma’rifat egalari xadisiy ta’limotchilar yuzaga keldi. Diniy dunyokarash va dunyoviy dunyokarashlar negizida uziga xos renessans yuz berdiki natijada xalkaro tarixda Arab falsafasi degan ibora yuzaga keldi.

Yirik allomalar katorida Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Muso Al Xorazmiy adabiyotda Rudakiy, Firdavsiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy xadis ilmi vakillaridan At - Termiziy, Axmad Yassaviy, Imom Buxoriy va boshkalar. Rassomlikda Bexzod kabilar Shark va Urta Osiyoda Ilmiy va Insonparvarlik goyalari ximoyachisi buldi.

Mavzuni uzlashtirishda identiv maksad va reproduktiv bilishni aniklash uchun berilgan.

Kitob bosishning ixtiro kilinishi yangi, burjua madaniyatining rivojlanishi uchun katta axamiyatga ega buldi. XV asr boshlaridayok Garbiy Yevropada diniy ommaviy adabiyotni (ibodat va duolar tuplami xamda boshkalarni) tarkatish uchun aloxida ksilografik usuldan foydalnildi. Taxtaga rasm va yozuvlarni uyib yozib, keyin ularni kogozga bosardilar (XIV asrdan e'tiboran Yevropada yozuv kogozi kullaniladigan buldi). Ish keskinlik bilan bordi, taxtadan uyoib yozilgan dung xarflar, kitob teksti kogozga bosib bulingandan keyin keraksiz bulib kolardi. Maynsda tugilib, keyin Strasburgga kuchib kelgan Iogann Gutenberg (1400-1468) ning kitob bosish ishini ixtiro kilishda kursatgan xizmati shundaki, u, xarakatlanadigan xarflar ixtiro kilib, ular boshda yogochdan yasaldi, keyin esa bu xarflar metall xarflar bilan almashtirildi. Bundan tashkari, Getenberg kogozning ikkala tomoniga teks bosish imkoniyatini beradigan aloxida press-dastgox ixtiro etdi. Bu ixtiro, taxminan, 1445 yilda kilingan bulib, dastlabki paytda u kattik sir tutildi. Ammo, oradan 15 yil utgach, bu ixtiro oshkoro bulib. U germaniyadan boshka mamlakatlarga yoyildi.

1490 yilda uz bosmaxonasini kurgan venesiyalik nashriyotchi gumanist A l d M a n u s i y (1448-1515) falsafa, matematika va astronomiyaga doir 120 asar nashr etdi, bu asarlar asosan latin tilida, kisman fransuz tilida bosib chikarildi.

Kitob bosishning ixtiro kilinishi juda katta axamiyat kasb etdi. Kitob bosish kitob tayyorlashni kup marta tezlashtirdi va ayni zamonda ularning narxini arzonlashtirdi. Shuning uzi bilan, yangi zamondagi burjua maorifini ravnak toptirish uchun na kadimgi dunyoda, na urta asr davrida sira kurilmagan juda kulay texnika shart-sharoitlari vujudga keltirdi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Jaxon xalklari tarixida XIV - XVI asrlar Renessans deb yuritilishning asosiy sababi nima?

A. Knyaz xokimiyatining kuchayishi.
B. Ommaning kashshoklashuvi.
V. Xristiyanlikning kuchayishi.
G. Ichki siyosiy vaziyat va tabakachilik.
D. Xunarmandchilikning rivojlanishi. Shaxar savdo tarmogini kengayishi.

2. Uygonish davrini madaniyati rivojlanishi kaysi utmish davrini takrorladi.

A. Antik madaniyatni.
V. Vizantiya san'atini.
S. Rim madaniyati.
D. Yangi gumanistik madaniyat.
Ye. Xech birini.

3. Sharkda Uygonish davri asosan kaysi asrlarni uz ichiga oladi?

A. Xalifalik davri. VII-IX asrlar
V. IX-XII asrlar.
S. Temuriylar davri. XV
D. IX-XV asrlar.
Ye. IX-XII, XIV-XV asrlar.

Talabalar bilimini aniklashda produktiv analiz uchun savollar?

Uygonish davrining Buyuk matematigi, rassom va buyuk injener xisoblangan fan arbobi.

A. A.Dyuder.
V. Vasko da Gama.
S.N. Kopernik.
D. A. Vezaliy.
Ye. Leanardo da Vinchi

Mustakil ish topshiriklari:

1. Urta asr madaniyatini Yuzaga kelish sabablarini aniklash.
2. Urta asrlar davridagi san’at va arxitektura rivojlanishi moxiyatini aniklash.
3. Uygonish madaniyatining yuzaga kelishda tarixiy sharoitini belgilash.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Kultura epoxa Vozrojdeniya M., - "Nauka" 1986.
2. Urta asrlar tarixi V.N. Semyonov, M., - 1971.
3. Kultura epoxa Vozrojdeniya i Reforfasii L., - "Nauka"1981.

**3-mavzu: XVI-XVII asrlarda Turkiya.**
Ma'ruza: 2 soat.

**Asosiy savollar:**
1. Usmoniylar imperiyasining usishi va Turkiyadagi ichki siyosat.
2. XVI-XVII asrlarda Bolkon xalklarining turklar zulmiga karshi ozodlik xarakati.
3. Turkiya imperiyasining tushkunlikka yuz tutishi.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Azov, Kichik Osiyo, xiroj, Porta, "katta urush", "Konunnomai Sulaymoniy", yanicharalar, zoimlar, beylar, timariotlar, sipoxiylar, gayduk, kift, uskoklar, "xarbiy boskinchilar", "buyuk davlatlar", serblar, ruminlar.

**Asosiy savol:**
1. Usmoniylar imperiyasining usishi va Turkiyadagi ichki siyosat.

**Ukituvchining maksadlari:** XV asr va XVI asrlarda Usmoniylar imperiyasining usishi sababalarini aytib berish, Sulaymon 1 ning Turkiyada tutgan urnini aniklash va usha paytdagi ichki siyosatga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**
1.1. XV asr va XVI asrlarda Turkiyaning ijtimoiy xayoti bilan tanish buladi.
1.2. Usmoniylar imperiyasining usish sababalarini tushuntiradi.
1.3. Sulaymon 1ning ichki siyosatining taxlil kilib beradi.

**1-asosiy savolning bayoni:**
Turkiya imperiyasi 1453 yilda Konstantinopol shaxrini bosib olgandan keyin boshladi. Muxammad II 50 va 60-yillarda Bolkon yarim orolida Dunay buyidagi Serbiyani, Bosniyani, Gersegovinani va Albaniyani istilo kildi. Bolkon yarim oroli bilan kushni bulgan Valaxiya vassal karam kilib kuyildi. 70-yillarning urtalarida turklar Krimni va tanu (azov) shaxrini bosib oldilar. Taxminan shu vaktlarda turklar Kichik Osiyoda Trapezund shaxrini, deyarli butun Anatoliyani to Frot daryosigacha istilo kildi. Ammo Muxammad II ikki marta katta muvaffakiyatsizilikka xam uchradi: u Belgradni ishgol kila olmadi, turklar uni 1456 yilda kamal kilgan bulsalar-da, maksadlariga erisha olmadilar; shuningdek, Rodos orolini xam ololmadilar (1480 yilgi muvaffakiyatsiz buldi).

Muxammad II ning nabirasi Salim 1 zamonida (1512-1520) turklarning istilolari yana boshlandi. Salim Eronga karshi kilgan golibona urushida Zakavkazye mamlakatlaridan Ozarbayjonni, Armanistonning va Gruziyaning bir kismini, Dogiston va Kurdistonni istilo kildi. Sungra Salim Suriya bilan Misrni (1517yil) bosib olib, butun islom dunyosining boshligi sifatida uziga xalifa unvonini oldi. Krit, Kipr va Urta dengizdagi boshka yerlarini uz kulida saklab kolish uchun Venesiya Turkiya sultoniga xar yili katta xiroj tulab turishga majbur edi.

Sulaymon davrida Turkiya Yevropa siyosatida juda katta rol uynadi. Fransuz kiroli Fransisk 1 Gabsburglarga karshi Sulaymon bilan rasmiy suratda ittifok tuzdi. 1529 yilda Sulaymonning Avstriyaga kilgan yurishi Gabsburglarning Valuaga karshi olib borgan «katta urush»ning bir xalkasi edi. Sulaymon chet el savdogarlariga imtiyozli savdo yorliklari bera boshlagan birinchi sulton edi. Sulaymon uzining konunlar tuplamini («Konunnomai Sulaymoniy»sini) koldirib ketdi. Bu konunnomaga 1566 yil sanasi kuyilgan. XVI asrda Turkiyaning ichki tuzilishi kanday bulgani xakida shu tuplamga karab xam fikr yuritish mumkin. Turk sultonlari istilo kilgan kupdan-kup terrirtoryadlarning ma'muriy tuzilishi Sulaymon vaktida bir xil formaga solindi. Butun imperiya 21 viloyatga bulinib, ular uz navbatida 250 sanjak (rayon)ga taksim kilindi.

Yangi tashkil topilgan xarbiy feodal-imperiya ishlarga katta e'tibor berdi. Sulaymon turk kushinlarining ya n i ch a r l a r deb atalgan imtiyozli kismini tartibga solgan maxsus reglament tuzdi. Sulaymon dexkonlarning feodal majburiyatlarini uzi chikargan konunlarda belgilab berishga urindi. Turk dexkonlari davlatga solik tulash bilan birga uz pomeshchiklariga xam yer va suv xaki, imorat, chorva,

tegirmon xaki va boshka shu singari soliklar tulashlari lozim edi. Feodal uz yeridan kochib ketgan dexkonni ma'lum muddat ichida kidirishga xakli edi. Mexnatkash axolidan juda kup xar xil soliklarni talab kilgan feodallashish jarayoni va Turkiyani markazlashtirishning kuayishi munosabati bilan XVI asrda turk dexkonlarining axvoli ancha yomonlashdi.

Turk dexkonlarining axvoli kanchalik ogir bulsa, diniy e'tikod jixatidan xristianlarga mansub bulib, istilo kilingan maxalliy axolining axvoli undan ogir edi. Serblar, greklar, bolgarlar, valaxlar (ruminlar) va boshka riyolar (musulmon bulmaganlarning xammasi turk davlat tilida shunday deb atalardi) musulmonlarga karaganda davlatga ikki baravar kuprok solik tulashga majbur edilar.

Ular mol-mulkining daxlsizligi butunlay ta'min etilmagan edi, uzlari xam doim turk ma'murlari va xarbiylarining uzboshimchaligidan va taxkirlashidan azob chekar edilar. Diniy ras-odatlarning ijro kilinishiga ijozat berilar ekan, buning uchun xristian axolisidan yana kushimcha ravishda ogir soliklar olinardi. Riyolilar ozgina norozilik bildirganlari takdirda, ular ustiga jazo ekspedisiyalari tinch axolini talar, uldirar edi.

Bolkon yarim orolidagi xalklar turklar istilosi natijasida kandaydir sun'iy bir tusik bilan butun Yevropadan ajratilganidan turklar zulmi sharoitida juda sekin rivojlanib bordilar.Savdo-sotik ishlari tor doirada olib borildi va fakat maxalliy xarakterdagina edi. Sanoat juda sekin rivojlandi. Bolkon yarim oroli xalklari (juda kupchiligi slavyan xalklari) boshiga goyat zur ofat bulib tushgan turklar istilosi shu buldiki, kishlok xujaligi texnikasi pastligicha kolaverdi, bir kator viloyatlarda natural xujalik xukmron bulib keldi, krepostnoylik munosabatlari saklanib koldi, madaniyat turgunlikka uchradi.

**Nazorat topshiriklar:**

1. XV – XVI asrda Turklar Albaniyani necha marta istilo kildi?

A) Bir marta.
V) Ikki marta.
S) Uch marta.
D) Turt marta.
Ye) Besh marta.

2. Sulaymon I "Konunnomai Sulaymoniy" konunlar tuplamini kachon yozib tugatdi?

A) 1556 yil.
V) 1557 yil.
S) 1565 yil.
D) 1566 yil.
Ye) 1559 yil.

3. "Ramya" suzining ma'nosini ayting?

A) Armiya.
V) Shaxar.
S) Xalk.
D) Imperiya.
Ye) Madrasa.

4. XVI asr urtalvarida Osiyo, Afrika va Yevropaning Usmoniylar saltanati tarkibiga kirgan xududlarni xaritadan toping.
5. XVI asrning ikkinchi yarmida Usmoniylar saltanatining tushkunlikka tusha boshlashiga nimalar sabab buldi.

**Asosiy savol:**

2. XVI – XVII asrlarda Bolkon xalklarining Turklar zulmiga karshi ozodlik xarakati.

**O'kituvchining maksadi:** XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmida Bolkon xalkining Turklar zulmiga karshi xarakat sabablarini tushuntirib beradi. 1598 yilgi Tirnovo kuzgoloning sabab va okibatlarini ochib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

2.1. XVI – XVII asrda Bolkon xalklarining ichki siyosatini biladi.

2.2. XVII asrning boshlarida Turk kushinlariga talofat yetkazgan Serb va chernogoriyaliklarning kuzgolonining asl moxiyatini tushuntiradi.

2.3. Turklarga karshi kurashda slavyan davlatining roli.

**2 – asosiy savolning bayoni:**

Turklar zamonidan buysundirilgan Bolkon xalklari zulmiga indamasdan buysunavermadilar. XV asr-XVI asrning boshlarida Bolkon yarim orolidagi mamlakatlarning turklar tomonidan zabt etilgan davrdan boshlab keyingi asrlar mobaynida Bolkon yarim orolidagi mazlum millatlarning kurashi ularning butun tarixi davomida tuxtamasdan davom etib keldi. Juda katta armiya, kupdan-kup chinovniklar, turk feodal-okkupantlarining butun bir sinfidan iborat goyat katta majbur kilish vositasiga tayanuvchi turklarning zulmini agdarib tashlash imkoniyatiga ega bulmagan tobe axoli partizanlar urushini olib bordiki, bu urush aslida XV – XVII asrlar davrida xam, shundan keyingi davrda xam mustakil davom etdi.

Partizanlar toglik joylar sharoitidan foydalanib va dexkon jamoalari madadiga tayanib yarim orolda turk xukmronligining asoslariga putur yetkazdilar, zabtchi turklar obrusini tushirdilar, xamda turk ma'muriyati va turk maxalliy feodallarining eng yozuv vakillariga karshi xalk kasoschilari bulib chikdilar. Partizanlar turli nomlarga ega edilar; bogarlar va serblarda - gayduklar, Gresiyada - kleftlar, Dalmasiyada-uskoklar va xokazo deb atalardilar. Partizanlarning kaxramonona kurashi Bolkondagi barcha xalklarning turklar xukmronligi davridagi xalk kushiklarida yakkol aks ettirildi. Ammo partizanlik xar xolda Turkiya xukmronligiga karshi kurashning yetarli metodi emas edi, u tarkok, va parokanda edi. Turkiya ma'murlari partizanlarning chikishlariga karshi kurashning uzlariga xos terroristik metodlarini kidirib topdilar. Xar xolda partizanlar Bolkon yarim orolidagi turklar xokimiyatini uz kuchlari bilan tugata olmadilar.

Turklar zulmiga karshi muzlum xalklar tomonidan olib borilgan kurashning yana bir formasi – ayrim joylarda, kupincha eng yirik shaxar punktlarida tez-tez fitnalar va kuzgolon kutarishga bulgan urinishlardan iborat buldi. Odatda bu fitnalar va kuzgolonlar chetdan buladigan madadga, yaeni Yevropadagi biror davlatning madadiga umid boglar edi. Avstriya kushinlarining madadidan umidvor bulgan 1598 yilda Ikkinchi bolkon saltanatining poytaxti Tirnovoda mitropoliti Dionisiy kuzgolon kushni Transilvaniya va Valaxiya feodallari tomonidan madad olishni muljallab kutarilgan edi. Ammo 1594 yilgi Banata kuzgoloni xam, 1598 yilgi Tirnovo kuzgoloni xam yetarli tayyorlanmagan bulib, muvaffakiyatsiz tugadi.

XVII asrning boshlarida ayrim turk kushinlariga talofat yetkazgan serblar va chernogoriyaliklar (1603 yildan Kris shaxri rayonidagi serblar kuzgoloni, 1604 yilgi chernogoriyaliklar xarakati) ba'zi muvaffakiyatlarni kulga kiritdi.

Turklarga karshi kurash jarayonida slavyan mamlakatlarining vatanparvarlari bir dindagi va karindosh bulgan xalk-ruslar madadiga tobora kuprok umid boglay boshladilar. XVI va XVII asrlarda rus davlati kudratining usishi bu umidni ayniksa ragbatlantrirardi. Bolgarlarda va Bolkondagi boshka xalklarda ruslar ertami-kechmi jafo chekayotgan Bolkon xalklariga madad kursatadilar va ularni turk zulmidan ozod kiladilar, degan kat'iy ishonch oshib bordi. Bolkondagi mazlum xalklar orasida «dyado Ivan» (ya'ni Ivan bobo) xakida afsona vujudga keldi. Bu obrazda ular uzlarini turklarning ogir zulmidan ozod kiladigan ulug rus xalki va kuchli Rus davlatini mujassamlashtirgan edilar.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Bolkon yarim oroli xalklarining istilochi Usmoniylarga karshi olib borgan kurashning axamiyati nimada.
2. Partizanlar kanday nomga ega edilar.

A) Gresiyada
V) Bolgariya va Sibirda
S) Doimasiyada
D) Bolkonde
Ye) A.V.S. tugri.

3. Tirmovoda Turklarga karshi katta kuzgolon kachon bulib utdi.

A)1597 yil.
V) 1598 yil.
S) 1599 yil.
D) 1593 yil.

Ye) 1594 yil.
4. Turklar tomonidan buysunilgan Bolkon xalklari turklar xulkiga kanday karadi.
5. Turklar kulmiga karshi mazlum xalklarning ijtimoiy axvolini aytib bering.
6. Turklarga karshi kurashda slavyanlarning tutgan urnini ayting.

**3.Asosiy savol:**
Turkiya imperiyasining tushkunlikka yuz tutishi.

**Ukituvchining maksadi.** Milliy zulmning keskinlashish sabablarini aniklash, turk maglubiyatining sabab va okibatlarini aytib berish, Turklarning sharkdagi talofatlari va Rus-Turk munosabatlariga baxo berish.

**Indentiv ukuv maksadlari:**
3.1.Turkiya imperiyasining zaiflashuvining asosiy sabablarini biladi.
3.2. Lepanto Turk xalkining maglubiyatini tushuntirib beradi.
3.3. Turklarning sharkdagi talofatlarining taxlil kiladi.
3.4. Rus-Turk munosabatlaridagi ziddiyatlar.

**3-Asosiy savolning bayoni:**
Milliy zulm, mazlum millatlarni doimo bostirib turish rejimi juda katta Turkiya imperiyasining aslida zaif ekanini va bekarorligini kursatardi. Turkiya imperiyasining siyosiy tuzumi, idora kilish sistemasining uzi xam uning ziddiyatlar va ichidan zaifligini XVI asrdayok namoyon etgan edi. Fukarolarning butun xayot-momotini uz kulida tutib turgan sulton mustabid xokimiyati Sulaymon 1 ning taxt vorislari vaktida saroydagi xar xil feodal partiya va guruxlarning fitnachilik kuroliga aylandi. Yangi sulton taxtga utirar ekan, toji-taxtga davo kiluvchi rakiblari kolmasin uchun uzining barcha aka-ukalarini kirib tashlardi. Saroy xayotida fitna ustiga fitna avjiga chikib ketar va odatda bu finalarda yanicharlar xam ishtirok kilardi.

Tinmay davom etgan urushlar juda katta xarajatlarni talab etardi. Juda kup xaramxonalari, maxramlari, bexisob xizmatkorlari, juda katta sokchi otryadlari va boshkalari bulgan sulton saroyiga xam ozmuncha mablag soliklar xamisha oshib borar, ammo axolining ishlab chikaruvchi kuchlari esa juda sekin tarakkiy etar edi. Shu narsa xarakterlidirki, Turkiyadagi savdo va sanoat ishlari bilan turklarning uzlari emas, balki sultondan imtiyozli yorliklar olgan garbiy ajnabiylar (asosan fransuz savdogarlari, XVI asr oxirlaridan boshlab ingliz savdogarlari xam) mashgul bular, yoki turklar istilosigacha sanoat tarakkiy etgan va xalkaro savdo-sotik ishlarida katnashagan, savdo ishlariga moxir bulgan Yakin Osiyo xalklari-greklar, armanlar va Suriyaliklar mashgul bulardi.

Kuprok urushlar bilan, axolini sikib, undan solik tulatish bilan band bulgan turk xukumati savdo va sanoatning rivojlanishiga xamda kishlok xujaligining yuksalishiga mutlako yordam bermas edi.. Turklarning xukmron sinfi urushni yuz bergan mushkul axvoldan kutilishning birdan-bir yuli deb bilardi. Bu sinf fikricha, yangi urushlar yangi xiroj va yangi soliklar olinadigan yangi territoriyalarni kupaytirib berishi lozim edi. ammo Turkiyaning iktisodiy kolokligi, uning sosial va siyosiy tuzumidagi ziddiyatlar zamon utishi bilan urushlarni uning uzi uchun xavfli va natijasiz bir narsa kilib kuydi. Turklar XV asrda va XVI asrning birinchi yarmida bir kancha galabalarga erishgandan keyin, XVI asrning oxirida boshlab, ayniksa XVII asrda uzlari katta-katta maglubiyatlarga uchray boshladilar va bu maglubiyatlar XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Turkiya imperiyasi territoriyasining anchagina torayib kolishiga sabab buldi.

Yevropaliklar bilan bulgan urushlarda turklar birinchi marta 1571 yilda Lepanto yonida katta maglubiyatga uchradilar. Bu yerga turklarning juda katta flotini Ispaniya, Venesiya va Rim papasining birlashgan floti tor-mor kilgan edi (birlashgan flotning boshligi Filipp II ning ukasi shaxzoda Don-Xuan Avstriyskiy edi). Durust, bundan keyin Turkiya Venesiyaliklardan Kipr orolini tortib olgan edi. Ammo shunday bulsa xam, bu maglubiyat malakatning ichki axvoliga kattik ta’sir kildi. XVI asrning 70, 80 va 90 yillarida Turkiya keskin ijtimoiy-siyosiy inkirozni boshidan kechirdi. Mamlakatda davlat soliklarining ortishi va feodal tulovlarining kupaytirilishi munosabati bilan dexkonlarning bir necha kuzgoloni bulib utdi. 1591 yil ayniksa «olagovur» yil buldi, bu yili kupchilik viloyatlar sulton Murod III ga (1574-1595) karshi bosh kutardilar. Muxammad III podsholik kilgan davrda (1595-1603) doim xalk kuzgolonlari,

sipoxiylar va yanicharlarning galyonlari bulib turdi. Pirovard natijada saroyda bulib utgan tuntarish okibatida sultonning uzi xam uldirildi.

Turkiya Eronga karshi kurashda bir kator talofatlar kurdi. Eron shoxi Abbos I Ozarboyjonni, Armanistonni, Sharkiy Gruziyani, Kurdistonni, shuningdek, Mosul va Bogdon shaxarlari bilan Mesopatamiyani bosib oldi. 1619 yilda Istambul sulxiga binoan, turk sultoni Zakavkazye va Mesopatamiyadagi deyarli xamma yerlarining bir kismi 1639 yilda kaytarib olindi. Ammo bunga Turkiyaning uzi kuchayganligi bilan emas, balki kuprok Eronnning zaiflashganligi sabab buldi.

Rossiya bilan Turkiya urtasida birinchi marta tuknashuv XVI asrning ikkinchi yarmidayok bulgan edi. Sulton xukumati Tanu (Azov)ni bosib olganidan keyin Astraxanni xam bosib olmokchi edi. Sulton xukmati bu yerdan Kaspiy dengizi buylab Eronga karshi kushin tortib borishni muljallagan edi. Ammo xujum kilib kelgan turklarning kamaliga Astraxan bardosh berdi (1568). Turklar katta talofatlar berib chekinishga majbur buldi.

Turklar bilan ruslar urtasida ikkinchi marta jiddiy tuknashuv XVII asrning 30-yillarida oxiri va 40 yillari boshida bulgan edi. Bu vaktda Zaporojye kazaklari Azovni (1637 yil) olib, uni bir necha yilgacha uz kullarida tutib turdilar. XVII asrning ikkinchi yarmida Turkiyaning Avstriyaga, Venesiyaga va Rossiyaga karshi olib borgan urushlarida maglubiyatga uchrashi Usmon imperiyasining ichidan zaifligi va xarbiy jixatdan kolokligini butun Yevropaga nomoyon kildi. Yevropa davlatlari orsidagi rakobat, ularning sulton bilan separat bitim tuzishga intilishlari tufayligina Turkiya uzining xakikiy siyosiy kudratiga mutlako mos kelmaydigan keng territoriyada uzok vaktlargacha yashab turish imkoniyatiga ega buldi. Yevropaning «buyuk davlatlari» (birinchi navbatda Angliya bilan Fransiya) Turkiya imperiyasining chirib ketgan rejimini tugatish va turklar zulmi ostida ezilib yotgan slavyan xalklarini ozod kilish urniga, Turkiyani asoratga solishni, uzlarining yarim mustamlakalariga va siyosatlarining kuroliga aylantirishni nazarda tutib, iktisodiy jixatdan kolok, siyosiy jixatdan zaif Turkiya imperiyasini saklab kolishni afzal kurdilar.

**Nazorat topshiriklar:**

1. Turklar Yevropaliklar bilan bulgan tuknashuv kayerda sodir buldi.
A) Chexiyada 1571 yilda.
V) Turkiyada 1571 yil.
S) Lepantoda 1571 yil.
D) Polshada 1569 yil.
Ye) Rossiyada 1573 yil.
2. Muxammad III podsholik kilgan yillarni aniklang.
A) 1595-15603 yillar
V) 1592-1600 yillar.
S) 1591-1600 yillar.
D) 1585-1590 yillar
Ye) 1593-1603 yillar.
3. Rossiya bilan Turkiya urtasidagi tuknashuv kachon buldi.
A) XV asrning boshida
V) XVI asrning ikkinchi yarmida
S) XV asrning oxiri
D) XIV asning oxiri
Ye) XVII asrda
4. Rus-Turk munosabatlarining sabab va okibatlarini tushuntiring.
5. Turkiyaning asoratga tushish – shart sharoitini aytib bering.
6. Rus-Turk urushining axamiyati.

**Talabalar uchun mustakil topshiriklar.**

1. Usmoniylar imperiyasining Turkiya tarixida tutgan urnini ayting.
2. Sulaymon 1 davrida Turkiyaning ijtimoiy xayotini yoritib bering.
3. Sulaymon 1 ichki siyosati natijasida axolining axvoliga baxo bering.

4. XVI-XVII asrlarda Bolkon xalklarining Turklar zulmiga karshi olib borgan dadil xarakatining sabab va okibatlarini aytib bering.

5. Turkiyaning tushkunlikka yuz tutishi va Turklarning sharkdagi talofatining asl moxiyatini gapiring.

6. Rus – Turk munosabatlaridagi asl maksad va moxiyat.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Urta asrlar tarixi. V.R.Semenov.T.1913 yil.(586-594 betlar.)
2. Yeremeyev D.Ye.istoriya Tursii M.1987.
3. A. D. Navichev. Istoriya Tursii M., 1992.
4. Istoriya srednix vekov Pod. red. Z. V. Udalsovoy i S. P. Karpova. 1-2 ch. M., Vыsshaya shkola 1991.
5. Lyublinskaya A. D. Istochnikovedeniye istorii srednix vekov. L., Gosizdat, 1955.

**4-mavzu : XII-XV asrlarda Rus davlati**
Ajratilgan soat: 2
Dars turi: ma'ruza.

**Asosiy savollar:**
1. Rusda feodal tarkoklik.
2. Mugul tatar istilosi xamda nemis va shved boskinchilariga karshi kurash
3. Rus yerlarining Moskva tevaragida birlashuvi

**Tayanch iboralar:**
Feodal tarkoklik, Kiyev Rusi, knyazliklar, Buyuk Novgorod, Vladimir-Suzdal knyazligi, mugul-tatarlar,nemis va shved risarlari, dvoryan va cherkov yer egaligi, Moskva yuksalishi, Kulikovo jangi, markazlashgan davlat, Rus madaniyati.

**1-asosiy savol:**
Rusda feodal tarkoklik.

**Ukituvchining maksadi:**
Rusda feodal tarkoklik sabablari va moxiyatini tushuntirish, Kiyev Rusidagi mustakil knyazliklar xakida ma'lumot berish, Buyuk Novgorodning axamiyatini ochib berish, Vladimir-Suzdal yeri xakida ma'lumot berish, Rus siyesiy tuzumini tushuntirish, feodal yer egaligi xakida gapirib berish.

**IDENTIV UKUV MAKSADLARI:**
1.1.Rusdagi feodal tarkoklik sabablari va okibatini ochib beradi.
1.2. Buyuk Novgorodning tutgan urnini tushuntiradi.
1.3.Rusdagi mustakil knyazliklarni biladi.
1.4. Moskva shaxriga kachon asos solganligini biladi.
1.5 Kiyev Rusi xamda uning tarkibidagi knyazliklar ijtimoiy-iktisodiy xayeti xakida tushunchaga ega buladi.

**1-asosiy savol bayeni:**
1X asrning urtalarida vujudga kelgan kadimgi Rus davlati poytaxti Kiyev shaxri bulgan. Slavyan kabilalari feodal jamiyatiga urugchilik jamoasining yemirilishi natijasida utdilar. Kiyev Rusining iktisodiy va madaniy tarakkiyetida Vizantiyaning roli nixoyatda katta bulgan.

Rus yerlarida X1 asr oxiri-XII asr boshlarida feodalizm uzil-kesil urnatildi. Mamlakatda bolangan iktisodiy tarakkiyet, uning turli kismlarida yirik yer egalari, knyaz va boyarlarning kuchayishiga olib keldi. Kiyevdan uzokdagi va endilikda yetarlicha rivojlangan Novgorod, Polosk, Smolensk, rostov, Suzdal, Ryazan kabi yirik shaxarlar uz viloyatlarining mustakil markazlari bulishga intilishar edi.

Vladimir Monomax va uning ugli Mstislavning kipchoklarga karshi xarbiy yurishlari, ularning xavfini vaktinchalik bulsada bartaraf etdi va markaziy xarbiy birlikka birmuncha zaruriyat bulmay koldi. Yirik shaxarlarning boyarlari bundan foydalanib, Kiyevga karam bulmagan mustakil knyazliklar barpo kilishga kumaklashib, ayrim knyazlarni uzlariga xukmdorlikka taklif kila boshladilar. Knyazlarning 1097 yili Lyubechda bulgan syezdi: «xar kim uz yurtiga ega bulsin» deb karor chikardi. Bu esa feodal tarkokligi boshlanishini tantanali ravishda e'lon kilinishi edi. Solnomachi 1132 yili «butun Rus yeri bulinib ketdi» deb yezgan edi. Rusda feodal tarkoklik davri boshlandi.

Kiyev Rusi buyuk knyazlari xokimiyatining zaiflashuviga janubiy viloyatlardagi tushkunlik xam sabab buldi. Kiyev va uning atrofidagi yerlarga turli knyazliklarning taxdtdi, shuningdek kuchmanchi poloveslar xujumlari tuxtovsiz davom etardi. Natijada XP asrdan boshlab kuplab dexkonlar va shaxar axolisi tinchrok joylarni axtarib, janubi-garbiy va ayniksa shimoli-sharkiy, Volga-Oka darelari xavzasiga kucha boshladi. Yangi yerlarda tez orada shaxar va kishloklar barpo etilib, ulardagi axoli soni kupayib bordi.

Kiyev Rusidan mustakil knyazliklar: Chernigov, Polosk, Pereyaslav, Galisk, Volinsk, Smolensk, Ryazan, Rostov-Suzdal, Novgorod yeri, Kiyev knyazligi va bir kator mayda knyazliklar tashkil

topdi. Xar bir knyazlik butunlay mustakil bulib, uzining ichki tartiblarinigina emas, balki tashki siyesat olib borishi, urush va tinchlik muammolarini xal etish xukuklariga xam ega edi.

Rusdagi feodal tarkoklikning turtta salbiy xususiyatini aloxida kursatish lozim: 1) uzaro feodal urushlarining tuxtovsiz bulishi; 2) mamlakat mudofaa kobiliyatini zaiflashuvi; 3) knyazliklarning vorislar orasida taksimlanib yanada maydalasha borishi; 4) knyazlar va maxalliy boyarlar orasida nizolarning kuchayishi xollari ruy berdi.

Novgorod yeri Kiyev bilan ochikdan-ochik alokasini uzgan birinchi mustakil knyazlik buldi. Kichkina kal’a sifatida paydo bulgan Novgorod X1 asrga kelib fakat Rus yerlarining emas, balki Yevropaning xunarmandchiligi va savdosi yuksak rivojlangan shaxarlaridan biriga aylandi. Shaxar muynalarga boy shimoliy-sharkiy rayonlarga xukmronlik kilardi. Novgorod bir necha savdo yullarining kesishgan yerlarida joylashgani, uning Boltik dengizi orkali Yevropa, Volga daresi va Kaspiy dengizi orkali esa Osiye mamlakatlari bilan xalkaro savdo alokalarini olib borishi imkoniyatini yaratdi. Shu sababdan novgorodda yaratilgan xalk ogzaki ijodi asarlari kaxramonlari kemasoz-dengiz sayexlari Sadko va Vasiliy Buslayevlar bulgan.

X1 asrda Novgorodda an’anaga kura knyaz-noib Kiyev Buyuk knyazining katta ugli bulgan. Lekin bora-bora boyarlarning mavkei oshib, ular knyaz xokimiyatini cheklab kuyganlar va Novgorod boyarlar respublikasiga aylangan. Novgorodliklar vechesi 1136 yili Monomaxning nevarasi – Vsevolod Mstislavichni knyazlikdan chetlatib kamokka olishga karor kilgan. Shu vaktdan boshlab shaxar butunlay feodal respublikasiga aylanadi. Novgorodning siyesiy xayetida , xalk vechesida zodagon boyarlar ichidan saylanadigan shaxar xokimi va «shaxar kengashi» va saylab kuyiladigan yepiskop bosh rolni uynardi.

Moskva, Rus yerlaridagi Kiyev, Galich-Volin, Vladimir –Suzdal knyazliklarida xam XII –XIII asrlar boyarlarning knyazlarga karshi kurashi ostida utdi. Jumladan, Vladimir Monomaxning ugli Yuriy Dolgorukiy XII asrda Rusning shimoliy-sharkida Volga va Oka darelari orasiga kuchib kelib joylashgan xamda maxalliy tub fin-ugor kabilalari bilan yakinlashayetgan axoliga knyazlik kilardi. Vladimir-Suzdal yerlarida XI-XII asrlar davomida: Rostov, Suzdal, Yaroslavl, Vladimir, Yuryev, Dmitrov kabi shaxarlarga asos solindi. Knyazlik yerlaridagi Kuchkov kishlogida 1147 yilning baxorida Yuriy Dolgorukiy Kiyev ustidan erishilgan galabalardan birini nishonlagan. Moskva deb atala boshlagan bu joyda 1156 yili yegochdan birinchi kal’a kurildi.

Yuriy Dolgorukiyning avlodlari Vladimir yerlarida va Moskvada Ivan 1U Grozniyga (1584 y) kadar xukmronlik kildilar. Vladimir –Suzdal knyazligi kelajakda rus yerlarining birlashishiga asos buldi. Moskva X1U asrda ana shu birlashish jarayenining markaziga aylandi.

**NAZORAT TOPShIRIKLARI:**

1.Rusda feodal tarkoklik sabablarini tushuntiring

1. Kiyev Rusidagi mustakil knyazliklar nomini sanab bering.
2. Kiyev Rusida Kiyev bilan alokasini uzgan birinchi mustakil knyazlik nomini toping:

A)Buyuk Novgorod
V) Vladimir Suzdal
S) Galich-Volin
D) Moskva
Ye) Ryazan

3. Moskva shaxriga kim va kachon asos solganligini kursating.

A) Yuriy Vsevolodovich
V) Vladimir Monomax
S) Vsevolod Mstislavich
D) Yuriy Dolgorukiy
Ye) Ivan 1U Grozniy

1.) 1136 yilda
2.) 1147 yilda
3.) 1156 yilda
4.) 1584 yilda
5.) 1223 yilda

4. Yuriy Dolgorukiy va uning avlodlari _______________yerlarida ____________________kadar xukmronlik kildilar.

**2-asosiy savol:**
Mugul-tatar istilosi xamda nemis va shved boskinchilariga karshi kurash

**MAKSAD:**
Mugullarning Rossiyaga bostirib kirishiva xujumlari xakida gapirib berish, Botuxon tomonidan Rus yerlari xarobazorga aylantirganligini ochib beradi, Nemis risarlari va shvedlarning Novgorodga bostirib kirishini yeritish, Aleksandr Nevskiy jasorati xakida gapirib berish,»Muz ustidagi jang» axamiyatini ochib berish, talabalarga barcha xalklar uz kaxramon vatanparvarlari bilan gururlanishini tushuntirish, baynalmilalchilikni tarbiyalash.

**IDENTIV UKUV MAKSADLARI:**
1.1. Ruslarning mugul-tatarlarga karshi kurashini ochib beradi.
1.2. Tarixiy axamiyatga ega bulgan janglar sanasini va tafsilotini biladi.
1.3. Risarlarning Rus yerlarini egallashi sabablarini tushunadi.
1.4. Aleksandr Nevskiy jasoratini ochib beradi.
1.5. «Muz ustidagi jang» axamiyatini biladi.

**2-asosiy savol bayeni:**
Urta Osiye va Kavkaz orti yerlarini bosib olgan Chingizxon Rus yerlariga 1223 yili bostirib keldi. Kipchok xonlarining yerdam surab kilgan murojaatlariga javoban janubiy rus knyazlarining drujinalari Kalka daresi buyida dushmanka rupara buldi.

Mugul-tatarlar guye chekingan bulib, rus drujinachilarini chalgitib, uz otlik askarlari uchun kulay maydonga chikib olib, ularni tula maglubiyatga uchratdilar. Asir olingan knyaz va drujinachilar ustiga taxta bostirgan goliblar, uning ustida utirib bazm kurdilar. Shunday keyin mugullar Volga orti dashtlariga yul olib u yerda bir necha yil davomida Sharkiy yevropaga yangi yurishlarga tayergarlik kurdilar.

Mugul-tatarlarning Rusga karshi keng kulamdagi xujumlari 1237 yilning oxirida boshlandi. Ularning 140 ming kushiniga Chingizxonning nevarasi Botu boshchilik kildi. Rus yerlarida davom etayetgan feodal tarkoklik mugul-tatarlarga kul keldi. Dastlab kamal kilingan Ryazan shaxri axolisining mardonavor karshiligi kuchlar teng emasligidan natija bermadi. Vladimir knyazi uziga rakib xisoblangan Ryazanga yerdamga kelmadi. Mudofaachilarning kat’iyatidan gazablangan Botu shaxarni butunlay vayron kilishni buyurdi.

Shimoliy-sharkiy Rusning ichkarisiga siljiy boshlagan dushman lashkarlari Kolomna ostonalaridagi jangda rus drujinachilarini yengib, Moskvani egalladilar. Botu kushini 1238 yilining fevral oyi davomida Volga va Oka darelari xavzasidagi 14ta rus shaxrini, jumladan Vladimirni vayronaga aylantirdi. Vladimir knyazi Yuriy Vsevolodovich kushini mart oyida Siti daresi yakinidagi jangda tor-mor kilindi, knyazning uzi xalok buldi. Butunlay vayron kilingan Vladimir-Suzdal knyazligi shaxar va kishloklarida ming-minglab axoli xalok buldi, kuplab kulezmalar, moddiy madaniyat durdonalari yendirib yuborildi.

Yangi yurishlar 1239 yilda boshlanib, Botuxonning asosiy kushinlari Rus yerlarining janubiy kismiga zarba berdi. 1240 yili kiyev kamal va shiddatli janglardan keyin taslim buldi. Janubiy Rus knyazliklari yerlari xam xarobazorga aylanti rildi.

Bosib olingan yerlarda Chingizxon tuzgan saltanatning bulinib ketgan kismlaridan biri, yangi davlat – Oltin Urta karor topdi. Xozirgi Astraxan shaxri yakinidagi Saroy shaxri uning poytaxti edi. XIII asrning urtalaridan Rus knyazliklari Oltin Urda xonligiga karam yerlar sifatida, ularga katta ulpon tulay boshladi. Endi knyazlar mugul xonlaridan olingan yerlikka binoan uz yerlarini boshkarar, xalkka zulm utkazib, ulardan ogir soliklar yigib olardilar. Knyazlarning uzaro urushlarida Oltin Urda xonlari uz

manfaatlarini kuzlab gox birlariga, gox boshkaldariga xomiylik kilar, natijada yana oddiy xalkning koni tukilar, shaxar va kishloklar yenardi.

Mugullar istilosi rus yerlaridagi iktisoldiy tarakkiyetga katta salbiy ta’sir kursatdi. Mamlakatda iktisodiy rivojlanish sekinlashdi.

XIII asrning boshlarida Boltik dengizi kirgoklarida yashaydigan est, liv kabilalariga karshi nemis feodallarining urushlarini Rim papalari Salib yurishlari deb e’lon kildi. Bu urushlar maxalliy axolini xristian katolik diniga utkazish bayrogi ostida olib borildi. Urushlar natijasida nemislarning Livoniya ordeni risarlari estlar yerlarini bosib olib Novgorod-Pskov knyazligi chegaralariga yakinlashib koldilar. Boltikbuyi nemis risarlari bilan xamkorlikda xaroakat kilgan shved feodallarining katta kushini 1240 yilning yezida Neva daresi buylab Novgorod yerlariga bostirib kirdi.

Novgorod knyazi 18 yeshli Aleksandr Yaroslavich 1240 yil 15 yulda uzining unchaolik katta bulmagan drujinasi bilan shvedlar karorgoxiga kukkisdan xujum kildi. Yesh knyaz va uning dovyurak drujinachilari kursatgan jasorat tufыayli Aleksandrga Nevskiy degan faxrli nom berildi. Bu nom tarixda asrlar buyi saklanib kelmokda.

Mugul-tatar boskinidan chetda bulgan novgorod-Pskovning boy yerlari nemis risarlarini uziga tortardi. Bu blrada ularni xatto shvedlarning muvaffakiyatsizliklari xam tuxtata olmadi. Pskov yakinidagi Izborsk kal’asini 1240 yili olgan risarlar, Pskov noibi Tverdila va boyarlar xoinligidan foydalanib shaxarni egallashdi. Nemis feodallari usha yili kishdayek novgorodning chegara rayonlariga xam bostirib kirishdi. Novgorodning dushmanga karshi kurashini yana

Knyaz Aleksandr Nevskiy boshkardi. Knyaz Suzdal kushini yerdamida Pskov va unga karashli yerlarni ozod kildi.

Aleksandr Nevskiyning nemis risarlariga karshi xal kiluvchi jangi 1242 yili 5 aprelda Chud kuli ustida bulib utdi. Uning ogir kurollangan otlik nemis risarlari bilan muz ustida jang kilishi oson bulishi xakidagi muljali tugri chikdi. Jang boshlanishi bilan risarlarning pona shaklidagi asosiy kuchlari rus kushinining markaziga xujum kilib, uni yerib utmokchi buldi. Buni oldindan sezgan Nevskiy asosiy kuchlarni kanotda tupladi.

Markazni osonlikcha yerib utgan nemislar uchun kutilmagan vokea – yen tomondan kuchli xujum boshlanib, jang takdirini xal kildi. Bu jangda nemis risarlaridan 500 kishi xalok buldi. Kup utmay Livoniya ordenining Novgorodga kelgan elchisi rus yerlariga da’vo kilishdan voz kechganliklarini ma’lum kildi.

**NAZORAT TOPShIRIKLARI:**

1.Chingizxon Rus yerlariga kachon bostirib kirganini toping.

A) 1147 yimlda

V) 1156 yilda

S) 1223 yilda

D) 1237 ymilda

Ye) 1238 yilda

2.Botu kushini ______yil fevral oyi davomida _______ta rus shaxrini vayronaga aylantirdi.

3.Shvedlar Novgorod yerlariga kachon bostirib kirganini toping

A) 1239 yilda

V) 1240 1ilda

S) 1242 yilda

D) 1243 yilda

Ye) 1238 yilda

4.«Muz ustidagi jang» kachon va kayerda bulib utganini kursating

A) 1242 yili Chud kuli ustida

V) 1240 yili Izborsk kal’asida

S) 1238 yili Volga daresi buyida

D) 1223 yili Kalka daresi buyida

Ye) 1237 yili Oka daresi  buyida

5. Nemis risarlari Rus yerlariga bostirib kirish sabablarini ochib bering.

**3-asosiy savol:**
Rus yerlarining Moskva tevaragida birlashuvi

**MAKSAD:**
Ruslarda XIV-XV asrlardagi xujalik axvolini tushuntirib berish, Dvoryan va cherkov yer egaligini ochibberish, shaxarlar tarakkiyeti xakida gapirib berish, Rusda yagona davlatni tashkil topishi sabablarini ochmib berish, Kulikovo jangini okibatlarini yeritish, Rus yerlarining markazlashishi jarayenini ochib berish, Rusdagi madaniyat rivoji xakida tushuncha berish.

**IDENTIV UKUV MAKSADLARI:**
3.1. Rus yerlaridagi ijtimoiy-iktisodiy rivojini ochib beradi.
3.2. Diniy va duneviy yer egaligining usishini yeritadi.
3.3. Rus knyazliklarining Moskva tevaragida birlashishlari sababini biladi.
3.4. Kulikovo jangi tarixiy axamiyatini ochib beradi.
3.5. Rusdagi madaniyati rivojini xakida ma’lumotga ega buladi.

**3-asosiy savol bayeni:**
Oltin Urda xavfi sharoitida Oka va Volga darelari xavzasidagi urmonzor viloyatlarga axolining kuchib kelishi kuchaydi. Bu viloyatlardagi mavjud bush unumli maydonlardan tashkari, kuplab urmonlar xam daraxtlari kesilib, ekinzorlarga aylantirildi. Mazkur rayonlarda dexkonchilik va chorvachilik bilan bir katorda xunarmandchilik xam rivojlangan. Bush yerlarning yetishmasligi yangi kochoklarni Volga orti rayonlariga utishga undadi. Axoli kelib joylashgan yerlar feodallarning e’tiborini tortib, ular knyazlardan olingan yerliklarga binoan ushbu yerlarning xam xujayiniga aylandilar.

Yangi yerlarda ayniksa cherkov yer egaligi tez rivojlangan. Xuddi shu joylarda XIV-XV asrlar davomida xozirgi kunga kadar mashxur Troise-Sergiyev, Kirilo-Belozerskiy, Soloveskiy monastirlari tashkil topgan edi.

Rusda xam yirik yer egalari uzining xarbiy xizmatkorlariga yerlarning bir kismini vaktinchalik foydalanishga bulib bera boshladilar. Natijada feodal **yer** egaligining yangi shakli – yerni shartli ravishda saklash tartibi va feodallarning yangi toifasi – dvoryanlar paydo buldi. Yer egalari dexkonlarni krepostnoy karamlikka tushirishga intildilar. Knyazlar farmoniga binoan XU asrning urtalaridan, dexkonlarni feodallardan ketish vaktini yiliga bir muddat –Yuriy kuni (26 noyabr) bilan belgilab kuyildi.

Mugul-tatarlar istilosi natijasida rus shaxarlari ogir tatafotlar kurgan bulsada, ularning tarakkiyeti butunlay tuxtab kolmadi. Jumladan XU asrning ikkinchi yarmidan boshlab xunarmandchilikning turli soxalarida yuksalish boshlandi. Xarbiy extiyejlarning usishi, ayniksa kurilish va metallsozlik soxalarining tarakkiyetini tezlashtirdi. Asr oxiriga kelib uk otadigan kurollar yasash markazlari paydo buldi. Shu paytdan Moskva shaxri xunarmandchilik markaziga aylandi. Novgorod, Pskov, Kolomna, Kostroma, Nijniy novgorod kabi shaxarlar iktisodiy tarakkiyetida sezilarli siljishlar buldi. Rus shaxarlarining Shark va Garb mamlakatlari bilan savdo-sotik alokalari jonlandi.

Mamlakatda iktisodiy yuksalishning boshlanishi, kishlok xujaligining tarakkiyeti, shaxarlarda xunarmandchilik va savdo-sotikning jonlanishi turli viloyatlar orasidagi alokalarning kuchayishi – **rus yerlarining birlashishiga yerdam berdi.** Mamlakatning birlashishiga tashki dushmanlarga karshi, avvalo Oltin Urda xonlari zulmiga karshi kurash zaruriyati kup jixatdan katta ta’sir kildi. Rus yerlarini birlashtirgan **“Rossiya”** tushunchasi XU asrning oxirida, shu jarayenlarning natijasi sifatida vujudga keldi.

Rusning turli knyazlari XIII asrning oxiridan rus yerlariga xukmronlik imkoniyatini beradigan Oltin Urda yerligini olish uchun kurash olib bordilar. Dastlab bu yerlikni Tver knyazlari kulga kiritdilar. Lekin X1U asrning boshidan yuksala boshlagan Moskva knyazlari xam yerlikka ega bulish uchun kurashga kirishdilar. Bu boradagi uzaro kurash 1327 yili, Tverdagi xalk kuzgolonini bostirishda Urdaga yerdam bergan Moskva knyazi Ivan Kalitaning (1325-1340) galabasi bilan tugadi. Oltin Urda Moskva knyaziga boshka rus yerlaridan solik yigish xukukini berdi. X1U asr 2-yarmida rus knyazlari orasidagi kurash yana keskin tus olib, Oltin Urdaning rus yerlariga yangi xujumlari boshlandi. Kalitaning

nevarasi Dmitriy Ivanovichning 1359 yili knyaz bulishi rus knyazlarining uzaro urushlarida Moskvaning galabasi bilan tugashiga imkon berdi.

Ruslarning mugul-tatarlarga karshi urushlaridagi birinchi va muxim galabaga xam knyaz Dmitriy erishdi. Dastlab 378 yili Ryazan yerlaridagi voksa daresi buyida Moskva kushini mugullar ustidan galaba kildi. Lekin xal kiluvchi jang 1380 yili 8 sentyabrda Dmitriy boshchiligidagi rus kushinlari bilan Oltin Urda xoni Mamay kushini urtasida Don daresi soxilidagi Kulikovo maydonida buldi. Jangni Mamayning otlik akskarlari boshlab berdi. Ular ruslarning oldingi saflariga xujum kildilar va uni kattik jangda yanchib tashladi. Bir necha soat davom etgan jangda urdaliklar knyazning markazdagi katta polkini va kushinning chap kanotiini sikib kuyishdi. Jangning xal kiluvchi paytida Serpuxov knyazi Vladimir Andreyevich va voyevoda Dmitriy Bobroklarning pistirmadagi polki jangga kiradi. Rus otliklari dushmanning orka tomonidan zarba beradi. Natijada mugullar kushini vaximaga tushib chekina boshlaydi. Knyaz Dmitriy Ivanovichga bu jangdagi galabadan sung Donskoy nomi berildi.

Mugul-tatarlarning rus yerlaridagi xukmronligi Kulikovo jangidan keyin xam davom etdi. Oradan kup utmay Oltin urda xoni Tuxtamish 1382 yili kukkisdan Moskvaga xujum kildi. Bir kancha vakt davom etgan mudofaani shaxar axolisining uzi tashkil kildi. Nijegorodlik rus knyazlari vositachiligida shaxarga, avf va’da kilib kirgan mugullar uz suzlaridan kaytib katta kirgin uyushtirdilar. Dushman ketganidan keyin Moskvadan 24 ming kishining uligi topildi. Shaxar deyarli yenib kul buldi. Kushni yerlardan lashkar tuplab kelgan knyaz Dmitriy Donskoyning yakinlashuvi mugullarni Moskva yerlaridan ketishga majbur kildi.

Bu borada bir tarixiy vokeaga aloxida tuxtalish lozim. Rus yerlariga katta talafot keltirgan Tuxtamishxon 1389-1391 va 1394-1395 yillardagi Temur kushinlarining xujumlariga bardosh bera olmadi. Tuxtamish kushinlarini tor-mor kilgan Temur Oltin Urdani vayronaga aylantirdi. Rus yerlarining mugul-tatar istibdodidan xalos bulishida Amir Temurning xizmatlari katta bulgan.

Ivan III \1462-1505 yy\ va Vasiliy  III \1505-1533 yy\ning knyazligi davrida rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi tez sur’atlar bilan bordi. Ivan III davrida Yaroslavl va rostov knyazliklari yerlari kushib olindi. Moskva knyazligiga 1471-1478 yillardagi urushlar natijasida Novgorod respublikasi xam kushib olindi. Nixoyat Ivan III davrida 1480 yili Moskva Oltin Urdaga solik tulashdan bosh tortdi va shu tarika mugul-tatarlarning rus yerlarida ikki yarim asrlik xukmronlikka chek kuyildi.

Rus yerlarining birlashishi davom etib 1485 1ili Tver knyazligi tugatildi. Pskov respublikasi yerlari 1501 yili, Litva bilan urush natijasida Smolensk yerlari 1514 yilda Moskvaga buysundirildi. Nixoyat 1521 yili Moskvaga doim karam belib kelgan Ryazanda knyazlik xokimiyati tugatildi. Rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi mamlakatning kelajakdagi siyesiy, iktisodiy va ijtimoiy tarakkiyetiga zamin tayerladi.

Urta asrlarda vujudga kelgan shaxarlar boshka mamlakatlardagi kabi Rusda xam madaniyat  uchoklariga aylandi. Xunarmanldchilik va savdo-sotikning rivojlanishi bilimli kishilarga bulgan talabni oshirdi. Yirik shaxarlarda maktablar ochildi. Jumladan kiyevda X asrdayek usmirlar uchun, X1 asr oxirida esa kizlar maktabi ochildi. Arxeologiyaga oid kazilmalar X1-X111 asrlarda novgorodliklarda kayin pustlogiga yezilgan yerliklari  yezuvning keng kullanilganidan darak beradi. Shikoyatnomalar, taklifnomalar, xujalik ishlaridagi farmoyishlar, savdo-sotik va narx-navolar tugrisidagi yezuvlar bitilgan kayin pustloklari topilishi fikrimiz dalilidir.

Rusdagi me’morchilik san’atining yutuklari xam moddiy madaniyatning yuksalib borganidan darak byeradi. Kiyevdagi sofiya sobori (1037 y), Novgorod shaxridagi Sofiya ibodatxonasi (1052 y), Vladimirdagi Dmitrov sobori (1194-1197) kabi guzal va muxtasham diniy inshootlar jaxon madaniyati durdonalari katoriga kiradi.

XU asrda Moskva sobori kurilishiga chakirilgan mashxur italyan me’mori Fioravantiga knyaz Ivan 111 Vladimir shaxridagi XP asr oxirida kurilgan Uspenskiy soborini kursatib kelishlarinibuyurgan. Aytishlaricha, italyan me’mori rus ustalarining ijodiga yuksak baxo berib, ibodatxonaning chiroyini yuksak baxolagan.

She’riyat soxasida kadimgi Rusning salmokliasarlariga aloxida tuxtalish lozim. Birinch she’riy asar “Igor polki jangnomasi” 1185 yili Kiyevda kipchok xoni Konchakning xujumi munosabati bilan yezilgan. Noma’lum muallif tomonidan bitilgan “Jangnoma” shaklan teran, vatanparvarlik ruxidagi va xavf-xatarlar paytida rus knyazlariga karata kilingan donolarcha murojaatdir.

Rus tarixida “Igor polki jangnomasi” bokiylik imtixonidan utdi. X1U asrda Kulikovo maydonidagi Rus galabasini tarannum etgan “Zadonshchina” dostonining muallifi unga ochikdan-ochik taklid kilib yezgan.

**NAZORAT TOPShIRIKLARI:**

1. Oka va Volga darelari xavzasida xujalikning kaysi soxalari rivojlangan bulganini kursating

A. Tog-konchilik, chorvachilik
V. Dexkonchilik, xunamandchilik, chorvachilik
S. ishlab chikarish sanoati, xunarmadchilik
D. Krepostnoylik, dexkonchlik
Ye. Savdo-sotik, chorvachilik

2. Rus yerlarining birlashishiga kuyidagi shart-sharoitlar va omillar yerdam berdi.______________________________________________

_______________________________________________________

3. Vokeyliklarni tartib bilan joylashtiring:

A) Ryazan yerlaridagi Voksa daresi buyidagi galaba
V) Tuxtamishxonning Moskvaga xujum kilishi
S)Ivan Kalitaning Tverdagi xalk kuzgnolonini bostirishi
D) Amir Temurning Tuxtamish kushinlarini tor mor kilishi

4. Rus yerlarining markazlashish boskichlarini tugri kursating:

A) 1471-1478 yillarda
V) 1485 yilda
S) 1501 yilda
D) 1514 yili
Ye) 1521 yili

1) Ryazan
2) Novgorod
3) Smolensk
4) Pskov
5) Tver

5. Rus yerlarining mugul tatarlardan xalos bulishida Amir Temur rolini ochib bering.

**Adabiyetlar:**

Istoriya srednix-vekov.- M.:Vыsshaya shkola, 1991.
Otechestvennaya istoriya. – M., 1992
Semenov V.F. Urta asrlar tarixi- T.,1973

**Mustakil ta’lim va ishlash uchun savol va topshiriklar**:

1. Buyuk Novgorod xakida gapirib bering.
2. Muz ustidagi jang axamiyatini ochib bering
3. Kulikovo jangi xakida  tuxtalib uting
4. Rusda markazlashtirish jarayeni kanday borganligini tushuntiring.

**5-6. Mavzu: XI-XV asrlarda Fransiya**
Ajratilgan soat: 4.
Dars turi: ma'ruza.

**Asosiy savollar:**
1 Garbiy Yevropada siyosiy markazlashishning boshlanishi.
2. Fransiyaning birlasha boshlashi, general shtatlarning tashkil topishi.
3. Yuz yillik urush va Fransiyani siyosiy jixatdan birlashtirishning tugallanishi.
4. XV asrning ikkinchi yarmida Fransiya. Absolyut monarxiyaga utilishi.

**Mavzu buyicha tayanch iboralar va tushunchalar:** Monarxiya, «Korol xokimiyati», Truada, Provenda, Brida, Lanida, Overn, Tuluza, Shampan, Burgundiya, «Kari kirol», Akvitaniya, balyaj, seneshallar, «sud maxmadonalari», legistlar, chuponlar xarakati, «shtor jangi», «General shtatalar», «Sali xakikati»,yomen, «Kora shaxzoda», «yangi villanlar», «kora ulim», kapitanlar, «Jamiyat baxt-saodati uyushmasi», Yuz yillik urush, «fransuz».

**1 – asosiy savol:**
Garbiy Yeropada siyosiy markazlashishning boshlanishi.

**Ukituvchining maksadi:**
XI asrda Garbiy Yevropada shaxarlarning va tovar-pul xujaligining rivojlanish boskichlarini tushuntirib berish, Angliya va Fransiyada davlatlarning tarkib topish shart-sharoitlarini tushuntirish.

**IDENTIV UKUV MAKSADLAR:**
1.1. Garbiy Yevropadagi siyosiy markazlashuvning sabablarini tushunadi.
1.2. Ukituvchining bilish faoliyatini kuzatadi.
1.3. Muommoli tomonlarini taxlil kiladi.

**1-asosiy savol bayoni:**
XI asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran shaxarlarning va tovar-pul xujaligining rivojlanishi zaminida Garbiy Yevropada siyosiy markazlashish jarayoni boshlandi. Parchalanib ketgan davlatlarni birlashtirish, kirol xokimiyatini mustaxkamlash va kuchaytirish jarayoni yuzaga keldi. «Tenglar urtasida birinchisi» gina kirollikdan iborat shaklsiz feodal monarxiyasi asta-sekin, ancha markazlashgan va tartibli tushgan toifaviy monarxiyaga aylandi. XV-XVI asrlarda esa mutlak monarxiyaga utdi.

Garbiy Yevropaning ikkita mamlakatida – Angliyada va Fransiyada markazlashgan davlatlar juda tez tarkib topdi. Bu mamlakatlarda siyosiy markazlashish jarayoni, asosan XIII- XI asrlardayok tugallandi.

Fransiyada xam, Angliyada xam birlashish jarayoniga kulaylik tugdirgan tarixiy shart-sharoitlar, avvalo, xar ikkala mamlakatdagi sanoat, savdo-sotik soxasida, shaxarlar va ichki bozorning tashkil topishida iktisodiy rivojlanishning jadallik bilan borishi buldi. Mamlakatning turli tumanlari bilan boglangan yirik shaxarlarning, jumldan, Parij va London shaxarlarining ertarok vujudga kelishi siyosiy jixatdan markazlashishni ayniksa yengillashtirdi. U yoki bu mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi zaminida kuchli uchinchi toifa – shaxarliklar maydonga keldi. Axolining barcha guruxlariorasida shaxarliklar tarkok feodal monarxiyasini tepasida kuchli kirol xokimiyati turgan, isyonchi feodallarni tartibga chakirishga va mamlakatda mustaxkam «kirollik osoyishtaligini» ta'minlashga kurbi yetadigan markazlashgankirollikka aylantirishdan juda manfaatdor edilar.

**NAZORAT TOPShIRIKLAR:**
1. _____ asrda Garbiy Yevropaning ikkita mamlakatida markazlashgan davlatlar vujudga keldi, bular:___________________________________
2. Fransiya mutlak monarxiyaga kachon utdi?
A. XVI-XVII asrda
V. XV-XVI asrda
S. XIV-XV asrda
D. XVII-XVIII asrda

Ye. XIII-XIV asrda.

3. Ukituvchining bayoni sizningcha kanday bulishi kerak?

4. Fransiya va angliyada birlashish jarayoniga kulaylik tugdirgan tarixiy shart-sharoitni aniklang?

5. Garbiy Yevropada siyosiy markazlashish jarayoni kachondan boshlandi?

A. X asrdan
V. XI asrdan
S. XII asrdan
D. XIII asrdan
Ye. XIV asrdan.

**2-asosiy savol:**
Fransiyaning birlasha boshlashi, genarl shtatlarning tashkil topishi.

**Ukituvchining maksadi:**
Ukituvchi bayoni oldiga kuyilgan talablarni tushuntirish, Fransiyaning birlashish shart-sharoitlarini aniklash, general shtatlarning tarkib topishi va davlatni idora kilish uslublari bilan tanishtirish xamda davlatdagi reformalar va dexkonlar xarakatining moxiyatini ochib berish.

**IDENTIV UKUV MAKSADLARI:**
2.1. Fransiyaning birlashish shart-sharoitlarini tushunadi.
2.2. General shatatlarning tashkil topish moxiyatini biladi.
2.5. Davlatdagi reformalarning joriy kilinishi va dexkonlar xarakatining asl moxiyatini anglab yetadi.
2.6. XII-XIII asrda Fransiyaning ijtimoiy xayotiga baxo beradi.

**2-asosiy savolning bayoni:**
XII-XIII asrlarning ikkinchi yarmida Fransiyada ishlab chikaruvchi kuchlarning juda tez rivojlanganligi kurildi. Dexkonchilik ancha usdi. Yerning bir kismi bir juft xukiz kushilgan gildiraksiz yengil plug bilan, boshka bir kismi ikki yoki uch juft xukiz kushilgan ogir plug bilan yaxshilab xaydalar edi. Bugdoy, javdar, suli, arpa vaboshka boshokli ekinlar xosili kupayib, ekilgan uruglikka karaganda besh va xatto olti xissa ortik galla yigib olinadigan buldi. Bogdorchilik, polizchilik, uzumchilik soxasida katta yutuklarga erishildi. Shaxarlarningusishi bilan ozuka maxsulotlari – non, gusht, yog, sabzavot va boshkalarga, shuningdek, turli kishlok xujalik xom-ashyosiga (jun, zigir, teri va xokazolarga) bulgan talab kupaydi. Tovar munosabatlari fransuz kishlogiga kira boshladi. Parij usib borishi bilan u fakat uziga tutushgan okruglardagi kishloklardagina emas, balki ancha uzok okruglardagi kishloklardan xam uzini kishlok xujalik maxsulotlari bilan ta’minlashni talab kildi.

XI-XIII asrlarda Fransiya shxarlari katta yuksalishni boshidan kechirdi. Janubdagi shaxarlarning kupchiligi, shu jumladan, kupgina kuxna Rim shaxarlari, ancha katta sanoat markazlariga aylanibgina kolmay, balki ular Italiya va yakin shark (Levant) bilan kizgin savdo sotik olib bordilar.Bular orasida Marsel, Tuluza, Narbonna aloxida ajralib turardi. Ayni zamonda shimolda va shimoliy-sharkda Amyen, Suasson, Lan, Sanlis, Bove, Ruan, Reyms, Trua va boshka kupgina shaxarlar usib chikdilar va sanoatning muxim markazlariga aylandilar. Bu shaxarlarda movut va kanop gazlamalari yetishtirilardiYu muyna ishlanardi, temir, kalayi, kumush, emal va boshkalardan turli metall buyumlar tayyorlanardi.

Birinchi Kapetinglar xokimiyati dastlab tamomila zaif edi. X-XI asrplarda Fransiya Garbiy Yevropaning eng tarkok monarxiyalaridan biri edi. Kirol bu yerda knyaz-feodallardan birining, xattoki kuchli bulmagan knyaz’-feodalning oddiygina urnini egallardi. Kupgina kushni yirik feodallar, xar kaysisi uz xolitcha kiroldan kuchlirok edi. Va fakat feodallarning uzaro rakibligi, cherkovning, keyinrok esa shaxarningKapetinglarni kullab-kuvvatlashi, bu dinastiya vakillarining ustalik kilib, oxista siyosat yurgizishi birinchipaytlarda loakal uz urugining kirollik unvonini kuldan chikarmay, balki uni nasldan-naslga meros kilib koldirish imkonini berdi. Kirol uzining merosiy domenida – Il de Frans gersogligida ozmi-kupmi xujayin edi.

XII asrning birinchi yarmidagina Lyudovik XI va Lyudovik XII xukmronlik kilgan davrda kirol xokimiyati bir kadar yuksala boshladi. Lyudovik VI Semiz (1108-1137) deyarli butun uttiz yillik xukmronlik davrini uz domenidagi baronlarga karshi kurash bilan utkazib, pirovardi ularni uziga buysundirishga muvaffak buldi. Shimoliy Fransiyada sanoat shaxarlarning gurillab usishi muxim siyosiy natijalarga ega buldi. Fransiyaning bu kismida yukorida kursatib utilganidek, shaxarlar kommuna xukukini olish uchun zur berib va kattik xarakat kildilar. Lyudovik VI boshda ikilanib, shaxar xarakatiga nisbatan darxol kulay mavkeyni egallamadi. Ammo Lyudovik VII davrida (1137-1180), ayniksa undan keyingi kirol – Filipp II Avgust davridayok kirollik xokimiyati shaxarlarning maxalliy feodallariga karshi olib borgan kurashida shu shaxarlarni kat’iyan kullab-kuvvatladi.

Lyudovik VII ikkinchi salib yurishda katnashdi, lekin bu yurish unga kam foyda keltirdi. Lekin kiro yuk vaktida mamlakatni idora kilib turgan abba Sugeriy xam maxalliy baronlarga karshi muvaffakiyatli kurashni davom ettirdi.

Shaxarlarning feodallarga karshi olib borgan kurashlarida Sugeriy xam bu shaxarlarni zur berib kullab-kuvvatladi. Nixoyat, savdo bojlari kupayib borganligi tufayli, shuningdek, kiro yer-mulklaridan keladigan daromadlarning ortib borishi natijasida usib borgan kirollik moliya ishlarini goyat zur kobiliyat egasi bulgan Sugeriy tartibga tushirdi.

Lyudovik VIIning ugli Filipp II Avgust (1180-1223) uz xukmronligi ostida fransuz yerlarini birlashtirish siyosatini izchillik bilan olib borib, bu ishda porlok yutuklarni kulga kiritishga muvыaffak buldi. Filipp kirollik domenida joylashgan fransuz shaxarlariga xam, boshkaknyaz-feodallarga karashli territoriyadagi shaxarlarga xam xomiylik kursatdi. Filipp II uzi xkmronlik kilgan davrning boshlaridayok shimoldagi Pikardiyani va Vermanduani kirollik demeniga kushib olgan edi. Uning Plantagenetlar bilan bundan keyingi olib borgan kurashi katta galaba bilan tamom buldi. XIII asr boshlarida Filipp II fransuz mulklarining kupchiligi: Normandiya, Anju, Men, Turen. Puatuning bir kismi (1204-1214) ni Plantat\genetlardan tortib oldi.

Lyudovik IX tanga-chaka zarb kilishda feodallar bilan rakobat kildi. U boshka gersog va grafliklarning tang-pul chikarish va uni amalda yurgizishni beaor kilmasa xam, lekin kirollik tang-chaka pulining shu gersog va graflarning mulklarida uzlariniki bilan bab-barovar yurgizilishiga monelik kilmaslikka uz vassallarini majbur etdi. Natijada eng salmokli kirollik tang-chaka puli odatda feodallarning yomon sifatli pullarini sikib chikarar edi. XIII asr urtalrida kirol byudjeti juda usdi. Savdo-sotikdan, sanoatdan va kirollik yer- mulklaridan keladigan daromadlarning tobora kupayib borishidan tashkari, Lyudovik IX xazinani boyitish maksadida feodallarning tanxo yerlaridan ustalik bilan foydalandi. Lyudovik IX zamonida yirik feodalarni undiriladigan vasslik tulovi yukori darajada oshdi.

Umuman Lyudovik IX davrida kirollik daromadlarining usishi usha zamonida Fransiyaning xujalik jixatdan yuksala borganligini ochikdan-ochik kursatar edi. Pul xujaligining rivojlana boshlashi, shaxarlar, sanoat va savdo-sotikning usishi okibatida mamlakatning siyosiy jixatdan markazlashuvi xalk xujaligi barcha tarmoklarining tarakkiy tarakkiy kilishiga ijobiy ta’sir etdi.

XIII asrda Fransiyada kishlokning axvolida kuzga kurinarli uzgarishlar yuz berdi. Mamlakatda shaxarlarning usishi va tovar xujaligi rivojlana boshlashi munosabati bilan krepostnoy dexkonlarning bir kismi (servlar) feodallar tomonidan pul obrogiga kuchirildi. Bu masala salib yurishlari dexkonlarni ozid kilishga birinchi sababchi bulib, ancha katta rol uynadi. Salib yurishiga ketayotib va bunda odatda pulga muxtojlik sezgan feodal uz krepostnoyylariga pul tulab ozodlikka chikishni yoki shu pul evaziga loakal eng ogir krepostnoylik majburiyatllardan kutilishni taklif etar edi.

XIII asrning urtalarida fransuz kishlogidagi dexkonlar ommasi axvolining yomonlasha borishi zaminida kuplab xar kanakangi maxalliy janjallar va dexkonlarning sen’orlarga karshi chikishlari yuz berib turdi. Dexkonlarning bu chikishlari ba’zan ancha tus olib, butun-butun viloyatlarni uz ichiga olgan ommaviy galayonlarga aylanib ketardi. Fransiyaning anchagina kismiga yoyilgan bunday yirik kuzgolonlar jumlasiga 1251 yilda chuponlar xarakati nomi bilan mashxur bulgan xarakat kiradi.

Filipp IV davrida «mustakil» vassal knyazliklar soni tamomila oz koldi. Flandriya grafligidan tashkari, fakat Burgundiya, Bretan, Akvitaniya gersogliklari xali kushib olinmagan edi.

Kirolning papa bilan kilgan majarosi munosabati bilan birinchi marta chakirilgan General shtatlar, keyin Filipp IV davrida 1308 va 1313-1314 yillarda yigildi. Doimo moliyaviy kiyinchiliklarni boshidan kechirgan Filipp IV xar safar yangi soliklar uchun rozilik berishni shtatlarga taklif kilardi. Yangi soliklarni tasdiklash fnksiyasi XIV asrning birinchi yarmida Filipp IV ning vorislari davrida General shtatlarning

bundan keyingi faoliyati uchun katta axamiyatga ega buldi. General shtatlari tuzilishi natijasida Fransiyaning davlat tarkkiyoti olga karab bir karab bir kadam tashladi, chunki kirolni axolining keng va eng nufuzli tabakalari bilan boglovchi yangi muxim organ paydo buldi. General shtatlarga boy shaxarliklardan vakillar tortilishi ayniksa muxim edi. Bu narsa shaxarliklarning siyosiy ta'siri usib borganligini kursatar edi General shtatlar endilikda butun mamlakat mikyosida kirol xokimiyatning shaxarlar bilan tuzgan ittifokining yangi formasi edi. Kirol uchinchi toifaga tayanib, uz moliya ishlarini mustaxkamlay oldi va kaysar feodalarni yana kuprok cheklab kuydi. Dastlabki tarkok feodal monarxiyasi uz urnini markazlashagn toifaviy monarxiyaga bushatib berdi, bu monarxiyani boshkarishda mamlakatdagi uchta rasmiy toifa vakillarining majlisi, shu jumladan, yangidan shakllanib kelayotgan sinf – burjuaziya vakillari xam ishtrok kildi..

**NAZORAT TOPShIRIKLAR:**

1. Fransiyada nechanchi asrlarda shaxarlar yuksalishini boshidan kechirdi?
A. X-XI asrplarda.
V. XI-XII asrlarda
S. X-XIII asrlarda
D. XI-XIII asrlarda
Ye. XII-XIII asrlarda.
2. Kirollikkka karashli mulklar kanday nom bilan atalardi?
A. Senashalar.
V. Langedok.
S. Bal'yaj.
D. Plantagenet
Ye. Vedomstvo.
3. Legistlar kimlar?
A. Feodallarni shunday nom bilan atashgan.
V. Pasi tabakadan chikkan, lekin baland martabaga erishganliklari uchun butkul kirolga xizmat kiladigankishilar.
S. Feodallarga xizmat kiladigan tofa.
D. Kirol kul ostidagi xizmatchilar.
Ye .Tugri javob yuk.
4. Dexkonlar xarakatidagi asl moxiyatni tushuntirib bering?
5. General shtatlarning vujudga kelish shart-sharoitlarini aytib bering?

**3– asosiy savolning bayoni:**

Yuz yillik urush va Fransiyani siyosiy jixatdan birlashtirishning tugallanishi.

**Ukituvchining maksadi:**

Yuz yillik urushning boshlanish sababalarini tushuntirib berish, dexkonlar noroziligining vujudga kelishi va dexkonlar xarakatining maksad va moxiyatini ochib berish. Yuz yillik urush vaktida Fransiyaning ijtimoiy axvoliga baxo berish.

**IDENTIV UKUV MAKSADLARI:**

1.1. Urushning boshlanish sabablarini tushunib yetadi.
1.2. Parij kuzgoloninining asl moxiyatini biladi.
1.3 . Karl V ning yurgizgan siyosatiga baxo beradi.
1.4. Yuz yillik urushning boshlanishi va uning okibatlarini ochib beradi.

**3– asosiy savol bayoni:**

1328 yilda Kapetinglarning katta avlodi tugadi. Filipp IV vafot etgandan keyin uning birin-ketin kirollik taxtiga Kapetinglar kichik avlodining vakili bulmish Filipp VI Valuani ( 1328- 1350) saylab kuydilar. Valua kirolligi davrida, 1349 yilda, Fransiyaning janubi-sharkida muxim Dofine viloyati (sobik Arelat kirolligining kismi) kushib olindi. Chunki Dofine voris valiaxdining udeli bulib koldi, ana shu

zamonda e’tiboran taxt vorisi odatda dofinlik valiaxd deb ataladigan buldi. Yangi dinastiya, umuman olganda Fransiyani birlashtirish va kirol xokimiyatini mustaxkamlashni amalga oshirib, uzidan burun utgan ajdodlar siyosatini davom ettirdi. Ammo Fransiya bilan Angliya urtasida boshlanib ketgan yuz yillik urush munosabati bilan Valuaning vazifalari goyat mushkullashdi.

1337 yildan 1453 yilgacha gox tuxtab, gox davom etgan Yuz yillik urush ikki kushni feodal davlatning tuknashuvi bulib, ularning xar biri bu vaktga kelib siyosiy jixatdan ancha-muncha markazlab olgan va katta moddiy mablaglarni kulga kiritgan edi. Ingliz feodallari Normandiya bilan Anjuning kuldan ketganini sira-sira unutolmadilar. Fransuz kirollari xali inglizlar kulida kolib kelayotgan Akvitaniyadagi mulklarni uzil-kesil tugatishga xarakat kilardilar. Ammo Akvitaniya Angliya uchun iktisodiy jixatdan katta axamiyatga ega edi. Akvitaniyadan kimmatbaxo vino, meva, zotdor otlarni Angliyaga olib ketilardi. Akvitaniyada ingliz feodallarining kupdan-kup yer-mulklari bor edi. Inglizlar bu yerda eng katta ma’muriy va sudyalik lavozimlarini egallab, katta-katta daromadlar olardilar. Flandriya masalasida xam Angliya bilan Fransiya urtasida nizo chikdi. Filipp IV bu kichik, lekin sanoat jixatidan boy ulkani egallash uchun butun kuch-kudratini sarflagan edi. Ammo u Flandriya shaxarlarining bir kisminigina kulga kiritishga muvaffak bulgan edilar. Filipp VI Flandriya kommunalari bilan kurashda Flandriya grafiga yordam berdi va shuning uzi bilan bu ulkaga uz ta’sirini kuchaytirdi. Lekin ingliz savdosi manfaatlari Flandriya bilan juda yakindan boglangan edi. Flandriya sanoatining uzi ingliz junisiz ish kurolmas edi. Flandriya masalasi Angliya bilan fransiyani yuz yillik urushga olib kelgan boshka bir muxim sabab deyish mumkin.

Filipp IV ga xotin tomonidan nabira bulmish ingliz kiroli Eduard III ning fransuz taxtiga kilgan davosi urush chikishiga baxona buldi. Lekin Fransiyada vorislikni boshkacha prinsipi urnatilgan edi. Fransuz yuristlari, xotin tomonidan avlod bulgan odamlar kirollik taxtiga utira olmaydi, deyishdi. Shunisi kizikki, bunda ular yerga xokimlar vorisligini man etgan. "Sali xakikati" tuplamini dalil kilib keltiriladi..

Eduard III boshchiligidagi ingliz kushinlari tula galabga erishdilar. Fransuzlarning yengilishining asosiy sababi fransuz risarlarining umumiy xisobda turib jang kilishga kobiliyatsizligi edi. Ingliz kushinlari orasida ajoyib uk-yey otuvchilarning bulishi ularning kulini baland kildi. Ingliz kamonchilari yukori tabaka dexkonlar orasida (yomenlardan) tanlab olingan yollanma kushin xisoblanadi. Yomenlar 350 kadam masofadan turib muljalga anik urardilar. Yomenlar sabod va matonat bilan, shuningdek, uzlarining xarbiy maxorati bilan, risarlarning ogir kurol-yaroklarini va ularning yakka-yakka bulib kursatgan jasoratini puchga chikardilar.

Yuz urushda ikkinchi yirik jang 1356 yilda Puatega yakin joyda bulib utdi. Ingliz kushinlari bu safar Fransiyaning shimoliga emas, balki garbiga keltirilib tushirildi. Fransuz feodallari kup sonli risar otliklar yordamida inglizlarni majaklab tashlash umidida edilar. Birok inglizlar yana golib chikdilar. Ingliz tomonining bosh kumondoni Eduard Sh ning ugli - Eduard "Kora shaxzoda " bulib, u uz kushinini Puatyega yakin joydagi tepalikka urnashtiridi, fransuz risarlari esa bu joyda yetarlicha keng xarakat kilolmadilar. Dushman bilan jang vaktida inglizlar kup fransuz feodallarini, shuningdek, risarlarni xam asir kilib oldilar. Fransuz kiroli Ioann Raxmdil vafot etgan Filipp VI ning urniga 1350 yilda kirol bulgan edi Urushdagi maglubiyat Fransiyada sinfiy ziddiyatlarni keskinlashtirib mamlakatda jiddiy siyosiy tanglikni keltirib chikardi. Bu paytda fransuz General shtatlari siyosiy jixatdan katta rol uynadi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Yuz yillik urushning gox tuxtab, gox davom etgan sanasini aniklang?

A.1337-1447 yy.

V. 1340-1445 yy.

S. 1337-1453 yy.

D. 1338-1454 yy.

Ye. 1337-1450 yy.

2. Inglizlar nechanchi yilda kat’iy xarakatlar boshlab fransuzlarning Sleys yonida turgan flotini yuk kilganlar?

A. 1337y.

V. 1338y.

S, 1339-1340 y.

D. 1340y.

Ye. 1341 y.

3. Eduard III Kale portini nechanchi yilda bosib oldi?

A.1345 y.

V. 1346y.

S. 1347 y.

D. 1349 y.

Ye. 1350 y.

4. Xaritadan 1429 yili inglizlar okkupasiya kilgan xududlarni kursating?

5. Yuz yillik urushning boshlanish sabablarini aytib bering?

**4-asosiy savol.**

XV asrning ikkinchi yarmida Fransiya absolyut monarxiyaga utilishi.

**MAKSAD:** XV asrning ikkinchi yarmidagi Fransiyaning ijtimoiy tuzumini aytib berish, fransuz suzining ma'nosini tushuntirish va Fransiya millatining vujudga kelish shart-sharoitlariga baxo beradi.

**Identiv ukuv maksadlari:**

4.1. XV asrdagi fransiyadagi ijtimoiy xayotni tushunadi.

4.2. "Fransuz" suzining ma'nosini biladi.

4.3. Fransiyaning birlashtirishnning tugallanishining omillarini kursatadi.

**4-asosiy savolning bayoni:**

XV asrning ikkinchi yarmidan kirol xokimiyati allakachon cheklanmagan monarxiya xususitlariga ega bulib, u Fransiyada eng zur kudratga erishdi. XV asrda Lyudovik XI (1461-1483) eng atokli kirol bulib, uni Fransiyaning birinchi absolyut kiroli deb bejiz aytmagan. U uz zamonasining atokli siyosatdoni, eng yirik diplomati edi U xukmronligining kupchilik kismini yirik feodallarga karshi "Jamiyat, Baxt-saodati uyushmasi" degan mashxur nom ostida ittifok tuzdilar. Lyudovik XI odamlarni pul berib sotib olib va turli fitnalar uyushtirib, ittifok boshliklarining uylagan niyatlarini barbod etadi. Lyudovik XI Lotaringiya foyedallarini va Shveysariya kantonglarini gersog Burgundskiyga karshi kutara bildi. 1477 yili Nansi yonidagi jangda Karl jasur maglubiyatga uchraydi va uldirildi. Uning mulklarini asosiy kismi Lyudovik XI kuliga utdi. Karl jasurga karashli Flandriyani shaxzodasi Maksimiliyan Gabsburgga turmushga chikkan kizi Mariya Burgundskaya uziga meros kilib oldi. Yillar utishi bilan Lyudovik XI tobora kuprok gumonsiraydigan va xech kimga ishonmaydigan bulib koldi. U deyarli Parijni tashlab chikib kupchilik vaktda Shotlandiyalik va Shveysariyalik ukchilar ximoyasi ostida shaxar tashkarisidagi Plessi le Turdagi mustaxkamlangan kasrda istikomat kildi. Feodallarning yangi fitnalarda xavfsirab Lyudovik XI shaxarlarga tayanmokchi buldi, lekin ularga xam ishonmay shaxarlarning erkinligini xar kanaka yullar bilan cheklab kuydi. Ammo shunga karamay u shaxar savdosi va sanoatni rivojlantirish uchun kup ishlar kildi.

Lyudovik XI ning Karl VIII (1483-1498) mustakilligini xamon saklab kolgan Sunggi Britan gersogligini kushib oldi. Fransiyaning kopetinglar davrida boshlanib, Valua davrida tamom bulgan, siyosiy markazlashishdagi uzokka chuzilgan jarayon ana shu tarika tugallandi. XVI asrga kelib Fransiya Yevropadagi eng katta va eng markazlashgan kirolliklardan biriga aylangan.

Fransuz markazlashgan davlati vujudga kelishi bilan bir vaktda fransuz millati tarkib topa boshladi. XV asr oxiri - XVI asrning boshlariga kelib, Fransiyada milatning vujudga kelishi uchun barcha elementlar mavjud edi. Urta asrlar oxiriga kelganda "Fransuz" suzining asl ma'nosi uzgardi. Ilgarigi maxalda u fakat "Fransiyaning Shimoliy axolisi" degan tushunchani bildirardi. Endilikda axolining kaysi viloyatda tugilgan yoki yashaganligidan kat'iy fransuz kirolining xar bir axolisi fransuz deb ataladigan buldi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. "Jamiyat baxt-soadati" uyushmasining asosiy raxbari kim edi.

A. Lyudovik XI

V. Karl V

S. Lyudovik XI ning ugli.

D. Burgundskiy.

Ye. JITY .

2. Lyudovik XI ning ugli Karl VIII Bretan gersogligini nechanchi yilda buysundirib oldi.

A. 1489 y.
V. 1492 y.
S. 1495 y.
D. 1490 y
Ye. 1491 y.

3. Avstro -Vengriyaning shaxzodasi Maksimilianning kizi Mariya kuydagi kaysi davlatga turmushga chikkan?

A. Lion
V. Niderlandiya
S. Gabsburg
D. Parij
Ye. Angliyaga.

4. XV asrning ikkinchi yarmida Fransiyadagi ijtimoiy xayotga baxo bering.
5. Fransiyaning birinchi absolyut kiroli__________XV asrda xukmronlik kilgan.

**Talabalar uchun mustakil ta'lim savollari:**

1. XI-XV asrlarda Fransiyaning ijtimoiy tuzum negizida kanday tuzum saklanib kolgan edi?
2. Fransiyaning birlasha boshlashining asl moxiyatini kursating?
3. Yuz yillik urushning sabab va maksadlarini aytib bering?.
4. Karl V ning kanday reformalarini bilasiz?.
5. Absolyut monarxiya deganda nimani tushunasiz?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Urta asrlar tarixi V.F. Semyonov. T., 1973.
2. Istoriya fransii. V 3 t. M., Politliter. 1972.T.I/
3. Lyublinskaya A.D. Fransuzskiye krest'yane v XVI-XVII vv. L., Nauka. 19979.

**7-8. Mavzu: Buyuk geografik kashfiyotlar.**

4 soat ma'ruza.

**Asosiy savollar:**

1. Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi.
2. IX-XVII asrlarda Shark mamlakatlariga geografik sayyoxatlar.
3. Jaxon ijtimoiy iktisodiy tarakkiyotida jugrofik kashfiyotlarning axamiyati va Buyuk geografik kashfiyotlarning okibatlari.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Geografiya, Buyuk gkografik kashfiyotlar, Erotosfen, Urta Yer dengizi, Magellan, Kolumb, Vespuchchi, mustamlaka.

**1- asosiy savol:**

Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi.

**MAKSAD:** Jaxon xalklari jugrofiyasi tarixida Shark mamlakatlariga sayyoxatlar xakmda tushuncha berish, sayyoxatlar natijasida Buyuk kashfiyotlarni ochib berish va ularning tarixiy va tarbiyaviy urnini tushuntirib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

1.1. Urta asrgacha bulgan jugrofik izlanishlarning axamiyatini tushuntirib beradi.

1.2. Dunyoning kashf etilishida urta asrda Shark mamlakatlariga kilingan sayyoxatlarning tutgan urnini aniklaydi.

1.3. Ularning tarixiy va tarbiyaviy urniga baxo beradi.

**1-savolning bayoni:**

Insoniyat tarixida urugchilik tuzumini sungi boskiyachiga kadam kuyishi ibtidoiy insonlar xayotida muxim uzgarish davrini boshlab berdi. Tabiatdagi tayyor maxsulotlardan foydalanish endilikda insoniyat iktisodiy extiyojini koniktirmay kuydi.

Ibtidoiy xayotning neolit - «yangi tosh» davriga kelib, ishlab chikarish xujaliklari yuzaga keldi. Dexkonchilik va chorvachilikning yuzaga kelishi bilan sopol buyumlar yasash va ulardan foydalaniщ boshlandi. Ishlab chikarish xujaligining yuzaga kelishi tufayli kadimgi Misr, Old Osiyo, Kichik Osiyo , Markaziy Osiyo va Sharkda dexkonchilik bilan kun kurvchi utroklashgan kabilaviy uyushmalar tashkil topdi.

Shimoliy ulkalarda Afrikaning saxrolarida va Avstraliya dashtlarida kuchmanchi badaviy kabilalri davom etdi. Dexkonchilik maksadida insonlar uzlari uchn kulay tabiiy sharoit izlab yangi yerlarni uzlashtirishi uchun voxalar va daryo kirgoklariga borib urnasha boshladilar.

Lekin, yer yuzasini urganish uchun emas, yakin atroflardagi kulay ulkalarni uzlashtirish uchun urinish edi xolos. Uzok ulkalarga borish va uzlashtirish eramizdan avvalgi 2 mingi yilliklar oxirlarida Finikiyaliklar tomonidan boshlandi. Finikiyaliklar Afrikaning shimoliy kirgogiga Urta Yer dengizi orkali borib urnashganlar. Eramizdan oldingi VI-V asrlarda Sharkiy yunonlar Kora dengiz soxillarida uzlarini shaxarlarini barpo etishgan. Urta Yer dengiz soxillarida boshlangan dengizda yurishi Rim imperiyasi davrida yanada rivoj topa boshladi.

Sayyoxatchilar va ular bilan boglangan savdogarlar orasida asta-sekin yer yuzasini tasvirlaydigan olimlar aralashadigan bulishdi. Eramizdan avvalgi III asrda yashagan yunon geografi Erotosfen yer yuzini tasvirini chizishga urinib kurdi. Misrdagi Iskandariya shaxrida Muston ilmiy muassasasi tashkil etilgan bulib, ptolomeylar xukmronligi davrida barcha turdagi fan olimlari tuplangan edi.

U Yer shari aylanasini uzunligini kup darajada aniklik bilan ulchab chikib, fizikaviy va matematik geografiyani asosini yaratdi. «Geografiya» yunoncha – «Geo» –yer, «grafa» - yozaman yoki yerni tasviri ma'nosidagi atamani fanga kiritdi. Yangi ulkalarni izlash va uzlashtirish kadimgi yunonlar tomonidan xam davom etdi. Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda Urta yer dengizining ayrim orollari va Italiyaning janubiy kismida mustamlakalar ochdilar.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Uzok ulkalarni uzlashtirish kimlar tomonidan boshlandi?
2. Kuyidagi olimlardan kaysi biri yer yuzi tasvirini chizishga urinib kurdi? U olim kachon, kayerda yashagan?

A. Erotosfen er.av. III asr Yunoniston.

V. Abu Rayxon Beruniy VIII-IX asrlar Movarounnaxr

S. X.Kolumb XVI asr Ispaniya.

D. Ibn Batuta XIII asr Xindiston

3. Ishlab chikarish xujaligining yuzaga kelishi tufayli kadimgi Misr, Old Osiyo, Kichik Osiyo, Markaziy Osiyo va Shark xalklari xayotida kanday muxim uzgarishlar ruy berdi?
4. Erotosfen kashfiyotining moxiyati?

**2 – asosiy savol:**

Buyuk jugrofik kashfiyotlar tarixida Shark mutafakkairlari.

**Ukituvchining maksadi:** Urta asrlarda bulgan jugrofik kashfiyotlar tarixining xozirgi payidagi rolini tushuntirib berish va unda Shark mutafakkirlarining tutgan urnini ochib berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

1. IX – XV asrlarda Sharkka kilgan sayyoxatlarini izoxlab beradi.
2. Marko Polo sayoxatlar marshutini xaritada topadi.

**2 – asosiy savolning bayoni:**

Dunyo xaritasini kiyofasini va xar bir ulkalarini kaysi iklimda joylashganligini kursatgan. Olimlardan yana biri Maxmud Kashgariy edi. Maxmud Koshgariy tuzgan xaritani V.V. Bortold ancha anik va tulik ma'lumotli deb kursatgan. Biz Shark xalklari tarixida kuplab uchratamizki, XIII asrda Marko Polo tomonidan koldirilgan ma'lumotlar bayonini asli Venesiyalik bulgan sayyox Marko Polo 1271-1295 yillar davomida Sharkiy ulkalarga sayoxat kilib xatto Xitoyda yirik lavozimida ishlagan. Uning sayoxati Karokurum, Muguliston, Xindi-xitoy, Xitoy va Koreya kirgoklari buylab Indoneziya orkali Xindiston, Eron, Ikki daryo oraligi Urta Yer Dengizigacha bulgan ulkalarni sayr kilish va uzi bulgan joylarni ta'riflash bilan yakunlandi.

XV asrning ikkinchi yarmida Garbiy rus ulkasidan Sharkiy Kavkaz orkali Eron va Xindistonga yul olgan Afanasiy Nikitin sayoxati Janubiy Xindistonda bulib, dengiz yuli orkali yana dengiz soxillarinisayoxat kilgan. Sayyox 1466 – 1472 yillar davomida kupgina ta'surotlar egasi xisoblangan. Ma'lumki XV asrning oxirgi yillarida Partugallar va Golandlar Afrikaning Garbiy kirgoklarini asta-sekin uzlashtira boshladilar.

Afrika orkali Xindistonga borish uchun otlangan sayyox Bartolemeo Diash 1487-1488 yillarda Afrikaning Garbiy kirgoklari buylab Xind okeanigacha bulgan yulni aniklab bergan.

Vasko da Gama (1469-1524) boshchiligida turtta kemadan iborat kichik bir flotiliya 1497 yil yozida Lissabondan chikib, 1498 yil baxorida Xindistonning garbiy kirgoklariga borib yetdi va Kalikutta shaxriga tushdi. 1499 yilning avgustida sayoxlar kemalarga oltin va xind zirovarlarini ortib kaytib keldilar. Ikki yil davom etgan mashakkatli dengiz sayoxati vaktida komandaning 168 a'zosidan fakat 55 kishi tirik koldi.

Vasko da Gama kashfiyoti Portugaliyada goyat katta ta'sir koldirdi. Bu kashfiyot munosabati bilan Portugaliya kiroli Monoelga (1495 - 1521) «Baxtiyor» lakabi berildi va «Xindiston xokimi» degan unvon oldi.

Portugaliyalar Xindistonga Afrikaning garbiy kirgoklari buylab siljib borayotgan bir paytda, kushni Ispaniyada xuddi usha Xindistonga borish yulining boshka bir varianti chikib koldi. Genuyalik Xristofor Kolumb (1451-1506) 1492 yilda Ispaniyaning Ferdinand va Izabella xukumatiga Xindistonga garb tomondan boradigan sayoxat loyixasini taklif kildi. Kolumb Yerning sharsimonligi xakidagi talimotiga asoslanib ish kurdi. 1492 yil 12 oktyabrda Kolumb Karib dengizida Markaziy Amerikaga yakin joydagi Bagama orollaridan birini topdi. Tezda u katta kushni orollar – Gaiti va Kuba orollarini kashf etdi.

Shundan keyingi sayoxatlaridan birida Kolumb Janubiy Amerika (Orinoko daryosining kuyar joyi yakinidagi) kirgoklarni topdi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Marko Poloning dunyo sayoxati.
2. Afanasiy Nikitin sayoxati.
3. Vasko da Gama sayoxati.
4. Xristofor Kolumb dunyo sayoxati.

**3 – asosiy savol:**

XI-XII asrlarda Shark olimlari bergan geografik ma'lumotlar.

**Ukituvchi maksadi:** Geogafik kashfiyotlarning sabablarini va okibatlarini aniklab berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

1. Buyuk geografik kashfiyotlarning iktisodiy okibatlarini tushuntirib beradi.
2. Buyuk geografik kashfiyotlarning tarixda tutgan urnini tushuntirib beradi.

**3 – asosiy savolning bayoni:**

Buyuk geografik kashfiyotlar davrini jaxon xalklari tarixida XV-XVI asrlar va undan keyingi davrlarda xam davometganini kuramiz. Yangi ulkalarning topilishi jugrofiy sayoxatlar tarixiga e'tibor bersak, insoniyat kadimdan yangi yerlarni uzlashtirish uchun xarakat kilishganlari ma'lum buladi. Yangi ulkalarni uzlashtirish bilan bir katorda Yer yuzasini turli iklimlarida yashagan yerli axolini yashash turmush, ularni rivojlanish boskichlarini turlicha darajada ekanligini kuramiz. Insoniyat asosan davlatchilik sivilizasiyasiga kadam kuyar ekan, yakin atrofdagi davlatlar bilan kizika boshlaganlar. Kupchilik xolatda xar bir ulkada ishlab chikarish xujaligini turlicha bulishi iktisodiy extiyoj ta'minotidagi tengsizlikka olib kelgan.

Ayniksa davlatlar urtasidagi boglanishlar, savdo alokalari rivojlanishi, ularni uzaro boglanishiga asos bulgan. Shu sababdan insoniyat dunyoning sirini Yer sharidagi uzgarishlar, tabiat va iklim uzgarishlarini, tun va kun. Kuyosh xarakatini kuzatishga kizika boshlaganlar.

Ularni kuruklikda va suvda yurishi. Bir joydan ikkinchi joyga borish muommolari orkasidan tabiat sirlarini ochishga urinish paydo buldi. Yer kurrasini urganish., ya'ni xaritalar tuzish, bu maksadda insonlarni uzga yurtlarga borishga bulgan xarakatlarini yuzaga kelishidan buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha bulgan ilmiy izlanishlar boskichini kurib chikib, shundan xulosaga kelgan edik:

Birinchidan, kuldorlik davri tarixida yuz bergan kashfiyotlar davri. Bunga misol kilib, dastlabki Somiy kabilalarini Sharkka yurish Misrliklarni Old Osiyo , Finikiyaliklarni Urta Yer Dengiziga uyushtitrgan sayyoxatlari. Yangi mustamlaka yerlarining yuzaga kelishi, kadimgi davrida yirik mustamlaka ulkalari uchun kilingan xarakatlar yunonlar va rimliklarda uchragan.

Dunyoni yoki Yer yuzasini kiyofasini tasvirlash, antik davri sayyoxatchilari, savdogarlar va davlatlar uchun zaruriyat tugilgan. Antik dunyo kashfiyotchilari katorida Ptolomey, Erotosfen "Geografiya" asarida yer tuzilishini tasavvur etishni dastlabki xaritasi yuzaga keldi.

"Geografiya" fanining rivojlanishi keyingi davri urta asrlardagi X-XI asrlarga tugri keladi. Bu davrda ilmiy markazlar, Sharkka kuchish munosabati bilan Bogdod, Aleksandriya, Kudus,Damashk va Urta Osiyoda , Urganch va marvda olimlar tuplanadigan Markazlar vujudga keldi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Amerika kim tomonidan kashf etildi?

A. Semyon Dejnev.
V. Vasko da Gamma.
S. Xristofor Kolumb.
D. Amerika Vispuchchi.
Ye. Fernando Magellan.

2. Xristofor Kolumb kashf etgan yerlar xaritada kanday nom bilan kursatilgan?

A. Portugaliya yerlari.
V. Ispaniya yerlari.
S. Yangi yerlar.
D. Amiriko yerlari.
Ye. Magellan yerlari.
3. Tinch okeanidagi geografik kashfiyotlar xakida gapirib bering?.
4. Xindistonga boradigan dengiz yullarini ochilishiga xissa kushgan sayyoxlarni ayting?.

**Talabalar uchun mustakil ta’lim savollari:**

1. Magellanning dunyo sayyoxatlarini sharxlab bering?
2. Buyuk geografik kashfiyotlarning iktisodiy okibatlarini ochib bering?
3. XVIII asr birinchi yarmida geografik kashfiyotlar xakida gapirib bering?
4. Mavzu yuzasidan talabalarga Buyuk sayyoxatlar xaritasini kurgazmali kurol sifatida tayyorlab kelish topshirigi berish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Gerodot "Istoriya"
2. Ya.M. Svev. Okeanlar osha sayyoxat. T.,1975.
3. Erotosfen "Geografiya".
4. Urta asrlar tarixi V.F. Semyonov. T.,1973.

**9-10. Mavzu: 1618-1648 yillardagi Uttiz yillik urush.**

( 4 soat ma’ruza).

**Asosiy savollar:**

1.XVI asr oxirida Germaniyaning iktisodiy tushkunligi natijasida siyosiy tarkoklikning vujudga kelishi va gabsburglarning Yevropadigi rejalari.

2. 1526 yildan keyingi Chexiyaning gabsburgalar tomnidan istilo kilinishi va Daniya bilan Shvesiyaning urushga krishi. Rus davlatining pozisiyasi.

3. Vestfaliya sulxi va Germaniyaning vayron bulishi.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** «Uttiz yillik urush», sekulyarizasiya, krepostnoy, absolyutizm, partikulyarizm, «yeres», gersog, «Chex birodarlari», risar, meshchan, seym, Mayestat, arxiyepiskop, «defenestrasiya», Turn, pfals, «konuniy monarxiya», «berna», Tilli, javdar, «mukaddas va xaloskorlik urushi», pilta, «kun», «Eger falokati», kralisiya, kurfyursti, Transilvaniya, Osnabryuk, Myunster, yepiskop, gersog, Lujis yerlari, protestant, eksport, pfalsgraf, lyuteran, kalvinist.

**Asosiy savol:**

1. XVI asr oxirida Germaniyaning iktisodiy tushkunligi natijasida siyosiy tarkoklikning vujudga kelishi va gabsburglarning Yevropadagi rejalari.

**Maksad:** Buyuk geografik kashfiyotlarni esga tushirish va uning uttiz yillik urushga bulgan ta’sirini aytib berish. XVI asr oxirlaridagi Germaniyaning iktisodiy tushukunlikka uchrashi sabablarini ochib berish, siyosiy tarkokliknining asosiy omillarini aniklash va Gabsburglarning Yevropadagi agressiv rejalariga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadalari:**

1.1. Buyuk geografik kashfiyotlarni esga tushiradi.

1.2. XVI asr oxirida Germaniyaning iktisodiy tushkunlikka uchrashi sababini ochib beradi.

1.3. Germaniyada siyosiy tarkoklikning vujudga kelish shart-sharoitlarini aniklaydi.

1.4. Gabsburglarning Yevropadagi agressiv rejalarini taxlil kiladi.

1.5. Protestant knyazlarining tutgan siyosatiga baxo beradi.

**1-asosiy savol bayoni:**

Buyuk geografik kashfiyotlar va bu kashfiyotlar bilan boglik tarzda savdo yullarining uzgarib ketishi Germaniyaning iktisodiy tarakkiyotiga yomon ta’sir kildi. XVI asrning ikkinchi yarmida buning okibati shu buldiki, nemis savdo sotigi tushuknlikka yuz tutdi. Ammo ularning roli shu kadar past ediki, ularni Amsterdamga xam, Londonga xam sira takkoslab bulmas edi. Butun Germaniya tobora agrar mamlakatga aylanib borar, unda yetishtirilgan kishlok xujalik maxsulotlari sanoati kuprok tarakkiy kilgan mamlakatlarga chikarilar edi. Gollandiya, Shvesiya, Angliya kuprok germaniyaning shimoliy – sharkiy viloyatlaridan maxsulotlar sotib olar edi. Germaniyaning siyosiy tarkokligi saklanibgina kolmay, balki asr davomida yana xam avj oldi. Knyazlar cherkov mulklarini musodara (sekulyarizasiya) kilish xisobiga uz yerlarini kupaytirdilar. Ular ichki va tashki (eksport) savdodan uz daromadlarini oshirish yulida foydalanib, uzlarining maxalliy knyazlik absolyutizmini urnatdilar. Lyuteran cherkovining maxalliy xokimlarga batamom buysundirilishi munosabati bilan maxalliy knyazlarning siyosiy xokimiyati kuchaydi. Diniy nizolar knyazlarning imperatorga karshi olib borgan kurashlarini xam nikoblab turaveradi. Imperator avvalgidek mamlakatdagi katoliklar partiyasiga raxbarlik kilar va papalik bilan maxkam ittifokda edi. Eng yirik knyazlarning kupchiligi protestant edi, ulardan kupi lyuteran, bir kismi (pfalsgraf Reynskiy) edi. Imperator knyazlari uziga buysundirishga xrakat kilar va bunga «yeres»ning kuchayib ketishiga yul kuymaslik, cheklab kuyish istagini vaj kilib kursatardi. Knyazlar kuchayib, natijada knyazlik absolyutizmi joriy kilinganiga karamay, imperator xokimiyatining kuchi xali ozmuncha emas edi. Ammo gabsburgalar fakat Germaniyadagina xukmronlik kilib kolmadilar. Gabsburglarning uruglari Ispaniyani xam idora kildilar. Ispaniyadagi Gabsburglar avstriya – german Gabsburgalarini kullab-kuvvatlar edi. Karl Vning

dunega xokim bulish ishtiyoki Filipp II ga xam meros bulib utgan edi. Filipp III zamonida Ispaniya zaiflashib koldi. Shu sababdan u vaktda boshka mamlakatlarga va ichki dushmanlarga karshi kurashda ispan Gabsburglari bilan Avstriya Gabsburglarining kuchlarini birlashtirish goyat kuchli masala bulib kolgan edi. Germaniyani birlashgan, markazlashgan davlatga aylantirilishini muljallar edi. Ammo bu vazifaning uddasidan chikib bulmadi. Mamlakat iktisodiy tushkunlikni boshidan kechirayotgan, shaxarlar iktisodiy jixatdan zaiflashib kolganligi tufayli ularning ijtimoiy va siyosiy roli pasayib ketgan, krepostnoylikning usishi tufayli feodalarning ta'siri kuchaygan bir sharoitda mamlakatni birlashtirish ishi ayniksa kiyin va murakkab vazifa edi. Bundan tashkari, Gabsburglar fakat Germaniyani uzlariga buysundirish masalasi bilangina mashgul emas edilar. Ular XVI asr oxirida xam, XVII asr boshida xam uzlariga kushni mamlakatlarga nisbatan agressiv siyosatni davom ettirdilar. Ular XVII asrda sanovt va savdo-sotigi tarakkiy kilgan bir kancha yevropa mamlakatlarini, shu jumladan. Gollandiya, Angliya, Fransiya, Daniya, Shvesiyani uzlariga karshi kilib kuydilar. Nemi protestant knyazlarining uzlari xam imperatorga karshi kurashda Germaniyadan tashkari ittifokchilar kidira boshladilar. Ichki ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar goyat murakkab bulgan tashki xalkaro munosabatlar bilan chirmashib ketganligi tufayli germaniya vayron kiluvchi Uttiz yillik urush maydoni bulib koldi. Bu rush uning mavjud siyosiy tarkokligini yanada kuprok mustaxkamladi.

Germaniya katoliklar reaksiyasi Karlning dastlabki taxt vorislari – Ferdinand I (1555-1564) va Maksimilian II (1564-1576) davridayok katta muvaffakiyatlarga erishdi. Ammo Karl V dan keiyn uchinchi bulib xukmronlik kilgan imperator Redolf II (1576-1612) vaktida reaksiya ayniksa kuchayib ketdi. Katliklar Bovariyasida xam ular uya kurgan edilar. Katlklar protestantlarini Reyn viloyatlaridan muvaffakiyat bilan sikib chikara boshladilar. Katliklar reaksiyasi Garbiy-shimoliy Germaniyaga kirib bordilar. Tugri, Gabsburglar yirik va mayda feodal yerlarining german konfederasiyasigagina boshchilik kilar edi. Ularning avvalgidek xozir xam umumimperiya boshkarma organlari va sudlari, umumimperiya moliyasi (soliklar) yuk edi. Germaniyani aslida idora kiluvchi ular emas edilar. Lekin Gabsburglarning kuchi uzlariga meros kolgan juda keng yerlarga egalik kilishda edi. Bu yerlardla kisman nemislar, kuprok esa slavyanlar, vengerlar, italyanlar va boshka xalklar yashardi.

Ittifok va liga tuzilishi bilan bu ikki lagerning bir-biriga dushmanlik munosabati shu kadar keskinlashdiki, ular urtasida 1610 yildayok urush boshlanishi mumkin bulib koldi. Birok. Genrix IV Fransuzskiy ulimi tufayli urush bu urtada boshlanmay koldi, chunki ittifok a'zolari undan yordam olish umidida edilar.. Urush Rudolf II ning taxt vorisi imperator Matvey (1612-1619) davrida boshlandi. Chexiyada yuz bergan vokealar urushning boshlanib ketishida katta rol uynadi.

**Nazorat savollari:**

1. Buyuk geografik kashfiyotlarni esga tushiring?
2. Germaniyadagi iktisodiy tushkunlikning asosiy omillari nimalardan iborat edi?
3. Siyosiy tarkoklik nima uchun kelib chikdi?
4. Gabsburgalarning Yevropada tutgan urni?
5. Germaniyaning tushkunlikka tushish okibati nima buldi?

A) Nemis savdo-sotigi tushkunlikka yuz tutdi.
V) Savdo yullari uzgarib ketdi.
S) Ganza ittifoki tamomila barod buldi.
D) Germaniya agrar mamlakatga aylanib koldi.
Ye) Barcha javob tugri.

6. Siyosiy tarkoklik kaysi asrlarda avj oldi?

A) XVI asrda
V) XVII asrda
S) XVII asr oxirida
D) XV asrda
Ye) XVIII asrda

7. Gabsburglarning asosiy maksadi nimalardan iborat edi?

A) Germaniya ustidan xukmronlik urnatish.

V) Germaniyani birlashgan, markazlashgan davlatga aylantirish.
S) Uzining meros yerlariga ega bulish.
D) Gabsburglarning kuchlarini barlashtrish.
Ye) Barchasi tugri.

**2-asosiy savol:**

2. 1526 yildan keyingi davrda Chexiyaning gabsburglar tomonidan istilo kilinishi va Daniya va Shvesiyaning urushga kirishi. Rus davlatining pozisiyasi.

**Maksad:** 1526 yildan keyingi Chexiyaning ijtimoiy xayotini tushuntirish, Chexiyaning gabsburglar tomonidan bosib olish shart-sharoitlarini kursatish va Uttiz yillik urushning «chexiya-pfals davri» deb atalishi sabablarini ochib berish. Daniya va Shvesiyaning urushga kirishi sabablarini aniklash xamda Rus davlatining pozisiyasiga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadalari:**

2.1. 1526 yildadan keyingi Chexiyadagi ijtimoiy axvolni aytib beradi.
2.2. Chexiyaning gabsburglar tomonidan istilo kilish sabablarini tushunadi.
2.3. Uttiz yillik urushdagi «chexiya-pfals davri» deb atalishi sababini ochib beradi.
2.4. Daniya va Shvesiyaning urushga kirish shart-sharoitlari aniklaydi.
2.5. Rus davlatining pozisiyasiga baxo beradi.

**2 – asosiy savolning bayoni:**

Chexiya 1526 yilda yana imperiya sostaviga kirdi va u Gabsburglar xonadonining meros yeri deb xisoblana boshlandi. Chexiya Gabsburglar sostaviga kirayotganida chexlarga ularning avtonomiyasini, chex seymini, davlat tili sifatida chex tilini va milliy cherkov sifatida chexlarning islox kilingan cherkovini saklab kolish va'da kilingan edi. Amalda esa Gabsburglar bexayolik kilib, uz va'dalarini bajarmadilar. Vena xukumati chexlarning davlat idorasi ishlariga bevosita aralashadigan buldi. Chexiyaga nemis amaldorlari yuborilardi. Nemis dvoryanlari chexlarning yerlarini sotib olardilar. Chexiyaga iyezuitlarning sukulib kirishi natijasida bu yerda kotolisizmning tiklanish masalasi kundalang bulib kolgan edi. «Chex birodarlari» jamoalarinii ayniksa kisar va uning faoliyatini xar kanday yullar bilan cheklardilar. Guschilikning eng jiddiy ta'siri XVI asr Chexiyasida ana shu jamoalarda saklanib kolgan edi.

1547 yilda seymning oppozision tarzdagi chikishidan keyin uning xukuklari yana xam kamaytirilgan edi. Jumladan, shaxarlik, (meshchan)larning vakillari seymga butunlay deyarli kiritimay kuygan edi. Chexiyada yuz bergan jiddiy axvol 1609 yilda kuzgolon kutarilishiga olib keldi. Pragada Gabsburglarga karshi namoyishlar bulib utdi. Seym chex sosloviyelari nomidan, agar Rudolf II chexlarning siyosiy va diniy xukuklarini e'tirof kilmasa, uni uzlarining kiroli deb tanimasliklarini aytgan edi.XVII asrning yigirmanchi yillari oxiriga kelganda Chexiya iktisodiy jixatdan juda ogir axvolda kolgan edi. Savdo-sotik va sanoat orkaga karab ketmokda edi. Bu tushuknlik kisman shu vaktlarda Markaziy va sharkiy Yevropa boshidan kechirayotgan ogir axvolni aks etirsa, kisman Chexiyada Gabsburglarning idora kilish siyosatining chex millatiga karshi karatilganligi okibati edi. Shunday kilib, Gabsburglarning siyosiy va diniy zulmi Chexiyadagi inkirozning umumiy manzarasini yanada yomonlashtirirar edi. Kuzgolon 1618 yilning 23 mayida «defenestrasiya» deb atalgan narsadan boshlanib ketdi.

1621 yil 21 iyunda Pragada kuzgolon raxbarlaridan 27 kishi, shu jumladan, uchta shaxarlik umum oldida jazolab uldirildi. 1627 yilda Praga seymida Mayestat tagatilishi rasman e'lon kilindi. Chexiyada katoliklar cherkovi tamomila tiklandi. Nemis tili birdan-bir davlat tiliga aylandi. Xamma yerda chex amaldorlari urniga nemis amaldorlari utirib oldi. Kuplab chex yerlari musodara kilindi. Avstriya Gabsburglarining Chexiyaning tor-mor kilishi va ispanlarning Pfalsni bosib olishi Uttiz yillik urushning «chexiya-pfals davri» deb atalgan birinchi davrining okibatlari edi. Katoliklarning galabasi musodara kilingan cherkov yerlaridan tashkil topgan pretestant knyazlar mulkini xavf ostiga kuydi. Imperatorning galabasi 1624 yildan beri boshida kordinal Rishelye turgan Fransiyani xam tashvishga solib kuydi. Shunday kilib, imperator bilan knyazlar urtasidagi, katoliklar bilan protestantlar urtasidagi, gabsburglar bilan Chexiya urtasidagi munosabatlariga doir ichki masala chet ellarga xam katta ta'sir kursatdi.

Daniyaliklarga karshi uz kushinini tashkil etish uchun Ferdinand II ning yetarli mablagi yuk edi. katoliklar ligasining kushini ozgina bulib, uni xam tuldirish kerak edi. Shundan keiyn imperator kushin tashkil etish tugrisida boy dvoryan Alberx Vallenshteyn (1583-1634) ga murojaat kildi. Vallenshteyn asli chex bulsa xam, batamom nemislashib ketgan va chex dvoryanlarining yerlari musodara kilingan vaktda kup yer, urmon, kon va shu kabilarni sotib olagn edi. Birok katoliklar lagerining galabasi bu lager raxbarlari urtasidagi nizo-janjallar tufayli bushashib ketdi. Liganing yulboshchisi Maksimilian Bavarskiy va boshkalar Vallenshteynni yomon kurar edilar. Ularning talabiga muvofik 1630 yilda Vallenshteynni iste'foga chikartishga va uning kushinini tarkatish tugrisida buyruk berishga majbur buldi.

Gabsburglarning yangi galabasi Fransiyani imperatorga karshi kurashda yangi ittifokchi kidirishga majbur etdi. Shvedlar kiroli Gustav Adolf (1611-1632) Fransiyaga ana shunday ittikchi buldi. Rishelye shved kiroliga katta subsidiya berdi. Ammo urushga aralashish uchun Gustav, Adolfning uzida xam ancha vaj bor edi. Imperatorning Daniya ustidan kozongan galabasi va Vallenshteyn bilan Vena saroyining Shimoliy va Baltika dengizlarida kuchligerman floti barpo kilish tugrisidagi rejasi Gustav Avgustni jiddiy tashvishga solib kuydi. Bundan tashkari, shved feodallari allakachonlardan beri yangi yerlar bosib olishni niyat kilib yurardilar. Fransiya uz tomonida kupgina ittifokchilarga ega bulgani xolda Germani yabilan Ispaniyaga karshi urush boshladi. Urushni davom ettirayotgan Shvesiyadan tashkari, Gollandi, Savoyya, Venesiya, Vengriya, Fransiya tomonida edi. Polsha Fransiyaga dustona xayrixox bulib, betaraflik saklashni bildirdi. Urush xarakatlari fakt Germaniya territoriyasidagina emas, balki Ispaniyada, ispaniya Niderlandiyasida, Italiyada va Reynnning xar ikki kirgogida olib borildi. Shunday bulsa xam birinchi davrda ittifokchilar muvaffakiyat kozona boshlamadilar. Ittifokning uzi sostavi jixatidan uncha mustaxkam emas edi.

XVII asrning birinchi yarmi va urtalari mobaynida Polshada feodal anarxiya tobora kuchayib bordi. 1652 yildan Polsha seymida urnatilgan («Erkin veto») deb ataladigan tartibga kura seym karorlari bir ovozdan kabul kilinishi kerak edi. Loakal bir deputat karorga karshi norozilik bildirsa, Bu karor kabul kilinmasdi. Seym bunday sharoitda konun chikarish faoliyatini deyarli tuxtatib kuydi. Mamlakatda doimo gox ochik, gox yashirin uzaro urush bulib turdi. Bu esa uning iktisodiy va madaniy rivojlanishiga juda katta zarar yetkazdi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. XVII asrning 20 va 40 – yillarida panlarga karshi kurashda kim boshchilik kildi?.

A) Kosinskiy.
V) Pavel But.

S) Bogdan Xmelniskiy.
D) Sigizmund III
Ye) Yasko Ostryanin

2. Rossiya-Polsha urtasidagi urush nenchanchi yillar oraligida davom etdi?
A) 1655-1666 yillar.
V) 1654-1660 yillar.
S) 1666-1700 yillar
D) 1654-1667 yillar.
Ye) 1655-1667 yillar.

3. Usha davrda Polshadagi xalk xarakatlarining vujudga kelish sababalarini aniklang?
A) Ogir krepostnoylik zulmi va polyak dexkonlarining xukuksizligi.
V) Krepostnik polyak panlariga karshi kattik norozilik va dushmanlik boshlangan edi.
S) Kreposnoy xukuk kuchayib bormokda va tobora umumiy tus olib, dexkonlar ommasining axvolini ogirlashtirdi.
D) Soliklar turining kupayib ketdi.
Ye) Sigizmund III ning kattik siyosati natijasida.

4. Koska Naperskiy kuzgoloning asl moxiyati nimada edi?
A) Krepostnoylik xukukini tamomila tugatish va butun yerni dexkonlar kuliga berish.
V) Butun ommani uz xukmronligi ostida birlashtirish va uz davlatini tuzish.
S) Dexkonlarni xukuksizlantirish.
D) Polshaning yagona kiroliga aylanish.
Ye) Panlarning tobora kuchayiyib ketayotgan zulmini yuk kilish va soliklarga chek kuyish edi.

**Talabalar uchun mustakil topshiriklar:**

1. XVI asrlarda Polshaning iktisodiy tarakkiyoti va krepostnoylikning kuchayish sabablarini aytib bering?
2. Polyak shaxarlarining evolyusiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Usha paytdagi Polshaning siyosiy tuzumi xakida nimalarni bilasiz?
4. Kirol xokimiyat va XVII asrning ikkinchi yarmida Polshadagi feodal anarxiyaning kuchayish sababalari.

**Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:**


1. Urta asrlar tarixi V.F. Semenov. T.,-1973. 576-585 betlar.
2. Xrestomatiya po istorii srednix vekov (Pod.red. N.P. Grasiznskogo i S.D. Skazkina. 3-yeizd. M. Nauka 1966.
3. Istoriya srednix vekov ( Pod.red. Z.V.Udalsovoy i S.P. Karpova. 1-2 ch. M., Vыsshaya shkola. 1991.

**16 - 17. Mavzu: XVI-XVII asrlarda Shvesiya**

Ajratilgan soat: 4

**Asosiy savollar:**

1. Shvesiyaning Daniya xukmronligidan ozod bulishi. Shvedlar reformasiyasi
2. XVI-XVII asrlarda Shvesiyaning iktisodiy tarakkiyoti
3. XVI-XVII asrlarda Shvesiyaning tashki siyosati.
4. Shvesiyada sosial ziddiyatlarning keskinlashuvi.

**Mavzuga oid tayanch tushincha va iboralar:** Kalmar, uniya, Stokgolm fojeasi, Sture, milliy shved sulolasi, shved dvoryanlari ruxoniylari, graf, baron, nerke kuzgoloni, reduksiya.

**1-asosiy savol:**

Shvesiyaning Daniya xukmronligidan ozod bulishi. Shvedlar reformasiyasi.

**Ukituvchining maksadi:** XV-XVII asrlardla Shvesiyadagi ijtimoiy xayo bilan tanishtirish, Gustav Vazaning idora kilishda uning reformalrini ochib berish va dexkonlar kuzgolonga baxo berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

1.1. Shvesiyaning ijtimoiy xayotini biladi.
1.2. Shvesiyaning idora kilinishi va reformasiya xakida ma'xlumotga ega buladi.
1.3. Shvesiyaning Daniya xukmronligidan ozod bulish omillarni tushunib yetadi.
1.4. Shvesiyadagi kuzgolonlarning sabablari va okibatlariga baxo beradi.

**1 - savolning bayoni:**

Shvesiyada Kalmar uniyasidan norozilik XVI asr boshlarida Daniya oldi. Bu xukmronligiga karshi keng milliy xarakat tusini oldi. Bu xukmronlikka karshi dushmanlik ruxi Shvesiyada tobora kuchaymokda edi. shimoliy va Baltika dengizlarida daniyaliklarning savdo-sotik ishlari kengaya borgani sari Daniya xukumati Baltikabuyida yanada kuprok mustaxkamlanib olishga xarakat kilar va Shvesiya xududini Daniyaning shimoliy-sharkidagi ta'sirini kuchaytirish uchun zarur baza deb bilar edi.

Daniya kiroli Kritian II (1513-1523y) bu masalada ayniksa katta planlar tuzdi, u zaiflashib kolgan ganzaning urnini Daniya bosadi va Baltika dengizida savdo-sotik ishlarini tamomila uz kuliga kiritib oladi, deb xayol kilgan edi. Daniya kushinlari 1520 yilda Stokgolmni bosib oldilar, Sture xonadoni regentligi tugatildi, shved dvoryanlari, ruxaniylari va shaxarliklarining kupgina nomoyandalari uldirildi, daniya xokimiyatiga oppozision kayfiyatda bulganlardan jami 100 dan kuprok kishi kirib tashlandi. Daniya feodallarining shved milliy oppozisiyasiga nisbatan kilgan bu kirgini Shvesiya tarixida "Stokgolm fojiasi" (1520 yil noyabr) deb ataladi. Ammo daniyaliklarning bu terrori milliy xarakatning yanada kuchayishiga sabab buldi, xolos. Mamlakatning turli joylarda dexkonlar, shaxarliklar, urta va mayda dvoryanlar Daniya xukmdorlariga karshi bosh kutardilar. Shvesiyaning togli rayoni bulgan Delekarliyada milliy xarakat ayniksa keng va kat'iy tus oldi, bu yerda dexkonlar otryadlar tuzdilar va bu otryadlar daniyaliklarning kushinlarini muvaffakiyatli ravishda surib chikardilar.

Urta dvoryanlardan chikkan Gustav Vaza butun milliy xarakatga boshchilik kilib, mamlakatdagi barcha kuchlarni: dvoryanlar, shaxarliklar va dexkonlarni bir kancha vaktgacha umumiy bir milliy front kilib birlashtirib turishga muvaffak buldi.Milliy xarakat galaba bilan tugadi. Shvedlar Skandinaviyasining eng janubiy kismidagina daniyaliklar bir necha viloyatni uz kullarida saklab koldilar. 1523 yilda Gustav Vaza Stokgolm shaxriga tantanali suratda kirib borib, Kalmar uniyasini bekor kildi va Shvesiyani mustakil deb e'lon kildi. Uning uzi Shvesiyaning kiroli kilib saylandi (u 1523-1560 yillarda xukmronlik kildi); Gustav Vaza asos solgan "milliy" shved sulolasi bundan keyingi asrlarda Shvesiyanigina emas, balki XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrda kuшni Polshani xam idora kildi. Avvalboshda yangi shved xukumatining axvoli juda ogir edi. Mamlakat daniyalik zulmi va uzokka chuzilgan ozodlik urushi tufayli xonavayron buldi. Sanoat va savdo-sotik ishlari kasod buldi. Xazinada pul kolmadi. Maxkamaning 1527 yilda kirolga yozgan dokladida bunday deyilgan edi; "Sizning kasr va kal'alaringiz vayron bulib yotibdi. Kirolning daromadlari tamoman sarf bulib ketgan.

Reformasiya va sekulyarizasiya kilish yuli bilan bu mushkul axvoldan kutilish chorasi tpildi. Shvesiyadagi katolik cherkovi boliklarning xatto dvoryanlar orasida xam allakachon burdi ketgan edi, chunki eng kuzga kuringan yepiskoplar shved milliy doiralari bilan emas, kuprok Daniya kiroli bilan alokada edilar. Germaniyada utkazilgan reformasiya bu yerda xam alakachonlar xavas kuzgatib kuygan edilar. Shuning uchun 1527 yildayok Shvesiyaning Vestorosdagi seymida Shvesiyada xam reformasiya kilingan injilchilar cherkovi urnatish, cherkov yerlari sekulyarizasiya kilish masalasi asosan xal kilingan edi. Shvesiyada uzul-kesil islox 1536-1539 yillarda utkazildi. Angliyadagi kabi Shvesiyada xam sekulyarizasiya kilish natijasida kirol va ayniksa dvoryanlar boyib ketishdi, chunki sekulyarizasiya kilingan mulklarning kup kismi dvoryanlar kuliga utdi.

Uzining moliyaviy axvolini mustaxkamlash uchun Gustav Vaza yana bir kancha boshka tadbirlarni xam kurdi. U 1542 yilda maxsus farmon chikarib, kirollikdagi ishlanmay bush yotgan barcha jamoa yerlarini uz mulki deb e’lon kildi. 1551 yilda chikarilgan farmonda barcha yer osti boyliklari, ya’ni Shvesiyada juda kup bulgan xar xil konlar kirol mulki deb e’lon kilingan edi. Dvoryanlar xukumatining yer masalasidagi siyosati dexkonlarning axvolini yomonlashtirib kuydi. Ilgari cherkovga karashli bulgan yerlarni uz kullariga kiritib olgan yangi yer eralari barshchina va obrokni kupaytirdilar, xamda erkin va yarim karam bulgan dexkonlarni mumkin kadar krepostnoy kilishga xarakat kildilar. Bu xol, shuningdek dexkonlar ixtiyoridagi yerlarning tortib olinishi xam dexkonlarda kattik norozilik tugilishiga sabab buldi. Bir vaktlar daniyaliklarga karshi kurashda karor topgan milliy fronti tarkalib ketib, uning urniga maxalliy (shved) feodallariga karshi va kirol xukumatiga karshi dexkonlar kurashi boshlanib ketdi.

30 va 40-yillarda Shvesiyada dexkonlarning bir necha marta katta kuzgolonlari buldi. Bu kuzgolonlardan eng mashxurlari: Dalekarliyada bulgan 1526-1533 yillardagi kuzgolon: Ost-Gollanddagi 1538 yilgi kuzgolon va dexkonlarning 1536-1543 yillarda bulib utgan janubiy shved xarakatidir. Janubiy, shved xarakati vaktida urmonlarda juda kup "urmon axli" dan otryadlar uyushtirilib, bu otryadlarga kushilgan kishilarning soni mingga yetgan edi. Pirovard natijada bu kuzgolonlarning xamasi bostirildi. Kirolning moliyaviy ishlari yaxshilangandan keyin xukumat katta yollanma armiya saklash imkoniyatiga ega buldi va bu armiyadan dexkonlar xarakatini bostirish uchun foydalandi. Asosan dexkonlardan tashkil topgan kirol armiyasiga sekin-asta dexkonlarning eng aktiv elementlari kushila bordi va shunday kilib, dexkonlardan oppozisiyasiga raxna solingan edi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. XVI asrlarda boshlangan milliy xarakat kimdan norozi edi?

A. Kalmar unichsidan.
V. Daniya kiroli Kristian II dan
S. Gustav Vazadan.
D. Shvedlardan.
Ye. Gustav I dan.

2. Milliy xarakatga kim boshchilik kildi?

A. Gustav Vaza.
V. Kristian II.
S. Karl X.
D. Gustav Adolf.
Ye. Karl XI.

3.

**2 - asosiy savol:**
XVI-XVII asrlarda Shvesiyaning iktisodiy tarakkiyoti.

**Ukituvchining maksadi:** Shvesiyaning iktisodiy tarakkiyoti bilan tanishtirish, chet davlatlar bilan savdo-sotikning yulga kuyilish shart-sharoitlariga baxo berish.

**Ilentiv ukuv maksadlari:**
2.1. XVI asrlarda Shvesiya ekonomikasining bir kancha muvaffakiyatlarga erishish sabablarini biladi.

2.2. Shvesiyada manufaktura tipidagi sanoat korxonalarining kirib keliga sabab bulgan omillarni ochib beradi.

2.3. Chet davlatlar bilan savdo-sotik alokalarin yulga kuyilishiga baxo beradi.

**2-asosiy savlning bayoni:**

XVI asrda Shvesiya ekanomikasibir kancha muvaffakiyatlarga erishdi. Kishlok xujaligining (asosan janubiy va janubi-sharkiy tumanlarida) tovar maxsuldorligi ortishi bilan birga, mamlakat sanoati - temir, mis, kumush, kalayi kazib chikarish, kurolsozlik, yogoch tilish va kogoz sanoati, muyna ishlash, kemasozlik xam tarakkiy kilmokda edi. Gustav Vaza Germaniyadan juda kup konchilar va metalsozlar chakirib keltirib. Yogoch tilish korxonalari va shaxtalarda XVI asrning ikkinchi yarmidayok togdagi daryolar, soylar va shalolalarning kuvvatidan keng foydalanardilar. XVII asrda Shvesiyad xar xil kurol-yaroglar ishlab chikarilardi. Ishlanmagan temir va undan tayyorlangan xar-xil buyumlar shvedlarning chetga chikaradigan mollari ichida asosiy urin tutardi. Shunisi xarakterliki, XVI-XVII asrlarda Shvesiyada manufaktura tipidagi sanoat korxonalarining kupincha dvoryanlarning uzlari tashkil kilar edilar. Bu esa kisman usha davrda Angliyadagi mayda dvoryanlarning korxona egalari bulishini eslatardi. Shvesiya, Angliya, Fransiya, Niderlandiya, Germaniya, Daniya, Polsha va Rossiya bilan kizgin savdo-sotik ishlari olib borardi. Kupgina shaxarlar - Stokgolm, Kalmar, Upsala, Abo, Xelsinki va boshkalar muxim savdo markazlari bulib kolgan edi. Okean nari yogidagi mamlakatlar bilan savdo-sotik ishlarini olib borish uchun Shvesiyada 1627 yilda "Janubiy kompaniya" tashkil kilingan edi. 1668 yilda Shvesiyada davlat banki tashkil kilindi, bu Yevropada eng ilk ochilgan banklardan biri edi. Lekin Shvesiya sanoati juda xam bir yoklama tarakkiy etgan edi. Asosan kazib chikaruvchi sanoat tarkkiy topgan bulib, metallsozlik sanoati kisman rivojlangan edi.

Shvesiyaning XVII asrdagi eksporti asosan xom ashyodan va yarim xom ashyodang iborat edi, ya’ni chet ellarga temir, mis, xar xil turdagi yogoch, yog, balik, muyna va shu kabi narsalar chikarilar edi. Gazmol (movut, polotno va x.k.), yukori nav metall buyumlar va shu kabilarni Shvesiyaning uzi chet ellardan sotib olar edi. Shvesiya XVI asrda juda kup gallani, XVII asrda undan xam kuprogi chet llardan - Rossiyadan va Baltika buyi mamlakatlaridan sotib olardi. Maxalliy sanoat xom ashyo (jun, kanop va shu kabilar)ning yetishmaganligi Shvesiya sanoatining rivojlanishiga xalakit berardi. Shvesiyaning tukimachilik sanoati XVII asrda xam endi vujudga kelayotgan xolatda edi.

**3 - asosiy savol bayoni:**

Daniya xukmronligidan kutilib olganidan keyin Shvesiyaning uzi kushnilariga nisbatan keng mikyosda agressiv siyosat yurgiza boshladi. Baltika masalasi Shvesiyaning tashki siyosatida asosiy urin tutadi. XVI asrda xam, XVII asrda xam kirollik kilgan shved kirollarining tashki siyosati Baltika dengizi orkali butunlay uz kullariga kiritishga intilishdan iborat edi. Shu maksadga erishish uchun Shvesiya bu davr ichida uz kushnilari bilan juda kup urushlar kildi. Shvesiya Livoniya urushida ishtrok etib, natijada Estoniyani va Liflyandiyaning bir kismini bosib oldi. XVII asrda Rossiyaning zaiflashib kolganidan foydalanib, Shvesiya 1617 yilgi Stolbovo sulxiga muvofik Ingermanlandiya va Kareliyani bosib oldi, shunday kilib, Moskva davlatini Baltika dengizi kirgoklaridan tamomila ajratib kuydi.Garbiy Yevropa bozorlariga yuboriladigan rus mollarini Narvaga, Abo, Viborg va Revelga olib borish lozim bulib koldi. Chet el savdogarlari rus savdogarlari bilan bevosita savdo-sotik kila olmay koldilar. Rus savdogarlari uzlarining tashki savdo ishlarini Arxangelskka kuchirishga majbur buldilar, chunki bu yerga shvedlar kirib bora olmas edilar.

1629 yilda Altmark sulxiga muvofik Shvesiya Riga shaxrini, Kurlyandiyani, Sharkiy Prussiya bilan Litvaning bir kismini olib, Liflyandiyadagi yerlarini kengaytirdi. Kirol Gustav II Adolfning (1611-1632) keng kulamdagi istilochilik planlari xakida yukorida aytib utilgan edi, u baltika dengizining janubiy (nemis) kirgoklarini bosib olishni anik niyat kilib, Uttiz sillik urushda katnashgan edi. Darxakikat, Baltika dengizi "shvedlar dengizi"ga aylanganidek bulib kuringan edi. 1648 yilgi Vestfaliya sulxiga muvofik , Shvesiya Germaniyaning shimolidagi goyat muxim viloyatlarini, ya’ni Germaniyaning eng katta daryolaridan uchtasi - Elba, Vezer va Oder daryolarning dengizga kuyadigan joylarini egallagan edi. Bundan tashkari, Shvesiya Daniyaning Gotland orolini (1645 yilda) bosib olgan va Zund orkali shved kemalarining bemalol (boj tulamay) utib yurish xukukiga ega bulgan edi. XVII asr urtalarida Shvesiya

daniyaliklarni Janubiy Skandinaviyadan butunlay surib chikargan edi (1658 yilda Blikeng, Skoniya va Gollad viloyatlarining kulga kiritilishi kuzda tutiladi).

XVII asrning ikkinchi yarmida Shvessssiya uch million axolisi bulgan mamlakatga aylandi. Ammo bunda shvedlarning uzi esa bir milliondan ortik emas edi. Kolgan ikki millioni boshka xalklar : finlar, karellar, ruslar, estonlar, latishlar, polyaklar, litvaliklar, nemislar va daniyaliklar edi. Bunday xolda Shvesiyaning davlat tuzumi mustaxkam bulib kola olmas edi.

Buysundirilgan va ezilayotgan millatlar eratmi-kech Shvesiyadan ajralib chikib, etnik chikishlari jixatidan yakin bulgan, tili bir xil bulgan, shuningdek, iktisodiy va madaniy manfaatlari yakin bulgan kushni mamalkatlarga kushilib ketishga intilmay iloji yuk edi. Bunday tashkari, Shvesiyaning yuz ellik yildan ortikrok davr mobaynida Vaza sulolasidang bulgan shved kirollari amalga oshirib kelgan agressivlik, urushkoklik va ulug davlatchilik siyosatiga javoban kushni mamlakatlarning shvedlar agressiyaga karshi kurashini kuzgatardi.

Shvedar baltika dengiziga tanxo uzlari xokim bulishga intilib, Rossiya, Polsha, Germaniya, Daniyaning va Baltikaning xayotiy manfaatlariga kupol ravishda putur yetkazardilar. Shvedlarning boskinchiligiga xalakit berish maksadida xarakat boshlagan Yevropa davlatlarining ittifoki XVII asr urtalaridayok tuzilgan edi, unda Polsha, Daniya, Avstriya, Brandenburg va Moskva davlati ayni bir vaktda Shved kiroli Karl X ga karshi otlangan edilar. XVII asr oxirlarida shvedloarga karshi (Rossiya, Polsha va Daniyadan iborat) ittifok kat’iy rasmiylashdi. 1700-1721 yillarda davom etgan Shimoliy urush Shvesiyaning tamomila maglubiyati bilan tugadi va natijada u Yevropaning ikkinchi darajali davlatlari katoriga tushib koldi.

**4 - asosiy savo bayoni:**

Shvesiyaning XVI-XVII asrlardagi tarakkiyotida yuz bergan ziddiyatlar yolgiz tashki ziddiyatlardangina iborat bulib kolmadi. Mamlakat ichida sosial va siyosiy ziddiyatlar yetilib kolmokda va tobora keskinlashmokda edi. Shvesiya sanoat va savdoni rivojlantirish soxasida bir kancha muvaffakiyatlarga erishgan bulsa-da, ammo shunga karamay, bu davrda u sanoat mamlakatiga aylana olmadi. Shved shaxarlari tarakkiy etgan bulishiga karamay, Garbiy Yevropaning eng tarakkiy etgan boshka mamlakatlarining shaxarlari kabi mamlakatda katta ta’sirga ega bula olmadilar. Shvesiyaning sosial tuzumi uchun oksuyak dvoryanlarning goyat katta e’tiborga ega bulganliklari xarakterlidir.

Ular ishlanadigan yerlarning kup kismini, kupgina urmonlar, konlar, kullar va boshka xududlarni egallab olgan edilar. Xarbiy, ma’muriy va diplomatiya soxasidagi raxbarlik urinlarda xam oksuyaklar turardi. Senat, XVII asrda Shvesariyaning muntazam ishlab turadigan oliy xukumat organiga aylantirilgan ilgarigi davlat kengashi - riksrad xam usha aristokratlar kulida edi.

Aristokratlarning ta’siri Gustav Adolf davaridayok usgan va uning kizi (avval yosh bulib, sungra ulgaygandan keyin xam xech kanday mustakillik kursatmagan) kirolicha Xristiana vaktida unvonli dvoryanlar juda xam kupayib ketgan edi. Kuyida keltirilgan rakamlar buni yakkol kursatadi: 1654 yilda esa graflar 22 taga, 1632 yilda Shvesiyada 4 ta graf, ( ta baron, 321 dvoryan bulgan. XVII asr urtalarida dvoryanlar kirollikka karashli yerlarning xammasini deyarli talon-taroj kilishgan va uzaro bulishib olishgan edilar. XVII asrning urtalariga kelib, Shvesiyada kirolikka karashli xamma kulay xaydalgan utlok yerlarning kamida 70 foizi dvoryanlar kulida edi. Dvoryanlar uz yerlarida yashayotgan dexkonlardan davlat soliklarini uz foydalriga tuplash, maxalliy kishlok cherkovlariga pasportlar tayinlash, bir necha nojuya ishlar uchun dexkonlarni uzlari sud kilish xukukini oldilar. Pomeshchiklar XVI vaXVII asrlarda xam iktisodiy va yuridik jixatdan uzlariga karam bulib kolgan dexkonlarni xar kanday yullar bilan krepostnoylarga aylantirishga xarakat kilar edilar.

Shu tarzda Shvesiyada XVI-XVII asrlarda ruy bergan feodal jarayonlar uz xarakteri jixatidan "ikkinchi marta asoratga solish" deb ataladigan xamda Elbaning sharkidagi mamlakatlarda ruy bergan jarayonlarga yakinlashib kolgan edi. Okibat natijada maxalliy sharoitlar tufayli, avvalo mamlakatda yetarli darajada kulay va kenga xaydaladigan yerlar yukligi tufayli, shuningdek, tarixiy iktisodiy va siyosiy xarakterdagi boshka sabablar tufayli Shvesiyada XVI asrda xam krepostnoylik sistemasi karor topmadi. Shunga karamay asoratga solish soxasidagi tendensiyalar ancha real bulib, buning natijasida Shvesiya dexkonlarining axvoli ancha yomonlashgan edi.

Bularning xammasi utkir sosial ziddiyatlarni keltirib chikardi. XVII asrning urtalrida Shvesiyaning turli rayonlarida dexkonlarning jiddiy xarakatlari ruy berdi. 1653 yilda Urta Shvesiyadagi (Nerke viloyati)

kuzgolon ayniksa kuchli buldi. Bu kuzgolonda dexkonlar mamlakatdagi barcha dvoryanlarni yakson kilish shiorini tashladilar. Taxminan shu paytlarda karam viloyatlarda - Finlandiya, kareliyada, Baltika buyi viloyatlarida, shuningdek ilgari Daniyaga tegishli bulgan va yakinda kayta kushib olingan janubiy Shvesiya viloyatlarida dexkonlarning galyonlari bulib utdi. Mayda dvoryanlar va burjuaziya uz navbatida arstokratiyaning zuravonligidan gazablanar, xamda riksdagi (Shvesiya seymining kuyi palatasi) aristokratiya tomonidan talon-taroj kilingan kirollik yerlarining xazinaga kaytarilishini talab kilardilar.

Shvesiyada XVII asrning ikkinchi yarmidagi kirollar - Karl X va Karl X1 davrida kisman reduksiya utkazildi. Birok aristokratiya doiralari shundan keyin xam uz siyosiy ta’sirlarini yukotmadilar. Shvesiya XVIII asrning boshlarida xam umuman tipik feodal sosloviyali aristokratik monarxiyaligicha kolaverdi.

**18 - mavzu: XVI-XVII asrlarda Italiya**

Ajratilgan soat:4

Dars turi: ma'ruza.

**Asosiy savollar:**

1. Italiyada iktisodiy tushkunlikning boshlanishi.
2. Savonarolaning chikishi.Rimning talanishi.
3. Keyingi uygonish .XVI asr italyan madaniyati.
4. Neapolda Mazanyello kuzgoloni

**Tayanch iboralar:**

Iktisodiy tushkunlik, savdo va sanoat, siyesiy tarkoklik, Savonarola chikishi, «talon-taroj kuni», buyuk gumanistik madaniyat markazi, keyingi italyan Uygonish davri namoyandalari, italyan fani, Mazanyello kuzgoloni, Sisiliyadagi xarakat.

1-asosiy savol:

Italiyada iktisodiy tushkunlikning boshlanishi.

**Ukituvchining maksadi:** Italiyada iktisodiy tushkunlik boshlanishi sabablarini ochib berish, tushkunlikning savdo va sanoat soxalariga ta'sirini kursatish, Italiyadagi siyesiy tarkoklikni sharxlab berish, siyesiy tarkoklik okibatlarini kursatish.

**IDENTIV UKUV MAKSADLARI:**

1.1. XU1 asrdagi Italiyada iktisodiy tushkunlik sabablarini ochib beradi.
1.2. Tushkunlikning bujua va ishchilarga ta'sirini kiyeslaydi.
1.3. Italiya tarkibidagi tarkok yerlarni biladi.
1.4. Siyesiy tarkoklik okibatlarini kursatadi.

1-asosiy savol bayeni: 429-430 betlar

XVI asrda Italiyada iktisodiy tushkunlik boshlandi. XV asr oxirlaridayok italyan sanoatining tushkunlikka uchraganligi sezila boshladi. Xatto Italiyada Florensiya movuti urnini ingliz movuti kisman egallay boshladi. Yevropaning uz sanoati rivojlanib borganligidan italyan movuti u yerda kamrok sotiladigan bulib koldi. Angliyadan tashkari, Fransiya bilan Germaniyada xam sanoat yuksalib bordi. Niderlandiya butun XVI asr davomida savdo va kema katnovi soxasidagina emas, sanoat soxasida xam tez tarakkiy kildi.

Buyuk geografik kashfiyotlar Italiyaning Shark bilan olib borayotgan savdosiga kattik zarba berdi. Tugri, Italiyaning savdo oboroti birdaniga kamayib ketmadi. Venesiya XVI asrdagina emas, xatto XVIII asrda xam juda boy savdogarlar respublikasi bulib kola berdi. Birok, uning jaxon savdosidagi salmogi ancha pasaydi. U endi fakat Yakin Shark mamlakatlari bilangina savdo – sotik ishlari olib boradigan bulib koldi. Rivojlanib borayotgan okean mustamlaka savdosidan Venesiya butunlay chetda koldi.

Savdo va sanoat soxasidan sikib chikarilayotgan italyan burjuaziyasi bank – sudxurlik operasiyalariga tobora kuprok murojaat kila boshladi. Kapital kuyishning ikkinchi formasi – yer sotib olish buldi. Burjuaziya yer sotib olib, dvoryanlarga aylandi. Sanoat tushkunligi manufaktura ishchilariga xam ta'sir kildi. Kup ishchilar shaxarlardan yana kishlokka kuchib ketib, unda kupincha ijaraga olinganbir parcha yerda dexkonchilik kildilar, bogdorchilik, uzumchilik bilan shugullanadilar. Italiya burjuaziyasi katta yer egalariga aylangan bulsa xam, ishlab chikarishni revolyusionerlashtirish maksadini kuzlamadi. Dvoryanlar singari burjuaziya xam yerlarning teng sheriklik sharti bilan mayda dexkonlarga ijaraga berdi. Mamlakatda sanoat va savdo tushkunligi sharoitida feodal reaksiyasi tusiga kirib borayotgan feodal munosabatlar uzok vakt vaktlargacha mustaxkamlanib koldi.

Italiya XVI asrda siyosiy jixatdan ilgarigidek tarkok mamlakat bulib kola berdi. Davlatlardan kattaroklari: shimolda – Venesiya, Genuya, Milan xamda Savoyya va Pyemont gersogliklari, urta Italiyada – (1531 yilda Taskaniya gersogligiga aylantirilgan) Florensiya va papa davlati; janubida – Sisiliyani xam uz ichiga olgan Neapol kirolligi bulgan. Bundan tashkari, unlab mayda «mustakil» yerlar bulgan.

Respublika tuzumi deyarli xamma yerda monarxiya tuzumi bilan almashtirildi. Milanda kondotyer Sfors oilasi gersog unvonini oldi. Florensiyada medichilar avlodi. Toskaniya gersoglari unvoniga ega buldi. Papa oblastida papalar mutlak monarxga aylanib, ular uz chegaralarini kengaytirish uchun mumkin bulgan xamma vositalarni ishga soldilar. Aleksandr VI Borjia (1492 – 1503), Yuliy II (1503 – 1513) va Lev X Medichi (1513 – 1521) degan papalar uzlarining dabdabali xayotlari, xarbiy va diplomatiya soxasida yurgizgan murakkab siyosatlari, italyan dinastiyalari bilan shaxsiy va nasabiy alokalariga karaganda yepiskoplapdan kura kuprok dunyoviy xokim edilaryu

Mayda bulaklarga ajralib ketgan tarkok Italiya muttasil fitnalar, yashirin diplomatik makrlar, uzaro mayda adovat, janjal va urushlar maydonidan iborat edi. Bularning xammasi boshka yirik chet mamlakatlarning Italiya ishlariga aralashuviga sabab bulardi. 1494 yildan ortikrok davom etdi va fakat 1559 yilda tuxtadi. Fransuzlardan tashkari XVI asrda gabsburglar dinastiyasining vakili bulgan imperator Karl V xukmronligi ostida kolgan ispan va german feodallari xam Italiyaga bosib kirdilar.. Fransuz, ispan va german kushinlari Italiyani taladilar va xonavayron kildilar. XVI asrning birinchi yarmida xali xam kudratli bulgan Turkiya imperiyasiga karshi kurashda Venesiya katta kuch sarflashga tugri keldi.

Nokulay xalkaro vaziyat va chet davlatlarning tugridan-tugri intervensiyasi italiyani yanada kuchlirok iktisodiy va siyosiy tushkunlikka olib keldi.

**NAZORAT TOPShIRIKLARI**:

1. Italyan sanoatida tushkunlik kachon boshlanganini toping.

A. XU1 asrda
V. XU asr oxirida
S. XUP asr urtalarida
D. XU1 asr boshida
Ye. XU asr urtalarida

2. Italiyaning savdo ishlariga (nima?) ____________________ kattik zarba berdi.

3. Iktisodiy tushkunlikning ta'sirini kiyeslang:

1) burjuaziya__________________________________
2) ishchilar__________________________________
3) dvoryanlar__________________________________

4. Sanoat va savdo tushkunligi sharoitida Italiyada kaysi munosabatlar xukmron bulganini kursating.

A. Kuldorlik munosabatlari
V. Krepostnoylik munosabatlari
S. feodal munosabatlari
D. Feodal reaksiyasi tusidagi munosabatlar
Ye. Kapitalistik munosabatlar

5. Italiyaning XVI asrdagi «mustakil» yerlarini kursating:

1) shimolda:_________________________________________
2) urta Italiyada:_____________________________________
3) janubda:__________________________________________

6. Monarxiya tuzumida kimlar kayerda xukmronlik kilganini tugri joylashtiring.

1) Milanda
2) Florensiyada
3) Papa oblastida

A) Aleksandr VI Borjia, Yuliy P, Lev X
V) Kondotyer Sfors oilasi
S) Toskaniya gersoglari

**2-asosiy savol:**

Savonarolaning chikishi. Rimning talanishi.

**Ukituvchining maksadi:**

Italiyadagi fransuz urushlarining boshlanishini sharxlab berish, Savonarola shaxsiga tavsif berish, Savonarola chikishlarining talablarini tushuntirish, Savonarola chikishlari okibatlarini ochib berish, ispan-german urushini izoxlash, Rimning talanishini ta’riflab berish.

**Identiv ukuv maksadlari:**

2.1.Savonarola faoliyatini sharxlab beradi va baxolaydi.
2.2.Savonarola chikishlari okibatlarini biladi.
2.3.Rimning talanishiga baxo beradi.

**2-asosiy savol bayeni**:

Italiyada fransuz urushlari boshlangani munosabati bilan Florensiyada davlat tuntarishi yuz berdi. Fransuzlar bostiribkeladi, degan ovozalar tarkalishi bilan, xalk ommasi Medichilarning zulmiga karshi kuzgolon kutardi. Florensiyada birmuncha vaktgacha (1494 y) respublika kaytadan tiklanib turdi. Dominakanlik monax Savonarola (1452-1498) respublika ishlariga goyat katta ta’sir kursatdi. Florensiyadagi urta va xonavayron bulgan mayda xunarmandlar kayfiyatini aks ettirib, Savonarola uz va’zlarida boylarning dabdabali va turmush bekorchiligidan kelib chikayotgan be’mangarchiliklarini kattik koraladi va bir kancha mu’tadil sosial isloxatlar – daromad soligining progressiv formasini joriy kilish, kambagallarning karzlarini bekor kilish, sudxurlarni xaydab yuborish, shaxarlarda karz beruvchi kassalar tashkil etish va xakozolarni talab kildi. Savonarola Rim papasini xam kattik koralab, papa saroyiga, undagi dabdaba va boylikka la’nat ukidi. Savonarola fransuzlarni «gunoxga botgan Italiyaga» karshi « xuda yogdirgan kaxr-gazab» okibati deb xisoblaydi.

Fransuz boskinchilari uzlarining talonchiligi va jabr-zulmlari bilan tezda italyan jamiyatining xamma sinflarini uzlariga karshi kuzgatdilar. Florensiyadan tashkari yana Neopolni xam bosib olgan fransuz kiroli Karl VIII ning dastlabki muvaffakiyatlari italyan davlatlarining unga karshi birlashuviga olib keldi. Fransuzlar shoshilinch ravishda Italiyadan chikib ketishga majbur buldilar. Fransuzlarning chikib ketishi bilan Savonarolaning mavkei xam bushashdi. U 1498 yilda papaning amri bilan kamokka olindi va sud kilinib, gulxanda kuydirildi. Kochib ketgan Medichilar 1512 yilda ispanlar yordami bilan kaytadan xokimiyat tepasiga chikib oldilar.

XVI asr boshida Italiya urushkok kirol Fransisk I Valua boshchiligidagi fransuz feodallari bilan nomi tilga olingan imperator Karl V Gabsburg raxbarligida ispan-german feodallari urtasida shiddatli urush maydoniga aylandi. 1525 yilda Paviya shaxri yonida bu ikki dushman urtasida kattik jang buldi. Bu jangda Fransisk I batamom yengilib, Karl V uni asir oldi. Papa Kliment VII Gabsburglarning juda kuchayib ketishidan kurkib, imperatorga karsh Fransiya bilan Angliya ishtrokida Italiya davlatlarining koalisiyasini uyushtirishga xarakat kildi. Karl V buni bilib kolib, 1527 yilda uz kushinlarini Rimga yubordi. Papa asir olindi, Rim esa yanada shavkatsiz tarzda talandi. Un minglarcha Rim axolisi va shu jumladan, juda kup xotin-kizlar va bolalar uldirildi. Landsknextlar papa saroyi – Vatikanga kirib, uni xam taladilar va kup joylarni vayron kildilar. 1527 yil 6 maydagi «talon-toroj kuni» italyanlar xotirasida uzok vaktlargacha daxshat va benixoya katta milliy baxtsizlik kuni bulib koldi.

**Nazorat topshiriklari:**

1. Italiyada fransuz urushlari boshlangani bilan Florensiyada nima sodir bulganini kursating

A. Inkilob
V. Savonarola chikishi
S. papalar xukmronligi
D. Davlat tuntarishi
Ye. Kuzgolon

2. Savonarola kim bulganini toping.

A. Toskana gersogi
V. papa
S. dominikanlik monax
D. Fransuz feodali
Ye. Oddiy dexkon

3. Italiya XVI asr boshida ________________________________ boshchiligidagi ____________________ va _________________________ raxbarligidagi________________urtasida urush maydoniga aylandi.

4. Karl V nima sababdan Rimga uz kushinlarini yuborganini ayting.

5. «Talon-taroj kuni» deb kaysi kunga atalishini kursating

A. 1512 yil 15 avgust
V. 1525 yil 12 sentyabr
S. 1527 yil 6 may
D. 1532 yil 11 aprel
Ye. 1512 yil 9 fevral

**3-asosiy savol:**

Keyingi uygonish. XVI asr Italyan madaniyati.

**Ukituvchining maksadi:** Keyingi Uygonish davri namoyandalari faoliyatini sharxlab berish, Italiya buyuk gumanistik madlaniyat markazi ekanligini kursatish, Italiyada ilm-fan ravnakigsha xissasini kushgan allomalar xakida gapirib berish.Taplabalarda Italiyalik buyuk mutafakkirlar ijodiga kizikish uygotish.

**IDENTIV UKUV MAKSADLARI:**

3.1.Italiya buyuk gumanistik madaniyat markazi bulishi sababini tushunadi.
3.2.Keyingi uygonish davriga baxo beradi.
3.3.Uygonish davri namoyandalari faoliyatini biladi.
3.4.Italiyada ilm-fanga xissa kushgan mutafakkirlarni biladi.

**3-asosiy savol bayeni:**

Mamlakatda iktisodiy tushkunlik boshlanganiga va siyosiy vaziyatning ogir bulishiga karamasdan, Italiya XVI asrning birinchi yarmida xali buyuk gumanistik madaniyat markazi bulib kolaverdi. Utmishda tuplangan moddiy boyliklar xamda XVI-XV asrlarda yetishib chikkan olimlar, yozuvchilar, rassomlar, xaykaltoroshlar, arxitektorlar va Uygonishg madaniyatining boshka nomoyandalari xuddi mana shu vaktda eng yetuk samaralarini berdi. Florensyaning eng mashxur siyosiy arbobi N i k k o l o M a k i a v ye l l i (1469-1527) ulkan mutafakkir, tarixchi, xukukshunos va faylasuf bulgan. Makiavelli «Florensiya tarixi»ning avtori xamda kadimgi Rim tarixchisi Tit Liviy va antik davrdagi boshka avtorlar yozgan asarlarning sharxlovchisidir. Ammo u ayniksa uzining «Podshox» degan (taxminan 1512 yilda yozgan) kitobi bilan shuxrat kozongan. Makiavelli bu kitobida Italiyaning usha davrdagi ilgor sinflarining milliy birlik yulidagi intilishlarini yakkol ifodalab bergan. Makiavelli bu kitobida Italiyaning usha davrdagi ilgor sinflarining milliy birlik yulidagi intilishlarini yakkol ifodalab bergan.Mak4iavelli uz zamonasidagi italyan shaxar respublikalari siyesiy tuzumining krizisini aks ettirsa xam, respublikachilik karashlardan voz kechadi. U butun umidini monarxiyaga boglaydi va monarxiya Italiyaning tarkokligiga barxam berib, uni Ispaniya va fransiyaga uxshash markazlashgan yagona davlatga aylantrishi kerak, deb umid kiladi. Makiavelli «Podshox asarida» katta tarixiy tajribani umumlashtirdi. Makiavelli XV-XVI asrlardagi garbiy yevropa kirollari va xukmronlarining (ayniksa Fransiyadagi Lyudovik XI va Italiyadagi Sezar Borjianing) amaliy ishlarini urganib, yevropa olimlari orasida birinchi ularok uz kitobida absolyutizmni shunday bir davlat deb karaydiki, unda xukukning negizi zurlikdir, unda monarxlar xech kanday prinsiplarga yoki axlok koidalariga amal kilmaydilar, balki fakat uz manfaatlari nuktai nazaridangina ish kiladilar. Keyinchalik Makivellining «Podshox» asari Yevropadagi va xatto Sharkdagi kupgina monarxalr uchun uzok vaktgacha dasturamal bulib koldi, monarxlar uz absolyut va mustabid siyosatida Makiavellining maslaxatlarini amalda kullanib keldilar.

Keyingi Italyan uygonish davrida tibbiyot va matematika fanlari soxasida katta muvaffakiyatlarga erishildi. Mashxur Leonardo da Vinchi (1452-1519) eng ajoyib olim – injener, fizik, anatom, matematik, astronom va geolog bulish bilan birga goyat ulug rassom xam bulgan.

Leonardo da Vinchi yaratgan «Pinxoniy tanavvul», «Madonna Litta», «Jokonda» singari kartinalar Uygonish davridagi italyan san’ati dunega mashxurdir. Leonardo da Vinchidan boshka yana Mikelanjelo

Buonarotti (1475-1564), Rafael Santi (1483-1520) va Vechelo Tisian (1477-1576) kabi genial rassosmlar va xaykaltaroshar Uygonish davrining buyuk san'atkorlari bulishgan.

Mikelanjelo buyuk xaykaltarosh va rassom bulib, tavrot va antik syujetlarda juda kup asarlar yaratgan, u uzining asarlarida zavk, kuch va gayrat bark urib turgan azamat figuralarni tasvir etadi. Rafael onalik guzalligini goyat yorkin «Sikstin madonnasi» (Drezden gallereyasida saklanadi) ayniksa mashxurdir. Bu asar rasmning aloxida nafisligi va nozikligi bilan ajralib turadi.

Tisian portretlari san'atkorlaridir. Fransisk 1 va Karl V ning xam kupgina portretlarini Tisian chizgan, bu asarlar goyat chukur realistik uslubda ishlangan.

Rimdagi avliyo Pyotr sobori keyingi Uygonish davridagi Italiya arxitektura san'atining goyat buyuk yodgorligidir. Bu sobor butun asr davomida kurilgandir (1506 yilda boshlab, 1590 yilda kurilib bulgan). Uning balandligi 132 metr bulib, 15 ming kv.metr maydonni egallaydi (ayo Sofiya esa 6800 kv. metr maydonni egallaydi) Sobor Uygonish davrining arxitektura uslubida boshlanib, shundan ancha keyingi barokko uslubi elementlari bilan chatishib ketgan.

XVI asrning ikkinchi yarmida xam Italiyaning iktisodiy tushkunligi davom etdi. Italiya yangi jaxon savdo markazlaridan tobora chetlasha bordi. Gabsburglarning Valua bilan bitim tuzishi natijasida Italiya 1559 yilgi Kato-Kambreziya sulxiga muvofik uzil-kesil Ispaniya xukmronligi ostiga utadi (Neapol, Milan va boshkalar). Xorijiylarning ogir milliy zulmi xukmronlik kilgan uzok davr boshlanadi. Mamlakatning ichki savdo va sanoati yana pasayadit. Ayrim shaxarlarning axolisi bar necha baravar kamayib ketdi. Feodal dvoryanlar va klerikal elementlarining axamiyati kuchaydi. Uz pomeshchiklariga tulaydigan soliklar dastidan ezilgan dexkonlar yana buning ustiga juda kup va ogir davlat soliklari xam tulashga majbur buladilar, bu soliklardan keladigan daromad Italiyadagi mayda va juda mayda davlatlarning xaratlariga, kisman chet el feodallari foydasiga sarf kilinadi. Mamlakatda banditizm avj olib, kundalik xodsaga aylanib kolgan edi. Bu sharoitda italyan madaniyati pastlab ketadi. Mashxur italyan shoiri Torkvato Tasso (1544-1595) salib yurishlari syujetini uz ijodining mavzusi kilib oladi.

XVI asrning oxirlari va XVII asrning boshalrida yashagan domnakanlik monax Tomazo Kampanello (1568-1639) Italiyaning atokli mutafakkirlaridan biri edi. kampanenella 1600 yilda ispan Gabsburglarining zulmiga karshi Kalabriyada kutarilgan kuzgolonda katnashdi. Kampanello kuzgolon vaktida kamokka olinib, salkam 25 yil umrini xar xil turmalarda utkazdi. U turmada ekanida utopik xarakterdagi «Kuyosh shaxri» degan asarini yozdi. Kampanenalla bu asarida fan negizida va mexnatni rejali tashkil etish asosida kurilgan ideal kommunistik jamiyat tuzumini tasvirlaydi, u tasvirlagan jamiyatda xususiy mulk, tekinxurlik bulmaydi, ortikcha mexnat bilan band bulmagan kishi uz jismoniy va ma'naviy kuchlarini garmonik tarzda kamol topdirdi. Kampanellaning «Kuyosh shaxri» asari morning «Utopiya»si bilan birgalikda Yevropada sosialistik fikrning ilk rivojlanishini aks ettirgan eng ajoyib asar bulgan edi.

**NAZORAT TOPShIRIKLARI:**

1.Italyan Uygonish madaniyatining namoyandalarikaysi soxada ijod kilganlar va ularning eng mashxur asarlarini kursating:

2. Nikkolo Makiavelli- soxasi:_____________asarlari:______

1. Leonardo da Vinchi- soxasi:_______________asarlari______
2. Mikelandjelo Buonarotti
3. Vechelo Tisian
4. Torkvato Tasso
5. Galileo galiley
6. Jordano Bruno
7. Tomazo Kampanello

2.Kopernik ta'limotini targib kilgan olim kim ekanligi kursating

A. Makiavelli

V. Tisian

S. Galiley

D. Kampanello

Ye. Bruno

4. Italiyalik faylasuf olim kim bulganini ayting

A. Makiavelli

V. Tisian
S. Mikelandjelo
D.Kampanello
Ye. A va D javoblari tugri
5. Italyan madaniyati namoyandalarining ijtimoiy axvolini tavsiflang.

**4-asosiy savol:**
Neapolda Mazanyello kuzgoloni.

**Ukituvchining maksadi:** Neapol xolatini tushuntirish, Neapol nega zaif ekanligini izoxlash, kuzgolon sabablarini kursatish, Mazanyello kim bulganini ochib berish, kuzgolon okibatlarini kursatish, Mazanyello ulimidan sung xarakatni davom ettirganlarga ta'rif berish.

**IDENTIV UKUV MAKSADLARI:**
4.1. Neapoldagi vaziyatni sharxlaydi.
4.2. Mazanyello kim ekanligini biladi.
4.3. Mazanyello kuzgoloni sabablarini ochib beradi.
4.4. Mazanyello xarakati davomchilari ishini tavsiflaydi.

**4-asosiy savol bayeni:**
Ispaniyaga karam bulgan Neapol kirolligi Italiyaning boshka mamlakatlari ichida eng ogir axvolda kolgan mamlakat edi. Bu mamlakkat iktisodiy jixatdan nixoyatda zaif edi. Shaxarlari va sanoati tanazzulga uchrab, kishlok tobora kashshoklashib bordi. Ispan xukumati esa soliklarni xadeb oshira berdi. 1558 yilda 1 million 770 ming dukat barobarida soliklar solingan bulsa, 1620 yilda keng istyemol mollariga (kambagallarning asosiy ovkati bulgan meva va sabzavotga) yangi solik joriy kilinishiga javoban, Neapolda kuzgolon kutarildi. Bu kuzgolongda xunarmandlar, mayda savdogarlar va ishchilar katnashdi. 1647 yil 7 iyuldagi kuzgolon natijasida Neapol xalk ommasi kuliga utdi. Mazane'llon lakabi bilan mashxur bulgan Tomazo Anyello boshchiligida demokratik xukumat tuzildi. Shaxar rasmiy jixatdan ispan kiroliga sodik bulib koldi. Fakat uning amaldorlariga karshi xujum kilindi, xolos. Neapolni uzining karorgoxi kilib utirgan kirol noibi kuzgolonchilarga bir muncha yon berishga majbur buldi. Jumladan, xalklning ayniksa gzabini kuzgatuvchi soliklar bekor kilindi. Mazanyello shaxar lashkar boshligi, general-kapitan sifatida tanildi. Ammo, oradan kup utmay , ispan xokimlari tomonidan yollangan kishilar xalk yulboshchisi Mazanyelloni uldirdilar.
Birok Mazanyelloning ulimidan keyin xam xarakat tuxtamadi. Butun viloyat Neaopol respublika deb e'lon kiladi. Miltik ishlab chikaruvchi manufaktura bosh buldi. Neapol dvoryanlari ispanlar tomonida edi. Xarakat raxbarlari bu vaktda Ispaniya bilan urush xolatida bulgan Fransiyaga tayanib ish kurmokchi buldilar. Ular Lotaringiya gersogi Genrix Gizni korollikka taklif kildilar va u Neapolga kekldi. Lekin Fransiyaning kardinal mazarini xukumat Neapoldagi ishlar uchun yetarli darajada xarbiy kuch ajrata olmadi. 1648 yili baxorida ispan ma'murlari kushin bilan Neapolga kaytib keldilar va xarakatning demokratik katnashchilarini shavkatsiz jazoladilar. Anezzi osib uldirildi. Gersog Gizni esa turmaga kamadilar, ammo oradan kup vakt utmay, fransuz xukumatining talabiga muvofik uturmadan ozod kilindi. Yangi tuz soligi joriy kilinishi munosabati bilan 1647 yilda sisiliyada xam xukumatga karshi xuddi shunday xarakat boshlandi. Ammo bu xarakatning xar ikkalasi xam Italiya xalk ommasining chet el zulmiga karshi nafratini ifoda kilganligi jixatidan juda muximdir. Bu xarakatning xar ikkalasi keyinchalik XVIIIasda va XIX asrning birinchi yarmida butun Italiyani kamrab olgan keng milliy xarakatning uzok utmishidagi kurtagi xisoblanadi.

**NAZORAT TOPShIRIKLARI:**
1. Neapoldagi XU1 asrdagi vaziyatni ta'riflab bering.
2. Mazanyello lakabi ostida kim bulganligini kursating
   A. Jennardo Anneze
   V. Tomazo Anyello
   D. Tomazo kampanella

D. Torkvato Tasso
Ye. Karl U Gabsburg

3. Mazanyello kuzgoloni sabablarini kursating.
4. Kuzgolon okibatlariga baxo bering.
5. Mazanyello xarakatini davom ettiruvchilar faoliyatiga baxo bering.

**Adabiyotlar:**


1. Urta asrlar tarixi. V.F. Semyonov. T., 1973.
2. Dnevnik puteshestviye k dvoru Timura. Ri Gonzelesa de Klavixo. (1403-1406). M., Nauka 1990.
3. Istorii italii. V 3 t. M., Nauka.1970. T.1.


**Mustakil ta'lim va ishlash uchun savol va topshiriklar:**

1. XVI-XVII asrlardagi Itliyaning ijtimoiy xayotini gapirib bering?.
2. XVI asrlarda Italiyadagi iktisodiy tushkunlikning sabab va okibatlarini ayting?
3. Neapolda mazanyello kuzgoloning okibatlari?